TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI

TURK ZAMONAVIY SHE'RIYATI ANTOLOGIYASI

54

TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI

TURK ZAMONAVIY SHE'RIYATI ANTOLOGIYASI

54

1619317

"O'ZBEKISTON"
TOSHKENT — 2022

UO‘K 821.512.161-1
KBK 84(5Turk)-5
T 89

Tahrir hay’ati:

Xayriddin Sulton – hay’at raisi,
Ibrohim G‘afurov, Sirojiddin Sayyid, Asadjon Xodjayev,
Behzod Yo‘ldoshev, Minhojiddin Mirzo, Muhammad Ali,
Ahmadjon Meliboyev, Kengesboy Karimov, Isajon Sulton

Ishchi guruh:

Ikrom Bo‘riboyev, G‘ofur Eshmurodov, G‘ayrat Bozorov,
G‘ayrat Majid, Rustam Musurmon, Risolat Haydarova, Umid Hayitov

To‘plovchi va nashrga tayyorlovchi:

Tohir Qahhor

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2019-yil 15-oktabr kuni Ozarbayjon poytaxti Boku shahrida bo‘lib o‘tgan Turkiy davlatlar hamkorlik kengashining yettinchi sammitida tashkilotga a’zo davlatlar adabiyotining eng sara namunalaridan iborat “Turkiy adabiyot durdonalari” deb nomlangan 100 jildlik kitoblar turkumini har bir mamlakatning ona tilida nashr etish g‘oyasini ilgari surgan edi.

Ushbu ezgu tashabbus asosida birinchi bo‘lib O‘zbekistonda mana shu muhtasham adabiy majmua yaratildi.

Mazkur keng ko‘lamli, zalvorli badiiy silsilaga umumturkiy adabiyotning eng yetuk namunalari, O‘zbekiston, Turkiya, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Ozarbayjon, Turkmaniston va Vengriya davlatlarining atoqli shoir, adib va mutafakkirlarining asarlari kiritildi.

Turkiy tilli davlatlar orasida ilk bor ro‘yobga chiqarilgan ushbu yirik loyiha ona yurtimizda madaniyat va san’atga ko‘rsatilayotgan ulkan g‘amxo‘rlikning, xalqimizning qardosh xalqlar va ularning so‘z san’atiga nisbatan yuksak hurmat-ehtiromining ramzidir.

ISBN 978-9943-8725-1-6

©“O‘zbekiston” nashriyoti, 2022

XX ASR TURK SHOIRLARI OVOZI

Sharqda she'riyat hamisha adabiyotning qiyofasini belgilab, uning saviyasini aniqlashda asosiy mezon hisoblangan. Qadimiy ildizlarga ega qardosh turk she'riyatida XIX asrning so'nggi choragi, XX asrning birinchi yarmida shaklan va mazmunan keskin o'zgarishlar ro'y berdi. Tanzimot davrida (1860-1895) adabiy yangiliklar, xususan, she'riyatning yangi qiyofa kasb etishi XX asr turk she'riyatining tamal toshidir. Tavfiq Fikrat ijodi bu she'riyatni yangi pog'onaga ko'targan bo'lsa, Ahmad Hoshim, Yahyo Kamol bu an'anani munosib davom ettirib, turk she'riyati rivojlanishini boshqa o'zanga burib yubordi.

Turk adabiyotshunoslari, jumladan, Husayn Tunjer bu davrni shartli ravishda quyidagicha tasniflagan:

1. 1923–1940-yillar adabiyoti;
2. 1940–1960-yillar adabiyoti;
3. 1960–1980-yillar adabiyoti;
4. 1980-yillardan so'nggi davr.

XX asr turk she'riyatining rivoji qanday tarzda kechdi? Undagi o'ziga xosliklar nimalarda ko'rinadi? Bu kabi savollarga javob topish uchun XX asrda ijod qilgan shoirlarning ijodiy faoliyatiga qisqacha nazar tashlash joiz. Shu ma'noda o'tgan asrning 20-yillari ikkinchi yarmidan boshlangan yangilanishda Nozim Hikmat ijodi alohida ahamiyatga ega. Ilg'or jahon adabiyoti va xalq og'zaki ijodidan oziqlangan Nozim Hikmat she'rlari XX asr birinchi yarmidagi turk adabiyotida ulkan voqea bo'ldi. Uning 1929-yilda nashr qilingan "835 satr" nomli kitobi turk she'riyatida bir bomba kabi portladi (Mehmet Fuat ta'rifi). Binobarin,"Quyoshni ichganlar qo'shig'i", "Orkestr", "Yong'in", "Yonartog'", "Rodos haykali" kabi she'rlari shaklan va mazmunan tamomila yangilik edi. Mashhur adib Yoqub Qodri bu to'plam haqida shunday yozgan: "835 satr" turk she'riyati, hatto turk tilidagi inqilobning ilk satridir. U (Nozim Hikmat) turk she'riyatida yo'l ochgan bir inqilobchigina emas, balki yangi bir shoir tipidir".

Nozim Hikmatning "Buyuk insonlik" she'ridagi:

"Buyuk insonlarning tuprog'ida soya yo'q,
ko'chasida chiroq,
derazasida oyna...
Ammo umidi bor buyuk insonlikning,
umidsiz yashay olmas"

kabi misralari turk she'riyati uchun ham shaklan, ham mazmunan yangilik edi.

30-yillarning oxirida turk she'riyatida yana bir yangi to'lqin paydo bo'ldi. 1937-yilda "Borliq" jurnalida chop etila boshlagan O'rxon Vali, O'qtoy Rifat, Melih Javdat Onday she'rlari 40-yillar she'riyatiga tamomila yangi ruh olib kirdi. Uch shoir asos solgan "Uch oyoq" guruhi 1940-yilda "G'arib" to'plamini e'lon qiladi. To'plamga yozilgan so'zboshida shoirlar she'riyat haqidagi o'z qarashlarini ham bayon qilgan. "Uch oyoq"liklar uchun asosiy maqsad oddiy insonning hayoti, ichki kechinmalarini tasvirlash edi. Ularning she'rlari o'ta tumtaroqlikdan qochish, qisqa jumlalarda sodda til bilan salmoqli fikr aytishning yaxshi namunasi edi. O'rxon Vali she'rlaridan bir misol:

Nimalar qilmadik shu Vatan uchun,
Kimimiz o'ldik,
Kimimiz nutq so'zladik ("Vatan uchun").

O'qtoy Rifatning go'zal satrlari:

Shoxingizni silkitsak bizlar,
To'kiladi yerga yulduzlar ("Tut daraxti").

"Uch oyoq"lilar an'analarini Behjat Najotigil, Najoti Jumali, Sabohiddin Qudrat Aqsal kabi zabardast shoirlar davom ettirdi.

50-yillarda "Birinchi yangi she'r" shoirlar guruhi paydo bo'ldi. Bu guruh o'z vaqtida she'riyatga nimadir olib kirgan bo'lsa ham, o'ta soddalikka intilish, ayrim she'riy komponentlarni inkor qilish ularning kamchiligi edi. Bu oqimga qarshi "Ikkinchi yangi she'r" oqimi vujudga keldi. Bu shoirlar "she'rga fikr (anglam) kerak emas" degan shiorni ilgari surdilar. Bu esa badiiylikning pasayishi, tilning murakkablashishiga sabab bo'ldi.

60-yillardagi ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar adabiyotda ham o'z aksini topdi. Jamiyatdagi qusurlar, omma ichidagi muammolar xususida ko'proq yozila boshlandi. "To'plumsal", ya'ni "Ommaviy" deb nom olgan ushbu oqim shoirlarining yirik vakili Fozil Husnu Dog'larjadir. XX asr turk she'riyatida o'ziga xos o'rin egallagan shoir jamiyatdagi ishsizlik, zo'ravonlik, boshboshdoqliklar, Onado'li dehqonlarining og'ir turmush tarzi haqida yozdi. Uning she'rlarida inson erki, ruhi, odamlar qadrini kuylash ustuvordir. U shoirning jamiyatdagi haqsizliklarni ko'rib jim turishini jinoyat deb hisoblagan. Shuning uchun uning she'rlarida insoniylik pafosi kuchli. Inson o'z baxti, Vatan ravnaqi uchun kurashchi bo'lishini ta'kidlagan shoir "ko'rlar kabi qorong'udan qo'rqmas"likni uqtiradi. "Bolam, qo'shiqlar aytgin ko'chalarda, ovozing go'zalligini yo'qotmasdan" satrlari Dog'larja dunyoqarashini ifodalovchi o'rnak misralardandir. Quyidagi to'rtlik ham:

Ey qushcha, sening nolang
Quyoshga, yulduzga yetsin.
Ey qushcha, sening nolang
Ko'nglimdan sira ketmas.

Cho'lpon va Oybekning she'riyatini eslatuvchi bu to'rtlikda ham F.H. Dog'larja she'riyatidagi pinhoniy fikr, ramzning tagdorligi yaqqol seziladi. XX asrning ikkinchi yarmida ijod qilgan turk shoirlariga F.H. Dog'larja ijodining ta'siri kuchli bo'ldi.

Umuman, XX asr turk she'riyati mavzu va shakl jihatidan rang-barangligi bilan ajralib turadi. Bu she'riyatda inson qadri, ruhiy erkinlik motivlari yuqori pardada kuylanib, urushga qarshi nafrat, haqsizlik, zo'ravonlik, insonni kamsitishga isyon ruhi ustunlik qiladi.

XX asr turk she'riyatidagi modernistik ruhdagi satrlar, umuman, modernistik she'rlar turk adabiyotida G'arbning ta'sirida absurd, simvolizm, ekzistensializm kabi oqimlar ta'sirida yuzaga kelgan bo'lsa, 80-yillardan boshlab an'anaviy she'riyatga e'tibor kuchaydi (eslatish joizki, turklar zamonaviy she'riyatni ham modernistik she'riyat deb ataydi). Shu o'rinda tadqiqotchi Shermurod Subhonning quyidagi mulohazalari e'tiborga molik: "80-yillar turk

postmodern she'riyati, o'zidan oldingi salaflaridan farqli o'laroq, hech qanday G'arb adabiy oqimlariga tobe bo'lmagan, aksincha, har qanday sinfiy va siyosiy qarashlardan xoli sof she'r tarafdorlarining she'riyatidir. Bunday she'riyatning "postmodern" deb nomlanishining o'zi ham mohiyat-e'tibori bilan ma'lum bir davr yoki mafkuraga bog'lanib qolmay, zamonlar osha o'z jozibasi va ahamiyatini yo'qotmaydigan, shu bilan birga, o'zi daxldor makonning shonli tarixiy-madaniy va mumtoz adabiy an'analariga yangicha shakl va mazmun olib kirishni ko'zlovchi she'riyat hisoblanadi" (Sh. Subhon, "She'riyat iqlimi", Toshkent, 2005).

Turk postmodern she'riyatining yirik vakili Tug'rul Tanyol ham turk she'riyatining an'analariga yangicha qarashni katta muvaffaqiyat deya ta'kidlagan.

O'zbek kitobxonlari turk she'riyati, xususan, ushbu majmuaga kiritilgan ayrim shoirlar (O'.Vali, F. Dog'larja va boshqalar) ijodi bilan tanish. Chunki ilgari "Hozirgi zamon turk she'riyati" (1980), "Zamonaviy turk she'riyati" (2006), Mehmed Akifning "Safohat" (2016) to'plamlari o'zbek tilida nashr etilgan. Yangi majmuaga she'rlari kiritilgan ijodkorlar: Mehmed Akif Ersoy, Yahyo Kamol, Ahmad Hoshim, Oshiq Vaysal, Foruq Nozif Chamlibel, O'rxon Sayfi, Ahmad Hamdi Tanpinar, Javdat Qudrat, Johid Sitqi Taranji, O'rxon Vali Qonuq, Fozil Husnu Dog'larja, Melih Javdat Anday, Behjat Najotigil, Atilla Ilhon, Jamol Surayyo, Ismat O'zal va boshqalar XX asr turk she'riyatida o'z ovoziga, o'rniga ega shoirlardir.

Ta'kidlash joizki, yangi to'plam avvalgi ayrim tarjimalarning darajasiga shubha tug'dirmaydi. Aksincha, bu turk she'riyatiga qiziqishning ortishiga sabab bo'ladi. Chunki o'quvchida turli tarjimonlar ko'zi bilan qarash imkoniyati mavjud. Shu ma'noda, ushbu she'riy antologiya turk she'riyati haqidagi tasavvurimizni to'ldirib, did va dunyoqarashimizni boyitishga xizmat qiladi. Masalan, to'plamdagi "Xazon — yaproq jasadi", "Soching uzun — bahor yomg'irin davomli xush rangi", "... Qalbim ishqimning so'ng mozoridir", "Go'yo gunohlarim samoga yozmoq uchun yo'nilgan qalamlardir uzun-uzun minorlar", "Ichimni isming bilan isitaman", "Ulg'aydi yolg'izlik ko'zingda" kabi satrlarni o'qiganda dil yayrab ketadi.

Oshiq Vaysalning xalqona yo‘ldagi satrlariga e’tibor bering:

Go‘zalliging arzimas,
Mendagi bu ishq bo‘lmasa.
Ko‘ngil char joy topmasman,
Ko‘nglimdagi ko‘shk bo‘lmasa.

O‘zbek xalq qo‘shiqlariga juda o‘xshash bunday she’rlar turkiy xalqlar o‘rtasidagi ruhiy mushtaraklikni anglatadi. Majmuadagi go‘zal tashbehlarga boy she’rlar dunyoga teranroq qarashga, har bir narsadan nafislik izlashga undaydi. Ahmad Muhiyb Dironasning nozik kuzatishlari fikrimizga dalil:

Bir qush sasi kelar dudoqlaringdan;
Ko‘zlaring — ko‘nglimda ochilgan nargislar...
To‘kilgan bo‘salar dudoqlaringdan —
Oq akaslarda titragan sahar.

Niyoziy Yildirim Gencho‘sman o‘g‘lining “Kufr diyorini yuvib poklagan Movarounnahrning seli bo‘ldilar” misralari ajdodlarimizga aytilgan ulug‘ madhiya, islom olamidagi o‘rniga ishora va ta’kiddir. Yavuz Buland Boqilar dunyodagi yo‘qsul bolalarni ko‘rib yozgan “Oling bu ko‘zlarni mendan, oling bu yurakni endi. Uyalaman yashamoqdan” so‘zlari qalbingizga otash soladi, yaxshilik uchun javobgar ekanini his qiladi kishi.

O‘zga xalq adabiyoti shuning uchun ham qiziqarliki, unda kitobxon o‘zgacha qarash, yangi obrazlar silsilasiga duch keladi. Agar dunyodagi barcha xalqlar adabiyoti bir xil bo‘lganida, ehtimol, tarjimaga zarurat qolmagan bo‘lar edi.

Inson go‘zallikka intilib yashasa, atrofidagi insonlar, tabiat, voqealarga qalb ko‘zi bilan qaraydi. Har narsadan o‘zgacha ma’no topadi. Go‘zal turk she’riyati antologiyasi ham kishida ana shunday inja taassurotlar uyg‘otib, yuksak badiiyat iforidan bahramand etadi.[1]

Adhambek Alimbekov,
professor

---

[1] Maqola “Turk she’riyati antologiyasi” (Yo‘ldosh Eshbek tarjimasi, nashrga tay. Abdumurod Tilavov. Toshkent, Akademnashr, 2022) kitobidan olindi.

RIZO TAVFIQ

Rizo Tavfiq 1869-yilda Edirnadagi Jisri Mustafoposho qasabasida tug'ilgan. Otasi o'qituvchi Mehmet afandi, onasi Qofqosiyo cherkaslaridan Munira xonimdir. Rizo to'rt yoshidan o'qishga qatnagan, otasi Istanbulga ko'chgach, u dars berayotgan musoviylarning Sion maktabida tahsilini davom ettirgan. Fransuz va ibroniy tilini yaxshi o'rgangan. Otasi Izmit shahriga ishga yuborilgach, u yerda o'qigan. Ammo o'n ikki yoshida onadan yetim qolib, to'qlik va farovonlik ichida yashasa ham, ko'ngli yarimta bo'lib o'sgan. Otasi qaytadan uylanadi, Gelibo'li shahriga yangi ishga tayinlanadi. Gelibo'lida o'qigan chog'laridan u adabiyotga, she'rga oshno bo'ladi.

1887-yilda otasi uni Istanbulga olib borib, mulkiya maktabiga joylashtiradi. Bu maktabda o'qigan yillari, o'zining aytishicha, yoshligining eng porloq davri edi. U adabiyot, falsafa, tarix va dinni yanada teranroq o'rganadi. O'qituvchilari zamonning yetuk, taniqli kishilari edi. Ular talabalariga dunyoni erkin idrok etishni, hurfikrlilikni singdirardilar. 1890-yilda bir necha muallim ishdan haydalarkan, o'quvchilar bunga qarshi isyon uyushtirishadi. Rizo ham ular orasida edi. Barchasi maktabdan quviladi. Bu ham yetmaganday, shu yili uning otasi vafot etadi.

Hayot zarbalariga o'rganib qolgan, bir necha tilni bilgan, iqtidorli, zakiy Rizo Tavfiq dovdirab qolmaydi. Tib o'quv yurtiga kiradi. Siyosiy voqealarga aralashgan talabalar qatorida o'qishdan haydalay deb turganida, marshal Zakiy Posho yordami tufayli qutulib qoladi. Biroq keyinroq, chaquv natijasida, talabalar bilan uchrashuvda aytgan fikrlari sababli qamaladi. Ichki ishlar vaziri Nozim Posho ko'magida erkinlikka chiqishi bilanoq o'zini chaqqan armani kitobchini topib, boplab uradi va yana zindonga tushadi. Qamoqda ham jim yurmaydi, mahkumlarni isyonga chorlaydi. Undan qutulish uchun, boshqa qamoqqa ko'chiriladi, deya gap tarqatib, ozod

etishadi. Tag'in Zakiy Posho vositasida o'qishga tiklanadi. Qarindoshlari kengashib, biroz quyilib qolar degan umidda, Dorulmuallimot (o'qituvchilar o'quv yurti) mudirasi Oysha Siddiqa xonimga uylantirishadi.

1899-yilda o'qishni bitiradi, biroq turli ishlarga aralashgani bahona qilinib diplomi berilmaydi, Istanbuldan tashqari chiqishi ham taqiqlanadi. Ish topolmay qiynaladi. Haj yo'lchilari orasida kemada yurtdan tashqariga qochishga urinadi, ammo hukumat iskovuchlari sezib qolib, Chanoqqal'adan Istanbulga qaytadi. Birdan toleyi kulib, bojxonaga tibbiyot taftishchisi bo'lib o'rnashadi va 1908-yilgacha ishlaydi.

Talabalikdan ijtimoiy hayotga faol aralashgan Rizo Tavfiq 1907-yildan yashirin harakatdagi "Ittihod va taraqqiy" jamiyatiga kiradi. Ikkinchi Mashrutiyat (konstitutsiya, 1908) e'loni kunlarida maydonlardagi nutqlari bilan Istanbul xalqiga taniladi, saylovda Edirnadan millat vakili etib saylanadi va Millat Majlisida faoliyat ko'rsatadi. Ammo "Ittihod va taraqqiy" partiyasi siyosatini yoqtirmasdan, muxoliflarga qo'shiladi, 1912-yilda tuzilgan "Hurriyat va murosa" partiyasiga kiradi. Siyosiy kurashlarda qizishgan Rizo Tavfiq nutqlari yuzasidan ayni yilda bir oy qamoqda ham yotadi. Gumulchinada o'tkazilgan bir mitingda partiyadoshlari bilan janjallashib, qattiq kaltaklanadi. Millat majlisi tarqatilgach, yana ko'chada qoladi.

Bolqon urushidan keyin Komil Posho ko'magi bilan ishga joylashadi, dorilfununda falsafadan dars beradi. 1918-yilda partiyasi hukumatni olgach, Maorif vaziri bo'ladi. Ikki bor Davlat Kengashi boshlig'i etib tayinlanadi (1919–1920). Parij konferensiyasida (1919) Usmonli davlati hay'atiga maslahatchilik qildi, saltanat tanazzulining hujjatiga aylangan Sevr shartnomasini (10-avgust 1920) imzolashda ham qatnashdi. Xalq shartnomaga qo'l qo'yganlarni sotqinlikda aybladi, jumladan uni ham.

Rizo Tavfiq Usmonli davlatining rahbarlaridan biri sifatida milliy kurashga, Mustafo Kamolga muxolafatda edi. 1922-yilda ular hukumatga kelgach, Turkiyadan chiqib ketishga majbur bo'ladi. Qohirada, Urdunda yashaydi, Ummonda amir Abdulloh saroyida tarjimonlik qiladi (1934-yilgacha), "yuz elliklar afvi" chiqqunga-

cha Lubnonda yashaydi. Afv etilganidan bir necha yil keyin qarib, munkillab Istanbulga qaytadi va 1949-yilda vafot etadi.

Hayotlik davrida nashr etilgan asarlari shulardir: "Les Textes Houroufis" (Leyden 1909, "Hurufiya asarlari matnlari", Parij Milliy kutubxonasidagi hurufiylik risolalarining fransuzchaga tarjimasi), "Falsafa darslari" (Istanbul 1914, 1915), "Mufassal qomusi falsafiy" (Istanbul, 1914–1919), "Abdulhaq Hamid va mulohozoti falsafiyasi" (Istanbul 1919), "Umar Xayyom falsafasi" (1919), "Tavfiq Fikrat" (1943); ayrim she'rlarigina kiritilgan "Sarobi umrim" (Qibris, 1934, 1949).

Quyida shoirning Navzot Ko'sug'li tarafidan nashr etilgan 12 jildlik "Buyuk turk klassiklari" (Başlanğgıcından Günümüza Kadar Büyük Türk Klasikleri. Ötüken yay. İstanbul 1990, 10-b. 279–296) antologiyasiga kirgan, professor Sharif Oqtosh tayyorlagan ayrim she'rlari tarjimasi ilk bor o'quvchilariga taqdim etilmoqda.

Tarjimon

UCHING, QUSHLAR

Ey qushlar, uching men tug‘ilgan yerga —
Endi u tog‘larda g‘uj sunbul bordir.
O‘rmonlar qo‘ynida sap-salqin dara,
Tikanlar ichida sariq gul bordir.
Soy og‘ir oqadir, to‘lg‘unmi, bilmam,
Oy og‘ir xastami, so‘lg‘unmi, bilmam,
Baxtsiz bir kelinday mahzunmi, bilmam,
Tog‘larin boshida qora tul[1] bordir.
U yerda eng go‘zal chog‘ o‘tdi, deyman,
Eslab u kunlarni bugun inglayman,
Umrim dostonini o‘qib, tinglayman,
Ichimda u yerlik bir bulbul bordir.
Uching, qushlar, uching! Bunda vafo yo‘q!
Unday oqar suvlar, unday havo yo‘q!
Faryodimga qarshi aks sado yo‘q,
Bu yong‘in yerinda sovuq kul bordir.
Ey Rizo, dard-qayg‘ung boshingdan oshqin,
Aytsang, tuganmaydir alami ishqing,
Senda dengiz kabi har doim toshqin,
Har chog‘ to‘lqin urgan bir ko‘ngul bordir.

ONADOLI

Onadoli — Sulton Usmon o‘sgan yurt,
Tug‘rulbekning qo‘nog‘idir u ellar.
Millatimiz shunda unib, topdi qut,
Bizga ona quchog‘idir u ellar.

[1] **Tul** — parda.

Usmonlilar unutmasin so‘yi[1]ni
Bu o‘lkada oshdik hudud bo‘yini,
Bunda bo‘ldi urushlar-o‘t o‘yini,
Otalarning o‘chog‘idir u ellar.
Bu davlatga unda tamal otildi,
U maydonda jon olinib-sotildi;
Miltig‘-u to‘p otib, yo‘llar o‘tildi,
Qahramonlar o‘rtog‘idir u ellar.
Bir zamonlar qirollardan toj oldik,
Uchgan qushdan, oqqan suvdan boj oldik,
Qancha qirriq, yovuz yovdan o‘ch oldik,
Bu kuch-quvvat bulog‘idir u ellar.
Qancha g‘oziy bunda kelib-kechdilar,
U soylardan obdast olib[2], ichdilar,
Mamlakatlar fath etdilar, ko‘chdilar,
Eranlarning turog‘idir u ellar.
Har vayrona uzra bir er–askar bor,
Maqbaralar ichra necha sarvar bor;
Bilmam, qayda bunday baxtli bir yer bor?
Ulug‘ Ka’ba tuprog‘idir u ellar.
O‘rmonida turli qushlar sayraydir,
Yaylog‘ida qo‘y-qo‘chqorlar yayraydir,
Dalalarda oltin boshoq qaynaydir,
Ko‘ngillarning ovlog‘idir u ellar.
U yerlarda asl turkning aymog‘i,
Javohirdir butun toshi-tuprog‘i,
Chechak isli kumush oqqan irmog‘i,
Boylik koni — yotog‘idir u ellar.
Yurtsevarlik har turkning ishq savdosi,
Mamlakatdir kecha-kunduz ro‘yosi,
Askarlarning kelin-kuyov sarposi,
Sevishganlar chorbog‘idir u ellar.
Rizo! Bunda har kim qurbon bo‘lgandir,
Tuproq ichra yotgan onang, otangdir...

[1] **So‘y** — irq, sulola.

[2] **Obdast olmoq** — tahorat qilmoq.

Anato‘lu asil eski vatandir,
Onamizning quchog‘idir u ellar.

TAVFIQ FIKRAT RUHIGA

Eshitdim — qarovsiz mozoring cho‘kib,
O‘t-o‘lan bosibdir, ko‘rgani keldim.
Bu jannat bog‘ida duolar o‘qib,
Xokingga yuzimni surgani keldim.
Eshitdim — senga kim ko‘ngil bog‘lasa,
Qabringda tiz cho‘kib, bir dam yig‘lasa,
Murodga yetarmish... Men ham bir lahza
Yig‘lab, murodimni so‘rgani keldim.
Shu hijron yilining so‘ng bahorida,
Shudringlar titragan chamanzorida,
Kun chiqmasdan oldin, do‘st mozorida,
Motam chechaklarin tergani keldim...
Eslashdik seni g‘am chekkanlar bilan,
Ishq-u haq uchun yosh to‘kkanlar bilan.
Shu sariq g‘unchali tikanlar bilan
Toshdan bir gulchambar qurgani keldim.
Yoding o‘lim kabi bir sirri mubham!..
Sevmoq nash’asimi bu hissi alam?..
Ruhimga ne afsun aylading, bilmam...
Bu kun senga ko‘ngil bergani keldim!..

QALANDARIY

Xarobot ahlimiz. Bu bir olamdir.
Shavq ila unda dam surganlardanmiz.
Hisob so‘rma bizdan, biz hayli damdir,
Daftari a’moli turgan[1]lardanmiz.
Yurak qonin ichdik bazmi safoda,

[1] **Turgan** — to‘xtagan ma’nosida.

Jovidon zavqini topdik rizoda,
Ahdga sodiq turib vaqti baloda,
Ko‘ksin qahr o‘qig‘a kerganlardanmiz.
To‘ymas nafsimizni osdik shu dorga,
Jilmayib sar berdik Ulug‘ Sardorga,
Bir g‘amza yo‘lida diydori yorga
Jon-u bosh, ko‘ngilni berganlardanmiz.
Dars olib jononning fatton ko‘zundan,
She’rlar mashq ayladik shirin so‘zundan,
Yashirin bir yo‘ldan — botin yuzundan
Ka’bayi maqsudga kirganlardanmiz
Ishq nuri inarkan dili ogohga,
Ruh qushin uchirdik ul qurbgohga!..
Ota o‘chog‘idir, biz u dargohga
Dastursiz kirgancha yurganlardanmiz.
Tavajjuh qilmadik bobi niyozga,
Irfon-la erishdik rutbayi nozga;
Biz ham oshinomiz shabadabozga,
Pardaning ortini ko‘rganlardanmiz.
Orif bo‘lsang agar, komilga egil,
Ilming-la ovunma! Sen o‘zingni bil.
Ma’rifat bog‘idan nafaqat bir gul,
Dasta-dasta chechak terganlardanmiz.
Hey, Rizo! Orifmiz, darveshnihodmiz,
Barcha bog‘lovlardan uzildik, shodmiz!
O‘zida yo‘q mastmiz, g‘amdan ozodmiz,
Boshni mayxonaga urganlardanmiz!..

G‘ARIB HOLAT

Hasrating alami ko‘nglimdan toshar,
Hijron og‘usiga to‘lgan chog‘imda.
Sitamdiyda ruhim sening-la yashar,
Yig‘lab, sukutlarga tolgan chog‘imda.
Goh yoding tig‘ kabi zehnimni tilar,

Xoin ishq qalbimga urar panjalar,
Ruhimda ochilar oppoq g‘unchalar
Dudog‘ing mushtog‘i bo‘lgan chog‘imda.
Senga, ey, vafosiz, erka sevgilim,
Arzi hol etmoqdir totli amalim,
Biroq huzuringda tutilar tilim,
Ko‘zingga termilib qolgan chog‘imda.

TANISH GO‘ZAL

Otini bilmasdim, faqat tanirdim —
Na nozli bir chechak taqishi bordi!
Qizg‘ish sochlarini olovmi derdim,
Quyosh nuri kabi yoqishi bordi.
Kunbotar shafag‘i bayroq tikarkan,
Ko‘llarga ko‘lkalar ko‘rkam cho‘karkan,
Sochbog‘ini yechib, yoyib-to‘karkan,
Sochin to‘lqin-to‘lqin oqishi bordi.
Husnida bir ado borki, osiydi,
Meni xarob etgan u adosiydi!..
U shoir ko‘nglimning oshinosiydi —
Yuzimga bir she’rday boqishi bordi...

SHOMI G‘ARIBON

Bir oqshom ovora kezarkan qirda,
Bu yer parilar-la maskun deb bildim;
Hayrat-la boqarkan, bu vahshatzorda
Husnining asrori to‘lg‘un deb bildim.
Yurarkan, men bilan tog‘-tosh yurardi,
Har og‘och ko‘lkasi yondosh turardi,
Inondimki —meni har ne ko‘rardi,
Huzurim-la olam mamnun deb bildim.
Azaldan beridir bu xilvat hujra,

Allalar aytilgan bu salqin dara,
Sirini menga ham ochdi shajara,
Yoshligim shu yerda madfun deb bildim.
Archalar — qanotin kergan humoday,
O‘tloqlar —yulduzlar to‘la samoday,
Chechaklar — ajoyib bir muammoday!..
Ne ko‘rsam, lol qoldim, afsun deb bildim.
Oshiq bulbul erdim, dil sayrar erdi,
Sarviston ichinda kimdir kulardi,
Chechaklar qushlardan o‘pich tilardi,
Koinot ishq ichra majnun deb bildim.
Yilning tugayotgan kuz fasli erdi,
Bulut, yaproq-tuproq nafasli erdi,
Sarvilar qoraygan, qafasli erdi,
O‘ychan qoyalarni mahzun deb bildim.
Mag‘ribiy yoqmishdir furqat otashin,
Bog‘lar faryod urib chorlarkan qushin,
Tog‘larga suyangan davron quyoshin
Yarador bir xasta, horg‘in deb bildim.
Ichdim ul quyoshning oqqan rangini,
Ruhimni gulxanday yoqqan rangini,
Ufqda ko‘rarkan ol qon rangini,
Falaklar men kabi dilxun deb bildim.
Tog‘lar ko‘m-ko‘k edi, suvlar qirmizi,
Buloqlar boshida bir pari qizi...
Yuzindan o‘parkan oqshom yulduzi,
Moviy ko‘zlariga maftun deb bildim.
Cho‘llarda yongan o‘t-na’ralar bordir,
Ko‘llar qirg‘og‘ida lolalar bordir,
Uzoqdan kelguvchi nolalar bordir,
Yarador bir oh-u surgun deb bildim.
Kunning jon talashgan so‘lg‘in labidan
Go‘zallik rangini ichar Oy, chaman...
U kecha borliqni jonda ko‘rarkan,
U yerning mohtobin gulgun deb bildim...

KEL, DARVESH

Kel, darvesh, beri kel, yobonga ketma,
Har neki axtarsang, inon, sendadir.
Nafsingga behuda aziyat etma,
Maqsud Ka'ba ersa, Rahmon sendadir.
Cho'llarda tentirab, sarobga boqma,
Olloh deb bulutga — sahobga boqma,
Tolibi haq ersang, kitobga boqma,
O'qishni bilolsang, Qur'on sendadir.
Ilming-la bir qilni sen qirq yorarsan,
Ko'rganing har tushda bir o'zing borsan,
Atrofdan ne izlab, kimga qararsan?
Bu foniy qubbani qurg'on sendadir.
Qilni qirq yorishni ilm-irfon dema,
Unisi yaxshidir, bu yomon dema,
Shunisi to'g'ridir, bu yolg'on dema,
Hech birin asli yo'q, yolg'on sendadir.
Ayri ma'no berma kufr ila dinga,
Borib-kelaverma shak-ku yaqinga,
Har orif ogohdir sirri mu'binga,
Vasvasang kufurdir, imon sendadir.
Kir ko'ngil shahriga, aylan bir karra,
Qiyos et — ne erur quyosh-u zarra,
Ezgulik, yovuzlik ilkingda, qara,
Yomonlik istasang, shayton sendadir.
Jilva etsin desang kamol ila haq,
Manmanlikdan kechib, bir o'zingga boq,
"Analhaq" so'zini tildan tut yiroq,
Lofga quloq tutma, irfon sendadir.
Avvalo nafsingni chiqar oradan,
Bir rangga bo'yanma oq-u qoradan,
Ko'nglingda yaratgan nuri bor — nurlan!
Zulmatda izg'ima, Yazdon sendadir.
Eshitdim, otasiz bir o'g'ilmishsan,
Jannatda tug'ilib ham quvilmishsan,

Kasrat-ko‘plik istab, ko‘p bo‘g‘ilmishsan,
Ollohning aybi ne? Isyon sendadir.
G‘ayridan izlarsan dardingga chora,
Qurt-qushga berdingmi don-dun bir bora?
Jannatdan chiqding-u kezding ovora,
Havvoni aldatgan ilon sendadir.
Shoning ko‘p yuksakdir, netar past bo‘lsang?
Har nega topingung butparast bo‘lsang.
Bodayi ishq ila agar mast bo‘lsang,
O‘zingga kel, oshiq, jonon sendadir.
Johil jozibaga haq deya boqar,
Qo‘rqib har ins-jinsga shamchiroq yoqar,
Bu sayli havodis to‘xtamay oqar,
Ilalabad boqiy qolg‘on sendadir.
Manbayi sendadir fayzi hayotning,
Kelib-ketgan jonlar u nafohatning,
Hayron bo‘laverma, bu koinotning
Bori bir qatradir, ummon sendadir!..
Har nening borlig‘i sening o‘zingdir,
O‘zingni but ko‘rgan ichki ko‘zingdir,
Bu mulkka hukm etgan sening so‘zingdir,
Diling bir taxt erur, sulton sendadir.
Hey Rizo, toqat yo‘q haq inkoriga,
Sen mahram emishsan yor diydoriga,
Endi ogohdirsan sir-asroriga:
Olamni yaratgan vijdon sendadir.

TAVFIQ NAYZAN

Turk she'riyatida Tavfiq Nayzanning o'ziga xos o'rni bor. Uning nayidan taralgan hasratli kuylar, o'tkir qalamidan chiqqan rindona she'rlar zamondoshlarini ma'yuslantirib, dillaridagi dardlarga shifo bo'lgan; hajviyalari esa davron nuqsonlari va falak fitnalariga kulib qarashga o'rgatgan.

U 1879-yil Turkiyaning Bo'drum shahrida tug'ilib, 1953-yilda Istanbulda vafot etgan. Boshlang'ich ta'limni olgandan so'ng, forschani, Mavlono Rumiy ijodini yaxshi o'rganadi. Izmirda, Istanbulda mavlaviylik yo'lida ma'naviy tarbiyasini shakllantiradi, bektoshiylik tariqatiga kirib, darveshlik hayotini ham yashaydi. Bolalikdan nayga, she'rga ishqiboz bo'lib, usta naychi sifatida butun Turkiyada shuhrat qozonadi (Nayzan, ya'ni naychi taxallusini ham shuning uchun tanlagan). 1900-yillarda buyuk shoir Mehmet Akif bilan tanishadi, ijodidagi she'rga bilim, jiddiyat bilan yondashish yo'nalishlari qat'iylashadi. Uning adabiy va musiqiy merosi "Hech" (1919), "Muqaddas azob" (1949) she'riy kitoblari yuzdan ortiq plastinkalarda ommaga keng tarqalgan, o'zi yaratgan kuylar va nay ijrolaridan iborat. Tadqiqotchilar fikricha, turk hajviy she'riyatida u Naf'iy va Ashrafdan keyin uchinchi o'rindagi usta shoirdir. U darveshta'b ijodkor bo'lgani bois zamonasi bilan chiqisha olmagan, jamiyatdagi manfaatparastlik, munofiqlik illatlarini hech qo'rqmasdan fosh etuvchi asarlar bitgan. Uning tabiati va ijodiga xos xususiyatlar borasida so'zlaganda, uning buyruq yo iltimoslarni pisand etmaganini, o'zi istagan paytdagina nay chalganini, istagan mavzuda hajviya bitganini alohida ta'kidlashadi. Shoir ijodi bugunda ham o'z qimmatini yo'qotmaganini uning asarlari 12 jildlik "Buyuk turk klassiklari" antologiyasiga kiritilgani, elektron kitoblarda mavjudligi ham tasdiqlab turibdi. Quyida uning ilk bor o'zbekchaga tarjima qilingan she'rlarini o'qiysiz.

Tarjimon

FALAK

Yomonsan, aldading har zamon meni,
Yig‘laganlar ichra kuldirding, falak.
Majnunsan, Laylini izlab top, deya
Kimsasiz cho‘llarda qoldirding, falak.

Yo‘l boshla, deding sen, men axir ko‘r edim,
Ko‘r bo‘la turib ham nelarni ko‘rdim!
Boshimga ishtonim kiyib-da yurdim,
Hisobsiz gunohlar qildirding, falak.

Shifodir, deding-u og‘u tottirding,
Yoshlik o‘qlarini nafsiz ottirding,
Shu ko‘rlar yurtida oyna sottirding,
Boshi berk yo‘llarda o‘ldirding, falak.

Har kimsang aldadi ko‘nglimga kirib,
Erkag-u xotin-qiz birday dilfirib,
Hijron davrasida nosoz soz berib,
Nayzanga har kuyni chaldirding, falak.

1913-y.

BAYT

Qilmishimdan topdim, ey voh, go‘ngga botdi har ishim,
Boshga bovul etti falaklar, axta bo‘ldi kechmishim.

QARILIK VA YOSHLIK

Qarilik, yoshlik deb butun umrni
Ikkiga ayirib qo‘yma, bo‘ldirma!
To tirik ekanman, tik tursin u ham —
O‘zimdan oldin sen uni o‘ldirma!

PUL

Qorinlar juftlasharkan,
Havo o‘tmas oradan.
Aynimas jonon bormi,
Gapir puldan, choradan.

KELDIM

Dudog‘ingdan yong‘in chiqdi, dedilar,
Azaldan piyoda shoshib keldim men.
Olov yonoqlarin yoqdi, dedilar,
Ishq seli bo‘ldim-u toshib keldim men.

O‘chog‘ing, o‘tingga tushdim bir karra,
Chidadim har balo, jafo-yu javra,
Taqdir uloqtirdi davrdan davra,
Butun koinotni oshib keldim men.

Men senga ko‘nglimni berdim bus-butun,
Sening ishing uni yoqmoq, ey, ochun!
Senga maftun bo‘lib qolganim uchun,
Nayzanday sarhushman,
jo‘shib keldim men.

SEN

Tezak demayman seni,
Tezak tuysa, or qilar.
Tezakka zarrang tushsa,
Uni ham murdor qilar.

Asli sening xamiring
Qorilmish najosatga:

Onang tug‘ib qo‘ygankan
Borganida hojatga.

SENI KIM DEB SO‘RASAM

Seni kim deb so‘rasam, hech to‘g‘ri javob bermadilar,
Biri olchoq, biri o‘g‘ri, biri dayyus dedilar.
Telefon qildim aniqlay deya so‘ng partiyaga,
Bizdagi ro‘yxatga ko‘ra endi ma’bus[1] dedilar.

[1] **Ma’bus** — Turkiya Buyuk Millat Majlisi deputati *(tarj.)*.

RAJAB HIFZIY

Rajab Hifziy — (1893–1918) Usmonli saltanatining Qars viloyatidagi Qag'izman tumanida yashab o'tgan xalq shoiridir. Rajab Tuproqqal'a mahallasidagi madrasada ta'lim oladi, Qur'onxon hofiz bo'lib yetishadi. O'zi ham maktab ochib, bolalarni o'qitadi, imom bo'lib xizmat qiladi. Ayni paytda oshiqlar, ya'ni baxshilar yo'lida she'rlar bitadi. Uylanadi, uch farzand ko'radi. Afsuski, 1918-yil martida xotini So'na vafot etadi. Bir oy o'tgach, Sariqamish va Arzirumdagi urushda turk qo'shinlaridan qochgan armani to'dalari yo'l-yo'lakay qurolsiz musulmonlarni o'ldiradi. Ular orasida Hifziy ham bo'lgan. Atigi yigirma besh yil yashagan shahid shoirning qo'lyozmalari to'planib, turli yillarda nashr qilingan.

Shoirning ayrim she'rlari "Adabiyot gazetasi"da, "Jahon adabiyoti" jurnalida bosilgan.

Tarjimon

BECHORA BOYQUSH

Nechun, nochor boyqush, kezarsan bunda,
Yo'qmidir vataning, ellaring qani?
Xafasan, salomga alik olmassan,
Shaydo bulbul, shirin tillaring qani?
Ajal tuzog'ini ocholmasmisan?
Ochib-da ichindan qocholmasmisan?
Ozod aylasalar, ucholmasmisan?
Siniqmi qanoting, qo'llaring qani?
To'pidan ayrilsa qo'zi — falokat,
Tog'larning qush-qurti uni yer albat,
Qatordan ayrilding, bosdimi kalxat,

Turnam, qocharga o‘ng-so‘llaring qani?
Ochmisan, hech yo‘qmi ovqating, oshing,
Uying qop-qorong‘i, yo‘qmi otashing,
Hamxonang ham yo‘qmi, qani yo‘ldoshing,
Eshigingga tutash yo‘llaring qani?
Qora yerda ko‘k binafsha bitarmi?
Bahor, yozda boyqush sayrab o‘tarmi?
Bog‘-rog‘ga o‘rgangan cho‘lda yotarmi,
Uyg‘on, g‘arib bulbul, gullaring qani?
Bunda ko‘rpa, to‘shak, yostiq bormidir?
Shunday keng dunyoda joying tormidir?
Ortda tosh devor-u oldda yormidir?
Yashil boshli so‘nam, ko‘llaring qani?
Yurganding-ku so‘l-u sog‘larimizda,
Yosh bir kiyik eding tog‘larimizda,
Yangi nihol eding bog‘larimizda,
Falak butadimi, tollaring qani?
To‘yingda ko‘p achchiq sharbat ichildi,
Kelinlik libosing tormi — bichildi?
Qadab qo‘y tugmangni, ko‘ksing ochildi,
Ne bo‘ldi, kamarli bellaring qani?
Bormidir u qo‘llaringning xinosi?
Qoramidir ko‘zlaringning binosi?
Qaridingmi o‘n besh yilning so‘ngrasi?
Yo‘qmidir toqating, hollaring qani?
Ey, jigarim, och eshikni, kirayin,
Xastamisan, hol-xotiring so‘rayin,
Suvsiz qolgan bo‘lsang, bir suv berayin,
Daryolardan toshgan sellaring qani?
Yosh joningga axir ko‘zlar qiyarmi?
Ma’sum boshni tosh yostiqqa qo‘yarmi?
Bo‘y qiz oq bo‘z kiysa, shu el kuyarmi?
O‘rasang bo‘lmasmi, shollaring qani?
Har kelib-ketganda salom berayin,
Nishongoh u toshga yuzim surayin,
Ko‘tar niqobingni, yuzing ko‘rayin.

Muncha sarg‘aribsan, ollaring qani?
Yotarsan uzlatda g‘amsiz, qayg‘usiz,
Alla, bolam, alla, qolma uyqusiz;
G‘arib ham yalang‘och, ham och, ham suvsiz,
Ey, falak faqiri, mollaring qani?
Tag‘in sayrongohga chiqolmasmisan?
Chiqib shu bog‘larga boqolmasmisan?
Turg‘izsam, oyoqqa qalqolmasmisan?
Tutay, menga uzat, qo‘llaring qani?
Sen ham Hifziy kabi kechroq uyg‘onding,
Uyg‘onding-da, tosh yostiqqa tayanding,
Asli xonim misol qovrulding, yonding,
Yellar sovurdimi, kullaring qani?

MARHUMANING JAVOBI

Sendan xafamasman, amakim o‘g‘li,
O‘lim lol ayladi, tillarim yo‘qdir;
Egdi qomatimni, bukdi belimni,
O‘rnimdan turishga hollarim yo‘qdir.
Ajal tuzog‘ini ocholmas bo‘ldim,
Ochib-da ichindan qocholmas bo‘ldim,
Ozod ayladilar, ucholmas bo‘ldim,
Qanotim siniqdir, qo‘llarim yo‘qdir.
Qo‘ziydim, ayrildim suruvlarimdan,
Tog‘lar qon yig‘ladi oh-u zorimdan,
Kalxat cho‘qir qonli yara yerimdan,
To‘kildi parlarim, jilarim yo‘qdir.
Zaharga aylandi ovqatim, oshim,
O‘chog‘im buzdilar, so‘ndi otashim,
Na bir kimsam qoldi, na-da yo‘ldoshim,
Uy, mo‘ri, eshigim, yo‘llarim yo‘qdir.
Bildiring boyqushlar bundan kechganda,
Salom ayting har turnalar uchganda,
Oq, qizil gullar ilk g‘uncha ochganda,

Menga ham yo‘llangiz, gullarim yo‘qdir.
Bag‘rim hasratidan tom yonar bo‘ldi,
Qarshim jar, qo‘nalg‘am tosh devor bo‘ldi,
Shunday keng dunyoda joyim tor bo‘ldi,
Qo‘nib ham suzolmam, ko‘llarim yo‘qdir.
Sog‘liqda kezardim so‘l-u sog‘larda,
Kiyikdek sakrardim qir-u tog‘larda,
Butoq yoygan nihol edim bog‘larda,
Falak ko‘p butadi, tollarim yo‘qdir.
To‘yimda ham achchiq sharbat ichildi.
Kelinlik kiyimim torroq bichildi,
Jismimda sanoqsiz yara ochildi,
Kamar bog‘lash uchun bellarim yo‘qdir.
Qora qoshlarimning o‘smasi so‘lmish,
Qora ko‘zlarimga tuproqlar to‘lmish,
Gul rangim sarg‘arib, za’faron bo‘lmish,
So‘nmish ol yanog‘im, hollarim yo‘qdir.
Xabar aylang, qushlar tutsin azasin,
Ro‘molimga uya qursin, yayrasin;
Qo‘ymadilar to‘ldirishga ko‘zasin,
Hovuzdan ayrildim, sellarim yo‘qdir.
Men kelganda, elimizda yoz edi,
Etganimiz sho‘xlik, jilva, noz edi,
Sarpo yig‘olmadim, umrim oz edi,
Ko‘chdim — ko‘ylaklarim, shollarim yo‘qdir.
Onam meni bir qush qilib uchirdi,
Qolma, dedi, bog‘laridan ko‘chirdi,
Zolim falak charxda yanchib, o‘chirdi,
Qora kiydim, yashil, ollarim yo‘qdir.
Yor-u yo‘ldosh meni tushlarda ko‘rsin,
Ko‘rganlar xotirim, holimni so‘rsin,
Yo‘ldan o‘tgan-ketgan fotiha bersin,
Falak tilanchisi, mollarim yo‘qdir.
Bir xastaman, sayrongohga chiqolmam,
Chiqib, yorning yo‘llariga boqolmam,
Suyasang ham men oyoqqa qalqolmam,

Uzatgani nozik qo‘llarim yo‘qdir.
Men ham Hifziy kabi shoshib uyg‘ondim,
Uyg‘ondim-da, tosh yostiqqa tayandim,
Misli Asli xonim qovruldim, yondim,
Cho‘l yeli sovurdi, kullarim yo‘qdir.

CHECHAKLAR

Tag‘in ol, yashilga yerlar bo‘yandi,
Naqshlandi ming alvonga chechaklar.
Ruhim irshod bo‘ldi, ko‘nglim quvondi,
Bir jon bag‘ishladi jonga chechaklar.
Yashillanar, butoqlanar, tollanar,
Yuz ming tusda tovlanar-u sollanar,
Biri yashillanar, biri ollanar,
Biri botgay qizil qonga chechaklar.
Saharda yig‘ladi, rahmat tilandi,
Go‘zal ko‘zlarida yosh donalandi,
Kunga qarab-qarab, parvonalandi,
Oz qoldi ishqimdan yongay chechaklar.
Bag‘rimdagi xanjarmidir, o‘qmidir,
Mening dardim chechakday ko‘p, cho‘g‘midir;
Ey Tangrim, bularning dardi yo‘qmidir —
Nechun kular bu devona chechaklar?
Saf tortmish namozga, qiyom etadir,
Yel esarkan, sajdasiga ketadir,
Suvsar ekan, obirahmat yutadir,
Ko‘zin tikar ul osmonga chechaklar.
Ruhim qizil guldan isini olsa,
G‘am emas, tikani ko‘ksimni yulsa,
Qay zamon sevganim sayronga kelsa,
Salom ayting u jononga, chechaklar.
Bodi sabo sarin esar bog‘larda,
Mast bo‘lar-da, sollanar-da, yig‘lar-da...
Teran daralarda, yuksak tog‘larda
Lashkar tortmish har bir yonga chechaklar.

Sho‘x qushlar ichinda parlanar, kezar,
Xasta ko‘ngillarga darmonlar tuzar,
Har gul tomiridan oqar siym-u zar,
Arzir ming javharga dona chechaklar.
Musofirman, ko‘lkangizda qolayin,
Har yaprog‘ingizga qurbon bo‘layin,
Qo‘ying, birin uzib, sotib olayin,
Ne berayin bu gulshanga, chechaklar?
Shaydo bulbul gulni doim chorlaydir,
Sayrar yonib, yuragini torlaydir,
Qarshimizda yulduz kabi porlaydir,
Aylar meni bir parvona chechaklar.
Hikmati botin-ku chechakka zohir,
Bularning sirriga emasman mohir,
Har biri qiymatlig‘ la’l-u javohir,
O‘xshaydirlar dur, marjonga chechaklar.
Kibr etgan kofirning imoni yitar,
Bu xor-zor tuproqda, ko‘r, nelar bitar,
Topar karomatni, irshodga yetar —
Ogoh esa bir lisonga chechaklar.
Irmoqlar, soylarning tiniq suvlari,
Qushlarning sehrlik u huv-huvlari,
Yel bilan keladir gul xush bo‘ylari,
Ul jannatdan bir nishona chechaklar.
Saharda uyg‘onib, ufqqa yuzlandi,
Go‘zallar kezindi, o‘tlar izlandi,
Havo bulutlandi, quyosh gizlandi,
Yarasharmi bu tumanga chechaklar?..
Qay biri ochilmish yo g‘uncha bo‘lmish,
Birining dardi bor, sarg‘ayib-so‘lmish,
Qay biri sargardon, yot yerda qolmish,
Aylanmishdir yoy-kamonga chechaklar.
Ba’zilar issiqdan bezib, yechinmish,
Ba’zilar soyada saqlanib, tinmish,
Ba’zilar egniga alvon kiyinmish,
Xush keldingiz bu sayronga, chechaklar.

Kel, ey Luqmon hakim, kattardi yara,
Ilmi hikmat kerak, bizlarga qara,
Chechakdan topdilar o‘limga chora,
Arzir biri ming darmonga, chechaklar.
Haroratdan qizib, sal mast bo‘libdir,
Yonog‘iga yomg‘ir tomib, kulibdir,
Yulduz ko‘kdan yerga duv to‘kilibdir,
Ziynat bermish bu jahonga chechaklar.
Bul billur piyola, qoramtirdir ul,
Qanday yarashadir savsanga sunbul,
Birisi oqargan, biri qizil gul,
O‘xshar yana ko‘k rayhonga chechaklar.
Bir to‘pi oshiqdir, bazm aylar to‘lib,
Bir to‘pi kurashar pahlavon bo‘lib,
Oqar suvni icharkanlar teng bo‘lib,
Rahmat deydir u bog‘bonga chechaklar.
Bular xo‘p ochilmish, holin so‘rayin,
Ko‘zim qiymas, so‘lmay turib terayin,
Keltirib, dastasin yorga berayin,
Bir-biridan nozikona chechaklar.
Ishqsizlar chechakka neni ham aytar,
Chechakning xush bo‘yi jononga ketar,
Kecha-kundaz tinmay yig‘lar, zikr etar,
Inonadir ul rahmonga chechaklar.
Gul bo‘g‘ilar zolimlarning dastida,
O‘lim haqdir, ajal jonlar qasdida,
Do‘stlar tursin mozorimning ustida,
Topshirsinlar meni sanga, chechaklar
Biz ham sizlar kabi bir gulshan edik,
Dardi g‘am so‘ldirdi, zarnishon edik,
Zotan-ku, azaldan parishon edik,
Battar soldi parishonga chechaklar.
Men Hifziyman, suvlar kabi oqarman,
Yuragimni ishq o‘tida yoqarman,
Endi bundan keyin tinmay yig‘larman,
Yoshim ichsin qona-qona chechaklar.

BUMIDIR

Azal sayronida, jahon bog‘ida
Boshimni baloga solgan bumidir?
Kecha-kunduz hasratida yonganim,
Aqlimni boshimdan olgan bumidir?
So‘ydi, badanimda qonni quritdi,
Teshdi yuragimni, hijron yuritdi,
Et-u yog‘ni parcha-parcha eritdi,
Aylagan jismimni talon bumidir?
Tanam titraydir-u bu jonim og‘rir,
Soy oqar ko‘zimdan ko‘ksimga to‘g‘ri,
O‘zi malaksiymo, jamoli o‘g‘ri,
Ko‘z ko‘ra, ko‘nglimni yulgan bumidir?
Yorga maktub o‘qir totli tillarim,
Yozuv bilmas, qalam tutmas qo‘llarim,
Zulfin tuzog‘ida qoldi yo‘llarim,
Dardlarim tubiga tolgan bumidir?
Zavqi — huri jannat, ishqi — jahannam,
Botinimda yuz ming fikr-u dard-u g‘am,
Zohirimda so‘z va suhbat, xayli dam,
Otashi bag‘rimga to‘lgan bumidir?
Qon bo‘lib oqdi-ku jigar porasi,
Dori qabul qilmas ishqning yarasi,
Luqmon kelsa hamki yo‘qdir chorasi,
Har dardimga darmon qilgan bumidir?
Naylayin dunyoning davlat-u molin,
Yetar sevgilimning husni kamoli,
Har dam nazarimda naqshi jamoli,
Xayoli ko‘nglimda qolgan bumidir?
Hijron zulmatida nuri nihonim,
Zimiston qish ichra yoz-u bahorim,
Yig‘lama, sabr ayla, chashmi diydorim,
Bu jonimga jonon bo‘lgan bumidir?
Subh-u shom nomingni aytib, har damda
Yig‘larman, yig‘larman, ko‘zlarim namda,

Muhabbat ilmida, qafasi g‘amda,
Hifziy, seni asir qilgan bumidir?

YOR, AYLAN-AYLAN

G‘aflatda ovimni qochirdim, hayhot,
Yot ovchi emasman, yor, aylan-aylan.
Azaldan muhabbat, endi ayriliq
Ayladi jonimga kor, aylan-aylan.
Yashilbosh so‘nalar ko‘llarga tushdi,
Majnun Laylo deya cho‘llarga tushdi,
Savdo-yu sirrimiz tillarga tushdi,
Yo‘qmi nomus ila or, aylan-aylan.
Qarshimda ko‘rinib, bag‘rim ezarsan,
Yuzma-yuz kelganda qochib, bezarsan,
Ne deyin? Nechun sen chetda kezarsan?
Bilolmay, bo‘ldim-ku zor, aylan-aylan.
Bu ag‘yorligingmi, yo‘qsa nozmidir?
Cho‘lda uchgan o‘rdak va yo g‘ozmidir?
Ingranar turnalar, bahor, yozmidir?
Yog‘dirding boshimga qor, aylan-aylan.
Ishqing zanjirini bo‘ynimga taqding,
Na yo‘ldosh bo‘lding, na tashlab, uloqding;
Charchagan kiyikdek ortingga boqding,
Qochma, bir so‘rog‘im bor, aylan-aylan.
Ulfatim borida shirin til edim,
Muhabbat faslida bir bulbul edim,
Azal bog‘imizda men ham gul edim,
Endi bo‘ldim tikan — xor, aylan-aylan.
Na kunduz kunduzim, na kecham kecha,
Xayoling ko‘nglimning tugunin yechar.
Hifziyning bag‘riga urding-ku xanjar,
Har daraxt boshimda dor, aylan-aylan.

OSHIQ VAYSAL

XIII asrdan boshlangan turk tasavvuf adabiyoti oshiq she'riyatining XX asrdagi eng yirik vakillaridan biri, turkning buyuk xalq shoiri Oshiq Vaysal Shotir o'g'lidir. 1894-yilda Sivasdagi Sivrialan qishlog'ida dunyoga kelgan. O'zining aytishicha, onasi Guluzor ona Ayiqpinar yaylovida podada sut sog'ayotgan paytida sigirning oldida tug'gan va kindigini qayroqtosh bilan kesgan.

Yetti yoshligida Sivas ahlini qirgan chechak kasaliga chalingan va ikki ko'zi ham ko'rmay qolgan. Otasi Ahmad Qoracha tasalli bo'lsin deya, uni soz chalishga va baxshilikka o'rgatgan, so'ngra Mustafo Abdol takyasiga bergan. 1933-yilga qadar, qo'lga soz olib, Pir Sulton, Oshiq Karam, Kamtar Bobo, Oshiq Ali, Qorachao'g'lon va Arzirumli Imroh she'rlarini kuylagan.

Dunyoni ko'rishga ko'zlari ko'r oshiq shoir o'z huzunini she'rga sola boshladi:

Istardim hayotda dushman-la talosh,
Millatimga qurbon bo'lsaydi bu bosh.
Nasib emas ekan shahidlik, qardosh,
Imonim, niyatim menga kafildir...

1919-yilda, 25 yoshida uylanadi. Bir qiz va bir o'g'il ko'radi, o'g'il go'dagi o'n kunligida vafot etadi. Ikki yildan so'ng onasi, yana sakkiz oy o'tgach, otasi bu dunyoni tark etadi. Ko'zlari ko'r shoirga yosh bolasini tashlab, xotini ham ketib qoladi. 1921-yilda Guluzor Xonimga uylanadi va undan olti farzand ko'radi. 1973-yilda vafot etadi.

Tarjimon

QORA TUPROQ

Do‘st-do‘st, deya nechasidan aldandim,
Mening sodiq yorim qora tuproqdir.
Behuda sevindim, bekor to‘lg‘ondim,
Mening sodiq yorim qora tuproqdir.
Necha go‘zallarga bog‘lanib qoldim,
Na bir vafo ko‘rdim, na foyda bildim,
Nimani istasam, tuproqdan oldim,
Mening sodiq yorim qora tuproqdir.
Qo‘yni berdi, qo‘zi berdi, sut berdi,
Yemak berdi, nonni berdi, et berdi.
Shudgor qildim, kovladim-u qut berdi,
Mening sodiq yorim qora tuproqdir.
Odamdan to bu kun naslim keltirdi,
Menga turli-tuman meva yedirdi,
Har kun meni o‘z ustida ko‘tardi,
Mening sodiq yorim qora tuproqdir.
Qornin yordim ketmon bilan, bel bilan,
Yuzin yirtdim tirnoq bilan, qo‘l bilan,
Yana meni qarshiladi gul bilan —
Mening sodiq yorim qora tuproqdir.
Zahmat chekar edim — menga kulardi,
Bunda yolg‘on yo‘qdir — har kim bilardi:
Bir cho‘pni qadasam, bo‘ston bo‘lardi,
Mening sodiq yorim qora tuproqdir.
Havoga qarasam, havo olarman,
Tuproqqa qarasam, duo olarman.
Tuproqdan ayrilsam, qayda qolarman...
Mening sodiq yorim qora tuproqdir.
Tilaging, istaging bo‘lsa Allohdan,
Olmoq uchun uzoq ketma tuproqdan.

Jo‘mardlik tuproqqa berilmish Haqdan,
Mening sodiq yorim qora tuproqdir.
Haqiqat istarsan achchiq bir ohda,
Alloh qulga yaqin, qul ham Allohga,
Haqning gizli xazinasi — tuproqda,
Mening sodiq yorim qora tuproqdir.
Barcha aybimizni tuproq yashirar,
Malham bo‘lib, yaramizni bitirar,
Qo‘lim ochib, yo‘llarimni tuzatar,
Mening sodiq yorim qora tuproqdir.
Har kimki bo‘lolsa bu sirga mazhar,
Dunyoga tashlamas biror-bir nazar.
Kun kelar, Vaysalni bag‘riga bosar —
Mening sodiq yorim qora tuproqdir.

ISHDA HIYLA, SO‘ZDA YOLG‘ON BO‘LMASA...

Inson o‘g‘li to‘g‘ri yo‘ldan qochmasdi,
Ishda hiyla, so‘zda yolg‘on bo‘lmasa.
Turli-turli falokatga tushmasdi,
Ishda hiyla, so‘zda yolg‘on bo‘lmasa.

Istamasdi olish-berishda “san’at”,
Miyalarga joylashmasdi xiyonat,
Na zino bo‘lardi, na harom avlod,
Ishda hiyla, so‘zda yolg‘on bo‘lmasa.

Na bir yetim haqqi, na-da bir fasod,
Yonmasdi ko‘ngillar, bo‘lar edik shod.
Derdim, anglatarkan, dun edi obod,
Ishda hiyla, so‘zda yolg‘on bo‘lmasa.

Bu go‘zal suhbat-da bo‘lmasdi noqis,
Chirkin bo‘lsa miya, ochilar nafs,

Bo‘lmas na jinoyat, na o‘g‘ri, na hibs,
Ishda hiyla, so‘zda yolg‘on bo‘lmasa.

O‘rtadan ketardi gunoh, musibat,
Oshiqlarni sevar haq va haqiqat,
Har kas uchun ochiq bo‘lardi jannat,
Ishda hiyla, so‘zda yolg‘on bo‘lmasa.

Qonunda bo‘lmasdi qullarga jazo,
Bo‘lsa toza axloq va husni rizo.
Hech shubha kirmasdi ko‘ngilga aslo,
Ishda hiyla, so‘zda yolg‘on bo‘lmasa.

Yolg‘onchilar, balkim, qarshi bu ishga,
Yolg‘on oyoqdadir, chiqolmas boshga.
Yomonlik istarmi qardosh qardoshga,
Ishda hiyla, so‘zda yolg‘on bo‘lmasa.

Vaysal bu yo‘llarda sarf etar nafas,
Har kimning qo‘lida turar bir qafas.
Ming bir turli dardni chekarmi har kas,
Ishda hiyla, so‘zda yolg‘on bo‘lmasa.

DUNYODA TUGANMAS MUROD BOR EMISH

Dunyoda tuganmas murod bor emish
Na yetganni ko‘rdim, na murod ko‘rdim.
Mashaqqatning nomin havas qo‘ymishlar,
Dunyoda na lazzat, na-da tot ko‘rdim.

O‘lim bor dunyoda yo‘q erur murod,
Kundan kun ortadi turli mashaqqat.
Qolmadi dunyoda ahli qanoat,
Insonlar ichinda ko‘p fasod ko‘rdim.

No‘shirvoni Odil, qaydadir taxti?!
Sulaymon muhrini kimlarga taqdi?!
Rasuli Akramning qonuni haqdir,
Har umr so‘ngida bir faryod ko‘rdim.

Bormidir dunyoda kelgan-u qolgan,
Kulib, boshdan oyoq murodga yetgan?!
Murod-u maqsudlar — hammasi yolg‘on,
O‘limni dunyoda haqiqat ko‘rdim.

Aylanar falakning charxi — bilarmiz,
Tegirmon tortgan suv borki — bilarmiz
Vaysal nelar sotar — narxin bilarmiz,
Na mushtariy ko‘rdim, na hisob ko‘rdim.

DO‘STLAR MENI XOTIRLASIN

Men ketarman, otim qolur,
Do‘stlar meni xotirlasin.
To‘ylar bo‘lar, bayram kelar,
Do‘stlar meni xotirlasin.

Jon badandan ayrilajak,
Tutun chiqmas, yonmas o‘choq,
Salom bo‘lsin quchoq-quchoq,
Do‘stlar meni xotirlasin.

Gullar, so‘lar turli chechak,
Kimlar kuldi, kim kulajak,
Murod — yolg‘on, o‘limdir haq,
Do‘stlar meni xotirlasin.

Tong otadi, oqshom bo‘lar,
Ko‘rgin, boshga nelar kelar,
Vaysal ketar, oti qolar,
Do‘stlar meni xotirlasin...

ALLOH BIRDIR, PAYG‘AMBAR HAQ

Alloh birdir, Payg‘ambar — haq,
“Rabbil olamin”dir mutlaq
Senlik, menlik nedir bu chog‘ —
So‘ylashning keldi sirasi.

Kurd-u, Turk-u ham Cherkasi —
Odam Ato o‘g‘li, qizi.
Barobardir shahid, g‘oziy —
Yanglish bormi va nimasi?

Qur’onga boq, Injilga boq,
To‘rt kitobning to‘rti ham Haq,
Haqir ko‘rib, irq ajratmoq
Haqiqatda yuz qorasi.

Ming bir ismin biridan tut,
Senlik, menlik nedir — yo‘qot.
Tutganing yo‘lga to‘g‘ri ket,
Yo‘ldan chiqib, bo‘lma osiy.

Yazid nedir, ne qizilbosh,
Emasmizmi barcha qardosh?!
Bizni yoqar bizning otash,
So‘ndirmoqdir bir chorasi.

Kimning ne chiqar tilidan,
Ham belidan, ham qo‘lidan?!
Xayr va shar amalindan–
Haqiqat buning barisi.

Shu olamni yaratgan Bir,
Udir “Kulli Sha’in Qodir”.
Alaviy, Sunniylik nedir —
Manfaatdir ovvorasi.

Jumla jonli shu tuproqdan
Bor bo‘lganmiz amri Haqdan.
Rahmat tila sen Allohdan —
Tugamas rahmat daryosi.

Vaysal, chopma o‘ng-u so‘lga,
Sen Allohdan birlik tila.
Ikkilikdan kelar balo,
Da’vo — insonlik da’vosi ...

ASLIMGA QORISHIB TUPROQ BO‘LGUNCHA

Aslimga qorishib tuproq bo‘lguncha,
Chechak bo‘lar mozorimda izlarim.
Tog‘lar yashil kiyar, bulutlar yig‘lar,
Ko‘k yuzida dolg‘alanar saslarim.

Qay zamon tuproq-la bir bo‘lar jismim,
Jumla maxluq bilan bir bo‘lar ismim?!
Na raqibim qolar, na-da bir hasmim,
Ko‘hna dushmanlarim bo‘lar do‘stlarim.

Avval tuproq edi, so‘ngra ham odam,
Keldim-ketdim, bu sahnada o‘ynadim.
Turli-turli tabdillarga uchradim,
Gohi vayron, lol bo‘lardi shashtlarim.

Mendan ayrilarkan nafs quli — bo‘g‘zim,
Har kasga go‘zallik ko‘rsatar yuzim.
Tuproqdir jasadim, quyoshdir o‘zim,
Havo, yomg‘ir uyg‘otadi hislarim.

Olamlar olamni o‘lchar, bicharlar,
Xomimni, kamimni ellar socharlar.
Bu dunyo foniydir — ko‘nar, ko‘charlar,
Vaysal derki, kel, kechirgin so‘zlarim...

MENI XOR BILMA, QARDOSHIM

Meni xor bilma, qardoshim,
Sen — oltin, men tosh bo'ldimmi?!
Bir-u bordan bor bo'lganmiz,
Sen — kumush, men soch bo'ldimmi?!

Ne bor bo'lsa senda, banda,
Ayni borlik har badanda
Erta mozorga kirganda,
Sen — to'qsan, men och bo'ldimmi?!

Kimdir mulla, kimdir darvesh,
Alloh bizga nelar bermish.
Kimdir ari, chechak termish,
Sen bolsan, men kaj bo'ldimmi?!

Tuproqdandir jumla badan,
Nafsingni o'ldir o'lmasdan.
Shundoq amr etmish Yaratgan,
Sen — qalam, men uch bo'ldimmi?!

Tabiatga, Vaysal, ishqdoshmiz,
Tuproqdan bo'ldik, qardoshmiz
Bitta yo'lda biz yo'ldoshmiz,
Sen — yo'lsan, men boj bo'ldimmi?!

QIRQ YOSHIMDAN KEYIN QALBIMDA ILHOM

Qirq yoshimdan keyin qalbimda ilhom
Yetishdi, Mavlodan bir ehson bo'ldi.
Haqni bilganlarga hozirdir har on,
Inkor etganlarga sir pinhon bo'ldi.

Borlik nuqtasini ochiq ko‘rsatdi,
Irodayi juzni eliga berdi,
Haqni bilgan har ko‘ngilni Haq ko‘rdi,
Vujudin shahriga dil sulton bo‘ldi.

O‘ngda, so‘lda, arshda, kursda, har yerda
Hozirdir munkarning ko‘zida parda,
Aytgan bilmas, bilgan aytmas bir fardga
Aql yetmas sirrin bir subhon bo‘ldi.

Zohir, botil har yiroqdan ko‘rinur,
G‘aniy tug‘ar, ammo gohi to‘linur,
Qayga boqsang, unda hozir bo‘linur,
Kim demish haqqinda lomakon bo‘ldi.

Nuri ila bu olamni qopladi,
Azimdir, Karimdir, G‘ofurdir oti.
Oshiq Vaysal Haqdan izlar murodin,
Murodlar berajak jo‘mardkon bo‘ldi.

MAJNUN KABI OVVORAMAN BU CHO‘LLARDA

Majnun kabi ovvoraman bu cho‘llarda,
Xayol meni yeldiradi yel kabi.
Oh chekib, yig‘larman g‘urbat ellarda,
Turmas, oqar ko‘zim yoshi sel kabi.

Bir go‘zalning majnuniman azaldan,
Tavsifin bilmayman, kelmaydi qo‘ldan,
Yondim otashiga jon-u ko‘ngildan,
Ko‘rmagan kunlarim uzun yil kabi.

Hisobsiz haftalar, yillar kechadi,
Avval menikiydi, endi qochadi.

Borib dushmanlarga dardin ochadi,
Meni ko‘rib, cheklanadi el kabi.

Zanjirsiz, arqonsiz bog‘ladi meni,
Totli tili bilan dog‘ladi meni.
Yurtimdan, tinchimdan quvladi meni,
Yorsiz dunyo moli menga qil kabi.

Ishqing meni daryolarga to‘ldirar,
Goho yig‘latar-da, goho kuldirar.
Istar — ozod aylar, istar — o‘ldirar,
Yotar Vaysal eshigida qul kabi...

MAMLAKATDA DOSTON BO‘LDIM

Mamlakatda doston bo‘ldim,
Zorim meni xushlamadi.
Yotdan bo‘ldi, do‘stdan bo‘ldi —
Yorim meni xushlamadi

Ne so‘zlasam, “dalli” dedi,
“Meva bermas g‘o‘la” dedi.
“Ochma menga qo‘lni “dedi,
Borim meni xushlamadi.

Men ko‘nglimning egasiman,
Olti go‘dak otasiman,
Bir go‘zalning dallisiman,
Norim meni xushlamadi.

Yana tushdim tildan tilga,
Ko‘z yoshlarim seldan selga,
Otdi meni g‘urbat elga,
Yerim meni xushlamadi.

O‘tdi go‘zallikning chog‘i,
To‘qayda qurdim yotoqni,
Kuz keldi, to‘kdi yaproqni,
Qorim meni xushlamadi.

Vaysal, kelib yor bo‘ldim men,
Qora tekkan qor bo‘ldim men,
Yashillangan yer bo‘ldim men,
Pirim meni xushlamadi.

SUBHIDAM BIR GO‘ZAL KO‘RDIM

Subhidam bir go‘zal ko‘rdim,
Suvga kelgandi guzarga.
Izladim, aslini so‘rdim,
Oshiqman husni dilbarga.

Bog‘chadagi toza suman,
Saharda qalqmish uyqudan.
Sollanibon suvga ketgan
Ola ko‘zli, qoshi qora.

Ketar yo‘lda gulg‘unchadak,
Bildim, asli hur-u malak,
Jilvali, nozli jamalak,
Sochlari bor sara-sara.

Bo‘yi sarv-u chinor kabi,
Ko‘kda turna jo‘nar kabi,
Shoxga bulbul qo‘nar kabi
Ovoz beradi qushlarga.

Bulbul bog‘lidir qafasda,
Qovusholsak so‘ng nafasda,
Gul bog‘chada, bulbul sasda,
Vaysal, yopish zulfi yorga...

SOLLANIB KETARSAN, BO‘YINGNI KO‘RDIM

Sollanib ketarsan, bo‘yingni ko‘rdim,
Sarvmidi, sunbulmi, gulmi, bo‘ymidi.
Egilgan qoshingning qiyig‘in ko‘rdim,
Qilichmidi, g‘amzamidi, yoymidi.

Go‘zal kaklik kabi kezardi toshda,
Ko‘rgan oshiqlari yonar otashda,
Ovozi bulbulday, sadosi qushday,
Kaklikmidi, turnamidi, toymidi.

Taramish zulfini, to‘kmish gardanga,
Shamol essa, tebranadi har yonga,
Dedim: dilbar, yuzing o‘gir, boq manga,
Ko‘zlar — yulduz, ol yonoqlar oymidi.

Izlasang dunyoni topilmas eshi,
Qaro bulut pardalamish quyoshni,
Oh chekdim, ko‘zimdan sel qildi yoshni,
Dengizmidi, daryomidi, soymidi.

Vaysal shoir, bayon etar dardini,
Tark etolmam xush bo‘yini, gardini,
Dilim yonar, so‘rolmadim yurtini,
Yaylamidi, qasabami, ko‘ymidi...

SEN BIR JAYRON BO‘LSANG...

Sen bir jayron bo‘lsang, men-da bir ovchi,
Ovlasam cho‘llarda soz ila seni.
Bo‘lolmas darmoni, yo‘qdir iloji —
Otsam, yaralasam so‘z ila seni.

Qo‘rqmagil, sevgilim, go‘zalim desam,
Tuproqqa belangan qo‘llaring tutsam.
Men bir cho‘pon bo‘lsam, sen qo‘zim bo‘lsang,
Yalatsam qo‘limda tuz ila seni.

Qo‘yim bo‘lsang, o‘tlatardim o‘tloqda,
Junlaring tarardim yog‘och taroqda.
Baliq bo‘lsang, suzolsang sahar daryoda,
Tushirsam to‘rimga jiz ila seni.

Vaysal der, ismingni qo‘ymam tilimdan,
Ayro tushdim vatanimdan, elimdan
Qush bo‘lsang ham, qutulmasding qo‘limdan,
Agar ko‘rsam edi ko‘z ila seni...

SENING YO‘LINGDA, YO‘LINGDA...

Xatar bo‘ldi yoshlik chog‘im
Sening yo‘lingda, yo‘lingda.
So‘ldi chechagim, yaprog‘im,
Sening yo‘lingda, yo‘lingda.

Men ne edim, nima bo‘ldim,
Gohi to‘ldim, gohi o‘ldim.
Yondim, yiqildim, kul bo‘ldim,
Sening yo‘lingda, yo‘lingda.

Endi keldi so‘ng bahorim,
Meni istar sodiq yorim,
Xatar bo‘ldi nomus, orim,
Sening yo‘lingda, yo‘lingda.

Dilingdan bir tuyg‘u ichdim,
Turli-turli dardga tushdim,

Jumla borlig‘imdan kechdim,
Sening yo‘lingda, yo‘lingda.

Dilsiz bo‘ldim — sazolandim,
Yomg‘ir bo‘ldim — safolandim,
Tuproq bo‘ldim — tepalandim
Sening yo‘lingda, yo‘lingda.

Senga cho‘zilgan qo‘l bo‘ldim,
Goho tikka, goh dol bo‘ldim.
Ojizona Vaysal bo‘ldim,
Sening yo‘lingda, yo‘lingda.

SIZ SOG‘ BO‘LING, BIZ SALOMAT KETAYLIK

Qalqdi dalli ko‘ngil, qismat ayrildi,
Siz sog‘ bo‘ling, biz salomat ketaylik.
Naryog‘in ko‘rmoqlik navbati keldi,
Siz sog‘ bo‘ling, biz salomat ketaylik.

Ilmgoh maktabi Hasan o‘g‘lidan,
Go‘yoki jasadni oldilar jondan,
Irqimiz, naslimiz asli bir qondan,
Siz sog‘ bo‘ling, biz salomat ketaylik.

Kechdik bahoridan, keltirdik yozni,
Zamoni kelganda xotirlang bizni.
Orzum kuylamoqdir aziz Sivasni,
Siz sog‘ bo‘ling, biz salomat ketaylik.

Halol bo‘lsin haqqim, bor bo‘lsa sizga,
Haqqingizni halol aylangiz bizga.
Sog‘ bo‘lsak, kelarmiz yana yuz-yuzga,
Siz sog‘ bo‘ling, biz salomat ketaylik.

Vaysalning qo‘zg‘alur ichinda dolg‘a,
Uzaydi kunlarim, o‘xshar bir yilga,
Shila ham qayg‘urar, termilar yo‘lga,
Siz sog‘ bo‘ling, biz salomat ketaylik.

ENG SO‘NGGI SHE’R

Salom — sevgim hammangizga,
Qaytmas yo‘lga ketmoqdaman.
Na shaharga, na-da uyga
Qaytmas yo‘lga ketmoqdaman.

Kema kutmoqda u yonda,
Ketajakman bir ummonda,
Ko‘zim qolmadi jahonda,
Qaytmas yo‘lga ketmoqdaman.

Eshim, do‘stim, bovurlarim,
Enli mening so‘ng bahorim.
Vaysal, qoraydi yo‘llarim,
Qaytmas yo‘lga ketmoqdaman.

TURKMIZ,
TURKNI CHAQIRAMIZ

Dunyo to‘lsa qo‘shiq bilan,
Turkmiz, turkni chaqiramiz.
Yo‘lga tushmoq qo‘rqitmagay,
Turkmiz, turkni chaqiramiz.

Turkmiz, turklar yo‘ldoshimiz,
Hisobga kelmas yoshimiz.
Qayda bo‘lsa savashimiz,
Turkmiz, turkni chaqiramiz.

Turklardir bizning otamiz,
Xolis turkmiz, qoni tamiz,
Qo‘shiq, g‘azaldir xatimiz,
Turkmiz, turkni chaqiramiz.

Bayramlarda, to‘y kunlarda,
To‘plandida, yig‘inlarda,
Zerikkanda, tor kunlarda
Turkmiz, turkni chaqiramiz.

Yaylovlarda, o‘tloqlarda,
Kengliklarda, qirg‘oqlarda,
Qo‘ylar to‘la qo‘tonlarda,
Turkmiz, turkni chaqiramiz.

Suv boshida, suvloqlarda,
Turkning sasi quloqlarda,
Beshiklarda, buloqlarda,
Turkmiz, turkni chaqiramiz.

Hamma birga keling, qizlar,
Birga ko‘char oy, yulduzlar.
Qo‘shilajak ohang, sozlar,
Turkmiz, turkni chaqiramiz.

Ishlar Vaysal ari kabi,
Bulbullarning zo‘ri kabi,
Turnalar qatori kabi,
Turkmiz, turkni chaqiramiz.

TURLI-TURLI SADO BERAR OG‘OCHLAR

Yel esganda dolg‘alanar barglari,
Turli-turli sado berar og‘ochlar.
Oqqush kabi taralgandir tillari,
Turli-turli sado berar og‘ochlar.

Bahor kelar, yaproq ochar, yoz bo‘lar,
Ishqqa tushib otash bo‘lar, ko‘z bo‘lar.
Kesilar — yoy, kamon bo‘lar, soz bo‘lar,
Turli-turli sado berar og‘ochlar.

Shamol kelsa, inja tollar sas berar,
Yashil yaproq atrofiga is berar.
Ochib qolsang, mevasini soz berar,
Turli-turli sado berar og‘ochlar.

Bolta kelar, tanasin nobud etar,
Usta kelar, g‘ijjak etar, ud etar,
Yoniq sasli kamon ne faryod etar,
Turli-turli sado berar og‘ochlar.

Dovul bo‘lar, gumbur-gumb-u gumburlar,
Surnay bo‘lar inja sasli tomirlar,
Musiqasi dardlarimni yangilar,
Turli-turli sado berar og‘ochlar.

Qalam bo‘lib, har tillarda yozadi,
Uning sasi yuragimni ezadi.
Kesilmasa, shoxlarda qush kuylardi,
Turli-turli sado berar og‘ochlar.

ARJUMAND BEHZOD LOV

Arjumand Behzod Lov — shoir, dramaturg, tatar san'atkori (1903–1984). Istanbulda tug'ilgan, o'rta ta'limni Istanbulda olgan, Olmoniyada tetar akademiyasini bitirgan. Umri davomida Istanbul shahar teatrida aktyorlik va rejissorlik, Davlat konservatoriyasida o'qituvchilik qilgan. Anqara radiosida diktor ham bo'lgan. "Millat uyg'onmoqda", "Karim meni aldasa" filmlarida rol o'ynagan. "Guldasta" (1920), "S.O.S" (1931), "Xaos" (1934), "Ochil, qulfim, ochil" (1940), "Uch Anato'lu" (1964), "To'la asarlar" (2005) kabi she'riy kitoblari bosilgan.

"Qorako'z cho'lda" (1960), "Oltin g'azab" (1971) kabi dramalar muallifi.

O'LIKLAR BIR-BIRINING USTIDA

Yashamak tuyg'usidan ustun,
Yo'q bo'lish istagi biz bilan,
Seskanmaymiz endi,
O'liklar-la quchoqlashib yotishdan.

O'liklar bir-birining ustida
O'liklar bir ombor to'la.
O'liklarning semizi topilmas,
O'liklar quruq, qotgan.

Yomg'ir yog'ib chiritadi,
Oftob o'tib quritadi.
Bu yerda o'lish osonmas,
Jon o'lishni unutadi.

Oy chiqar o‘liklarning ustiga,
Boqar och mozor qurti misol
Do‘st jon berayotgan do‘stiga.

EHROMNING TUBI

Biz ehromning tubidamiz,
Siz tepada, biz pastda.
Yashash sizniki bo‘lsin.
Malaklar-la bir joyda (qatda).

Zafar ham sog‘inganlarga yoqar
Jonni etarkan fido,
Yengilmas maslakning tugamas kuni,
Biz to‘yolmagan dunyoda.

TAMG‘A

Belimizda og‘alarning tamg‘asi.
Ismimiz mag‘aza[1]larning firmasi
Ularga dunyo ne’matlari,
Bizga kon quduqlari,
Botqoqlik bezgagi.

MENI OPPOQ XONIMNING YONIGA KO‘MGIL

Oppoq xonim menga boqdi,
Men ham boqdim,
Kel, dedi oppoq xonim,
Ketdim,
Oppoq xonim meni sevdi,

[1] **Mag‘aza** — magazin.

Men ham sevdim.
Buni oppoq og‘amiz ko‘rdi,
Oppoq xonimni o‘ldirdi,
Men ham oppoq og‘ani o‘ldirdim.
Endi meni osadilar,
Jonim Mog‘ona, ko‘zim Mog‘ona,
Meni oppoq xonimning yoniga ko‘mgil.

SHAPALOQ

Bizning kashish (pop) og‘a dediki: —
Iso bir yuzidan shapaloq yedi,
Boshqa yuzini ham tutdi.
Iso yegan ikki shapaloq
Rumoni yakson qildi.
Men ham, kashish og‘amiza dedimki:
“Men ham Iso otamizning quliman,
Har kun og‘amning bir shapalog‘ini yeyman.
Har shapaloqdan keyin
Boshqa yuzimni tutaman.
Xo‘sh, og‘am nechun yakson bo‘lmas Rumo kabi,
Rumodan kuchlimi bizning og‘amiz”.

BEHCHAT KAMOL CHOG'LAR

Behchat Kamol Chog'lar — taniqli shoir (1908–1969). Arzirumda tug'ilgan, Qo'nyo va Qaysari maktablarida, Zo'ng'uldoq muhandislik oliy o'quv yurtida o'qigan. Fransiyada tahsilni davom ettirgan. Yoshlikdan she'rga qiziqqan, Anqaralik Umar, Behchat Fuod, Erdo'g'on taxalluslari bilan qalam tebratgan. 1933-yilda (F.N. Chomlibel bilan) yozgan, Turkiya respublikasining o'n yilligiga bag'ishlangan she'ri Otaturkka ham ma'qul kelgan. Iqtisod vazirligida, Turkiya radiosida mas'ul lavozimlarda ishlagan, deputat bo'lgan. Uch yil Angliyadagi Kembrij universitetida adabiyot sohasida tadqiqotlar olib borgan. Uning she'rlarida Otaturk va jumhuriyat, Vatan va millat madhi yuksak ruhda tarannum etilgan. Uslubi ravon, xalq og'zaki ijodiga, baxshichilik va klassik adabiyot ana'analariga suyangani sezilib turadi. "Oshiq Umarning jumhuriyat dostoni" (1930), "Erjiyas ko'chkisi" (1933), "Bunda yurak urmoqda" (1933), "Oshiq Umardan dostonlar, turkumlar" (1940), "Mendan ichkarida"(1966), "Battol G'oziy dostoni" (1968), "Behchat Kamolning oxirgi she'rlari" (1970) "Malazgirt zafaridan Istanbul fathigacha" (to'rt doston, 1971), "Dostonlar" (1997) kabi she'riy kitoblari, "Xalq uylari" (1935), "Hasanali Yujalning hayoti va asarlari" (1937), "Nomiq Kamol" (1954) kabi tadqiqotlari, "Hur moviylikda" (1947), "Do'lma bog'chadan Anit qabrgacha" kabi sayohatnomalari, "Qur'oni Karimdan ilhomlanib" (1966), "Otaturk dengizidan tomchilar" (1967), "Bugungi tilda Otaturk nutqlari" (1969) publitsistik asarlari, "Cho'pon" (1933) "Atilla" (1935), "Dengiz Abdal" dramalari bor, asarlari asosida kinofilmlar yaratilgan.

Tohir Qahhor

ISTAYURMEN

Bir chechak istayurmen boqmasam so‘ladigan,
Bir qanot istayurmen meni yerdan oladigan,
Bir quyosh istayurmen tun menda qoladigan.

Bir marmar istayurmen to‘yguncha o‘yish uchun,
Bir ayol istayurmen ruhini suyish uchun,
Bir juft tiz istayurmen boshimni qo‘yish uchun.

Bir zanjir istayurmen qahrimni bog‘lamakka,
Bir yong‘in istayurmen ruhimni dog‘lamakka,
Bir ona istayurmen ustimda yig‘lamakka.

Bir yengilmas qal’ani fath etay bir boshim-la,
Men urilib tusharkan so‘ng burchning so‘ng toshiga,
Bir juft dudoq uzansa ko‘zlarimning yoshiga.

Bir ilhom istayurmen orzu-yu komga yetsin,
Bir juft ko‘z istayurmen jon uyimni u ko‘rsin,
Bir sevgi istayurmen bir umr bo‘yi tursin.

Bir mehrob istayurmen qoshida tiz cho‘kmakka,
Biroz yer istayurmen bir oshiyon tikmakka,
Bir urug‘ istayurmen bo‘sh dalaga ekmakka.

Bir bino istayurmen tamaliga tosh qo‘ysam,
Bir sevgili dardim-la ko‘zlariga yosh qo‘ysam,
Bir imon istayurmen yo‘lida men bosh qo‘ysam.

DUMLI SHE'R

1. DAYDI MUSHUKNING QASSOB MUSHUGIGA MAKTUBI:

Kelisholmaymiz endi, yo'llarimiz ayridir,
Sen qassob mushugisan, men daydi mushuk.
Qalayi idishda sening yemaging,
Og'zidadir meniki arslonning
Sen tushingda aysh-u ishrat,
Men tushimda suyak ko'raman.
Lekin senga ham qiyin, og'ayni.
Oson emas, yo'q,
Dumingni likillatmak Xudoning bergan kuni.
Oson emas, albatta.

2. QASSOB MUSHUGINING DAYDI MUSHUKKA JAVOBI:

Ochlikdan lof urarsen
Demakki sen — kommunist,
Sen, shaharni loyqa suvga chaygan sen,
Anqarada o't chiqargan sen,
Istanbulning yarmini kuydirgan ham sen,
Ey mushuk, mushuk, sen cho'chqasan.

KO'RISHDI KETDI

Oldik nomasini ustozimizning —
Qush qo'ndi, sayradi va uchdi, ketdi.
Ikki ruh jannatning dargohi ichra
So'ylashdi, ko'rinmay ko'rishdi, ketdi.
Maktubingni ichdim sharbat-shurubday,
Yuz surdim nomangga xuddi Yoqubday,

Xasta bo‘lsak hamki ayni Ayyubday,
Ko‘nglimiz shifoga qovushdi, ketdi.
Narmanda dong topdi baxshi Summoniy,
Shanlik unga shifo keltirdi oniy,
Qaniydi uchrashsa bizning Nihoniy,[1]
Ko‘zlar ravshan tortdi, u qochdi ketdi.
Saloming yetibdir Sariqamishga,
Bu kavsar xastaga, xor suvsamishga,
Bir kun birga borsak — derlar — Jamushga:
Ikkovi murodga yetishdi, ketdi.
Kamol degan bilan yetmas kamola,
Asli siz yetgansiz oliy visola,
Aylang bizga biroz ilhom havola,
Ko‘nglimiz yog‘duga ilashdi, ketdi.
Keldik Anqaradan biz sizlar uchun,
Daryomiz, yo‘l oldik dengizlar uchun;
Joy bormi mehrobda bu tizlar uchun?
Xoridi, yo‘qlikka qorishdi, ketdi.

* * *

Otingni qo‘shdim peshonam yozuviga,
Endi hatto o‘zim buza olmasman.
Ne qilsang yoningda qoladigandek,
Seni xafa qilmas, xafa bo‘lmasman.

O‘rganmoq istadim, sevdim
Meni qayta boshdan to‘qigan qo‘lni.
Keldim so‘ng tuguncha ko‘zim pardali,
Oh, uni qandaydir yecha olmasman.

---

[1] **Narman** — Arzirum viloyatidagi tuman; xalq baxshisi Oshiq Summoniy shu yerlikdir. Summoniyning she’rlari kabi Shanlik baxshi bilan aytishuvlari ham mashhur. Nihoniy Gedik ham Arzirumning Shanqoya tumanidan. Shoir bu to‘rtlikda shunga ishora qilmoqda *(tarj.)*.

Meni tark etmaydi men qurgan tuzoq,
Rashkliman, g‘ashlikman, xastadirman, boq,
Behad xush keladi dumin o‘ynamoq,
Ilonning boshini eza olmasman.

Behuda izlandim, behuda toldim,
Bepoyon dengizga, sohilga bordim.
Jonim bahosiga inju chiqardim,
Pishiq ipga puxta tiza olmasman.

Bir sendan oladi ko‘nglim xabarni,
Sen bo‘lding ul ko‘rning ko‘rar ko‘zlari.
Ko‘nglimga sig‘maydir bir go‘zal yeri,
Sen yonimda yo‘q payt keza olmasman.

Demishlarki, oshiq Umar ovvora,
Aql parishondir, qalb pora-pora.
Oshiqman, istayman, ammo, na chora,
Senga loyiq she’rni yoza olmasman.

O‘QTOY RIFAT XO‘ROZCHI

O‘qtoy Rifat Xo‘rozchi — taniqli shoir va adib. U 1914-yili Trabzon shahrida dunyoga keldi va 1988-yili Istanbulda vafot egan. Anqara universitetining huquqshunoslik fakultetini tamomlagach, nashriyot direktori, keyinchalik Istanbul Davlat temir yo‘llarida advokat bo‘lib ishlagan. U bir qator sahna asarlari va romanlar muallifidir. 30-yillarning oxirida turk she’riyatida yangi to‘lqin paydo bo‘ldi, unga “Uch oyoq” guruhi deya tarixga kirgan O‘rxon Veli Qoniq, O‘qtoy Rifat, Melih Javdat Onday asos solishdi. Ular 40-yillar she’riyatiga tamomila yangi ruh olib kirdi. Ularning 1940-yilda bosilgan “G‘arib” to‘plamida o‘ziga xos manifest tarzida yozilgan so‘zboshi bor. Unda “uch oyoq”liklar oddiy inson hayotini yoritish ijodning asosi ekanini ta’kidlashdi. Oddiy insonga xos ichki kechinmalarni tasvirlash uchun soxtalik va tumtaroqlikdan qochish, qisqa jumlalarda sodda til bilan salmoqli fikr aytish — ular boshlagan yangi she’rning asosiy xususiyati bo‘lajagini e’lon qilishdi. Uning she’rlari ilk bor Miraziz A’zam tarjimasida 1980-yilda bosilgan.

MINNATDORLIK

Men kimdan minnatdor bo‘lmog‘im kerak,
Ko‘ksimni to‘ldirgan
Sof havo uchun,
O‘tib ketgan qizning ko‘zlaridagi
Kulrang samo uchun,
Sekin qo‘limda
Erib ketayotgan uchqun qor uchun.
Men kimdan minnatdor bo‘lmog‘im kerak,
Men nomin bilmagan yulduzlardanmi,
Paltomdan, tuflimdan g‘iz-g‘izlardanmi.

QORACHA AHMADNING QABRI

Uning sevgan joyi parklar edi,
Aylanib yurardi tushganda oqshom.
Eng sevgan daraxti teraklar edi,
Yulduzlar jiviri berardi orom.

She'rni sevar edi ixlosmand edi,
O'rxon Vali bilan Melix Javdatga,

Ayniqsa sevardi kirib yotishni
Onasi to'shagan pokiza katga.

Endi uxlab yotar katta sahroda.

RAMAZON

Ramazon keldi,
Ro'za boshlandi.
Besh yil ramazon,
O'n yil ramazon,
Yuz yil ramazon.
Kimga boqma mirquruq,
Qorin esa qup-quruq.

GINA

Dengizga qarasam
Qirg'oq gina qilar,
Quyoshga qarasam
Bulut gina qilar.

Bordi-yu senga qarasam-chi,
Unda kim gina qilar.

QALDIRG‘OCH

Ko‘rsam yo‘lda simyog‘ochlarni
Qaldirg‘ochni o‘ylab ketaman,
Yot ellarga intilar ruhim.

Bir zamonlar qaldirg‘och desam
Bog‘lanardi uyga xayolim.

NON VA YULDUZLAR

Bir tishlam,
Bir tishlam
Non kavshab o‘tiribman,
Ikki ko‘zim esa tungi osmonda.

Shundayin xayolga sho‘ng‘ibmanki,
Adashib
Ba’zida
Non o‘rniga
Yulduzlarni ushoqday terib
Yeya boshlabman.

OZODLIKNING QO‘LLARI BOR

Ozodlikning qo‘llari bor
Qonli terni artmoqqa,
Ozodlikning ko‘zlari bor
Ertasini ko‘rmoqqa,
Tenglik kunin ko‘rmoqqa.

MENING XANJARIM

Olis tog‘ ortida tug‘ildi hilol,
Zulmatni tilaman nur xanjar bilan.

TUT DARAXTI

Shoxingizni silkitsak bizlar,
To‘kiladi yerga yulduzlar.

QALDIRG‘OCH BO‘LIB

Qaldirg‘och bo‘lib otilaman,
Yashil daraxtlardan
Moviy to‘lqinlarga.
Bulutlar oyog‘im ostida,
Baliqlar galasi boshim ostida.

U O‘LDI

U o‘ldi,
O‘zi ham bilmaydi o‘lganin,
Yotibdi uzatib qo‘llarin,
Harakatsiz vazmin.
Sochlari mosh-guruch
Bamisoli tirikligida
Qiynalmaganday,
Qiynalsa do‘stlari yordam berganday,
Doim to‘q yurganday.
Mana endi qabri ustida nutqlar,
Qora tasma bog‘langan bayroqlar,
Kuzatgani kelgan yigitchalar esnashar.

Mayda yomg‘ir yog‘ar shig‘alab,
Eh bunday o‘lim,
Sizga aytsam
Bizda bo‘lar kamdan kam.

QALDIRG‘OCH

Qaldirg‘ochni eslatar menga
Yo‘l bo‘yida turgan simyog‘och.
Lekin doim yodimga solar
Uyimizni o‘sha qaldirg‘och.

QIZGINA

O‘n oltiga to‘lganda yoshi
Bir beva ayolning betayin,
Daydi o‘g‘lin sevib qoldi u.
Yemay, ichmay qo‘ydi hattoki.

Ishqdan qalbi gupurgan chog‘i
Osmonlarga yetgancha boshi —
Talpinadi unga qizgina
Bo‘lmasa ham, uyi, o‘chog‘i.

ISTANBUL QO‘SHIG‘I

Qosimposha bo‘yi — aslahaxona,
Bir qiz sevdim, omon olloh, yagona.
Oshiqlarga doim “qiz-piz” bahona,
Sara chechak — dasta gulim,
Jonim Istanbulim,
Omon-omon, bahona.

Borib ko‘rdim, qiy-chuv baliq bozori,
Ichib sarxush bo‘ldim men dil ozori,
Uch qadahga uchta bodom shakari,
Sara chechak — dasta gulim,
Jonim Istanbulim,
Omon-omon, bodom shakari.

SO‘NGSO‘Z

Tomog‘ingdan qult-qult o‘tuvchi
Oddiy suvning qadriga yet.
Nima o‘zi bu moviy dema,
Derazangdan ko‘z ilg‘agancha
Osmonning qadriga yet.

Qadriga yetgil
Gullab turgan bodomning.
Oftob tushgan xonaning,
Loy ko‘chalarning.

Oqning, Qoraning, Yashilning,
Pushtining qadriga yet.
Hayot shunday xilqat yurakda
Sevinch bilan tipirchilaydi.

Ming xil xayol odam boshida,
Inson zoti qizishadi,
G‘azablanar, janjallashadi.
Xalqni deb jangga kirganda
O‘sha qo‘rquvli sevinchning,
Qahr-u g‘azabning qadriga yet.
Shuni bilki, oftob
Tiriklarni istar faqat.
Sen quyoshning qadriga yet.

QUSHDAYIN

Turkanga

Qushdayin uchaman yo‘llarda
Tutgancha yorimning qo‘lini.
Tomirda qonlarim gupurar,
Quchganda dilbarim belini.

Jannat taomidan shirinroq,
Birga yesak pishloq bilan non.
Ko‘nglim olsa g‘am bosganida,
Meniki bo‘ladi keng jahon.

Uyqu kelmas ko‘zlarimga
Dildor kelgandan beri.
Sahar chog‘i yozib bu she’rni,
So‘ngra o‘qib berdim yorimga.

TURKANGA MARSIYA

Boshin egib oqimda ketayapti
Kecha-kunduz zamonning dildorasi.
Inju kabi yaltiraydi kunlari —
O‘n uch fevral olti iyul orasi.
U bir kema to‘lqinlar-la talashar,
Netay dardim qalbimga o‘t qalashar.
Menga endi o‘lib ketish yarashar,
Qonamoqda jigarimning yarasi.
O‘lgan bilan birga o‘lib bo‘lmaydi,
O‘lib bo‘lmas hamda kechib bo‘lmaydi.
Mening dardim o‘lmaguncha qolmaydi,
Yig‘la ko‘zim, yig‘lamoqning sirasi.
O‘qtoy derki yaradorman, g‘oziman,
Darbadarday aylanaman, kezaman.
Birovning baxtini ko‘rsam sezaman,
Birodarlar, yo‘q bu dardning chorasi.

FOZIL HUSNU DOG'LARJA

Fozil Husnu Dog'larja — atoqli turk shoiri (1914–2008). Istanbulda tug'ilgan, shu yerda yashab ijod etgan. 60 dan ortiq she'riy kitob muallifi. Ilk to'plami "Havoga chizilgan dunyo" (1935). "Bola va Alloh" (1940) she'riy to'plami Dog'larjaga shuhrat keltirgan. Dog'larja o'z davrining eng sermahsul ijodkori hisoblanadi. 40 dan ortiq she'riy to'plamlari nashr qilingan. She'rlarida odamlarning ichki va tashqi dunyosini poetik ifodalashga alohida e'tibor bergan ("Tosh davri", 1945; "Uch shahid dostoni", 1949). "Tuproq ona" (1950), "Istiqlol kurashi — Inonular" (1951), "ASU" (1955), "Chanaqqal'a dostoni" (1965), "G'ozi Mustafo Kamol Otaturk" (1973), "Er yuzi bolalari" (1974), "Dildagi bilimsevar" (1992) va b. asarlarida gumanist shoir sifatida insonni ulug'laydi. Shoirning she'rlari ilk bor o'zbekchaga Tilak Jo'ra tomonidan tarjima qilingan va1980-yilda nashr etilgan.

SAQLA

Kelajagim saqla dedi,
Saqladim u kelmadi.
O'lim kabi bir ish edi,
Ammo hech kim o'lmadi

YOMG'IR QOCHOG'I

Qo'limdan tut yo'qsa yiqilajakman,
Yo'qsa yulduzlar ham bir-bir to'kilajak.
Agar shoirligim bilsang, meni tanisang,
Yomg'irdan qo'rqishimni bilarsan.

Agar ko‘zlarimni eslasang
Qo‘limdan tut yo‘qsa yiqilajakman,
Yo‘qsa yomg‘ir meni olib ketajak.

Kechalari yurak dukullashini tuyarsan,
Bu men shosha-shosha yomg‘irdan qochayotgan,
Saroyburni bo‘g‘ozidan kechayotgan.

Sunbula oqshomida hamma yog‘i ho‘l,
Meni ko‘rsang balki tanimayajaksan,
Hech kimga bildirmay ingrab yig‘larsan.

Yakka-yu yolg‘izman adashib yurgan,
Qo‘limdan tut yo‘qsa yiqilajakman,
Yo‘qsa yomg‘ir meni olib ketajak.

MEN SENGA QARZDORMAN

Men senga qarzdorman bilmaysan,
Isming mix kabi xotiramga urilgan.
Tobora kattalashib yonar ko‘zlaring,
Men senga qarzdorman bilmaysan,
Ichimni isitaman sen bilan.

Og‘ochlar kuz fasliga hozirlanajak,
Bu shahar o‘sha eski Istanbulmidir.
Qorong‘ida bulutlar parchinlanajak,
Ko‘cha chiroqlari birdan yonajak,
Qaldiroqlarda yomg‘irning isi,
Men senga qarzdorman sen yo‘qsan.

Sevmak ba’zan uyatsizlarcha qo‘rqinchlidur,
Inson ba’zan noxos baridan charchar,
Ustara tig‘ida yashashdan charchar,
Bari-bir bir kuni ustara qonini sochar.
Necha hayot ayrilajak bitta hayotdan,
Qaysi bir eshikni urmasin o‘shanda,

Yolg‘izlik to‘ng‘izday bo‘kirar eshik ortidan,
Fotih[1]da bir eski grammofon kuylar,
Eski zamonlardan bir juma[2] kuylar,
Ko‘cha boshida turib uni tinglasam.
Senga hech kim ko‘rmagan ko‘kni keltirsam,
Haftalar qo‘llarimda uvadalanajak,
Ne qilsam ne tutsam ne yoqqa ketsam,
Men senga qarzdorman sen yo‘qsan.

Balki iyunda moviy xolli bir go‘dakdirsan,
Oh seni bilmaslar, odamlar bilmaslar.
Bir kema suzgaydir sokin ko‘zlaringda,
Balki yashilko‘y[3]da uchoqqa minayapsan.
Balki ivigan soching shamollarda parishon,
Balki ko‘rsan tegrangda bezovta bir lomakon,
Telba shamol sochlaring tortqilaydi beomon.

Men ba’zan bu hayot haqida o‘ylayman,
Bo‘rilar bilan yashamoq og‘ir bilaman.
Yashash og‘ir qo‘llarimiz gunohdan asrab,
Men ba’zan bu hayot haqida o‘ylayman.
Jim deya ismingni tilga olaman,
Ichimda to‘lqinlanar pinhon dengizlar,
Hech qachon boshqacha bo‘lmas hayotim,
Men senga qarzdorman bilmaysan.

SHUNDAY BIR SEVGI

Qancha ayollar sevdim, zotan yo‘q edilar,
Yomg‘ir quyar edi, kuz bilan birga...
Ozgina erkalab qo‘ysam, go‘yo bolalar,
Tashlab qo‘ysam, qo‘rquvga belandilar.
Qancha ayollar sevdim, zotan yo‘q edilar,

[1] **Fotih** — Istanbuldagi maydonning nomi.
[2] **Juma** — bayram ma’nosida.
[3] **Yashilko‘y** — Otaturk nomidagi xalqaro aeroport joylashgan joyning nomi.

Shunday bir sevgini ko‘rmagandilar.
Yo‘q, o‘ylamangki, meni unutadi deb,
Hali hanuz men tomon maktublar kelardi.
Haqiqat emasdi ular, bir umid edi...
Eski qo‘shiq yoki she’rday so‘ylandilar,
Qancha ayollar sevdim, zotan yo‘q edilar,
Shunday bir sevgini ko‘rmagandilar.

Yolg‘iz onlarimda qo‘llarimdan tutdilar,
Uzoq pichirlari ichimga o‘t yoqqandi.
Go‘yo ko‘k yuzida bir bulut edilar,
So‘ng qayga ketdilar, buni kim bilar,
Qancha ayollar sevdim, zotan yo‘q edilar,
Shunday bir sevgini Siz ko‘rganmisiz?

OYOQ USTI O‘ZINI O‘LDIRISH

Qo‘rquvni tark etgan qiz bola,
O‘limin taniydi shu lahza.
Bu qasdning sababi bir fojia,
Holbuki u yosh edi, bundaylar oz edi...
Vujudi bokira,
Qo‘lin ushlamagan hali bir kimsa...

Qo‘rquvni tark etgan qiz bola,
Taqiqlar to‘ridan o‘tolmadimi?
Va yoki evrilmoq istadi
O‘zga bir qizga.
Va yo o‘z-o‘ziga yetolmadimi,
Yo‘qsa yo‘qmidi yurakdan sevgani?..

Qo‘rquvni tark etgan qiz bola,
Shu lahza zulmatga sho‘ng‘iydi.
Hurlikka erishar vujudi...
O‘rtada qon isi anqiydi...
Bu qanday kelmog‘-u,
Bu qanday ketmoq?.. *

TURKCHADA YASHAMOQ[1]

Saslanur seni menga "so'ngsiz"lik
Derki: ko'pay.
Derki: uzal baxtingga,
Asra to'g'riliging, yaxshiliging,
Turkcha borlig'imiz.

Turkcha, seni qancha so'ylasam,
Qancha kuylasam, shuncha xushholman.
Ko'rinmoq, teranlashmoq,
To'lmoq;
Seni o'ylayman, o'ylayman, g'ira-shira
Qorong'uliklarda, tol,
Anglayman shuncha.

Bir bo'luv besh (1:5), bir bo'luv to'qqiz (1:9),
Bir bo'luv bir ming uch (1:1003);
Favqulodda daqiq ma'nolaring oz-oz tarqalur,
To Sharqdagi baliq
Tuyar hidin
To G'arbdagi yo'ng'ichqaning.

Saslanur sen haqda menga yaqin-yiroq,
Yer moviysidan ko'k yashiliga.
Asir uluslar bor, kechalar bo'yi
Ular uchun
Yo'qolgan erk uchun,
Turkcha... hayqirmoq,

Ul muddat yaratmish tang-u tor ekan,
Tekis ekan, yassi ekan
Hali-da
Daholar
"Yana"lar "yana"larga qorishgan,

[1] Internetdan olindi.

Cheksizlik keltirgan ertalarni...
So‘zlayolmaganda o‘sha yum-yumaloqda,
Aytolmaganda
Ortiq — kam olib eltgan
Tuproqning nihollardan orta qolgan sog‘lig‘ini
Uzoq harorat,
Bir kishilar kelajagiga.
Saslanur sendan menga bir tur suv, bir dur suv,
Bag‘rida masallar ilg‘orlik, bedorlik saqlagan.
Eski o‘zanlar qazigan ilk yozuvlarni
Ilk yodgorliklarga,
Sadolanur
Maydondan maydonga uchsiz — poyonsiz
Olam oqinlarin fig‘onlari.

Ammo kechir meni, unutdim,
Yulduzingni, quyoshingni, oyingni uyalmasdan.
Shunday mazmunsiz kunlaring
Kelgan sahro o‘tovlarida,
Unutdim ona deyishni hatto.
Ellar turkusiga taqlid etdim,
Og‘zimga tushdi, kechir, bir bor.

Mana, ont ichaman
Barcha marhumlar nomidan,
Bormoqchiman kunduz-kunduz,
Borajagim Tangrigacha
Nafasimda nafasing.

Saslanur seni menga “voha”m, “tog‘”im,
Qayga ketsam, topur meni izlagan.
Bir asrki, oqar narilarga
bir oq...ki, buyuk otalar,
bir ol...ki, ulug‘ avlodlar,
Turkcham, mening ovozim bayrog‘i,
ovoz bayrog‘im!

HURRIYAT

Qadim-qadim zamonda qullar
Xo‘jasini ko‘tarib yurgan.
Bugun qullar xo‘jalarining
G‘oyasini ko‘tarib yurar.[1]

[1] **T.Qahhor.** “Kun ko‘zi” (Toshkent, 1987) kitobidan olindi.

O‘RXON VALI QONIQ

O‘rxon Vali (1914–1950) atoqli turk shoiri. Istanbulda yashagan, Istanbul universitetini bitirgan. Bu dunyoda o‘ttiz olti yil yashagan, “g‘arib” — yangi sarbast turk she’riyatini boshlab bergan turk shoiridir. Ular, uch kishi, Meli Jovdat va O‘qtoy Rifat bilan birgalikda turk she’riyatida yangilikchi atalmish bir oqimning boshlanganini anglatdilar.

Yangicha bir zavqni uyg‘otmoq uchun o‘zlaridan oldingi adabiyotdan masofa saqlagan O‘rxon Vali hijo va aruzda yozishni rad etdi. Qofiyani uloqtirgan shoir majoz, tashbih, mubolag‘a kabi adabiy san’atlarni ortiqcha ishlar deb hisobladi. Uning nazarida saroylarda tug‘ilgan bu kibor adabiyot oddiy xalqqa tushunarsizdir. U “yuksak adabiy san’at” tilini oddiy suhbatlashuv tiliga chevirdi. 1941-yilda o‘z do‘stlari bilan birga bu yangi oqimning mahsuli bo‘lgan she’rlarni chop ettirdi. Kitobxon xalq uchun fikr inqilobi bo‘lgan bu oqim 1940–1950-yillarda tilga tushdi.

Shoirning asarlari:

“G‘arib” (1941), “Voz kecholmadim” (1945), “Doston kabi” (1946), “Yangisi” (1947), “Qarshi” (1949), “To‘la asarlar”i (1951).

SHAHAR TASHQARISIDA

Ochilmoq xavotirida titragan kurtaklar
Bir go‘zal kunlarni va’da qilmoqda.
Va bir ayol, shahar tashqarisida;
Maysalar ustida,
Oftob nurlarining ostida,
Cho‘zilgan muhabbat istagan kabi...

OXIRGI QO‘SHIQ

Sirg‘alib suvga tushgan bilaguzuk;
Qara, ajinlari ketdi-ku suvdan.
Umrning so‘ng soatida turdim uyqudan,
Nechun behuda yillarim uchun dilim o‘ksik?
Yo‘lga tushdi meni o‘limga eltguvchi karvon.
Qadimiy kuy esa boshladi shabadalarda.

Unga ergashib,
Ergashtirib yurmoqdan charchadim,
Yillardir, oyoqlarimning uchida;
Bu dunyoda biroz yashaylik, axir,
U tanho — o‘z bóshiga,
Men yolg‘iz o‘z boshimga.

KULIMSIRAYMAN

Yo‘lakda ketarkan, o‘zim-o‘zimga
Kulimsirayotganimni anglab qolgan onlarda
Odamlar meni jinni deb
o‘ylayotganlarini tushunib,
Battar kulimsirayman...

MAHZUNLIK

Sevgan insonlarimga
Nola qilardim,
Agar sevmoq menga
Mahzun turmoqni
O‘rgatmasaydi...

O‘LIMGA YAQIN...

Oqshom tushayotir, qish vaqti;
Bir bemor yotog‘ining derazasida;
Faqat menda emas yolg‘izlik holi;
Dengiz ham qorong‘u, osmon ham xira;
Bir ajib mahzundir qushlarning holi.
Boqma, faqirdirman, kimsasizdirman;
Oqshom tushayotir, qish vaqti —
Mening ham savdolar kechdi boshimdan.
Shon-shuhrat, ayollar, dunyo hirslari;
Umr o‘tib anglaydi inson dunyoni.
O‘laman deb xavotirdamiz?
Ne qildik, ne ko‘rdik foniy dunyoda
Yovuzlikdan boshqa?
O‘lguncha endi gunohlarimizdan poklanarmiz,
Imkon bo‘lsa, o‘lguncha bir yaxshi odam bo‘larmiz;
Shon-shuhrat, ayollar, dunyo hirslari —
Hammasini unutarmiz.

TONGGA QADAR

Shoirlar savdoyilardan chapani;
Nedir bu odamlardan chekkanim firoq?
Shundoq bo‘lurmi, butun bir kechani
Bir misraning tepasida kechirmoq?
Tinglagin, yor, eshita olarmisan
Kuylayotganini havolarning, gullarning
Yoki chumolilarning bug‘doy tashiyotganlarini
Sokin g‘imirlab?
Quyosh chiqishini kutsam bo‘lmasmi
Qofiyalarni ketma-ket supurmoq uchun
Eshigimga kelgan farroshlar bilan
Dengiz kanorasiga?
Shayton vasvasa qilar: “Och derazani;
Baqir, baqir, baqir; tongga qadar”.

CHAP QO‘LIM

Sarxush bo‘ldim-da
Seni esladim yana;
Chap qo‘lim,
Qaqshoq qo‘lim,
Qashshoq qo‘lim!

VATAN UCHUN

O, Vatan uchun nimalar qilmadik!
Birlarimiz o‘ldik;
Birlarimiz nutq so‘zladik...

YOLG‘IZLIKNING SHE’RI

Yolg‘iz yashamaganlar bilmaslar —
Qanday qo‘rquv berar insonga jimlik;
Inson o‘zi bilan qanday so‘zlashar;
Oynalarga qandoq boqadi,
Jonni yoqar hasrat,
Bilmaslar.

ZAVOL

Berkildi xotiramning eshigi,
Sabr-u toqatim tugagan yerda.
Yuksalar endi parda-parda
“Ortiga qaytgan saodat “ qo‘shig‘i.
Parvonaning umri tamom bo‘ldi,
Falakdan ham kutganim qolmadi.
Tugadi endi tilimda toti
Rizqimning paymonasi to‘ldi.

Nachora, qarshimdan chiqsa ajalim,
Bu bo‘shliq o‘limdan afzalmi magar?
Dunyodan kutgan narsasi qolmagan
Bu qulning zavoli qanchalar go‘zal!
Kutmaslik battardir kutmoqdan;
Keldi yo‘llarini men poylagan yor.
Boshimni ol, aylantir, shamol,
Bo‘ldi, boshqa titrama, badan!

TESHIK SHE’R

Yeng — teshik, ko‘ylak — teshik,
To‘n — teshik, shim ham — teshik.
Yoqa — teshik, cho‘ntak — teshik,
Kimga kerak menday
qashshoq ila qardoshlik...

ISTANBUL TURKUSI

Istanbul bo‘g‘ozidan
Bir faqir O‘rxon Valiyman,
Valining o‘g‘liman,
Ta’rifsiz kadarlar ichinda.

Urumelida yashadim,
Yashadim-u bir turku boshladim:
“Istanbulning marmar toshlari;
Boshimga ham qo‘nmoqda,
qo‘nmoqda omon
Chag‘alay — marti qushlari;
Ko‘zlarimdan boshlanur hijron yoshlari;
Adoligim —
sen tufayli bu holim”.

"Istanbul markazi tomoshaxona,
G'aribligim, mahzunligim bildirmayin onama,
El so'zlashur va sevishur. Men hayrona,
Savdoligim —
Bo'yningga bu uvolim!"

Istanbulda, bo'g'oz ichinda edim,
Bir faqir O'rxon Valiy;
Valining o'g'li;
Ta'rifsiz kadarlar ichida edim.

YO'Q

Qanday qilib bildirsam,
Qanday aytsam sizga dardimni!
Bir og'riqki — yuraklar dardi,
Bir dardki — dushman boshiga.
Ko'ngul yarasi desam...
Yo'q! Unday emas!
Nonning uvoq-porasi desam...
Yo'q! Bunday emas!
Bir dardki...
Chidab bo'lmas,
Chidaydigan shay emas.

OH, QAYDA MENING YOSHLIGIM?

Qayda edi bu mahzunligim yoshlikda?
Ichkin-ichkin yig'lamoq,
Uzoqlarga tolib sharqi kuylamoq.
Haftada zavqli hatto sakkiz kun,
Bugun musiqa, ertaga kino, o'yinlar,
Xushlamadim Oila Bog'chasi;

Uni ham xush ko‘rmading, shahar bog‘i;
Sevganim tillarda doston;
Sevganim,
Mayl ko‘rsatganim;
Tizining tubida — yonida qo‘l panja divon,
Samonlik sayron.
Qayda,
Qayda,
Qayda hozirgiday huzurlanmoq ul zamon?!

DENGIZNI SOG‘INGANLAR UCHUN

Kemalar o‘tar tushlarimda,
Tomlar uzra porlab yaltirab,
Men dengiz intizori,
Dengizin sog‘ingan munglug‘ bechora,
“Necha yilki yig‘larman”.

Xotirlayman dunyoni ilk ko‘rganimni,
Bir midiya[1] qobig‘i aro;
Suvlarning yashili, ko‘klarning moviysi,
Lapinalarning[2] eng to‘lqinlisi...
Hanuz sho‘r oqar qonim
Istridiyalar — molluskalar kesgan joydan.

Nima edi o‘sha dalli ketishimiz
Oppoq ko‘priklardan ochiqlarga,
Oppoq ko‘priklar bilan ochiqlarga?!
Ko‘priklarki, fano qalbli emas,
Ko‘priklarki, dudoqlarga mengzar;
Ko‘priklarki, insonlar bilan visollari,
Zinalari diydor sari — baxt sari.

[1] **Midiya** — chig‘anoq.

[2] **Lapina** — qora qarag‘ay.

Kemalar o‘tar tushlarimda,
Tomlar uzra porlab-porillab.
Men bechora dengizga dog‘man, intizorman,
Men yillarki unsiz zirillab.

BERK BOZOR

Kiyilmagan liboslar bo‘yi qanday?
Bilarsan,
Sandiq qa’rlarida;
Sening ham do‘koning xuddi shunday.
Opamni tanimassan,
Hurriyatga kelin bo‘lmoqchi edi, yashasaydi;
Bu tolalar uning sochidan,
Bu ko‘ylak xuddi uniki.
Bo‘lajak to‘y ko‘ylagidir
Va bu oynalar ichra ayollar,
Bu moviy-moviy,
Bu yashil-yashil ko‘ylakli...
Tuni bilan turisharmi oyoqda shunday?
Berk bozor deya o‘tma;
Yopiq chorsu,
Yopiq quti.

O‘LIMGA YAQIN

Oqshomga yaqin, qish vaqti;
Bir xasta xonasin derazasida;
Faqat menda emas yolg‘izlik holi;
Dengiz ham qorong‘u, ko‘k yuzi ham,
Bir g‘alati qushlar ahvoli.

Boqma, faqirdirman, kimsasizdirman;
— Oqshom atrofida, qish vaqti —

Mening ham savdolar o‘tdi boshimdan.
Shuhratmi, ayolmi, pul hirsimikan;
Vaqti kelsa anglar inson dunyoni.

O‘lib ketamiz deb chekamizmi g‘am?
Ne qildik, ne ko‘rdik foniy dunyoda
Yomonlikdan boshqa?

O‘lgach, kirlarimizdan poklanur dunyo,
O‘lgach, biz ham yaxshi odam bo‘larmiz;
Shuhratmi, ayolmi, pul hirsimi,
Barchasini unutamiz.

ANGLATA OLMAYMAN

Yig‘lasam, tovshimni eshitasizmi
Misralarimdan?
Tegina olasizmi
Qo‘lingiz ila ko‘z yoshlarimga?

Bilmasdim, sharqining bu qadar go‘zal,
So‘zlarining esa kifoyatsiz ekanin
Bu dardga mubtalo bo‘lmasdan avval.

Bir joy bor, bilaman;
Har neni so‘ylamoq mumkin;
Juda yaqinlashdim, tuymoqdaman;
Ayta olmayapman,
Anglata olmayapman.

ILXON BERK

Ilxon Berk (1918–2008) Turkiyaning Manisa shahrida tug'ilgan. Bodrum shahrida vafot etdi. 1944-yilda Anqara G'oziy pedagogika institutining fransuz tili bo'limida ta'lim olgan. Shoirning chop etilgan she'riy to'plamlari:

"Istanbul" (1947), "Xayrli tong, yer yuzi" (1952), "Turkiya qo'shig'i" (1953), "Ko'ro'g'li" (1955), "Galiley dengizi" (1958), "Mix yozuvi" (1960), "O'tov" (1961).

* * *

Qachonki seni o'ylasam,
Bir jaylon suv ichmoqqa inar,
Keng o'tloqlar kelar ko'z o'ngimga.

Har oqshom sen-la
Yashil bir zaytun donasi,
Bir parcha moviy dengiz
Olar meni.

Seni o'ylagan sari
Gul ekaman qo'lim yetgan har yerga.
Otlarga suv beraman,
Yanada ko'p sevaman tog'larni.

YO‘LDAN O‘TGAN BIRI

Bir qaldirg‘och, bir suv birikmasi, bir parcha ko‘k;
Bir she’rdan tushgan bo‘lishi kerak bular,

Shunday derdi yo‘ldan o‘tgan biri.

GUL 2

Bu ko‘cha qayga eltadi?
Bir gulga boqib shunday deyman.

LOGOS

She’r bir ma’noda daraxtni yaproqlaridan ko‘rishga intilishdir.
Har ne u damda gizlidir.

KULBA

Sevgilim, mana sentabr
va mana sening pinhon ... yuzing.

Vaqtki so‘ngsizdir.
Bitmagan she’rlar kabidir.

Ba’zi hazinlarni
Ba’zi daryolarni tutib anglatmoq kabidir.

Bizki vaqtni tirnoq ichiga olib yashadik
Istakning jirkanch qirg‘og‘ida.

Shundan emasmi bizning sevgimizda
Mudom bir oqshom hazini bor.

GO‘ZALLIGING ISTANBUL KABI

Qirollik o‘lkangga yetishdim,
Qoldim ko‘lka tanimagan go‘zalliging ila.
Har tong ulg‘aytirar dengizimizni bu tarz
Kulishlaring edi bul o‘lkada bilmasmanmi.

Sen o‘sha chiqqan suvlarsan, zanjim mening,
Dengizga boqqan uylar kabi edim sen ila.
To‘xta, kelmoqdaman, qo‘llaring qanday go‘zal,
Meni shay et, kulishlaringni kuta olay.

Sen ketganim ul o‘lkasan, borilmassan,
Urilgan qanday so‘ngsiz eng go‘zal suvlarga
Istanbul baliqlari kabi go‘zalliging.

Endi har yerda qanday go‘zal edingiz — qolgan
Sado ekan dengizlarga, o‘zga ayollarga,
Dunyoda siz bilan Istanbul bo‘lmoq bor ekan.

RONDO

Uyg‘onish bir ishq demoq edi bu dunyoda
— Ovozing gul-u tark etmoq kabi bir narsa.
Qoraydim, qog‘oz kabi edim tiriklikda,
Otim ko‘rsangiz har kun o‘sha dengizlarda edi.
Ming yil bir M tovushida edim quyi Misrda.

Ma’lum emasmidi, men urdim sevgilarga,
Ming yil seni kashf etdim, mana, yolg‘izligimda,
Qay zamon oydinligida ismim o‘tganmidi
Bir ishq demak edi bu dunyoda.

Bir zamonlar yolg‘izlik go‘zal edi Misrda —
Sen ila yap-yangi ko‘klarda ketilardi,
Boqdimmi, buyurdi bir nilufar edi yodimda,
Endi bir soyadir uzar vodiylarimda,
Shunday uyg‘onardim-ku, uyg‘onmoq emasmidi
Bir ishq demak edi bu dunyoda!

ATTILA ILXON

Attila Ilxon — shoir va yozuvchi Attila Ilhon 1925-yilda Izmir viloyatining Menemen qasabasida tug'ilgan. "Haqiqat", "Demokrat-Izmir" gazetalarida muharrirlik qilgan va bosh maqolalar yozib turgan. 1973-yilda Anqaraga joylashgach, "Bilgi" nashriyotida maslahatchi bo'lib faoliyat ko'rsatgan. 1980-yildan keyin Istanbulga kelib, "San'at voqeasi" jurnalida mas'ul muharrirlik qilgan. "Jabbor o'g'li Muhammad" she'ri 1946-yilgi she'r musobaqasida 2-o'rinni egallagandan so'ng shoir nomi ko'pchilikka ma'lum bo'ldi. "Mahbusning kundaligi" kitobi esa 1974-yilda "Yunus Nodiy" mukofotigi loyiq deb topildi. She'r va tanqidiy maqolalari "Kun", "Yosh nasl", "Qadam-baqadam", "Fikrlar", "Borliq", "Oila", "Yigirmanchi asr", "Tanlangan hikoyalar", "Yetti tepa", "Do'st", "Yelkan", "Jumhuriyat", "Millat san'at voqeasi" kabi jurnal va gazetalarda e'lon qilindi. Attila Ilhon bir necha filmlar ssenariysi muallifi hamdir: "Sakkiz ustunga shior" (1982), "Burgutlar baland uchar" (1984), "Ertaga endi bugundir" (1986), "Yulduzlar kechasi kattadir" (1992), "Teleflash" (1993). She'r to'plamlari: "Deyun" (1948), "Tumanlar xiyoboni" (1954), "Yomg'ir qochqini" (1955), "Men senga majburman" (1960), "Balo chechagi" (1962), "Taqiqlangan sevgi" (1968), "Mahbusning kundaligi" (1973), "Shunday bir sevgi" (1977), "Ko'lda bor huzun" (1982), "Qo'rquvning qirolligi" (1987), "Ayriliq ishqqa tegishli" (Barcha she'rlari, 2001). Attila Ilhon bir necha romanlar muallifi ham: "Ko'chadagi odam" (1953), "Zanjirlar bir-biriga o'xshamas" (1957), "Bo'rilar dasturxoni" (2 jild, 1963, 1964), "Pichoqning uchi" (1973), "Sirtlonning o'lishi" (1974), "Yaraga tuz bosmoq", "Yomon holda Leman" (1980), "Dorussaodatda voy" (1984), "4 qorong'ulikda biz" (1987) kabilar. 2005-yilning 11-oktabrida vafot etgan.

Tarjimon

SAQLA

Kelajagim saqla dedi,
Saqladim u kelmadi.
O‘lim kabi bir ish edi,
Ammo hech kim o‘lmadi.

UCHINCHI SHAXSNING SHE’RI

Ko‘zlarimga tushganda ko‘zlaring,
Falokatim edi bu — bo‘zlardim.
Meni sevmas eding bilardim,
Sevganing bor edi tuyardim,
Cho‘pday ozg‘in nimjon bir yigit
Xayrsiz bir yigit fikrimcha
Qachon chiqib qolsa qarshimdan
O‘ldirib qo‘yishdan qo‘rqardim
Falokatim edi u — bo‘zlardim...
Ne vaqtki sohildan sohilga o‘tsam
Bandargohda kemalar turardi,
Og‘ochlar qush kabi kulardi
Va shamol aqlimni olardi.
Sen sassiz sigara yoqarding
Barmoqlarim uchini yoqarding
Kipriklaring ostidan boqarding...
Ich-ichim titrardim muzlardim,
Falokatim edi bu — bo‘zlardim...
Oqshomlar bir roman kabi bitardi
Jezabel[1] qon ichida yotardi
Bandargohdan ul kema ketardi
Sen qalqib kemada ketarding
Gazchiroqday[2] charog‘on ketarding

---

[1] **Jezabel** — kemaning nomi.

[2] **Gazchiroq** — Istanbul ko‘chalaridagi chiroqlar gaz yoki benzin bilan yondirilgan.

U bilan tong qadar qolishing
Xayrsiz edi fikrimcha
Kulgusi azaga mengzardi
U seni bag‘riga olgandir
Falokatim edi bu — bo‘zlardim...

MUSHTIPAR CHECHAK

Alsanjak bekatiga birga keldilar,
Tun. Bekat soati — mushtipar chechak
Hech nimaga qarashmasdi bosh egib — erkak
Battol varajadan titrab borardi,
Qo‘llari zanjirdan ko‘kargan edi,
Ayoli sumkasini ko‘targan edi.

MEN SENGA BURCHLIMAN

Men senga burchliman, bilolmassan,
Otingni mix kabi yodda tutaman.
Ulg‘aygancha ulg‘aytir ko‘zlaring,
Men senga burchliman, bilolmassan,
Ichimni isming bilan isitaman.

Daraxtlar kuzakka hozirlanmoqda,
Bu shahar o‘sha eski Istanbulmikan?
Qorong‘uda bulutlar parchalanmoqda,
Ko‘cha chiroqlari yonar nogahon,
Yo‘laklarda yomg‘ir hidlari,
Men senga burchliman, sen mahrumsan.

Sevmoq qay bir zamonda razillikday qo‘rqinchli,
Inson bir oqshomda tuyqus toliqur,
Asir ustara og‘zida yashaganidan

Qay bir vaqtda qo‘llarini kesar qutqusi,
Qancha hayot paydo aylar yashamog‘idan,
Qay bir zamon qay eshikni qoqsa,
Orqasida yolg‘izlikning to‘ng‘izona xirillashi.

Fotih-da yo‘qsul bir grammofon yangratar,
Qadimdagi bir juma haqida kuylar.
To‘xtab go‘sha boshida tirqishsiz tinglasam,
Senga ishlamagan yangi bir ko‘k keltirsam,
Haftalarki qo‘llarida uvalanmoqda,
Ne qilsam, ne tutsam, qayga ketsam?
Men senga burchliman, sen mahrum.
Balki, iyunda moviy xolli go‘daksan,
Oh, seni bilmaslar kimsalar, bilmaslar,
Bir sel sizib chiqar kimsasiz ko‘zlaringdan,
Balki, yashil qishloqda uchoqqa minarsan,
Shalabbo bo‘lgansan butkul, tuklaring tikkayar,
Balki, ko‘rsan, xarobsan talosh ichida,
Yomon shamol sochlaringni eltmoqda.

Qay vaqt yashamoqni o‘ylasam,
Bu bo‘rilar ziyofatida, balki, mushkul,
Aybsiz faqat qo‘limizni iflos etmasdan,
Qay vaqt bir yashashni o‘ylasam,
Jim bo‘l deya isming bilan boshlayman.
Suvi tinmay qimirlaydi sirli dengizlarning,
Xayr, boshqa turli bo‘lmagay,
Men senga burchliman, bilolmassan.

QO‘LDA BOR HUZN

Deydilarki,
Avvallar biz bu yolg‘izlik dunyosida
Kulishardik ziyoda,
Pir-pir yulduzlanardi qanotlari

Qahqaha qushlarining,
Zamonlari o‘zgardi.
Ayriliq kirdi oraga,
Hijronga tushdik bugun,
Oh, qayda yoshligimiz.
Sohilda to‘lqinlarning yovvoyi g‘alayoni,
Yer-u ko‘kni yangratgan tantanavor g‘azallar,
Qo‘lda bor huzn.
Ul xalq bayrami faqat chiqarmi aqldan,
Taralar kechaga rangin mushaklar uchquni,
Shalabbo oshiq injasoz,
Qadahlarning oyga ko‘tarilmog‘i
Odatiy to‘y.
Hayot zamonda iz qoldirmas,
Bir bo‘shliqqa tusharsan bir bo‘shliqdan,
Birikib qaytadan sachramoq uchun
Qo‘lda bor huzn!

NASIMIY CHAMAN

Nasimiy Chaman — baxshi-shoir. 1931-yilda Adananing Soyimbeyli tumanida tug'ilgan. Qaysarida, Anato'lu alaviylari keng tarqalgan Albistonda, so'ngra Istanbulda yashagan. Maktabni bitirgach, qo'l kuchi bilan kun ko'rdi. Kichik yoshdan xalq qo'shiqlarini kuylagan Nasimiy folklorni yaxshi o'rgandi, xalq baxshilariga ergashdi. Soz chalib, o'zi she'r to'qib, o'zan — xalq shoiri bo'lib tanildi. Juda ko'p folklor namunalarini yig'ib, ijro etib, turk radiosiga meros qilib qoldirdi. Yashar Kamol, Yilmas Kunay, Mahzuniy Sharif kabi zamonining mashhur yozuvchi-shoirlari, baxshilari bilan davradosh bo'ldi. 1993-yilda, Sivasdagi Madumak mehmonxonasida o'tkazilgan anjuman qatnashchilaridan 35 san'atkor aqidaparast qotillar tomonidan yoqib o'ldirildi, ular orasida Nasimiy Chaman ham bor edi (4-qavatdan otib yuborilsa ham, Aziz Nesin tirik qolgan). Ustozi Pir Sulton besh yuz yil oldin dorga osilgan bo'lsa, uning asarlarini kuylab, xalqqa tanitgan Chaman ham jaholat qurboniga aylandi. Istanbuldagi Qorachaahmad mozoriga qo'yildi.

Tarjimon

DARDLIMAN

Qolibman o't ichra, o't yoqqan kimdir?
Hol bilmas yordir u, yordan dardliman.
Kuydirdi ishqimning o'ti bag'rimni,
Parvonaman, yongan nordan dardliman.

Ming orzu, xayolga chog'ladi meni,
Bir qadim iqrorga bog'ladi meni,
O'zi gul, tikan-la dog'ladi meni,
Hidlashga qo'ymagan xordan dardliman.

Vayron bo‘ldim, chekdim yorning qahrini,
To‘latib ber, ichay ishqning zahrini,
Muhabbatga berdim ko‘ngil bahrini,
Zamon zor-zor kechdi, zordan dardliman.

NOZLI YORIM

Tingla dardim, nozli yorim,
Sendan boshqa yorim bormi?
Umrim — qora ko‘zli yorim,
Sendan boshqa yorim bormi?
Oraga yov kirmay o‘lsin,
Yot alaflar unmay, so‘lsin,
Olloh o‘zi shohid bo‘lsin —
Sendan boshqa yorim bormi?
Nasimiy sen kulsang kulur,
Yo‘lingda u qurbon bo‘lur,
Chin do‘st doim do‘st deb o‘lur —
Sendan boshqa yorim bormi?

HAQ UZOQ EMAS

Qulog‘ing och, tinla, aytay so‘zimni,
Yolg‘on so‘z rost so‘zga bir tuzoq emas.
Ahli irfon to‘la haqning makoni,
Haq-nohaq ommadan haq uzoq emas.
Irfon majlisiga kirmagan kishi
Xomdir, undan olis haqning otashi,
Yoyilmas- zahardir uning non-oshi,
La’nat barchasiga, bu mazoq emas.
Inson haqlarini haq bilgan kishi —
Oq oyna, qoraytmas yolg‘on mish-mishi,
Komilga tosh otmoq johillar ishi,
Johildan yomonlik hech uzoq emas.

Saqla o‘zni o‘zdan, Nasimiy, sokin,
Majlisi arkondir, adabdir haqqing,
O‘zini bilganga haq bo‘lgay yaqin,
Har daming dargohda, gohi-goh emas.

JAMOL SURAYYO

Jamol Surayyo (1931–1990) Turkiyaning Arzinjon shahrida tug'ilgan. 59 yoshida Istanbulda vafot etgan. Anqara universiteti siyosiy fanlar fakultetini tugatgan. Shoirning chop etilgan she'riy to'plamlari:

"Uverjinka"(1958), "Sarguzasht" (1965), "Meni o'p so'ngra yarat meni" (1973), "Tubsizlikda gullagan" (1984), "Kuz bitigi" (1988), "Issiq taqa" (1988), "Savdo so'zlari" (1990).

8.10 KEMASI

Ovozingda nima bor bilasanmi
Bir bog'ning o'rtasi bor
Moviy ipak qish chechagi
Tamaki chekish uchun
Ust qavatga chiqmoqdasan

Ovozingda nima bor bilasanmi
Uyg'oq turk tili bor
Ishingdan mamnun emassan
Bu shaharni sevmaysan
Bir odam gazetasini qatlar

Ovozingda nima bor bilasanmi
Uy to'zg'inligi bor
Gohida qo'lingni bosh uzra ko'tarib
yelda to'zgan yolg'izligingni
Tuzatmoqdasan.

Ovozingda nima bor bilasanmi
Aytolmagan so‘zlar bor
Arzimas narsalar balki
Ammo kunning bu soatida
Xotira kabi turarlar

Ovozingda nima bor bilasanmi
Aytilmagan so‘zlar bor

ISHQ

Endi sen turib ketmoqdasan. Ket.
Ko‘zlaring qolarmi, ular ham ketmoqdalar. Ketsinlar.
Holbuki, men sening ko‘zlaringsiz turolmayman, bilasan.
Holbuki, Olloh bilar, bugun yaxshi uyg‘ongandik
Sevgiga edi ilk ochilishi ko‘zlarimizning, yolg‘iz unga.
Bir qush qo‘nib barmoqlarimga, uzoq-uzoq sayragandi.
Sevishmoq kelgandi xayolga, qaytib ketmagan...
Yo‘q edi kecha oldingi kunlardagi yo‘qsilligimiz,
Go‘yo hech bo‘lmagandi.

Holbuki, qalbim mudom g‘oyat dukillamoqda edi
Shu yerdadir sening ko‘zlaringdagi qarovsiz moviy dengiz,
go‘zal so‘zlar,
Istanbullar.
Shu yerda-da borlig‘ing ortmoqda edi tegingan sari so‘zlaring,
dunyolaring.
Shunday tuzatguvchi,
shunday o‘rniga keltirguvchi edi sevmoq.
Ki Qorako‘y ko‘prigiga yomg‘ir yog‘arkan,
Qo‘ysalar, ko‘kyuzi o‘zini ikkiga bo‘lardi,
Chunki ikki kishi edik biz...

BILAMAN SENGA BORAR

Bilaman senga borar yo‘llar berk
Buning ustiga sen hech qachon sevmading meni

Naqadar yaqindan va orada sharshara
Insonlar uylar oramizda devorlar kabi

Uyg‘ondim uyg‘ondim mudom seni o‘yladim
Yolg‘iz seni yolg‘iz sening ko‘zlaringni

Sen Xonim nihoyat sen o‘limim qolimim
Men endi odam bo‘lmasman bu dardga tushgach

Mana endi bir it kabi kezaman u yon-u bu yon
Holbuki mag‘rur bir insonman aslida inon

Necha bor senga qirg‘oqdan boqdim 5.45 kemasida
Qay bir qo‘shiqni tinglasam biz uchun aytilmish go‘yo

Javobsiz ishq kimsani naqadar telba aylar
Qanday unutgan ekanman sening boshqani sevishingni

Yosh boladek va seni injitgan hollarim bo‘ldi
Afv et qayta takrorlanmas endi aslo

Uchrashmaslik uchun qo‘limdan kelganin qilgum
Bu juda ham oson emasdir garchi

Ko‘nikgum seni yolg‘iz tushlarimda silamoqqa
Bunday tuygan baxtiyorlik kam emaski

Tark etib ketarman bu kentni yoxud
Sensizlikning nomi bo‘lar ma’nosi bo‘lar balki

Inon ayon etmasman seni sira bezovta etmasman
So‘nggi istagimni ayta olurman endi

Oyim juda yosh ekanman vafot etdi
Meni o‘p so‘ngra yarat qayta

UVERJINKA

Yana bir bor bu tariqa bo‘ylaymiz
Ulug‘ joylaringdan,
Eng uzun bo‘yning bu sening tayanmoqqa
Yoki umid uzmoqqa,
Lolalidan dunyoga qarab borayotgan
Bir tramvaydamiz.

PESHIN

Otasi arqon o‘rniga ilonga tortilgan,
Bir bolaning ortiqcha qo‘rquvi shundan,
Bo‘ynidan ohista yechilib
Otilgan arqoni tambur navosiga uzanur.

Ko‘kda bir muddat toyar nigohi
Bo‘sasi xanjarlangan bir ayolning,
Tutinajak joy topmagach,
Ketar, bir irmoqda qaror etar.

Va qurir ekan ko‘z yoshlari,
Shovqinsiz bir oq oltinni
Sekin-asta endirar
Jallodining tomirlariga.

Ey sevimli sevgim, yolg‘izlik
Sening kunda birga ko‘chalaringda
To‘lug‘ bir peshin tush
Bir qush oyoq qoqishi va o‘limin
Jon uyiga surgun etar.

Bir shahar ayt menga, hech narsa anglatmasin
Shimolga chiqmoq jo‘shqusidan boshqa.

ABDURRAHIM QORAQO'CH

Abdurrahim Qoraqo'ch — 1932-yilda Turkiyaning Qahramon marash eli(viloyati)da tug'ilgan. U lirika va hajviyotda birday muvaffaqiyat bilan ijod qilib kelmoqda. Uning bobosi ham shoir bo'lgan, qardoshlari Bahovuddin Qoraqo'ch, Sazoyi Qoraqo'ch ham mashhur shoirdir. A. Qoraqo'ch mahalliy hokimiyat tashkilotlarida ishladi, 1985-yildan beri matbuot sohasida xizmat ko'rsatmoqda. 12 she'r kitobi va bir maqolalar to'plami nashr etildi. Shoirning lirik va hajviy she'rlarida ijtimoiy mavzu yetakchilik qiladi. Uning ilk bor o'zbekchaga o'girilgan she'rlari ham bu fikrimizni isbotlaydi, deb o'ylaymiz.

Tarjimon

TUN OQSHOM

Po'lat pichoq bilan suvlarni kesdim.
Suvlarni yuvdim-da, devorga osdim...
Tushimda tushimga kirdim tun oqshom.

Bulutga yaslandim, nurlarni tutdim.
Onamni esladim, esni unutdim...
O'zimdan o'zimni so'rdim tun oqshom.

Yo'llarni to'pladim, bir to'p ayladim,
Musalloni manzur manzil sayladim,
To'xtovsiz o'ylanib turdim tun oqshom.

Tuprog'ni bo'yadim, o'tlar yig'ladi.
O'tirdim, qalqmadim, otlar yig'ladi...
Tutdim yo'rg'inlikni yo'rdim tun oqshom.

Dardlar kechicharkan, borib yo‘qladim,
Yirtiq bo‘xchalarda umid saqladim.
Qayg‘ular qo‘shinin qirdim tun oqshom.

Shishada tutqundir bir chechak isi
Yog‘di yuragimga rang-rang qo‘rqusi...
Yo‘q yerga yo‘qlikni surdim tun oqshom.

Oy chiqdi. Ko‘lkalar cho‘kdi ustimga,
Hijron olov-olov oqdi ustimga,
Ko‘zimni yo‘llarda ko‘rdim tun oqshom.

Oydinlikka chopdim — qorong‘ilik chiqdi,
Har sevgi. Har vafo bir onlik chiqdi...
O‘zimdan o‘zimga bordim tun oqshom.

Do‘stimga she’r bitdim, xotira dedim.
Balki bir do‘st kelib, o‘tirar dedim...
Ko‘nglimni tuproqqa qordim tun oqshom.

OYNANING IKKI YUZI

Tepada mol semirsa, semirib, suzganni ko‘r,
Undan qochib, yumalab, loy suvda yuzganni ko‘r.
Bir o‘lka yonib yotsa, yonboshlab yeb yotganni,
O‘t o‘chirmay, baqirib, olamni buzganni ko‘r.

TANISH

Bu kirli muhitning muhrdorlari
Azroilga pora bermoqni o‘ylar;
O‘larkan dunyoning eng ayyorlari
Tanish-la jannatga kirmoqni o‘ylar.

ILON YAXSHIDIR

Sizning "haqiqat"dan nafratlanaman,
Yolg'onni suyaman, yolg'on yaxshidir.
To'ydim shu guldan-u maddoh bulbuldan,
Ilonni suyaman, ilon yaxshidir.

Shu chirik odatlar xo'p jonga tegdi,
Yaltoqi nochorlar ko'p azob chekdi,
Kim bo'lsa o'ziga — afandi, bekdir,
Hayvonni suyaman, hayvon yaxshidir.

Mayli, shuyam oxir jinni bo'pti, deng,
Haqqimda ming turli mish-mishlar to'qing,
Yelkamdagi yukdir tirigingiz, men
O'lganni suyaman, o'lgan yaxshidir.

UCH OYDA TUG'IL, KEL

(Chaqaloqqa xat)

Talonchi talasin, olg'irlar olsin,
Deb onang qornida yotasanmi sen?
To'qson kunda tug'il, to'qqiz oy qolsin,
Tug'ilishga shoshil, shoshil, qo'rqma hech,
Bo'lmasa yag'modan kech qolasan, kech!

O'tkinchi shu zamon o'tmasdan burun,
Har uydan uch boyqush ketmasdan burun,
"Davlat mulki — dengiz",[1] bitmasdan burun,
Tug'ilishga shoshil, shoshil, qo'rqma hech,
Bo'lmasa yag'modan kech qolasan, kech!

[1] Turkiyada keng tarqalgan "Davlat mulki dengizdir, yemaganlar to'ng'izdir" degan maqolga ishora *(tarj.)*.

Mansab bir tortiqdir, hadyadir unvon,
Poraning nomi ham sovg‘a, armug‘on,
Tag‘in sen nimani kutarsan, o‘g‘lon —
Tug‘ilishga shoshil, shoshil, qo‘rqma hech,
Bo‘lmasa yag‘modan kech qolasan, kech!

Yuksakka tirmashgan sariyog‘ olar,
Bog‘lab bergan borki, yana bog‘ olar,
Bir jiyan izlaydir o‘g‘ri tog‘alar,
Tug‘ilishga shoshil, shoshil, qo‘rqma hech,
Bo‘lmasa yag‘modan kech qolasan, kech!

Ekranda bezdirgan, irganch yuzni ko‘r,
Joduli serial, buzuq qizni ko‘r,
Ularni ko‘r avval, so‘ngra bizni ko‘r,
Tug‘ilishga shoshil, shoshil, qo‘rqma hech,
Bo‘lmasa yag‘modan kech qolasan, kech!

NAJOT BIRDO'G'AN

Najot Birdo'g'an — Oshiq Jabriy 1934-yilda Ig'dirda dunyoga kelgan. Shoirning otasi ham xalq she'riyati bilimdoni, baxshi bo'lgan, soz chalgan, she'r yozgan.

O'rta maktabni bitirgach, Anqara G'oziy ta'lim institutida o'qidi, ancha yil muallimlik qildi. Forscha va usmonlichani yaxshi bilgan Birdo'g'an kirilchani ham o'rgandi, ko'p kitoblarning nashriga o'z ulushini qo'shdi.

Shoir 2001-yilda Istanbulda vafot etgan.

Asarlari: "Semohlar" (1982), "Guluzori Hasanayn" (1985), "Notalarda turkularimiz"(1987), "Hasan ota qasabasi va Hasan ota" (1992), "Alaviylik va yo'l kesishmasi" (1995), "Ko'ro'g'li" (1996) va boshqalar.

MENDAN HAQNI SO'RGAN O'G'LON

Mendan Haqni so'rgan o'g'lon,
Xabar ol oshiq sozidan,
Tori payg'ambar og'ochi,
Pardasi Ali bo'g'zidan.

Alif, Haqqa nishon toshi,
Haqiqati ochar boshni,
Eshikdan boshlangan ishni
Olar turna ovozidan.
Shoh pardani bosgan barmoq,
Niyoz etar Xaqqa bormoq,

Kuchin olar oqqan irmoq
Haq imomlar duosidan.

Sidq ila olgin bag‘ringga,
Darmon yetar og‘rig‘ingga ,
U do‘stining devoriga
Hissa qo‘shadi o‘zidan.

Jabriy, bunda tilli Qur’on,
Ham arkonli, yo‘lli Qur’on,
Qo‘limizda dilli Qur’on,
Yurarmiz Haqning izidan.

TAJALLI KUNIDA

Tajalli kunida, jon maydonida
Qaytmam deya pir etagin tutgan bor.
Ming parcha ko‘ringan birning shonida
Dunyo molin qadr-qimmatsiz sotgan bor.

Farhod tag‘in tutdi Shirin qo‘lidan,
Haqiqat berilar pirning qo‘lidan,
Guliston ichida xorning qo‘lidan
Tegirmon qurib-da dard o‘qitgan bor.

Ul amrni berib uryon aylagan,
Qaytib o‘z-o‘zini sayron aylagan,
Jamolni jamolga hayron aylagan,
Oq tuyaga o‘zini yuk etgan bor.

Sodiq bo‘lgan bilan do‘st xarobini,
Yetarki, to‘ldirsin ko‘ngil jomini,
Visol mazasi-la ol sharobini,
“Hu” chekib-da yutum-yutum yutgan bor.

Ko‘k yuzida bulutmidir, qushmidir?
Boqing, do‘stning xotirasi xushmidir?
So‘rar esang, ko‘ngil uyi bo‘shmidir?
Jabriy, derlar bir ko‘chada yotgan bor...

HOY, ERANLAR

Hoy eranlar! Madad, murvat
Judo do‘stim nigohidan.
Qo‘lim yerda, o‘zim dorda,
Oling meni gunohidan...

Ajratdim “men”dan o‘zimni,
Otashdan oldim so‘zimni,
Qizg‘anganman tig‘bandimni
Go‘zal “eranlar Shohi”dan.

Men mendagi “men”ni yiqdim,
Birlikning ko‘shkiga chiqdim,
Ko‘ngil chirog‘ini yoqdim,
Nuri keldi panohidan.

Topsang gar dunyo xosini,
Kibr qilma libosini,
Necha zolim jazosini
Chekar mazlumning ohidan.

Namozimiz qolur, illo,
Darmonimiz bo‘lar, illo,
Umid qushi kelar, illo,
Ul Duldulning sipohidan.

Toshim — bir, harjim — o‘n ikki,
Yukim — bir, xurjun — o‘n ikki,
Kalom — bir, burchim — o‘n ikki
Jabriy, ko‘ngil dargohidan...

EY, YORONLAR, BOZORIM BOR

Ey, yoronlar, bozorim bor,
Hol ahliga hol sotarman.
Torozu, tortishuv yo‘qdir —
To‘ygunicha bol sotarman.

Peshtaxtada so‘z so‘ylarman,
So‘zimni gul-la boylarman,
Jabr-u sitamni naylarman,
Men tikansiz gul sotarman.

Yoronlar, bir bozor qurdim,
“Haq” dedim-u, sobit turdim,
Ishqimning muhrini urdim,
Do‘st muhri-la pul sotarman.

Men sarrofman, inja tuzdim,
Javhar dengizida kezdim,
Aql elagida suzdim,
Jabriy, aqli kul sotarman

JOHID ZARIFO‘G‘LI

Johid Zarifo‘g‘li (1940–1987) Anqarada tug‘ilgan, Istanbulda vafot etgan. Istanbul universiteti olmon filologiyasi fakultetida tahsil olgan. Shoirning chop etilgan she’riy to‘plamlari:
“Yetti go‘zal odam” (1985), “She’rlar to‘plami” (1990).

* * *

Yosin o‘qilgan tutatqi tutagan bozorlardan
Kechardi otam
Boshida yomg‘ir halqalari.

Onam yashil xirqalar ko‘rardi tushida
Hali ilk go‘zalligida
Manglayini ikki tog‘ning orasiga tiramish
Bir devning ko‘ksiga o‘xshash
Ko‘ksidan duolar kecharmish.

Bozorlar qo‘llarida non ninalari
Jomi hovlilariga ochilgan
Hovuz suvlariga diqqat-la boqqan bolalar
Ko‘rmasdan quyoshning butun ranglarini
Olib bormas edilar do‘kondagi otalariga
O‘choqdan oqqan qaynoq ovqatlarni
Buvilari quygan hovuch laganlariga.

Boshi va yuragi shohboz
Qal’alarni makon tutgan ayollarning
Bezaklarini kamarlarini
Boshlarini og‘irlashtirgan

Og‘ir qora shalola sochlarini
Tutgach yosharardi erkaklar.

So‘ngra inson u dengizda
Kichik va katta daryoda
Tanni ho‘llatgan afsunli suvda
Avval niyat so‘ngra yuvinardi.

Vaqt dard keltirdi suvlarga
Ichida eski baliqlar yotgan qoyalar
Jang qilgan insonlarning qo‘lida
Mayin yo‘nilib tashindi bolta nayza shaklida.

Onam qonlari qurigan
Janjalni ayirgan bir kosov qo‘lida
Qora o‘choqning toshlariga
Ishorat qo‘ydi
Bolalarini
Belida kezdirgan otamning
Oq yozuvlar bilan qozongan nomlarin.

Otamning yuragi qo‘rquv bilan quvvatlandi
Unutib yosh kelgan kunlarni
Vaqtning surarkan chekkan kunlari
Qiyin jumboqlar-la
Surdi otini shaharlarga.

Jun qirqqan ot boqqan ayollar
O‘rmonlarga tepadan egilgan tuproq uylarda
Kichik oynali qorong‘u tor xonalarda
Uzoqdan uzayib kelgan bo‘ri tovushlarining
Uzoqqa yoyilib ketgan
Ayozda qotgan kulishlar ichra
O‘rmonlarda sut emizgan ona
Unutdi borgan sari uzaygan bolasini.

Doim qocharmish shaharlarning
Temir tog‘lariga

Uxlagancha tuproq beshigimda
Sohibsiz qolgan
Qo‘llarimdan toygan yorug‘ kunlarim.

* * *

Xotiralar daftarida gul yaprog‘i
kabi unutildim, quridim,
Boshimga tushdi savdo to‘ri,
Yolg‘izlikda tanholarda mahv bo‘ldim.
Sen kim biladi yelli etaklaring-la
Qaysi iqlimdasan,
Men sensiz bu sukunatda
Dalilar kabiman
Sensiz bu sukunatda.

Ayriliqdan boshim baloda,
Ko‘zlaringni tik ko‘zlarimga,
Yo‘qsa men
Sensiz bu sukunatda
Dali kabiman
Sensiz bu sukunatda.

* * *

Ha esladim
Kichik oddiy narsalar
Yetar kadarlanishga
Yo baxtiyorlikka

* * *

Shoir bo‘lmoqchi edim
Dunyo xaritasida...

* * *

“Naqadar ko‘p dard bor!”

NOYIL TONG

Noyil Tong — shoir, maorifchi, adabiyotshunos olim. 1941-yilda Qastamo'no'da tug'ilgan. Bursa maorif institutini, Milliy muxofaza akademiyasini, Anato'lu davlat universiteti til-adabiyot fakultetini bitirgan. Ko'p yillar Turkiya madaniyat vazirligida rahbarlik lavozimlarida ishlagan.

1998-yilda nafaqaga chiqqan, hozirgacha ilmiy-adabiy ijodni davom ettirmoqda. Ilk she'ri 1961-yilda chiqqan. 550 maqolasi bosilgan. Turkiyada yuzdan ortiq ilmiy anjumanlarda va ellikdan ziyod xalqaro simpoziumlarda ma'ruzalari bilan qatnashgan.

Uning 1974–2012-yillar orasida "Avliyo Chalabiy sayohatnomasida folklor unsurlari", "Otaturk va turk folklori", "Bolalarimizga folklor xazinamizdan namunalar", "Turk xalq o'yinlari" (uch jild), "Folklor va turk kiyimlari", "Folklorimizdagi siyosiy fikrlar", "H. Serpil O'rtach va Xayriddin Ivgin bilan", "Qo'nyo musiqasi", "Turk xalq adabiyoti degan olinmas qal'a" kabi ellikdan ortiq ilmiy asarlari chop etilgan. Bir necha dramasi sahnaga qo'yilgan.

Shuningdek, u "Biroz moviyingiz, yashilingiz bormi" (1990), "Ko'zlaringga bahor kelganda" (2002), "Devorlar orasidagi osmon" (2004) kabi she'riy kitoblar muallifi.

KO'KLAM

Chechaklar quyosh-quyosh bo'lib ochildi,
Yer uzra tug'ilishning to'yi boshlandi.
Irmoqlar, daryolarda qish tund shovullar,
Butoqlarda yashillik shivirlar, kular.

Binafsha va sunbuldir ko‘klamning oti,
U — og‘och, ekinlarning qoni, hayoti.
Tug‘ilgan har jonzotga ko‘klam jon bo‘lar,
Qutular rangsizlikdan qaqshoq tuyg‘ular.

KO‘ZLARINGGA BAHOR KELGANDA

1

Ko‘zlaringga bahor kelganda —
Gul ochilar qo‘lim, yelkamda.

O‘rmonlashar tuyg‘ular yana.
Shu quyoshi yangi yuz yilning
Kuydiradi dudoqni, tilni;
Dunyo, falak tinmay aylanar,
Seni ko‘rgach — to‘xtar, lol qotar.

To‘xta, yorim, kelmaslar bunday,
G‘unchalanib kelmaslar tunda.
O‘rmonlashmish tuyg‘ularim, boq,
Ko‘zlaring och, so‘ngra kiprik qoq.

2

Ko‘zlaringga bahor kelibdir,
Ko‘nglim senga yeldek yelibdir.
To‘xta, yeldan ahvolimni so‘r,
Turnalashdim, bulbullashdim, ko‘r.

Ko‘zim ochdim turli chechakda,
Oppoq bo‘ldim paxta, pechakda.
Shakarlandim anjir, uzumda... —
Yana qanday ketay o‘zimdan?

Semurg‘lar-la keldim bog‘ingga,
Ruh saroying, ko‘ngil tog‘ingga,
Ista — qattol nigohingga os,
Yo kulib boq ma’shuqaga mos.

2001

SUYUKLI OILAM

Tur, degan tovushidan
Har tongda uyg‘onaman,
Ne desa ishonaman —
Onamni suyaman men.

Qo‘limiz, oyog‘imiz,
Yaxshilik bulog‘imiz,
Axloqda bayrog‘imiz -
Otamni suyaman men.

O‘zi yumshoq, latifdir,
Ko‘zi biroz zaifdir,
So‘zi dono, zarifdir —
Buvimni suyaman men.

Kularyuz, totli tilli,
Ko‘p o‘qir, ko‘p aqlli,
Ko‘zoynakli, soqolli —
Buvamni suyaman men.

RAFIQ DURBOSH

Rafiq Durbosh (1944–2018) Turkiyaning Izmir shahrida tug'ilgan, Istanbulda vafot etgan. Istanbul universitining Adabiyot fakultetida tahsil olgan. Shoirning chop etilgan she'riy to'plamlari:

"Qush to'foni" (1971), "Hujramda oy nuri" (1974), "Shogird izlanmoqda" (1978), "Ikkinchi nashr" (1979), "Choylar shirkatdan" (1980), "Qayoqqa uchar ko'kyuzi" (1983).

TO'G'RI BIR ISHQ SHE'RI

Seni ilk ko'rganim kun
Kabi turar ko'k yuzi
Ikki qoshing orasida
Ayon emasmi?

So'z uchini yo'qotgan qo'rquvlar
Kunduz bilan kechaning soyasi
Sochlaringni sovurgan shamol
Bir-da qo'lingning qo'limga tegishi
Ikki qoshing orasida

Qanchalar tez va ko'p unutarding

Yurganing yo'l ichganing suv
Tushlaringga urgan oy nuri
Sen uchun ulg'aytganim zaqqum
Ko'z-ko'zga kelishning g'amzasi
Ikki qoshing orasida

Ayon emasmi?
Seni ilk ko‘rganim kun
Kabi turar ko‘k yuzi
ikki qoshing orasida
Ayon emasmi?

Xotirlanmas bo‘lasan sen hatto
ikki qoshing orasida
Javobi yo‘q-sa
Na ishq na ishqning she’ri

She’rmi?

* * *

Unutdim sanashni necha kundir
Otini xotiralarning va po‘rim ishqlarning

Yulduzlar qadar yaqin bo‘lmoq istardim
Toshga yozganim yumshoq kul va yumshoq kadar

Bolaligim yoshida bil meni

Na u o‘tmishdan kelganman na-da kelajak
Bir so‘roq ishorati: ko‘chalar va anvoyi gullar

Qo‘rquv, hayajon, bosiriqishmi
Unutdim
Kimdan armug‘on bu sog‘inchlar

Necha kunlar surinmish bir surgun yoshida
So‘ralmas
So‘ylanur bir ishq edi,
bila olmadim
Hayot bor bo‘lgan har yerda qaysi kechalar

Yulduzlardan-da uzoq bir oqshom,
u yerda
Ayriliq qadar yaqin bo‘lmoq istardim

Alvidolarning yoshida kel...

* * *

Qalbimda qon izlari xotiralarning
Tarchin ifori, balki binafshalar

Balki bir undov ishorati xavotir
Qanday so‘lg‘in va hazin she’rlar

She’rlarda uyg‘onmoq istadim-da

Chunki savolda va so‘roqda kelajak
Kunlar: nening badali bu iskanja

Bu iznsiz g‘urbat
Tuganmas sog‘inch
Kimning nomiga yozildi so‘ylasang-chi

Yuzimda qush saslari dardlarning.

* * *

Avval ham qo‘llagan eding
Bu so‘zlarni: esla

Umrim

Hech bir kun qolmasligin istardim kunlardan
O‘tgan va kelajak yillarga xotira

Uyg‘on uyg‘onsin qanday tayansin bir tong
bor va unut
Kimga yozilsa yozilsin

Yozilar umrim

Bir tong eslagan bo‘lib uyg‘onaman nogoh
Avval ham qo‘llaganing necha so‘zlarni

Umrim
Nogoh bir tong unutma
Unutgan bo‘lib uyg‘onaman seni
Meni va har neni

SAVOL

Avval ham so‘ragan eding
Qalbim
Qovushmalarning bir uchida
Ayriliqlarning bir uchida

Qayerda qanday va nega dema
Qovur bu sog‘inchni

Qalbim
hamon cho‘g‘ otash
hamon izlamoqda g‘urbatini

* * *

Qir gullari keltirdim senga
Bir umid tanish qo‘rquvlar biroz

Kunlar biroz bo‘lsa ham yodingda tut
Va unutma qanday, kimga yozildi
Xotiralarini unutgan she’rlar

QORA YOZ

Umrimning erta damida savdoli
Kech paytida yoshligimning
Unutma
Sevsaydim seni sevardim sevgilim

MANZIL

Kunning quyoshi ursin yuzingga
Bunday bo‘yni egik turma
Hijron
Faqat sendami ayriliqning manzili

JIM BO‘LGANI

Bu qo‘shiq ham unutilar
Otim kabi
Kecha aylanar bo‘ynimda
Otim kabi

Jim bo‘lgani qayerda ko‘rilmish she’rning

MING KECHA BIR KUNDUZ

Qaynagan qoni qorong‘ulikning
ko‘riboq tog‘ni

Tog‘ ko‘riboq seni

* * *

Olib boshin ketmoqdadir oy
Tog‘-la yulduzlar ham
Oy nuri birla

Har ne mumkin bu kecha

* * *

Har kecha bir boshqa
Qorong‘ulikning eshigin qoqar
Bir boshqa bulutning va shamolning

Bir boshqa yolg‘izlikning bu kecha

* * *

Butun yillarni sen qo‘llan
Oylarni haftalarni kunlarni
Soatni va soniyani
Hatto butun asrlarni ham

Umrim senga armug‘on

* * *

Buncha kadardan so‘ngra
Nega o‘pdingki meni
Qo‘lingni qo‘lim ustiga qo‘yding
Ko‘zingni ko‘zim ustiga

Buncha darddan ayriliqdan
Nega o‘pdimmi seni

* * *

Tog‘ kechaning qo‘ynida
Kecha oyning
Oy dengizning
Yuragimla quchmoq istaganim
Necha ayriliq kunduzi
Necha qovushmoq kechasi
Hamon yolg‘izlikning qo‘ynida
Xotiralarim

Hali kelmaysanmi

* * *

Bir meni tanladi
Bir-da tog‘larning sokinligini

Lomakon

* * *

Har kecha sim-siyoh
Har tong qorong‘u

Oppoq bir tog‘ga o‘rang ovozimni

* * *

Tog‘ning bir yuzi lomakon
Narigisi xotiralar

Lomakonni tanladim men

* * *

Sokinlikni kutardim
iforingni bir-da
tog‘ning hovlisida

* * *

Kunlarim deydi
Kunlarim —
Ne buyuk xayolim edi

Vaqt qizg‘anar
Endi
U kunlarni

SATRLAR

* * *

Ismi sharifi yetar manzili kerakmas xotiralarning.

* * *

O‘limga ko‘niktir meni, ayriliqqa aslo.

* * *

Bugun ham yonar ko‘rdim qalbim qo‘rini.

* * *

Naqaroti yo‘q yolg‘izlikning qo‘shig‘in.

* * *

Bu kecha ham oy nurida tunagil qalbim.

* * *

Faqat suvmi qondirar suvning suvsizligini.

* * *

Umrimga hamroh bo‘lar kulishing.

* * *

Bu so‘nggisi bo‘lsin ketganim ayriliq.

* * *

Sirtingga bir xirqa ol dedim yelga.

MOVIY QUSH

Bir moviy chumchuq derazam oldida
Ko‘zlarin bulog‘ida qor zarralari
Muz eritar navosi devonavor ovozidan
Boshi tushdi tushayotgan zulmat yelkasiga.

Bir oshiq odam derazam oldida
Kimsasiz yonmish necha sog‘inch otashida
Qancha sevinch ayozida junjikkan yuragi
Turku chorlar: otash to‘shak yozayin
Tashna qo‘yningga kirayin
Ochilsam o‘ragin meni
Bor ekanim bilayin.
Ovozi uchdi uchajak fig‘on qamog‘idan.

Bir moviy qush, oshiq odam, yolg‘izlik
Oqshom qor yog‘moqda derazamning oldida
Bir anor guliga tushar hijron soyasi
Qo‘li tegdi tegajak sochlariga shamolning.

ISMAT O'ZAL

Ismat O'zal —1944-yilda Turkiyaning Qaysari shahrida tug'ilgan. Anqara Hojattepa universiteti fransuz tili va adabiyoti fakultetida tahsil olgan.

Shoirning chop etilgan she'riy to'plamlari:

"Tundagi bir yugurish" (1966), "Ha, isyon" (1969), "Jinoyatlar kitobi" (1975), "She'rlar" (1962, 1974, 1980), "She'r kitobi" (1982), "Jallodimga tabassum qilarkan" (1984), "Arbain" (1987), "Bir Yusuf ertagi" (2000).

* * *

Yashay bilsaydim yozarmidim hech she'r?
Yashamay bilsaydim yozarmidim hech she'r?
— Yashamoq!
— Eh bilsaydim?
Yozar: Midim
Hech: She'r.

JALLODIMGA TABASSUM QILARKAN CHEKTIRGANIM SO‘NGGI SUVRAT ORTIDAGI SATRLAR

Men ismat o‘zal, shoir, qirq yoshida.
Barchasi men yasharkan bo‘ldi, buni bilsin insonlar
Men yasharkan qo‘pdi to‘fon,
Men yasharkan qayta boshdan yaratildi koinot
Har neni ko‘rdim, ichim rohat
Ko‘k yorildi, tuproqqa jon berildi
Linch[1] etilishim uchun endi butun dalillar qo‘lda
Qozondim nafratini fohishalarning
La’nat etar menga bokiralar-da.
So‘zlarim bor ko‘priklardan kechirmas.
Qo‘rimas kalimalarim birovni o‘tdan
Qilichsizman, hurmatim qolmadi bug‘doy boshoqlarida
Uchdim, ammo uchishim
Radarlar-la kuzatildi
G‘ayrat qildim va so‘kdim
Bu ham qoldi polis qaydlarida.

Bezorining biriman men, buni bilsin insonlar
Ruhimning ortidan tushmish jandarmlar va moliya
Qora ruhli der menga vazifasin oqsatmagan bo‘lsa kim
Laboratoriyada ishlaganlardan so‘rsangiz
Ruhim soxta

Uyi Nepalda qolgan
Slovakiyalik chig‘anoqdir ruhim
Sinflarni to‘g‘ridan kechib
Haqiqatlarni ko‘ra olgan yoshlarning ko‘z o‘ngida.
Ajabo kim bilar to‘g‘risin?

---

[1] **Linch** — jinoyat sodir etishda yoki jamoat urf-odatlarini buzganlikda gumon qilingan shaxsni sudsiz, tergovsiz, odatda, ko‘chada olomon tomonidan osib o‘ldirish.

Hatto men
Ovloqqa qochirganman ruhimni
Go‘yoki ne anglagayman?
Holbuki
Shaytonga sotajak qadar menda undan yo‘q
Talosh ichra bir davlat siri
Yoqtiraman
Chunki bu ruhim bo‘lmasa-da
Saqlanadigan bir yumushdir
Davlat siri bilan birga insonning
Sinematografik bir hayoti bo‘lishi mumkin
U kibor davralardan gizli salovatxonalarga
Sayohatlar
Tamaddixonalar
Qir kezishlari
Va so‘ngida estetik bir
Qatl balki...
Ha-ha ruhi bo‘lmoq
Butun bularni ta’minlay olmas insonga.
To‘g‘ri esa bu hukm
Bu xulosa
Bu natija
Nega unda har neni bulg‘ar
Kechiktirilgan bir konferensiya
Kech yurgan avtobus?
Milliy shefning poyezdi nega oq?
Ruslar nega yurmoqdalar Berlinga?
Bu ne hayrat! Ne telbalik!
To‘rt injildan yuxannani
Tanlashim nega
Men holbuki
Barcha kabi
Barchaning o‘rtasida
Bu yerda
Bu shoh bekatda
Bu qora

Paltoli josusning hamrohligida
Eng o‘qishli chehram ila kutmoqdaman

O‘yindan chiqmayman
Qo‘rqaman navbatim kechar
Chiptam kuyar deya
Oldimda bir quchoq azaliya
Bir necha charxpalak
Keskin chanoqli jasadlari ila
Oldimda minglarcha chechak
Qo‘rqaman navbat senda
Sen ham boshla va bitir deyajak.
E yo‘q
Qilolmas buni
Qilmasin menga dunyo
Ayting
Ko‘zguda ustixonini
Ko‘rishgacha borgan necha -
Necha kishi bor shuning shu yerida?

Keling bir savdolashaylik
Siz bilan ey, insonlar!
Menga yomon
Menga tark etgan tushunchalaringizni bering
U voz kechgan kunlaringiz
Eski yanglishlaringiz
Eh ne telba ekanman degan paytlaringiz
Ularni bering
Nolishlaringizni
Ortiq kulishga arzimas deb bilgan hazillaringiz
Men oshdim ularni deganingiz ne bor bo‘lsa
Bunda achinadigan ne bor deganingiz ne bo‘lsa ular
Bekorga qilgan sa’y harakatlar
Benaf niyatlaringiz
Ichingizda uzuq-yuluq,
Yo‘qsul

Begona
Bering menga
Bering biliboq qilgan gunohlaringizni-da.

Bilaman badaliga sizga
Chek yozishim yarashmas aslo
Buncha yo‘qotilgan talon
Pul bilan o‘lchanarmi hech?

Qarang men bir qancha g‘alat
Ma’rifatlarim qatori
Ajab to‘lov yo‘llari topa olgan biriman
Zimmamda yo‘qdir to‘lov xususida
So‘zning raftori
A’zosi bo‘lganingiz tashkilot yig‘ilishida
Bir so‘ylovga ne dersiz?

Bir so‘ylov
Buyuk insonlik ideali haqida!
Yoxud nomingizga bir loto tashkil eta olaman
Qozonganga vertigolar
Nostalgiyalar
Ayriliqlar chiqar.

Qilinsin odil savdo
Qilinsin qilinar bo‘lsa
Mana qo‘ydim qilmoqni o‘ylagan gunohlarni
Sizning o‘tmish xatolaringiz oldiga.

Ne qilsam
Do‘l sochgan har shamolning
vabosi menda qolajak
Borsin menda biriksin
Turg‘un suvning chinqirog‘i
Yumshatmoqni bilgan otash
Nasihat sohibi tuproq
Qanday bo‘lmasin qaytib berajak
Mening qilichimni.

KO‘NGLIMDAN SHU ZOLIM SHUBHANI KO‘TAR, YO SEN KEL, YO MENI U YOQQA OLGIN

Og‘zining biri qimtinishidan jasorat toparoq
Charchoq qalbda chanqoq yaratgan ter yomg‘iriga ochildim
Qolgan bo‘lsa kurtaklar oldida titrab to‘xtab o‘tuvchi bolalar
Qolgan bo‘lsa bir necha talab o‘lim-la musobaqa etajak
Ularning yordami-la dunyomizga achindim.
Dunyo yalang‘och yelkalar ustida turuvchi
Har kim ko‘nikkan bachadon yashirin oshkor bozorlar
Bilan og‘ulangan bir dunyoga.

Rad et o‘zlashtirma tang dor
Chunki haqir tushunchamning
Kuchi yetmas ba’zi narsalarni tashimoqqa.
Avval qalbim la’natni chopa-chopa gumroh
So‘ngra qalbim gumroh daryolarni tanimoqdan qayg‘uli
Aslo Styuks suvlarining xayoliy manzarasin sanamang
Mard tanida kezgan bulut sehri bu.
Biroz Uzgun va Umar g‘azabida biroz
Go‘yo hisob nazdidamanki qatlim qozilardan so‘ralmas.

Ne oqlangan uylarda tug‘ilgan bo‘lmoq
Ne qo‘llarning tashna omoch tutishi
Ne fabrikalarda bir xil ko‘paytirilar qahr-qayg‘u
Deb ishtahasi ila menda bo‘rtgan ishqni
Qarshilamoqqa yetma.
Insonlar
Bir dunyoga quloq solsa boshqasiga kar
Ul farah va g‘alati ko‘ringan ko‘p peshonalarda
Beton butlarga qulluq zirhi bordir
Po‘lat tolalar va barut[1] chatilgan suyaklarim
Chakkalarimga tayangan quyosh
Jon chekishgan hamdard suvlar adosi ila

[1] **Barut** — porox.

G‘uldirashdan farq etilmagach so‘zlashim
Ayollarning rostdan tug‘ishiga
Tuproqning ham haydalishiga inonmayman
Qanchalar vaqt jamlay olmam hollar ichra holim
Temir oshiq shoirni hijo haroratida
Eriyotganda ko‘rdim
Bir bo‘lagi bo‘lingach silkingan samoni
Suv ichgan jomim menga marhabo dedi eshitdim
Tuydim yomg‘irlarning tanimdan oqqanini.

Sen o‘shal kichik buramdan hijodan
Ishq uchun voha emas oshiqqa o‘tov yaratgan
Sen ul zehnimda suzgan parishon sharqilarni
Bir harfin boshlatgan yong‘in ila so‘ndir
Men bir ovozdor sas sohibi ayla kaforatga hozirman
Shunday mahzun
Ki huzn jildlarida ismiga duch kelmasin.

FINJONDAGI SHO‘R SUV

Vest Indiyes, Qizil Olma, Itoqi, Mochin!
Uzoq yo‘lga chiqmoqqa qaror ayladim.
Oqsuyaklar muhitida nasibam qolmadi
Yerlilarning tuproqlariga qarshi gunoh qildim
Zo‘ravonlar orasida tahlikali bir nifoq
Fuqaro ichinda uyg‘unsiz biriman
Vahshatman
Meni shirin mevalar lazzatidan ayirdi
O‘zimga dunyoda bir
Achchiq ildiz vatan dardin totin tanladim
Yaqin joyda tin olmoqqa soya yo‘q menga
Uzoq yo‘lga chiqmoqqa hukm ayladim.
Uzoq nedir?
Hatto o‘z hujrasida ijara turgan men uchun
Borar joyi qancha uzoq bo‘lmog‘i mumkin?

Boshi ochiq, sochim o‘rtasidan farq ochdim
Kimning o‘lkasidan o‘tsam
Chakkalarimda tushirilgan mushtlar meni qo‘lga bergay
Jasur va sharafli degaylar
Holbuki jim va g‘amginman
Qaroqchilardan olganim gurullagan na’ra
Yaramaydi ishimga
O‘sha bemalol ishchilarning
Lahjasidan nafratlanaman
Bo‘ynimda
Menga yorliq ilgaylar hukm yuklaganlarning
Hayolaringdan qilingan javohirlar
Asrori ulum mezoni yelkamda sag‘ir
Finjondagi suvga tuz qo‘shdim ozig‘im yo‘q
Uzun yo‘lga chiqmoqqa qaror ayladim
Buyurtma bir turmushni bir hayotni tark etmoqdaman
Ko‘richaklar uzra yaxshi turar dardi har boqishda
Askar ekanman sotib oldim qandingni cho‘ntak oynasini
Ba’zan tunlar chiqqan paytimda
Istehzoli miyiq kulgusi bilan duch keldim mushtga
Qulayligim hashamatim bu yerda qolgay
Hakamlarning hukmi buyrug‘i
Bu hayotdan na xushbo‘y, na sado, na rang
Tashishimni man etgan o‘lkaga nuqta qo‘ydim
Bu yerda bitta ortiq ishim o‘chog‘im makonim yo‘q
Uzoq yo‘lga chiqmoqqa qaror qildim.

YAHYO OQENGIN

Yahyo Oqengin — shoir, romanchi, dramaturg, maorifchi. 1946-yilda Bayburtda tug'ilgan. Arzirum maorif institutini bitirgan, oliy o'quv yurtlarida dars bergan, Turkiya madaniyat vazirligi va Turkiya radio-televideniyesida rahbar lavozimlarda ishlagan. Turkiya Yozarlar birligi, ILeSAM , TURKSAV (Turk dunyosi yozuvchilari va san'atkorlari vaqfi) tashkilotchilaridan va rahbarlaridan bo'lgan. 1977-yilda chiqqan "Zamon surguni" she'rlar kitobi bilan tilga tushgan. 1969–2001-yillar orasida "Istasang", "Oqshomda keldi", "Nariyoqlardan", "Hech kimga tushuntira olmadim", "So'zimiz bor " , "Ishq barakasi", "Sentabr qamali" kabi she'riy kitoblari nashr etilgan.

"Sog'inch tepalari", "Qaytish azobi", "Yarador tog'lar", "O'g'uz bobo" kabi romanlari sevib o'qilmoqda.

"Anvar posho va katta umidlar", Eski choriqlar", "Oila" kabi dramalari, bir necha radiodramalari bor. Bir qator darsliklar muallifi.

Tarjimon

ONAM

Tolg'in kulishida,
Gilam naqshida
Bir tilim o'tmishni saqlabdi onam...
Kular bolaligim yurtimga borsam.

Majnuntol oralab o'tgan nurlarni
Tuguniga solmish... Hayot sirlari
Gul isli tasbehi ichra tizilar.
Qayg'uli ko'zlari yo'lda... ezilar.

Eliga, bizlarga doim duoda.
Yuragiga sig‘ar sabr-u sog‘inch ham.
G‘urbatdan qaytganda ichilgan choyda
Ming yillik huzurni damlamish onam.

UMIDSIZ SALOM

Sen bu yomg‘irlarni sevarding, bolam,
Qayerga borsang-da undadir bulut.
Bordir u diyorga mendan bir salom,
Salomki, yo‘q uning ichida umid.

KETADIR

Ichimdagi sevgim bir qushdir,
uchib ketadir.
Bilaman, bugun mendan
u voz kechib ketadir.
Ayriliq sultoniman,
biroq ketma deyolmam,
Baxtimning qadahidan
bir oh ichib ketadir.

SARIQAMISH

Ekin-u xirmonini ular tashlab kelgandi,
Yo‘llarda choriqlarin o‘tkir muzlar tilgandi,
Baxtimizni sinarkan tole u qora qishda,
Buvamning so‘ng nafasi qotdi Sariqamishda.

Buyruq mavsumsiz edi, buyurganlar bizdan-ku,
O‘limdan boshqamiz yo‘q, zotan jonlar bizdan-ku.

Qoldi qorlar ostinda jasadlar bari qishda,
Bir oq gul bo‘lib qoldi buvam Sariqamishda.
Quyunlar olib ketmish tog‘da takbirlarini,
Archalar namoz o‘qib, yopmish qabrlarini,
U nomsizlar qo‘shini uxlar Sariqamishda,
Ortlarida yetimlar, yig‘lar har qora qishda.
Qolganlar ko‘prik qurdi Qo‘jatepa tomonga,
Sariqamish ayozi Egeyda quyosh — yongay;
Ulg‘aygan yetimlar ham olib o‘z omonatin,
Ruhan Sariqamishda choptiradir o‘z otin.
Qishning so‘nggi oyida ko‘tarilar pardalar,
Eslaymiz shahidlarni — hamon chegaradalar!
Arvohlarning qo‘shini yordamga chaqiradir,
So‘g‘onli sovuqlari mahsharga hayqiradir!..
Qora qish qora baxtning elchisi bo‘lmish, derkan,
Aks sado umid berar to Ollohu akbardan;
Yig‘ilardan kulguga, zafarga yo‘l yuz ochar —
Qayg‘usining ostida turkning baxti ko‘z ochar.

YUSUF XAYOLO‘G‘LI

Yusuf Xayolo‘g‘li — shoir, rassom (1953–2009). Tunjalida tug‘ilgan. Haydarposhsho va Elozig‘ litseylarini tugatib, Istanbul Davlat Go‘zal San’atlar Akademiyasida rasssomlikka o‘qidi. 1972-yilda uylandi, askarlikka ketdi, qaytib gazetalarda muxbirlik qildi, kinochilikda o‘zini sinab ko‘rdi.

Uning she’rlarini taniqli qo‘shiqchi Ahmad Qoya aytganidan so‘ng mashhur bo‘lib ketdi va “Oh, o‘g‘lon Rizo”, “Bir ajoyib odam” singari qator asarlari chiqdi. Ko‘p she’rlari qo‘shiqqa aylandi, Ibrohim Totlisas, Muslim Gursas kabi mashhur xonandalar ijro qildi.

U “Ko‘zlari intizor, moviy...” (2002), “Yig‘lama, ko‘zlarim...” (2010), “Yuzim yarim tundir” (2020) to‘plamlari muallifidir.

KETAMAN

Ey, xotin!
Yo‘q, ortiq sen bilan turmayman,
Bu oqshom chiqarman — ketarman.
Hisobim qoladi mahsharga,
Qo‘limni siltarman — ketarman.

Sen zahmat chekma ishq qasdidan,
Shovqinlar solmam dod sasidan,
Barmoqlarimning orasindan
Suv kabi oqarman — ketarman.

Endi sen surarsan bir safo,
Na jismim qoldi, na jafo.
Shikoyat etmasman bu da’fa,
Tishimni siqarman — ketarman.

Men ketsam, ketarmi g‘amlaring,
Baloga yetarman — ketarman.
Qo‘rg‘oshin o‘q kabi, miltiq kabi,
Tog‘ kabi portlarman — ketarman.

Yo‘qotsam bir yo‘la barini,
Bu ishqni yirtarman — ketarman.
Ohista bo‘lmagay ketishim,
Eshikni siltarman — ketarman.

Senga deb yozgan she’rimni
Sozimdan to‘karman — ketarman.
Men yig‘lamasman — bilasan,
Yuzimni yirtarman — ketarman.

Itimdan, qushimdan, bolamdan,
Olamdan to‘yarman — ketarman.
Sendan-ku olganim ne borsa,
Joyiga qo‘yarman — ketarman.

Ezdirmam senga hech o‘zimni,
Tanamni yirtarman — ketarman.
La’natlar aytmayman, o‘rtanma,
Boshga o‘q otarman — ketarman...

SHU TOG‘LARDA QOR BO‘LSAYDIM

Shu tog‘larda qor bo‘lsaydim,
Shamolday abgor bo‘lsaydim.
Meni izlab toparmiding yor,
Egasiz mozor bo‘lsaydim.

Shu yoningda xor bo‘lsaydim, yoningda
Yig‘latib bezor bo‘lsaydim,

Balkim yig‘lar eding men deb
Qamoqda devor bo‘lsaydim.

Shu bo‘z qirda xon bo‘lsaydim,
O‘ksik, parishon bo‘lsaydim.
Yana sevarmiding meni
Qop-qora tuman bo‘lsaydim.

Shu yarada qon bo‘lsaydim,
To‘kilib, ziyon bo‘lsaydim.
Bu dunyoda menga joy yo‘q,
Koshki bir yolg‘on bo‘lsaydim.

ENDI KETMOQDAMAN

Mana, ketmoqdaman...
Javobsiz bir ishqqa qurbon etdim umrimni!
Mana, ketmoqdaman...
Tuproq olsin mening ham bu hazin uyqumni...

Mana, ketmoqdaman... g‘urbat bukdi-ku gavdamni,
Kim shukurga endirar?
Mana, ketmoqdaman,
Bu manfur jinoyat, kim chiqib meni to‘xtatar?

Quridi ko‘zlarim,
Quridi yuragim bu yomg‘irli shaharda.
Mana, ketmoqdaman,
Meni qoldiring,
Hijronim qolsin suvlarda.

Sizga yuz yillardir sasini yo‘qotgan
Bir qo‘shiq kuylamoqchi edim;
Va bir dala shamoli shafqati ila
Kiprigingiz uchidan ohista o‘pmoqchi edim...

Bir ma'sum qo'shiq edi bor-yo'g'i,
Yuz minglarcha chorasizlarning ko'nglida;
Balkim, kuylarmiz hammamiz birlikda.
Balki...mahsharning birinchi kunida.

Qanchalar sevardim hammangizni,
Nega bundoq bo'ldi oqibatim?
Nechuk cho'lga aylandi,
U mening gul-gulistonim — mamlakatim?

Mana, ketmoqdaman,
Hech biringiz, hech bir tilda meni anglamadingiz.
Men boshimni berdim, sizningcha
Insofsiz bir la'natlamoq bo'ldi ravo ko'rganingiz.

Mana, ketmoqdaman,
Derazasiz bir dunyoning bilinmas chig'iriqlarida...
Mana, ketmoqdaman,
"Sochlaringdagi yulduzlarni endi yula olarsan, ona!"

Oxirida qayrab oldim ko'nglimni
O'lim degan u qayroq turkuga.
Va endi qutulding mendan,
Shon olasan ey sevgilim; Turkiya!

Albatta, menda ham bor edi
O'zimga va yurtimga doir umidlarim.
Balki tashlagan joyimdan boshlarlar;
Do'stlarim, xotinim va bolalarim...

Darz ketdi yurakka, sindi-ku sozim.
Demak, shundoq ekan bahorim, yozim.
Sizlarga armug'on bo'lsin
Sizlardan o'tinch olganim bu yurak sizniki.

Bu nechuk hibs, Tangrim,
Sahar-sahar bu ne hikmat, bu ne his?

Yuragimga so‘ng o‘qni otmoq
Sengami tushdi, ey go‘zal Parij?

Mana, ketmoqdaman...
Qolmadi bir so‘ylanajak so‘zim.
Aytganingiz kabi bo‘lsin!
Aytganingiz kabi bo‘lsin ko‘zim!

Mana, ketmoqdaman...
Tugadi inonchim bu nonko‘r hayotga doir.
Balkim, mening uchun bir necha misra to‘kturar
Xayolo‘g‘li degan bir shoir!

SHUKRI QORACHA

Shukri Qoracha — (1956–2014) Turkiyada tanilgan siyosatchi va ijodkor.

Maktab o'qituvchisi, huquqshunos; Turkiya Tashqi ishlar vazirligida, Turkiya Diyonat vaqfida ishlagan, Bosh vazir T. Chillerning maslahatchisi bo'lgan. "Dunyoni to'ldirgan gilos" romani, "Anastu noro" kabi she'rlar kitobining muallifi.

QONIMGA QORISHDI SHAMOLNING SUTI

Bilmak kerak edi bilmaganimni.
Bu ko'k zilzilasin orqasi bordir.
O'liklar egasiz.
Mozorlar buzg'un.

Erta ekilmishmen, erta ko'kardim.
Qo'rquvlar ko'paydi uyim yonarkan.

Ichimda bir daraxt butoqlanarkan,
Qorishdi ko'klarga
Qip-qizil qonim —
Ol-moviy ro'molin inja tumanday
Ustimga yopdilar ko'rinmas qizlar.

Bu qari qushlarning bir bilgani bor.
Buyuksan — yo'lga sol,
Xastaman — qutqar.
Ne bersang, olajak qadar faqirman.
Yo'llarning og'ziga soldim o'zimni.

Yaramdagi qurtlar
Necha yil yashar?
Qonimga qorishdi shamolning suti.
Eski daliligim boshimga chiqdi.

So‘ng... sen sevgilimday yonimga kelding.
Boshimda bor endi har kun sarg‘armoq.
Qarshingda har lahza
O‘lib, tirilmoq.

Ayni kun o‘rtasi to‘xtaydir falak.
Yulduzga boqarkan, men ham to‘xtayman.

Sen mendan uzoq tur
Ham meni to‘ldir —
Yolg‘iz nafasimni ufla, ey malak,
Sensiz eslanmasam,
Kim ne desa, der.

YOSH O‘LIB KETGANLARGA

Ero‘l Kunko‘rga

Ularga o‘t tushdi.
Yona-yona yong‘inni tark etishdi.
Yonib ketishdi.

Bir qush bo‘lib uchishdi ko‘kka.
Borliqlari ko‘kka tutashdi.
Bu yil ko‘kka to‘r tashladi Azroil,
O‘liklar yerga tushmadi.

Ey, suyukli, mehribon ona,
Unut barin,
Xotirani ot —
Yitmish tonglar ortidan ketgan
Otlar bari qaytdi otliqsiz.

Yolg‘iz qolding endi sen, cho‘pon,
Bo‘ri yesin qo‘shiqlaringni!
Qashqirlar egallab oldi bu zamon
Tarozi va Hulkar ufqlarini.

Ul uzoq qabrda shafaq yer qazar.
Sinib-sinib yig‘lar mangu toshlar.
Bilmayman men,
Ey nozli sarvim,
Men bilmayman, ey qari chinor,
Qachon tugar ekan bu mavsum.

Hamon oqar suvlar oqmoqda.
Qizlar kezar,
Qo‘llar xinali.
Qaylardadir unutilgan allanelar bor.
Ichimdagi yo‘lbarslarning
Eshigin ochdim,
Jahannam uchqunin sochib ko‘zlardan,
Chopa-chopa chiqib ketdilar.

Endi yolg‘iz qolding, ey cho‘pon,
Bo‘ri yesin qo‘shiqlaringni.

ABDULQODIR INOLTEKIN

Abdulqodir Inoltekin — shoir, adabiyotshunos olim. 1956-yilda Anqarada tug'ilgan. Ko'p yillardan beri Olmoniyada yashaydi. Berlinda faoliyat ko'rsatayotgan Ozarbayjon madaniyat markazi rahbari. Bir necha yil Xumboldt universitetida dars bergan, fan doktori. Turkiya, Ozarbayjon, Shimoliy Qibris, Olmoniya va boshqa o'lkalarda o'tkazilgan adabiy, ijtimoiy mavzuda ko'plab xalqaro ilmiy anjumanlar qatnashchisi.

BAYRAMLAR

Na kimsa kulardi, na do'st so'rardi,
Bayramlar bo'lmasa unutilardik.
Eshigimiz qoqib, kim ham kirardi,
Bayramlar bo'lmasa unutilardik.

Yolg'iz qolar edik tor bir qafasda,
Tasalli izlardik, umidsiz, xasta,
Yo'lga qaragancha har bir nafasda,
Bayramlar bo'lmasa unutilardik.

To'lardik ko'z yoshga bulutlar kabi,
So'lardik xo'rlangan umidlar kabi,
Egasiz, vayrona, bo'sh yurtlar kabi,
Bayramlar bo'lmasa unutilardik.

Bayramlar — Yaratgan Haqqa ibodat,
Bayramlar — insonga ehtirom, shafqat,
Bayramlar — qardoshlik, odamga ziynat,
Bayramlar bo'lmasa unutilardik.

25. 10. 2009, Berlin

G‘URBATDAN ONAMGA XAT

Yana hasrating-la qoldim yuzma-yuz,
Yana bir burchakka burildim, ona.
Saroblar ortidan chopib izma-iz,
G‘urbat g‘uboriga qorildim, ona.
Suyukli qayda-yu suygan qaydadir?
Seviklisin eslab, kuygan qaydadir?
E’timod tovushin tuygan qaydadir?
Ko‘krak qafasimdan yorildim, ona.
Sir berdim do‘stimga, oram ochildi,
Dardimni so‘yladim, yaram ochildi,
Oqimni ko‘rsatdim, qoram ochildi,
O‘zim yeb o‘zimni, zor o‘ldim, ona.
Har kecha olbosti bosdi tushlarim,
Faryodga aylandi shod kulishlarim,
Bo‘g‘zimni qo‘pordi dod, nolishlarim,
Chormixga qoqilib, kerildim, ona.
Otsiz shahidlarning a’zasin tutdim,
Hayotning otini hatto unutdim,
Qutulmoq-chun o‘lim sharbatin yutdim,
O‘limim ichinda tirildim, ona.
Ona, g‘urbat emas meni yig‘latgan,
Nechun boshdan oyoq g‘arib bu Vatan?
Har qarich yerida bir shahid yotgan
Aziz diyorimdan surildim, ona.
O‘tmishda o‘rtanib, bag‘rin yoqqan men,
Ikki ko‘zi yoshli, mungli boqqan men,
Zulmlar ko‘rgan men, bo‘yin bukkan men,
Hayhot, yana haqir ko‘rildim, ona.
Lubnonda har kuni o‘q tilar meni,
Kashmirda gulxanda yoqdilar meni,
Jazoyirda osib, yiqdilar meni,
Bo‘snada manglaydan urildim, ona.

Chechenda qonimni oqtirdi selday,
Qorabog‘da ezib, so‘ldirdi gulday,
O‘z yurtimda xorman, kelgindi elday,
Yillardir toptalib, qirildim, ona.

Falastinda ko‘zim ochdim, G‘azada,
Har nafas og‘ular ichdim G‘azada,
O‘zim o‘z kafanim bichdim G‘azada,
Oqqan qonlar ichra ko‘mildim, ona.

Axir shu yashashmi — ko‘z yoshi, fig‘on?
Odam ovchilari qon qustirur, qon!
Bir yonda Iroq-u bir yonda Afg‘on,
Kimlarga men qurbon berildim, ona?!.

O‘yim, xayolimda faqat sen borsan,
Dardimni birgina o‘zing anglarsan,
Borlig‘im bag‘ringga bos, uyga borsam,
Yo‘qlikda mehring-la bor o‘ldim, ona.

1996, Berlin

ARSLON BAYIR

Arslon Bayir — shoir, nosir, o'qituchi. 1958-yilda Alanyada tug'ilgan. O'rta maktabni bitrgach, Denizli o'qituvchilar institutida ta'lim oldi. Maorif sohasida ishlarkan, she'rlar, hikoyalar yozdi. Hozirgacha yigirmadan ortiq kitobi nashr etilgan. 1992-yildan "Ayqiri san'at" jurnalini chiqardi.

Bu jurnalda o'zbek adabiyoti vakillarining ijodini ham targ'ib etdi.

SIZ TOG'LARIM

Oy nuridan bir shu'la
Indi barmoqlarimga:
Bosh egdim — Daryolarimni
Qor suvi bilan siylagan
Tog'larimga!
Turfa og'ochni qirqib
Tuydim: olov, o't, yolin...
Lutfing nafas turlandi —
Ko'rdim kakliklar holin.
Yalang toldek his etdim
Sovuq qish qabog'ini:
Sirli mung va dam urgan
Qishning sur sabog'ini.

KUN VA TUN

Kecha kelar,
Kunduz kelar
Kimsasiz oqshomda
Yolg‘izlikka suyanch.
Ruhingni
Ohu ko‘zlaridagi
Yoshga mengzatma
Mayli oqsin irmoq bo‘lib,
Toza, pok suvlar:
Gunohlarni koinot ruhinda
Bo‘lishmoq uchun...
Yuragimni qalbing kaliti-la
Ochmoq zarur...
Bu ish —
Barcha sevgi hikmatlarini
Ilg‘ash kabi qiyin.
Labimdan ko‘ksingga ko‘chgan
Pichirlashlarni
Ruhingni sinagan
Oshiqlik sinoatlarini
To‘kmoq uchun
Barmoqdagi iliq birlik
Tugunmas bo‘lshiq
Bir-birovga sog‘inch-ehtiyoj
Kamoli buyuk!
Men — shu yerdaman
Bitimsiz kechalarning
Sovuq qorong‘iligida
Shirin ehtiros-la
Sening ko‘zingni
Ehtiros-la uzatganda
Qo‘lingni
Darhol tuymoq istaysan
Qo‘lim taftini

Eng horg‘in hislar ichra
Topmoq uchun
Sevgi to‘la bir qalbni
Qo‘rqitmoq istagan Tunda ham
Yolg‘izlikka naq yovsan!

BOG‘ING BOSHQACHA

Oh, qishlog‘ing olmalari
Yosh qiz yonoqlari kabi.
Bir so‘lqim uzum tutdi ota.
Hoy, shu yerda deyman
Hur-u g‘ilmonlar nasabi!
O‘v, bolakay tutgan bir anor
Bodom tutar yosh go‘zal —
Qo‘lida rangin sir bor
Ona, anjir berdingiz,
Qay ertakdan bu asal?!
Noklar go‘yo jam novvot
Havo — dil to‘la g‘azal.
Huv, bu qishloqda abad
Bo‘y tarar qarag‘aylar.
Bunda naq to‘rt fasl jam
Shunday farahda qaylar?!
Shu manzarani ochiq
Qani tik tog‘ ko‘rsaydi
Kaftda suv tutdi go‘zal,
Buni buloq ko‘rsaydi!..
Onajon, bir kaft tuproq
Tutdingizki nur xayol:
Ko‘z o‘ngimda ulg‘aydi
Anato‘liya misol...

SENI O‘YLAB

Xayolimdan ketmaysan hech
Hov, qachonlardan beri.
Go‘yo bu hamma joylar
Shu hurliqoning yeri.
O‘ng-u so‘lim — suluv timsol.
Qulog‘imda nur ovoz.
Turib boqsam hamma yoq bo‘sh:
Falakdan bu ruhoniy pardoz,
Yo‘lda mudom yonimdasan
Hamqadamsan — yodimda.
Tuydim, mudom, abad birga
Yashaysan qabatimda.
Ammo bari yo‘llar
O‘tmoqda sensiz.
Lekin huv, tog‘lar,
Sen xayolo ijod etgani
Bu ko‘l, bu dengiz.
Yonimda yo‘qsan-u
Xayol — yor dunyo shu qadar.
Voh, nelar bo‘lar edi.
Qoshingda bo‘lsam agar.
Yurak har neni ilg‘ab turar
Nenidir chorlab,
Nimagadir o‘zini chog‘lab turar!
Qay ustoz yozig‘ini qarama,
Deydi: Sevgida shudir qismat...
Sevgi — falak qushi-ku, nega
Pastga tortmoqda abad.
Ammo sen bergan bir surat bor,
Qalbim — sen rasmingni iygan nur.
Uchsang, uh, sening-la yuksala ketaman.
Ruhim, jonim — qanotlaringdadir!

XOTIRALAR

O yolg‘iz kechalarim!
E, e... qaylardan chulg‘adi
Meni bu yog‘du?!
Suyuklim, nahot — Sen,
Nahot aylanmoqdasan
Tegramda...
Voh, u — bitta o‘zi,
Xatim,
Yozganimning bitta qog‘ozi.

Tuydim, hali, meni sevib
Aylanadi, kelolmay,
Oyning, yulduz oyning nur tig‘i.
Birgina meni izlab!
Ikkimiz o‘tgan dala
Yo‘llariga boq:
Bir so‘qmoqni yuvib,
Ketmoqda-ku, soy!
Birini ilashtirib
Olibdi tog‘...
Qani, ikkovimiz chanqoq
Lab tegizgan gulkosa?!
Bitta bargi xazon ham
Unga tegolmay, shundoq
Yonlab o‘tdi, yerga tushdi —
Birgina yaproq?

YANGIDAN YANGI

Sog‘inch — nadir, nechun
Nadin bu tuyg‘u?!
Ilg‘ay olmay o‘tib keldim
Bir yengiltak tannoz

Salomidan qochib.
O‘rtadagi ne?!
O‘tmish so‘rog‘imi,
Ertangga undovmi?!
Hozir
Yumushlarni sayrga
Ko‘kka undaylik.
Hozirgina oh-u ko‘zi tushib o‘tgan
So‘zsiz nur lahzani.
Bitta, hur nur yulduzni
Tanlaylik:
Somon yo‘li Sayyidi bo‘lib
Hakam bo‘lsin savdomizga...
O‘sha g‘amim bilan
Cho‘qqiga urgan edim
Yonboshimni!
Senga keltirdim o‘shal lahzani!

FAYYOZ SOG'LOM

Fayyoz Sog'lom — shoir, adabiyotshunos olim. 1959-yili Qo'nyoda tug'ilgan. Oqshaharda o'rta maktabni bitirgach, Izmirda To'qqizinchi sentabr universitetida turk tili va adabiyoti bo'limida ta'lim oldi. 1985-yildan beri shu universitetda o'qituvchilik qilib kelmoqda. U she'rlar, adabiy-ilmiy maqolalar yozish bilan birga, asosan, turk dunyosi adabiyotlari mavzularida qator kitoblar nashr ettirdi.

1990–2003-yillar orasida uning "Yunonistondagi G'arbiy Trakya turk adabiyoti antologiyasi", "G'arbiy Trakya bolalar adabiyoti", ""Yunonistondagi G'arbiy Trakya turk adabiyotiga oid tadqiqotlar" (4-jild), "G'arbiy Trakya bolalar adabiyotida Otaturk mavzusi", "G'arbiy Trakya turk matbuoti haqida tadqiqotlar", "Turk dunyosi adabiyoti va Qibatek", "Dunyoda turkcha va turk adabiyotilari" kabi kitoblari nashr etildi.

U Qibris va Yevrosiyo adabiyotchilari jamiyati (QIBATEK) quruvchisi, Turkiya bo'limiining rahbari, ayniqsa, Turkiyada, Osiyoda va Ovrupoda juda ko'p xalqaro adabiy anjumanlar tashkilotchisi sifatida ham tanilgan. Asarlari yigirmadan ortiq Osiyo va Ovrupo tillariga tarjima qilingan.

"Qirq qiriq ruboiy" (Qirq siniq ruboiy, 1997), "Laylogul" (2001), "Ozarbayjon ruboiylari" (2007), "Eylulgul" (Sentabrgul, 2008), "Nozim haqida ruboiylar" (2013), "Qoragul" (2016), "Ovrupo ruboiylari" (2017), "Bolqon ruboiylari" (2019) kabi she'riy to'plamlar muallifi. "Fayyoz Sog'lom va devoni: she'rlar 1976–2019" kitobiga barcha she'rlari jamlangan. Asarlari ko'plab Osiyo va Ovrupo tillariga o'girilgan.

RUBOIYLAR

1

Majnunning she'rda qolgan izi o'zim bo'lsaydim.
Laylining g'amga kulgan yuzi o'zim bo'lsaydim.
Shu dunyoda ko'zim yo'q, kimniki bo'lsa-bo'lsin,
U ishqning Chingizxoni — o'zi o'zim bo'lsaydim.

(1991, O'tror, Qozog'iston)

2

Uzoqdan yorga boqmoq yaqinmi-uzoqmidir?
Buncha go'zal bor yerda, bari bir tuzoqmidir?
Shoirlar gunohsizdir, derlar, ammo bilolmam,
Mahsharda manglayimiz qoramidir, oqmidir?

(1997, Izmir)

3

Bir telba dengizki, bizim Qora dengiz bo'lsa kerak.
Horg'in ko'cha Usmonlidan eski bir iz bo'lsa kerak.
Ilk kundanoq shahriga-yu sehriga maftun aylagan
Ul ko'zlari moviy go'zal tatar qizi bo'lsa kerak.

(1998, Qo'stancha, Ruminiya)

4

Nega ters oqdi nahr?
Ne yesam, ichsam — zahar.
Bekor ketdi yoshligim,
Oh u shahar, u shahar...

5

Yonar ko‘nglim, sevinar — bog‘larda mo‘l nor bo‘lur,
Turkman dala, qirida elim, o‘vam bor bo‘lur,
Bir qutluq nafas kelur Turkistondan, Yassidan —
Ulug‘ turkcham diyori Rumga shoh — xunkor bo‘lur.

6

Nizomiy bir botmagan quyosh, eng oliy devon,
She’riyat yuragida oqib turgan mangu qon;
Ko‘rdim, kezar Ganjada uning Xusrav, Shirini,
Qutlug‘ maqbarasida to‘xtab qolganday zamon...

7

Ko‘zlaring ufqimdagi nurmi, tovush, havasmi?
Qayg‘ung ichimda devmi, yo sehrli nafasmi?
Bilolmasdan umrimni tugatayozdim axir,
Ruhimda bir ummonmi bu ishq — temir qafasmi?..

8

Bu shahar muncha go‘zal, bilmam — quyoshmi, oymi?
Yuragimdan urgan u qoshlari o‘qmi, yoymi?
Yuragimda bir shimol dilbaridir Odessa,
Bu Qipchoq diyorida oshiq bo‘lmoq qulaymi?

USMON BOSH

Usmon Bosh — shoir, maorifchi. 1959-yilda To'qot viloyatidagi Tepaqishloqda tug'ilgan. O'rta maktabni bitirgach, Sivas o'qituvchilar institutida, so'ngra Anqaradagi G'oziy universitetida ta'lim olgan.

Ko'p yillar maorif sohasida xizmat qildi, TIKAning Ozarbayjon bo'limida ishladi. Anqarada tuzilgan Dunyo yozuvchilari va san'atkorlari jamiyatini boshqardi. 2020-yilda koronovirus xastaligiga chalinib, vafot etdi.

"Qalaysan, yaxshimisan", "Feruzon", "Vaqt va vuslat", "Xori bulbul" kabi she'riy kitoblar muallifi.

SHE'RIYAT BAYRAMI

Yuragim ham endi qalqsin oyoqqa,
Bulutlar yo'l ochsin botir chaqmoqqa!
Titragan sharpalar moziyda qolsin,
Bugun yuragimda o't o'rin olsin!

Bugun she'r bayrami, ko'kda xayollar,
Xori bulbul sari yetaklar yo'llar.
Yurakda ne bo'lsa, o'rtaga chiqar,
Borlig'im she'rimda ko'z bo'lib boqar...

She'rlar o'qilarkan, yodimga tushding,
Hushyormi eding sen va yo behushding...
Kel, bulbul, sayrog'ing qalbimda qolsin,
Sen qalbdan dudoqqa tomgan bir bolsan!..

16. 08. 2003, Boku

XORI BULBUL

Gul manda,
Gulga gul banda...

Qish ketdi, ko‘z o‘ngimda
Quyosh qo‘ndi kuragimga,
Bahor qo‘ndi yuragimga...

Epkin esar chechakli, g‘ir-g‘ir,
Tomchi-tomchi yoprilar yomg‘ir.
Quyosh moviy dengizga qo‘nar,
Quyosh bilan yonmoqda Xazar...
Ey, yuragim to‘ldirgan dolg‘a,
Qof tog‘iga olg‘a bos, olg‘a!
Menday dardli, o‘chli, ey Xazar,
Suzgan baliq, shu uchgan qushlar
Kabi senga yaqinman, biroq
Tog‘lar qadar, ufqlar qadar,
Xori bulbul[1] qadar uzoqman bu chog‘...
Yuragida Xazari borlar
Chitirni ham Xazarday bilar.
Epkin bo‘lib esadir Chitir,
Tuproqlari — duo va takbir...
Afsus, seni ko‘rmadim men ham,

---

[1] **Xori bulbul** — do‘st va qardosh o‘lka Ozarbayjonning eng go‘zal shaharlaridan biri bo‘lgan Shusha 1992-yil 8-mayda armanlar tomonidan ishg‘ol etildi. Keyin Lochin, Oqdara, Oqtom, Fuzuliy, Jabroil, Quboli, Zangilan kabi shaharlar armanlar qo‘liga o‘tdi. Shushadan sal oldin Xonkent, Xo‘javant, Hadrud, Asgaran, Kalbajar kabi shaharlar rus va arman qo‘shinlari tarafidan bosib olingandi... Shushaning Chitir vodiysida xori bulbul degan chechak o‘sadi. Uni boshqa yerlarda ko‘paytirishga harakat qilingan, ammo hech yerda o‘smagan. Xori bulbul faqat Shushaning Chitir vodiysida yetishadi... Endilikda Shusha ham, Chitir vodiysi ham armanilar ishg‘oli ostida. Xori bulbulni Ozarbayjonda juda yaxshi ko‘rishadi, sog‘inishadi... U haqda ko‘p afsonalar bor. Birida aytilishicha, bu chechak o‘z butog‘iga qo‘ngan bulbulni avaylab erkalarkan... biroq bulbul butoq ostiga qo‘nsa, ari g‘azablanib, uni chaqib o‘ldirarkan...

Hidlamadim avaylab bir dam,
Lek yuraging o‘qib turibman,
Faryodingni uqib turibman...
Butog‘ingga bulbullar qo‘nsin,
Seni asir deganlar yonsin!
Xush bo‘yingni falaklarga soch,
Shusha, Boku erkin uyg‘onsin!
Ko‘klamdan so‘ng yoz,
Yozil, Xazar!
Xori bulbul bag‘ringda o‘sar...
To‘lqin-to‘lqin Xazar bahori,
Xori bulbul, bulbul va ari...
Po‘rtanalar olar ekan tin,
Isyon to‘xtar, esadi epkin...
Mayli, ko‘z och! Oqardi shafaq,
Bos, cho‘qqiga chiqasan mutlaq!
Senga yo‘ldosh doim Muhammad,
Sen mangusan, Vatandir abad!
Men sen bilan, do‘stman, o‘shaman,
Men ham senman, men ham Shushaman!
Men ham Chitir sari jo‘narman,
Xori bulbul, senga qo‘narman!
Dushmanlarni chaqmoqlar yoqar,
Do‘stlar g‘olib, g‘urur-la boqar!..

5.05. 2004, To‘qot, Turkiya

SUNAY OQIN

Sunay Oqin 1962-yilda Turkiyaning Trabzon shahrida tug'ilgan. Istanbul universitetining fizika-jo'g'rofiya yo'nalishida tahsil olgan.

Shoirning chop etilgan she'riy to'plamlari:

"Oy o'g'risi", "Qiz minorasidagi qizil terili" , "Qal'ada yolg'iz", "Paypoq", "Minora dorbozi", "Avval bolalar va ayollar".

BULUT

Uzdik endi umidni
yomg'irdan
yurak shaklini
olsa hamki ko'kdagi
kichkina bulut.

BUTOQ VA QUSH

Birgina gunohim
sop bo'lmaganim
boltaning
qonli o'yiniga

Ammo yanada
umid to'la qalbim
balki biror qush
tashir meni deya
daraxtdagi iniga.

CHUMCHUQ

Oyoq izlari ko‘rinmaydi
qor kalimasi
bor bo‘lgan she’rda
Yegulik izlagan chumchuqning.

CHUMCHUQ VA MUSHUK

Birgina shamol kelar
o‘lgan bir chumchuqning
janozasiga
va astagina
qimirlatar patlarin
mushukdan oldin.

BIRLIK

Teng bo‘lmagani
aytilar insonlarning
hech barobar bo‘lmagan
besh barmog‘i kabi bir qo‘lning

Holbuki uzanar
necha horg‘in
kimsalarning dudog‘i
suv to‘la
hovuchimga

Qo‘limning
teng bo‘lmagan
besh barmog‘in uchin
keltirishim bilan
bir oraga

CHO‘PON

Bir ovoz bilan qo‘ylar
echkini saylar
o‘zlariga boshliq qilib
holbuki suruv boshiga
bo‘rining qarindoshi
ko‘ppakni qo‘yar
cho‘pon.

AYRILIQ

Ikki temiri kabimiz
bir poyezd yo‘lining
yaqin bo‘lishi
neni o‘zgartirar
so‘nggi bekatning.

QILICH VA QALAM

Na qalam qilichdan
na qilich qalamdan ustun bo‘lsin
o‘rgansinlar birga yashashni
misol uchun qalam
ishq she’rlari yozsin
va qilich yo‘nsin
sinib qolsa gar.

TAKSI

Boqib qoldim
seni olib ketgan
taksi ortidan
ularki har mavsum

suzning sariq yaproqlaridir
tark etganing shahar ko‘chalarida
yelda sovrilgan.

YOLG‘IZLIK

Yana ham hazinlantirar har kecha
shahar ko‘chalarini
qorovulning nafasi bilan
hushtak ichida aylangan
no‘xat donasining
yolg‘izligi.

KASKA

Yomg‘ir singmish tuproqqa
kecha gizlicha
suv ichmoqda qush
o‘lgan bir askarning
ters do‘ngan kaskasidan.

NUQTALI VERGUL

Vergul —
Hech tinmagan
bir nog‘oraning to‘qmog‘i
chaqirar so‘zlarni
qog‘ozlardagi to‘yga

Nuqta
Tepadan inish
so‘ngradan ko‘rish
nihoya berar
yozuvning erkinligiga

bir joyga kelganlarida
darhol chiqar ustga
beshafqat nuqta
vergul esa bechora
bo‘yni bukik
ezilar ostda.

BIR JOYGA

Teng bo‘lmagani
aytilar insonlarning
bir xil bo‘lmagan
besh barmog‘i kabi bir qo‘lning

Holbuki uzanar
necha horg‘in
ishchining dudog‘i
suv to‘la
hovuchimga

Qo‘limning
teng bo‘lmagan
besh barmog‘i uchini
keltirgach
bir joyga.

* * *

Qanday qizg‘onmay seni ey bandargoh
bir qirg‘oqda
may icharkanman yolg‘iz
ayol nomin tashigan kemalarning
biri chiqib
biri kirar qo‘yningga...

* * *

Hidi mahallaga tarqalsin
deya yopgan nonin
oqshom chog‘i
ochib qo‘yar derazasini
yangi kelin.

* * *

Yarmini ado etdim
bola doktori
bo‘lishimni istagan onamga
xasta yotog‘ida bergan so‘zimning
doktor bo‘lmadim ammo
bola qoldim...

BEJON VAYSAL YULDUZ

Bejon Vaysal Yulduz — shoir, o'qituvchi; 1963-yil Qars viloyatining Qag'izman tumanida tug'ilgan. O'rta maktabni bitirgach, Otaturk nomli universitetda til va adabiyotdan tahsil olgan.

Arzirum va Istanbulda maktablarda dars berdi, til va adabiyotga oid darsliklar yozdi. Ilk she'riy to'plami "Tomchilar" 1984-yilda bosilgan.

So'ngra "Yomg'ir xotiralari", "O'qituvchining she'rlari" "Ona", "Ijodga ilk qadam" kabi she'riy va ilmiy kitoblari nashr etilgan.

Tarjimon

ONAM

Onam, sodiq, baxtli yorsan,
Avloding-la baxtiyorsan,
O'z uyida taxti borsan,
Malaklardan go'zal onam!

Fikrim sendan duo olmoq,
Poyingda jannatlik bo'lmoq,
Senga loyiq bir ish qilmoq —
Shu eng buyuk amal, onam.

Quvon doim, bo'lma dilxun,
Yuzing barcha guldan gulgun,
Mehring, so'zing, har bir kulgung
Bir dunyoga badal, onam.

SARIQ GUL

Yo‘l chetina allakim sariq gul otib ketmish,
Ko‘nglimdagi nash’aga bir qayg‘u qotib ketmish.

Sariq gulning ma’nosi sig‘maydi bir satrga,
Shu uchun maktub emas, sariq gul so‘ng xotira.

Xuddi devor yalagan tokning bargi, butog‘i,
Yalar qora tuproqni sariq gulning yaprog‘i.

Shamol uchirgan bargday men ham kezdim ko‘p sarson,
Xotira zuluk kabi vujudimdan so‘rdi qon.

Qorong‘uda yo‘qolgan yo‘lning so‘ng adog‘ida,
Yig‘ladim sariq gulning so‘lgan eng so‘ng chog‘ida.

Sariq gul yeb bitirdi eng so‘nggi umidlarni,
Chaqmoqlarda yondirdi u qora bulutlarni.

Uning so‘ng xotirasi mening shum qadarimdir,
Sariq gul — so‘lgan baxtim, yashargan kadarimdir.

QALAMIM QON YIG‘LAYDI

Qalamimdan qon oqar,
Qaramang kulganimga.
Ishonmas sevmaganlar
Yasharkan o‘lganimga.
Qalamimdan qon sizar,
Misralari alvon, ol.
Dardim dunyoni buzar,
Har holimda ming zavol.
Qalamimdan sizar qon ,
Kalimalar ma’nosiz:
Na metin maxluq inson —
Yashayverar onasiz!..

METIN TURON

Metin Turon — shoir, nosir, 1966-yilda Qars viloyatining Qag'izman shaharchasida tug'ilgan. O'rta maktabni bitirgach, Trakya universitetida tib sohasidan, so'ngra Anqara universitetida iqtisoddan saboq oldi.

Turkiya Madaniyat vazirligida ishladi, Shimoliy Qibrisdagi Sharqiy Oqdengiz universitetida dars berdi. Qibris, Bolqonlar, Yevrosiyo turk adabiyotlari vaqfiga rahbarlik qildi. O'ttiz yildirki, Anqarada "Urun" nashriyotiga boshchilik qilmoqda, "Folklor-adabiyot" jurnalini chiqarmoqda.

Ilk hikoyasi 1981-yilda bosilgan. "Suvlarni ivitgan majnun" (2003) nomli she'r kitobi, shuningdek, "Anvar Ko'kcha haqida" (1991), "Jono ichindadir jonon.

"Qag'izmanlik baxshi Jamolxo'ja" (1992), "Oshiq Vaysal" (1994), "Tikanlar ustida yuraman" (Qoplon baxshi haqida, 1994), "Qul Himmat baxshi" (1994), "Baxshilik an'anasi va turk xalq she'ri" (1995), "Turk xalq she'rida ma'no va mazmun" (1998), "Do'stlar seni unutarmi" (turkcha-inglizcha, 1999), "Izohli xalq she'ri antologiyasi" (2000), "Turk adabiyotida madaniyat va xarakter yo'nalishi" (2004) kabi adabiy-ilmiy mavzulardagi tadqiqotlari nashr etilgan.

Tarjimon

TILAK

Senga bir chechak bersam
menga ham yaxshi qarab
berarmisan u moviy yurtni
umrimni bersam senga

tovushim tiriladir otingni tilga olsam
qop-qorong‘i yo‘llarni ortimga otib tashlab
o‘sha oppoq ko‘ksingning oydiniga ko‘milsam

endi u tor isqirt ko‘chali kentni
bor hadli yo‘llarin aylanib o‘tib
barcha vizalarni yirtib otaman
ko‘zlaring qirg‘og‘iga sig‘inar kemam.

ZAHAR

Kunlar kelib ketdi oqshom bo‘lmadik
necha tunlar o‘tdi bo‘lmadik kecha
ishda va yo‘llarda horgan xotinlar
zaharin ichiga yutgan bir chayon.

MUSHUK

Qushlar ketdi
Erkinlikning jajji qanotlarida,
Sovuq shahra ichra faqat o‘zim qoldim huvullab.
Buning oti yolg‘izlikdir,
Jismi-joni — g‘am-alam...

Yonboshimda — hech tinmagan
Turg‘un dengiz.
Egilgancha o‘z aksimga qarab, tolaman.
Umidsizlik halqalari burishtirmish yuzimni.
Jim qotaman,
Jim qottirgan sening borlig‘ing.

“Koshki”laring, mishmishlaring, bahonalaring,
“Sevaman” deb qo‘yishing-ku — shohonalaring...
To‘qqiz jonim bor edi... Yo‘q —
Biri shahid.

BAYRAM TURBILMAS

Bayram Turbilmas — shoir va adabiyotshunos olim. 1968-yilda Yo'zgatda tug'ilgan. O'rta maktabni bitirgach, Qaysaridagi Erjeys universitetida turk tili va adabiyoti bo'limida ta'lim olgan. Navshahardagi Xoji Bektosh Valiy universitetida dars bermoqda. U ma'lum davrlarda Qirg'iziston va Qozog'iston universtitetlarida ham saboq berdi.

1992–2021-yillar orasida "Dostonlarda Arzinjon", "Toshpinorli xalq baxshilari", "Qaysari xalq baxshilari ijodida Qibris", "Baxshilar tilida Erjeys tog'i", "Manas dostonidagi Kimi motivlari va uning turk xalqlari dostonlariga ta'siri", "Eski Yugoslaviya o'lkalari folklori haqidagi Turkiyada bosilgan tadqiqotlar", "Qarslik baxshi — Oshiq Murod Cho'pono'g'li", "Qozog'iston topishmoqlari", "Turk dunyosi madaniyati" kabi 40 dan ortiq ilmiy kitoblari bosildi.

1984–2012-yillarda "Vatanimning bag'rida", "Huzurni sog'inib", "O'zim chorlovi", "Yornoma", "Surmali yorim", "Birnoma", "Turnalar" kabi she'riy to'plamlari nashr etilgan.

Tarjimon

MEN MENI IZLADIM

Yunusday yig'ladim, Yunusday kuldim,
Men meni izladim yillardan beri.
Ishqimni axtardim, ishqqa yo'naldim,
Men meni izladim yillardan beri.

Bilolmay so'radim men mendan meni,
O'zimni qiynadim, ezildi tanim,
Ishqimla gul ochdi ko'ngil gulshani,
Men meni izladim yillardan beri.

Men meni ko‘rdim-u tutildi tilim,
Men meni yo‘qotdim, yo‘qoldi bilim,
Bir ishq-la tutashdi ko‘ngil qandilim,
Men meni izladim yillardan beri.

Malaklar-la kezdim sir dunyosida,
Asrorni kashf etdim yor ro‘yosida,
Baliq kabi suzdim nur daryosida,
Men meni izladim yillardan beri.

Sir bo‘ldi sirrini tuyganim sirlar,
“Haqqa yo‘nal!” dedi ustozlar, pirlar,
Qalbimga ishq to‘ldi, ko‘nglimga nurlar,
Men meni izladim yillardan beri.

Savdolar savdosi zohirdir menda,
Nafsimga shoh bo‘ldim, Rabbimga banda,
Manmanligim yerga urdim, yor, men-da,
Men meni izladim yillardan beri.

So‘rgun qishlog‘i, 29.01.1991

YO‘LCHILIK

Eshigim qoqmoqda nurli haqiqat,
Yaqinlashgan sayin tan tor-u mordir.
Davom etmoqdadir nurga sayohat,
Bu yo‘lning so‘ngida so‘ngsizlik bordir.

Hayot bir tugundir, yecholmas hech kim,
Xayol olamida qurilgan bir ko‘shk.
Hayotning narigi yuzidir o‘lim,
Boshqa bir olamga ochilgan eshik.

O‘limni eslarkan, titrar har tirik,
Borlig‘im titratar, oh, ikki dunyo,
Har nafas olishim-haqqa yo‘lchilik,
Ruhim — so‘ngsizlikka ochilgan fazo!..

So‘rgun qishlog‘i, 1.12. 1988

TILAKLARIMIZ

Jaholatga qarshi mushtimiz bu chog‘
Siqilsin, siqilsin, siqilsin endi!
Baxt-u erk yo‘lida zindondan mutlaq
Chiqilsin, chiqilsin, chiqilsin endi!

Bosmish yurtimizni qora tumanlar,
Intizor ingranar g‘arib o‘rmonlar,
Yig‘lagan tuproqqa yangi isyonlar
Ekilsin, ekilsin, ekilsin endi!

Erkin, yayrab uchsin ko‘klarda qushlar,
Yuz yillik orzuga yetsin qardoshlar,
Qayg‘uli ko‘zlardan sevinchli yoshlar
To‘kilsin, to‘kilsin, to‘kilsin endi!

Yuzaga chiqdi-ku eski tilaklar,
Yuz ochdi milyonlab yangi chechaklar,
Turklarga tashlangan qo‘tir ko‘ppaklar
Yoqilsin, yoqilsin, yoqilsin endi!

Ildiziga bog‘liq madaniyatlar,
An’anasi bilan yashar millatlar,
Bu yurtga yamalgan u yot odatlar
So‘kilsin, so‘kilsin, so‘kilsin endi!

Yurakni achitar turkning nolasi,
Ezilar, otilar ma’sum bolasi,
Hurlik, adolatdir yolg‘iz chorasi —
Boqilsin, boqilsin, boqilsin endi!

Kelsin Alparslonlar, Dada Qo‘rqutlar,
Yasharsin qalblarda ezgu umidlar,
Yurtimning ustidan qora bulutlar
Chekilsin, chekilsin, chekilsin endi!

So‘rgun qishlog‘i, 1987

TUG‘RUL TANYO‘L

Tug‘rul Tanyo‘l 1954-yilda Istanbulda tug‘ilgan. 1971-yilda Istanbul Bo‘g‘ozichi universitetini ijtimoiy fanlar fakultetini tugatgan. Shoirning chop etilgan she’riy to‘plamlari:

“Qo‘lidan tuting kunni” (1983), “Avgust dengizlari” (1985), “Suvdagi anqo” (1990), “Xona musiqasi” (1992), “Xiyonat parisining sovuq saroyi” (1995), “Sehr tugadi” (2000), “Hamma narsa bir mavsum” (2006), “Avvali va so‘ngrasi” (2012).

SUVDAGI ANQO

Biz bulbuli so‘zon dami gulzori firoqmiz,
Otash kesilur kechsa sabo gulshanimizdan.
II Salim

Sog‘inchning sovuq qishi irmoqqa qorishgan orzu
Butoqlarda to‘ngan qanotlaridan yechinmish
Suvdagi billurni o‘ylagan anqo

Ovozlar ovozlarimizni izlaydi uzoqlarda
Ortimizda uzangan yo‘llarda unutganimiz
Qayiqlar to‘la oltin qo‘shiq mujavhar aqiq
Va kahrabo irmoqning asta yuzdirgani
Eski bir sharobni toshirgan mast xotiralar
Bog‘lardan oqardi necha bir qonun rangida
Gullar va gullarga surtinib tutingan shamol
Daraxt yomg‘irning bichimini olardi
Uzoqdan boqsak adashardik
Kunlarning qoraga chiqqan yerida turarding
Issiq folingda izlaring va quming
Bir sado

Bir sadoga aks ettirardi porloqligini
Bir tog‘
Bir tog‘ga soya solardi va boshsiz suruvning
Changlari tarqalgach boshlanar edi kun
Uzayib ketardi yo‘llar osha
Daraxtning daraxtga pichirlagani surgun

Zamon ovozin yuksaltmoqda siyraklashmish o‘tlar orasidan
Sohilga yondashgan qayiqlardan tushadi
Izdahom ko‘lankasini ortida qoldirib asta bir ishoraga aylanadi

Irmoqning muzlari erirkan olislarda
So‘nggi bor qayrilib boq
Ortda qoldirgan izlaring to‘playdi bolalar

Eski bir uydan
Zumrad minoradan
Sevgan va unutganimiz sanamlarning so‘zlarin uchirmoqda shamol

Hayot uqubati o‘tmish bu yerdan bir iz kabi surib tuproqni
O‘tdik biz ham qo‘ynida mungli sadolar jaranglagan u basir
Kechadan
Qarshilamoq uchun seni
Bilinmaganni

Endi sukut saqlamoq kerak
Gapirsak hatto
Bizning alamimizni kim anglay olar

Sen
Suvdagi aksiga kulini sovurgan anqo
Irmoq oqib ketdi ko‘pdan
Qo‘llarimiz qo‘llarimizni izlaydi mudom

DENGIZ KECHASI

Keng qanotlarida shimol shamolining
Kelajak degani nima o‘zi
Qorong‘u g‘or
Sadaf nur
Bir ajam bog‘in eslatgan marjon qoyalik
Sochlarin taraydi unda qo‘rqinch quyun
Dengiz qizlarining faryodi ila botmish ming yillik kema

Butun bir kecha tutunga aylangan suvlarni tingladim
Tunning ko‘zlarini
Yonib so‘ngan fonusni
Oqshom erigan bir qush rangida edi

Oyoq izlarimga boqdim
Qumlar ostidagi chuqur faryodga
Mungli sadolarki yarador bir kiyik kabi sakrab
Beun ko‘pirar izsiz kechalarda
Olis bir oynaning ortidadir sovuq qotgan qo‘llaring
Hayotning yovqur boqishlarida tunagan yovvoyi kabutarlarning
Ortidan bir xayol kabi meni kutgan

Qon der eding mana dengiz hali to‘ymadi
Qo‘rquv oynalarda eskirgan sirli bir bola yuzi
Har urishda butog‘idan to‘kilgan minglarcha qush ko‘lankasi
Ko‘zlarda chizilgan bir chizgi bir so‘z bir rasm kabi
Sira bitmagan bir yara qanday o‘nglar sukutni
Bir sim kabi uzayib ketar ekan yolg‘izlik
Buyuk suvlarning ortidan ustixonlarning botiq kemalarning
Zamon bo‘shlig‘ida hayqirgan cheksiz alamning
Hayot va mamotning yashash va telbalikning
Qirg‘og‘ida bir sharshara shahdi ila uchrashtirgan meni
Kecha shivir-shivirlarga do‘nayotgandik balki
Shivir-shivirlar daraxtlarga va kuch yaproqlariga
shimol shamollarining qanotlarida

Tog‘larga irmoqqa va unutilmoqqa
Cheksiz dengizning tin olgan shovqinida bu dam
Buyuk shoshqinlik kabi otmoqdadir tong
Bir arslon chiqmoqda yo‘lga suvning aksidan
Bir g‘or chizmoqda o‘zin cheksiz nurlarda
U yerda kecha va yulduzlarning taralgan iforida
Mag‘lub bir majnuntol kabi suvdagi yolg‘izligiga
U buyuk u sokin oynada aks etgan yuz mening yuzim

Bir paytlar shoshqaloq bir damimda tushirib qoldirganim
Qayda qoldi
Unutdim u menmidim qayda qoldi kechagi qasr
Uyg‘ondim tush bitdi manglayimda uzaymish chiziq
Na marjon qoyalik na dengiz qizlari na ming yillik kema
Ustimda esa yel va parishonlik ifori

* * *

Bir kun u yerdan boqamiz
Hechlikning bir soya kabi
Kelib ketishiga,
Eski olqishlarning sasi
Hovuchlaringda

Siyoh bitdi,
Hali yozajak ancha narsa
Bor edi, unutildi
Va chizildi usti
Ishq kuz yaproqlariga burkandi

Qumning tilini bilmagan bir giyoh
Kabi cho‘lda tek boshiga
U bir necha odim
Borgan yo‘lingdan
Bir oni bo‘lib qaytar senga.

ZAMONSIZLIK HOLI

Insonni insonga bog‘lovchi iplar yechilgach
Yomg‘ir soyalaydigan bir minoralar shahrida
Har kimda bir yirik chumolidan tushish sarxushligi
Badan vayron hofiza o‘z joyida
Suvlar qoraygan joyda bir eski zamon taqsimi
Nay va qonun, sharob va ishq
Go‘yo ismning zamonsiz holi
Chalar chalinar va qulog‘imga bilmam qaydandir
Bir bola choparkan kular va ulg‘ayar birdan
Bir qo‘l shatranj toshin o‘ynatar tinmay
Va yo‘qolgan hovlida zamon
Shamol shahzodaligiga uzangan yo‘llar bo‘ylab
Ko‘lkadan fillarning mozorotini izlar

Hijratning nechanchi yili bu?
Otlar bo‘yinlarida birikkan ter
Cho‘l qumlaricha ko‘payganda bil
Ha to‘xtamoq zamoni kelibdi
Va yomg‘irning qayga yog‘ajagini kim bila olar?!

ZAMON TO‘ZONLARI

Devordan devorga kengaygan qoziq to‘siqlar bo‘ylab
Qayga ketar qurigan yaproqlar bilan iyul so‘nglari
Bo‘shliqqa ochilgan derazadan to‘lardi kuz
Bolalik soatlari masallar
Va xayolimning tupkanida g‘olibona chayqalgan
Bir qaldirg‘och qanot yozardi so‘lg‘un ko‘klarga.
Yuksakda kecha yangi kunni bo‘g‘ardi
Faqatgina bolalar ketardi ul izsiz yo‘llardan
Oppoq kiyimlari ichinda
Burishgan yaproqlarga do‘nardi vaqt
Ko‘milardi qadimiy sandiqda uxlagan sirli dafina

Kunlar orasiga, chang-to‘zonlar, qoraygan bulutlar orasiga
Och qolgach qo‘pormoq uchun tushardi qo‘llariga
Gullari qurigan bir nihol, kirlangan mis, chiqmagan fol
Ranglari so‘ngan bir miniaturadan qochardi Dajjol
Hovlida shamolning ezgin bir ot kabi fig‘on aylagani
Zamon changlarimi men borgach uchishgan
Oynalarni chil-chil aylagan, eshitardim, hali ul zamon,
Bir kun yuksak joyga chiqib egilgandim
Bolaligim edi yugurganicha ko‘chadan o‘tgan
Singan olmos, changga belangan boyqush, yuksaklarga uch
Tirmash novdalarga, tushir yetilgan mevalarni
Qurigan daryoni — o‘zanni topishtir qalbning qaynoq ovozi bilan
Va so‘ra undan eng go‘zal kecha qay bog‘da kezar
Qay tepada shamol qancha uloq tug‘ar
Qancha aktyor so‘kar yangi emizilgan umidni —
Zamon o‘rgimchagi o‘rab bo‘g‘arkan ko‘zasidan chiqqan burini
Cheksiz kengligi ostida ajdarho bulutlarning
Biz ulg‘aygach yuksaldi behad devorlar
Bilolmadik qandaydir bir turli
O‘limdan avval ne bor —
O‘limdan avval ne bor?

MEHMET NURIY BARMOQSIZ

Mehmet Nuriy Barmoqsiz — shoir, nosir, o'qituvchi; 1974-yilda tug'ilgan. Istanbulda o'rta maktabni bitirgach, Anqara G'oziy universiteti fan-adabiyot fakultetining turk tili va adabiyoti bo'limida tahsil oldi.

"Kapalak umri va Suvaydoga maktublar", "Mahshar asrori", "Sukutning qalbida", "Mahshar g'olibi", "Turk adabiyotida marsiya ana'anasi va marsiya-dostonlar", " Adabiyotga oid ocherklar", "Ishq qiyomatida", "Hasrat siri" kabi o'nlarcha she'riy, ilmiy asarlar muallifi.

ADOLAT

Haqqing olursan bir kun,
Qaror topar adolat.
Bir bor yo'lga chiqdingmi,
To'xtama, olg'a faqat!
Qochsang gar, unutsang gar,
Yoqangni hech qo'yvormas —
Ko'lkang kabi ortingdan
Boraverar nadomat.

Agar ishq tugab bitsa,
Kutilmas bir ishorat,
Senga ham kulgay tole,
Qayg'u ham tugar albat.
O'tmish-la yashab bo'lmas,
Umrdan o'tgan har kun
So'ng kunga yaqin qilgay
Har insonni nihoyat.

QUSH

Ishq osmondir, bulutdir,
Oshiq — bir qush misoli.
Ishq cheksiz bir sahrodir,
Xordir oshiqning holi.
Sog‘inch-u iztirobi
Ko‘zlarga mil chekadir,
Ishq yo‘qlikda borliqdir,
Bizga ayon visoli.

ANQARA

O‘tmishni unutaymi — chora bormi, Anqara?
Xotira dengizida yer ko‘rinmas, na chora.
Har oqshomda olomon yo‘qlig‘ing aro ortar,
Eymur ko‘li —sen aro turibman, cheksiz ora.

Senga keldim chorasiz, asra meni, Anqara!
Yillar o‘tdi ustingdan — nechun yopilmas yara?
Erimagan qor — o‘tmish pushmonlik tog‘larida.
Meni Mug‘on ko‘liga ko‘chgan qushlardan so‘ra.

PARDA

Ruhimga bir o‘t tushdi,
Boshlandi buyuk yong‘in.
Bu yong‘inda tiling tiy,
Faqat tingla, jim kutgin.

Ingrarkanman, kulumsar
Menga zulm etgan dunyo,
Har rangning, har shaklning
Orqasida — bir ro‘yo.

Bilaman yetti eshik
Ortida yuz muammo,
Kutganlarning boshin yer
U mal'un, ulkan riyo!..

Nafis orzum ushaldi —
Ilohim keldi, nihoyat,
So'zlarkan, taskin topdim.
Ko'nglim topdi hidoyat.

U nayni puflay boshlar
Eranlar nafas-nafas.
Bilki, badan — bir kiyim.
O'zlik uzra bir qafas.

Endi parda ochilsin,
Barcha sirlar fosh bo'lsin,
Meni sirdan ayirgan
O'sha nafs tosh bo'lsin.

SUZGICHDAN O'TGAN QAYG'U

Jumboq — ko'kda kamalak,
Kaliti yomg'ir to'lu.
Uni yaratgan ajddod
Parchasi Anato'lu.
Yunus va Mavlonolar
Faqat oddiy vosita,
Uni saqlab qolish-chun
Yarat ko'prik, robita.

Yomg'ir,
Har kun yog'asan,
Yulduzga o'xshar yuzung,
Shamol osmon kuyidir,

So‘zi erur po‘rtana.
Nedir yo‘qlik deganing?
Suzgichdan o‘tgan huzun,
Og‘irlik qilar oddiy
Oshiqlarning sirtina.

Oshiqona, o‘tli she’r
Har ko‘ngilga yoqadi.
Qaynab-toshib tursa ishq,
To‘sma, seni yoqadi!
Kamolga yetganlarga
Ochilgay afsun, tilsim,
Lek tug‘ilmoq va o‘lmoq
Sirin ocholmas hech kim.

Go‘zal birdir aslida.
Har kimning so‘zi har xil.
Iztirob cho‘l demakdir,
Sarobi uning vuslat.
Dengizga oshiq zarra,
Qum donasi ham haqli;
Kecha-kunduz orasi,
Emasmi qavat-qavat...

YIG‘LAYOTGAN MANSUR

Jimlik bosar ermish kechaning sho‘hi kelarkan,
Har kim nash’aning tutqunidir mohi kelarkan
Aslo tugamas baxt-u surur sirriga yetgan
Mansur yana yig‘laydi g‘arib ohi kelarkan...[1]

[1] She’rlar shoirning “Kapalak umri va Suvaydoga maktublar” (Mehmet Nuri Parmaksız. Kelebek Ömrü ve Süveyda`ya Mektuplar. Akçağ yay. Ankara 2012) kitobidan o‘girildi.

AHMAD HOSHIM[1]

(1887–1933)

KUN SO‘NGIDAGI ORZU

Tolg‘in ko‘zimning halqalarida
Gullar kabi tong bo‘ldi namoyon.
Gullar kabi... so‘ngsiz, yirik gullar,
Gullarki, qamishdan ko‘ra nolon,
Kun chiqdi yoziq orqalarida!

Oltin qal’alardan yana qushlar
Umr takrorini etar e’lon.
Qushlarmidi ularki, har oqshom
Olamlarimizdan safar aylar.

Oqshom, yana oqshom, yana oqshom,
Bir sirma kamardir, suvga boqsam.
Ustimda samo — rangi mutalsam[2]
Oqshom, yana oqshom, yana oqshom,
Ko‘llarda bu dam bir qamish bo‘lsam!

HOVUZ

Oqshom teranlikda yig‘inda yana...
Jonon kular eski joyinda.
Jononki, kunduzlari kelmas,
Oqshom ko‘rinur hovuz bo‘yinda.

Mohtob kamar navqiron belinda,
Ustida samo bir gizli yopinchiq.
Yulduzlar guldir uning qo‘linda...

---

[1] Bundan keyingi mualliflar “Turk she’riyati antologiyasi” (Yo‘ldosh Eshbek tarjimasi, nashrga tay. Abdumurod Tilavov. Toshkent, Akademnashr, 2022) kitobidan olindi *(mas.muh.)*

[2] **Mutalsam** — kamalak.

SHUKUFA NIHOL BASHAR

(1896–1973)

BUZMA XONANI

Buzma kichik xonani, devonlar qolsin yana,
Xira burchakda Nihol, xulyoga tolsin yana.
Dasta-dasta she'rlar, Fuzuliylar, Nadimlar
G'arib qolgan ruhimga bir olov solsin yana.

O'rnida qolsin yerda, atlasdan yostiq — mindar,
Sadafli o'rindiqlar, mushtuk, uzuk, tasbehlar.
Ijodxonani ochiq qoldir, bekitma aslo,
Oldinda xayolimiz — ko'rinsin goh kengliklar.

Burchakdan bir sas kelsin bir she'r o'qilur kabi,
"Tarqalgaymiz" desin bir sas yutingan kabi.
Qoshlarimizni uyib uzoqlarga tolaylik,
Ayriliq fig'onlari bizga to'qingan kabi.

Buzma zinhor xonani, bo'lsin menga tasalli,
To'rt burchakda bordir to'rt shoirning xayoli.
Erishilmas yo'llarga ketdingiz, tarqaldingiz,
"Ko'z tegdi" der,
kim agar ko'rgan bo'lsa bu holni...

ONADO'LI AYOLLARIGA

Boqqan sayin yuzingizga aksingiz urdi manga,
Nash'a to'lug' ko'zlarim chulg'andi bir tumanga.
Birin-ketin so'naroq ruhinda nur avjlari,
Siznikidek peshonamda paydo chuqur ajinlarim.

Dudoqlarim qimtindi to‘ygan kabi jonidan,
Tortildi zarra-zarra tomirlarimda qon.
Peshonada qanday teran bir iztirob izi bor,
Barchangiz bir siyoh kecha... sirli bir mozor,
Umringizda bir yaproq chechak yo‘q to‘kilmagan,
Qaysi zarrangiz borki hijron-la to‘kilmagan?

Shunday mag‘rur marmardan turishingiz bor,
Marhamatingga muhtoj emasmiz, deydi, zinhor.
Ezildim qarshingizda, ko‘zimni tamom yumdim,
“Bechora” sizning emas, albatta, mening otim...

ISMOIL HOMIT DONISHMAND

(1899–1967)

QIT'ALAR

Bir kosadir olov to'la ko'nglim yona-yona,
To sening yoningdaman hasratman sana.
Yoshlar to'kkanda so'ndirolmas otashini suv,
Tutsang qo'ling-la qonimni, ichsam qona-qona.

* * *

Bo'lsang edi sen samo, bo'lsang edi sen havo,
Olsam edi men seni dam-dam nafas, nafas.
Bo'lsang edi sen zamon, bo'lsam edi men makon,
Aflokni[1] to'ldirgan bir ishq o'lurdi bas.

* * *

Poying sadosi kelsa-da, sen hech kelmassan,
Mentin olsam to qiyomat vuslat istamam.
Topsam izing-la o'lkasin, ul o'lkaga sig'masam,
Oshsam zamonni hasrating anjomi kelmasdan.

Bir gul o'laydi, ko'nglum jonon ko'parmog' uzra,
Bir bo'y bo'lurdi, jonim bir on ul barmog' uzra.
Bir doston ichinda ofoqi dahr tutmish,
Bir ism o'laydi jismim jonona bormoq uzra.

Jonon ichimdadir, ne uchunkim jon ichimdadir,
Vuslat-la hasratning o'rni ham bir bichimdadir.
Nash'a ila huznni fasl eta bilmak ne haddima,
Hijron ko'nglimda, vasl ila bir xush kechimdadir.

Hasrat bitsa, umr ila vuslatmidir o'lim,
G'aniy baqoni naylaya mobadi hajr esa.
Hijron jahannamida yechilmas bu ko'rganim,
Ey ko'zlaringda jannati a'loni ko'rganim.

---

[1] **Aflok** — falak.

FORUQ NOZIF CHOMLIBEL

(1898–1973)

G‘URBAT

I

Bir qushni tanirdim bahorda,
Butoq ochgan, panja yozgan bog‘cham
uzra uchardi zorlab,
Oqshomlar titratgan bir sas-la kuylardi.

Ayonki, bu diyorga begona u,
Majhul — qaydan kelganin hech kim bilmas,
Andomi[1] uzun, patlari porloq, vahshiy sas bir qush.

Tuni bilan qishloqda sadolar tingach,
Mohtobga yaqin ko‘lkali bir nuqta topgach,
Hijronda ezilgan, hayajonda bo‘g‘ilgan
Bir sas-la sayrardi.

Chirqirab kuylardi, solardi fig‘on,
Ovvora qush tuygan hasrat va sog‘inch,
Kuylardi noma’lum, o‘lkada nolon,
Kuylardi bir tog‘ning ustida osmon
Va ming bir gullar ortida qolgan yurti haqida.

O‘rtanib kuylagach u kengayardi, tuyardim
Qo‘rqinchli jarlarday ruhimda teranlik,
Har kun yana bir qadam yaqindan sevishardik,
Men shoir, u shoir.

Bir kun darchani ochdimki, ufq bir qora parda,
Sahroni oqliklar chulg‘amish, yo‘llar junjikmish,
Ko‘rdim, ul g‘arib qush kezgan joylarda
Bir hovuch pat yotar... Jonsiz o‘sha qush!

---

[1] **Andom** — qad-qomat, ko‘rinish, bo‘y-bast.

II

Ey ko‘z halqasi nafarmon,
Rangi oqargan,
Men tunagan yo‘llarni yolg‘iz kezgan ofat!
Qancha yil o‘tgaydir shunday hazin, shunday xabarsiz,
Sen Marmaraning ko‘l kabi turg‘un bir ichinda,
Sen mendan uzoq, men senga hasrat.

Chulg‘agan meni g‘urbat,
O‘ragan meni Majnun deya zanjir kabi tog‘lar;
Bir turbatki ruhim — kelgan yig‘lar, ketgan yig‘lar!

Har shay menga begona bu yerda,
Har kim kabi har narsa;
Sassiz daryolar, so‘lg‘in og‘ochlar, sariq gullar;
Tillanmish og‘izlar-la tutiq tilli ko‘ngullar...
Hatto menga insonlarga nisbatan yaqin
Bog‘chamda o‘lgan qush,
Bog‘chamda kafansiz ko‘milgan qush.

Har kim menga begona bu yerda...
Bir yerki, sevgan-sevilgandan asar yo‘q;
Bazmida qadah sindirguvchi sevgililar,
mahbubalar yo‘q;
Yo‘q... yo‘q!

III

Qarshimda xayoling, deymanki,
Bir po‘rtananing qahriga qurbon
Qushlar kabi darding-la bugun tarqoq, parishon,
Qalbimda quyosh, sevgi, amal, nash’a, ne bo‘lsa...
Qarshimda xayoling, deymanki,
Bir kun dudoqlar meni hasrat-la eslar bo‘lsa,
Robbim, ne dudoqlar:

Kul tusining ustida biror tomchi, uchqun —
Bir kun menga yig'lar bo'lsa bu ko'zlar,
Behuda emasdir, buni bilsin;
Bilsinki, bugun bir sen aziyatda emassan;
G'urbat yoyining o'qlari o'tgan-u ichingdan
Kunlarcha uzoqda,
Tolg'in biri uzlat kabi yolg'iz yashamoqda,
Charchoq biri uzlat deyilgan qabrga ko'mildi;
O'lmasdan o'ldi.

QIZIL SOCHLAR

Samad Og'a o'g'liga

Avval zaif ingroq edi adirlardan kelgan,
So'ng bir soya ko'rindi qush uchmas yo'ldan:
Osiyoning bag'ri yoniq, tuprog'ini titrataroq
Kelar bir aroba ingroq va vayron.

"Ingragan mamlakatim bu g'ildirakda", — dedim,
"Qay bir uzoq qishloqlik arobada kelmakda", — dedim.

Yoniq bir yuz yaqinlashdi muhabbat bilan to'lug',
Kim bu, qaydan, qay bir yo'lning yo'lchisi bu?
Bu kelgan uyasiz qushday parvosiz,
Qishloqlik qiz edi, tanish ovozi.

Tushganday bir qaro savdo boshiga,
Chidar qahramonday, chiqar tog' boshiga.
Na uzun yo'l yurgan holi, na charchoq izi.
...Misday sochin rangi, tanin terisi.

Yaqin kelar misdan go'zal iymanaroq,
Qorli ko'nglimda quyosh ko'rdi qizil bir yaproq.
Bir qizil kun tug'ilur, dedim ul boshdan yoringga,
Yondi ko'zim tushib qizil sochlaringga.

Go‘yo bir qo‘r kabi qizg‘in edi, qo‘rqitdi meni,
Yoyilarkan sochi qip-qirmizi qon tutdi meni.
Angladim, men nechun har ruhga xushdir, sinamas:
Nega bir qush kabi har sochda ko‘ngul tin ololmas?

Angladim men, to‘qinmas senga ag‘yorning qo‘li...
Ko‘nglim chulg‘amoq uchun yondir ming bir go‘zalni.
Ul porloq boshing eng so‘ngra unutdirdi menga,
Ko‘zlarim ko‘rmas atrofni, quyosh urdi meni.

Aroba g‘oyib bo‘ldi. Kun botdi. Bir sa’va qush ovozi bor.
Qiz uzoqlashdi. Faqat menda o‘ta bosh aylanmog‘i bor.

CHO‘PON CHASHMASI

Chuqurlardan chuqurga daryolar yig‘lar,
Uzoqdan uzoqqa cho‘pon chashmasi.
Ey suvning sasidan sozlangan bog‘lar,
Ne so‘ylar shu tog‘ga cho‘pon chashmasi?

“Ko‘nglini Shirinning ishqi olguncha,
Yo‘l olgan hayotning ufqiga borgach,
Tog‘larni ul shitob-la Farhod yorgach,
Oqa boshlagandir cho‘pon chashmasi...”

Ul zamon boshidan oshiqni dardi,
Marmarni o‘yardi, toshni teshardi.
Ne tashna yo‘lchiga muzdek suv berdi,
Tegdi ne dudoqqa cho‘pon chashmasi.

Vafosiz Asliga yo‘l ko‘rsatgan shu,
Karamning soziga javob bergan shu.[1]
Qurigan ko‘zlarga yosh keltirgan shu,
Sizmasdi tuproqqa cho‘pon chashmasi.

[1] **“Karam va Asli”** — turk xalq dostoni.

Laylo kelin bo‘ldi, Majnun mozorda,
Bir suvsiz yo‘lchi yo‘q endi tog‘larda.
Quyoshdan qizargan bir gul izlarda,
Kezar bog‘dan bog‘ga cho‘pon chashmasi.

Na shoir yosh to‘kar, na oshiq yig‘lar,
Tarixga qorishdi eski savdolar.
Behuda saslanur, behuda chog‘lar
Bir so‘lga, bir o‘ngga cho‘pon chashmasi.

XOLID FAXRI O‘ZANSOY

(1891–1971)

BIR SOAT JIRINGLAR

Qadim qish tunlarining xotirasi!
Soat jiringlar... qoq yarim tun,
Tashqarida qor yog‘ar... pag‘a-pag‘a!

Bu oppoq zulmatda
Yanada oq, uzun xayollar
Kelur ko‘p uzoqdan, qorlar ustidan.
Qorlardan naridan
Shivirlar eshitaman,
Hayajonga tushaman
Ayvonda go‘yo oyoq tovushidan...

Eski qish kechalarin xotirasi!
Soat jiringlar... qoq yarim kecha!
O‘tganlarim, bechora marhumlarim,
Yaqin-yiroq barcha sevganlarim
To‘p-to‘p, qator-qator kelar
Qorlar ustidan, qorlar narisidan
Bir soat jiringlar chalar...
Bir xayolot tasdiqlanar: Men!

TUSH

Tushimga kirdi eski Istanbul oqshomi!
Hali bola emishman. Lekin onam hayotmi?
Bilmam, nechun yig‘layman, balki, xastaman?

Birdan ne bo‘ldi, qush kabi uchdim, ko‘chada edim!

Har ne go‘yo avvalgiday o‘z o‘rnida,
Har ne... biroz keyindagi tor ko‘cha,
Masjid va bog‘idagi bir qancha qabr toshi.

Har ne bu yo‘lda yo‘qlikka to‘xtovsiz ketgan!

Har ne o‘sha eski lavha, qoraygancha oraliq,
Har ne o‘z joyida, derazadan sizgan nur.
Nechun yolg‘iz men yig‘layman, ne uchun, nega?

Demak, onam sog‘ emas, vafot etgan bechora!

O‘RXON SAYFIY O‘RXON

(1890–1972)

UCH DUNYO

Inson
Yashar uch turli shu uch dunyoda:
Avvalo,
“Shuni sevdim, buni sevdim”, — deyaroq
Sevmoq bilan kechar umri!

So‘zda yetuklashur bundan so‘ng,
“Uni ado etdim, buni bajardim”, — deyaroq
Umri hisoblamoq bilan kechar.

Keksayganda tanir dunyoni,
“Bevafo dunyo!” — deb,
“Hey, ketdi dunyo!” — deb
So‘kmak bilan kechar umri.

VIDO

Qani u, tark etib ketarkan seni,
Bu o‘ksiz holga tushmaslik kerak edi,
Peshonangdan olarkan vido bo‘sasin,
Yuzimga bu tur qaramaslik kerak edi!

Kelsa-da eng achchiq so‘zlar tilima,
Uchar deb o‘ylardim qancha kalima,
Bir olov holida tushding qo‘lima,
Qani, ey ko‘z yoshim, oqmasliging kerak edi!

YUSUF ZIYO O‘RTOSH

(1895–1967)

BIR SHAMOL

Esdi boshimda,
Hali o‘n sakkiz yoshimda...
Mohtobim ichdim qadahdan,
Yulduzlar yuzdi yoshimda...

Bir shamol esdi boshimda!

Oyog‘im yerni unutdi,
Peshonamda sochlar bulutdi,
Bir totli sarxushlik tutdi,
Hali o‘n sakkiz yoshimda!

Bir shamol esdi boshimda!

UYIM

Bobomdan yodgor bu uyni
Qish toshqini, yoz olovi
Hali men tug‘ilmasdan vayron etgan...

Ko‘nglim bir xulyoga ba’zan tolar-da,
O‘ylanib deymanki: bu xonalarda,
Kim bilsin,
qancha kishi o‘tirgan, yotgan...

Eskirgan o‘rindiqlar, yaroqsiz parda...
Onamning kelinlik oynasi bu yerda,
Bu yerda ishlash kerak, atlas hamyonim!

Boqqan sayin bobomning rasmi devordan
Bir da'vat eshitgan kabi mozordan
Kattarar ko'zimda vasvasa gumonim...

Behad yolg'izman... faqat men va onaxonim,
Undan boshqa kimim bor, u mehribonim,
Manim borim uning, uniki manim...

Chinor ko'chasida oqshom bo'ldimi?
Qafaslar ortidan izsiz yo'limni
Undan boshqa yo'q-ku meni kutguvchim!

BOSHQA ELLARDA

Qorong'ular yoyilganda sukunat titrar,
Har vagonda jo'shdi yopiq-yopiq turkular[1].
Ma'sum yuzli askarchalar boqib kulardi,
Qo'llarida parillagan miltiq nayzalari!

Ol qo'lro'mol silkinar har panjaradan,
Poyezd qalqdi sekin-sekin bir kelin kabi.
Yashil dala, cho'llar orasidan oqib ketarkan,
Og'ochlarning hayajonli chirpindi qalbi!

Eski yurtning huzun ichra boqqan tog'lari
Sevindilar turk askari o'tmoqda deya.
Rum elining ul sevimli go'zal bog'lari
Chechaklarning bo'ylaridan berdi hadya!

Bir og'izdan jang turkusin kuylar qushlar,
Shan to'lqinli sharsharalar ko'pirib jo'shar.
Bir bog'chadan bir bog'chaga kezgan shamollar
Xabartalab qayliqlarga eltar salomlar!

[1] **Turku** — milliy qo'shiq.

Oqshom quyosh tutashar oq g‘urub aylarkan,
Ufqlarga tikdi turkning ol bayrog‘ini!
Bulutlar nur olib yumshoq bo‘salaridan
Eslatar qiz yopinchig‘i — yashmog‘ini!

Kecha bo‘lur, yulduzlar-la so‘zlashardi,
Oy bir kumush yo‘l ochardi chimzorlarda.
Oh, hammasin ko‘nglida bir o‘ksuzlik bordir,
Sevganlari, yashil dala, qo‘y-qo‘zi qayda?..

QO‘SHMA[1]

Kecha yana kunimiz kechdi birga barobar,
Tunda hay yoningda qolasim keldi!
Turishi xayoli, boqishi dilbar,
Vallohi, makkorni olasim keldi!

Yuragim bog‘landi har bir so‘zina,
Qora qoshlarina, qora ko‘zina,
Siyoh zulfini yoymish yuzina,
Tolalarin tor kabi chalasim keldi.

Kulishi ko‘nglima injular to‘kdi,
Boqishi ufqimda shafaqlar so‘kdi,
Ichimga bir totli behushlik cho‘kdi,
Qo‘ynida tutlara tolasim keldi!..

[1] **Qo‘shma** — terma.

ANIS BAXICH QO‘RYURAK

(1891–1949)

XOTIRA

Kechsin kunlar, xotiralar,
Mavsumlar, oylar, yillar...
Zamon go‘yoki bir ro‘zgor
Va bir suv kabi oqsin...

Sen ko‘zlarimda bir rang,
Quloqlarimdà bir sas
Va ichimda bir nafas
Kabi qolajaksan...

BIR JANOZA VOQEASI

Yetti devga do‘ndi yetti ulkan gunohing,
Yelkangda ketayotgan bu tobut, ajab, kimning?
Ollohim, bu mayit menga mendan ko‘p yaqin;
Bu mening eng qimmatli,
ziyoda sevganimning!..

Bu o‘lgan ruh edi, bir foniyning borligi,
Uni endi kutmoqda yo‘qligining mozorligi,
O‘lmagay erdi bu ruh, o‘ldirdilar lekin, oh,
Shu mal’un yetti jallod, shu yetti kabir gunoh!

Ortidan yig‘larlar bir guruh yosh ayollari,
Bular ham shu o‘limning tul qolgan amallari.
Barchasining yuzi so‘lg‘in,
soyalari ko‘p parishon,
Bo‘shliqda talpinar inja, shaffof qo‘llari.

Hodisaning ortidan telbalarcha hayqirib,
Duch kelgan har neni tishi-la yamlab, sindirib,
Bu ruhga oid bo'lgan jasad ikki qo'lida
Ikki iblis osilib oldinlaydi yo'lida...

IKKINCHI BORLIQ

O'girib ko'zlarini o'zligining ichiga,
Bul odam kecha o'zin ko'rdi "behush" holida.
Na Hindiston bordi, na Chin-u Mochinga,
So'ngsiz bir jahon topdi ongsizda xayolida.

Bu jahon uning shul xush yuzining tegrasi,
Bu yonartog'dan o'kirgan lovlar[1] kabi
Teranlikdan guvlarkan ruhining dahshatli sasi,
Ochildi ko'nglida bir qizil g'oyyoning[2] tubi...

Oq gullar-la bezangan bahor edi ko'zinda,
Ul qip-qizil g'oyyoki qaynar edi o'zinda.
Bilmadim, o'ylamasdan ba'zan ro'yo sanarkan...
Ul odam har ishda-yu, har samimiy so'zida
Yagona borlig'ining "nabuloz"inda[3]

So'ngra o'z borlig'ini nogoh ko'ra olmishdi,
Telbalarcha otildi, qizil g'oyyoga tushdi.

---

[1] **Lov** — lava.

[2] **G'oyyo** — do'zaxdagi bir quduq nomi.

[3] **Nabuloz** — tumanli.

JAMOL YASHIL

(1900–1977)

EY VATAN!

Kulki sen, nash'ang-la kulsin oy, tuprog'-u dengiz,
Ey Vatan, ko'z yoshlaring tinsin, yetishdik chunki biz.
Bir quyosh erding, bir zamon, oy qadar qolgandi kecha,
Ranging so'lg'in, ne ro'yodir bu oqshom ko'rganing?
Ey Vatan, ko'z yoshlaring tingan, yetishdik chunki biz.
Kutsin Turk o'g'lining azmidan quvvat olmagan,
Sel to'xtar, yong'in so'nar albatta bir kun, ey Vatan!
Bezanur, o'ynar erta, kechagina motam tutgan,
Ey Vatan, ko'z yoshlaring tingan, chunki yetishdik biz.

XOLIDA NUSRAT ZO‘RLITUNA

(1901–1984)

YO‘L BO‘YLAB MISRALAR BAXSH ETMOQ

I

Sevaman bu diyorlarni,
Chunki taniyman,
Chunki shu yurt otashi-la yonurman,
Taniyman shundan;
Ham shunday bir qush boqishni ko‘rib tanimoq emas bu,
Ne munosabat —
Men bu yurtni boshdan oyoq
Qarich-qarich
Kezdim, aylandim.
Goh “mashina” ichinda shamol bilan bellashdim,
Goh uchqur ot ustida tik qoyalardan oshdim.
Bu tuproqlarni sevaroq, sezaroq, erkalayaroq,
Tinglayaroq, tuyaroq
Aylandim...
Sevgilim mening, onam mening bu tuproq!
Men unga ko‘ngul berdim, jon atadim.
Jon atadim!.. Jon atadim! Jonim oromin!
Viloyat markazlarida ziyofatdan ziyofatga ko‘charoq,
Sharaf uchun qadah ko‘tararoq
Nutqlar so‘ylamoq,
Qishloqlikni maqtamoq,
Olqishlamoq, olqishlanmoq...
To‘g‘risi, bo‘lar xush,
Biroq
Bizga bu Vatanni tanitmas,
Bu bilan tanilmas diyor tuproq!
Tanish uchun bu muqaddas tuproqni
Bir chirpinishda o‘taroq

Va hatlayaroq
Shahar va chetidagi bog‘chani, bog‘ni
“Qishloqning o‘ziga” yo‘nalmoq kerak!
Bolalarning xasta ko‘zlarida
Yig‘lagan og‘riq va kulgan umidni
Ko‘rmoq,
Ko‘ra bilmoq...
Va ularga bermoq... baxsh etmoq...
Qo‘limizdan, boshimizdan...
Bermoq — baxsh etmoq!
Yo‘l, maktab, nur-ziyo, shu’la, suv
Va sevgi... sevgi, mehr-muhabbat
Yuraklar to‘lug‘!

KET, BAHOR

Chekin, bu ko‘lkali yo‘lda kezinma,
Bahor, boqishlaring yanada sarxush!
Yanglishib ko‘nglimga mehmonday inma,
Eshigi qulflog‘lig‘, mehrobi bo‘m-bo‘sh.

Ibodatxona bil, mayxona emas.
Muattar ziyolar, saslar, chechaklar...
Umrining har kuni bir boshqa to‘y, un!
Bulbullar kuyida ashki chechaklar.

Gullar to‘kilurlar ko‘ksiga butun,
Rostdan ham go‘zalsan, afsona emas.
Oltinli boshingda moychechak nechun?
Sariq sochlaringga alvon gul taqqin!

Ket, bahor! Ko‘nglimda ibodat uchun
Tiz cho‘kkan qizlarni hech hurkitmagin,
Ko‘nglimga kirma, u koshona emas.
Ket, bahor! Bor, bahor... Uzoqlarda gul;

Dengizga rangingdan qoldirgin hadya,
Ufqlarda kezin, ko‘klarga suzul,
Qalbimga suqilma “paymona” deya,
Sen ko‘rgan chiroqlar... paymona emas!

AHMAD QUDSIY TAJAR

(1901–1984)

TABIAT XONAM

Sevaman dalalarda yashamoqni men,
O‘n ikki oy,
Sevaman ularning yashil bag‘rini,
Barcha bezagini,
Istamam boshimning tepasida tom,
Tabiat xonam,
Istamam tuproqdan boshqa joy yotoq,
Kahkashonlar toq.

Qushlardan tushgan nozikkina bir pat
Yopinchiq, albat.
Va oydan uzilgan barcha yulduzlar —
Tushimdagi qizlar,
Har saboh nash’am uyg‘ongan sirdosh —
Bag‘rimda quyosh,
Shoxlarda kuylagan qushlar — qabilam,
Bilmaslar alam.

Yig‘lasak, biz bilan birga yig‘laydir
Singlim — yomg‘ir,
Ingrasak, biz bilan birga ingraydir
Inim — shamol g‘ir-g‘ir.
Istagan to‘plasin minglab hovuchda
Qorlardan qishda,
Bo‘sa olar chilladan o‘lka —
Yalang‘och yelka.

Sevaman dalalarda yashamoqni men,
O‘n ikki oy,
Sevaman ularning yashil bag‘rini,
Barcha bezagini.

QAYDASAN?

Kechalari bir sas bo‘lar uyquni,
Dilni hayajonga ko‘mar: Qaydasan?
Axtaraman yillar bo‘yi men uni,
Men oshiqman bu chorlovga, bu sasga.

Kunduzlar sudraklab aylar darbadar,
Bu sas shamollarga qorishib ketar
Va shomlar yonimda yurib barobar,
Nogahon hayqirar menga:
Qaydasan?

Barcha sevgilarni olib dilimdan,
Borlig‘imni yolg‘iz unga berdim man,
Yetsin toki menga bir kun terandan,
To terandan bir kun menga “Kel” desin.

SHAMOL

Bu ro‘zgor, bu dalli shamol bir qo‘shin,
Sanayman bu qo‘rqinch, qora o‘rdani.
Barcha dunyodagi ruhlar to‘ldirdi
Bu qo‘rqinch kechani va bu qo‘shinni.

Bu ro‘zgor, bu dalli shamol bir bosqin...
Bayroqlar havoda goh-goh bayroqlar
Va ruhlar zafarga ketgan bu harbning
So‘ngida jannatga qovushajaklar.

Bu shamol, bu uzun safar qanday xush,
Qanday xush bu chopish, bu shitob–yovuz!
Kim shitob telbasi, kim esa sarxush,
Hayqirgan, baqirishgan minglarcha og‘iz.

Bu ro‘zgor, bu dalli shamol — telbalik...
Ma’lumki, ulardir bizni chaqirgan,
Shunday ko‘klar kengish, ufqlar ochiq,
Ulardir, ulardir bizni chaqirgan.

Ne baxtki, bir shamol kabi borliqni
To‘xtovsiz bir amal ortidan chopmoq!
Siqmoqda kunlarning torligi meni,
Qaydadir ruhlarning manzili — uchmoh?

Bu ro‘zgor — bu dalli shamol bir bosqin...
Manglaydan oshmoqda, ko‘pirgan otlar.
Shamollar, yolini bunda qoldiring
Yo meni ko‘klarga olsin qanotlar!

XOLOY

(xalq raqsi)

Jur’atlilar! Qani, xoloyga turing.
Mana bosh, mana dovul, mana maydon!
Mana go‘zal xoloy, go‘zal charx uring!
Go‘zalni sevmagan chiqsin oradan!

Chal, dovul, chal gum-gum, yurak o‘ynasin,
Surnayni ufla, tort, jur’at o‘ynasin.
Jasorat o‘ynasin, o‘ynab to‘ymasin,
Qadam-qadam borsin, chiqmas qatordan.

Qayting to‘lqin-to‘lqin, yo‘l-yo‘l aylaning,
Qayting qator-qator, qo‘l-qo‘l aylaning,
Davrani keng oling, mo‘l-mo‘l aylaning,
Aylaning, kechirsin sizni Yaratgan!

Yirik archalarday, mana, beshingiz,
Qator tog‘larmidir yoki eshingiz,

Qo‘lni qo‘lga bering va birlashingiz!
Siz bilan faxr etar, beshak, bu Vatan!

Tajar der: Chalinur ko‘nglimda dovul
Qo‘llashgan ona, qiz, ota va o‘g‘il,
Maydonga botirlar chiqmoqda, ber yo‘l.
Yo‘qol g‘am, zulumot, bugun bu yerdan!

AHMAD HAMDI TANPINAR

(1901–1962)

MOVIY

Moviy-moviy edi osmon,
Bulutlari oppoq-oppoq.
Bepoyonlig‘ ichra nolon,
Ne ajab, yoz edi g‘amnok.

Ajab, go‘zal, so‘ngra mahzun,
Nur yomg‘iri ila uzun.
Bir turkuki, g‘amgin sado
Va sen kulsang, gullar paydo.

Xush bulutlar edi oppoq,
Soyalari sirli porloq.
Tinmas edi g‘ir-g‘ir shamol,
Gullar to‘shin aylab xushhol.

Binafsharang oydin... chinor
Soyasi-da qizargan zor.
Namozgarda boqishlari,
Sarinlikning yoqishlari...

Sabohlarning oynasida
Nogoh kular paydo husn.
Ikki boqish orasida
Aylar meni telba huzn.

Qaydasan? Kim bilsin hozir,
Seningdir yana oqshomlar;
Zinada qadaming sasi,
Bandargohda sharpang bor.

ICHIDAMAN

Zamonning
Na topaman tashinda;
Yakpora, bepoyon onning
Parchalanmas oqishinda.

Bir ajab tush ma'nosidan
Uyushgan kabi har shakl.
Shamolda uchgan pat hatto
Yengil emas menchalik.

Boshim sukutga egilgan,
So'ngsiz, poyonsiz tegirmon;
Ichim murodga erishmish,
Po'stinsiz, ridosiz darvesh;

Tomiri menda bir pechak
Bo'lgan dunyo sezmoqdaman.
Behad tiniq moviy ziyo
O'rtasida suzmoqdaman.

SEKIN-SEKIN

Oydinlangan
Bir dengizosti olami,
Yo'sunli bir bo'shliqdan
Tortar o'ziga mani.

Bir yulduz uzoqligida
Uyg'onar bir-bir sekinlab
Hurkak xiraligida
Zamonni bo'lgan shakllar.

Yoqqaningdir bir nafasda,
Ey sukuti billur aviza!

Sirli uchburchak qafasda
Ko‘klar yaqinlashdi bizga...

Oydinlikning handasasi
Bepoyonlik bog‘ing saning;
Tinglayin kelmoqda sasi
Kapalag-u arilarning!

Bilaman, kimsa icholmas
Ustma-ust ayni buloqdan.
Vido kabi har bir nafas
Ko‘nikilgan qirg‘oqlardan.

Qay bir kabutar qanoti
Ko‘pikdan chirpanishida,
Bu saroyni tugatdi
Har duch kelganning tashida.

Va qay bir qo‘l bo‘sh kechadan
Uzatdi bu oltin jomni,
Sizgach bu tushunchadan
Davrning qizil mayi nobi.

Ey eshigida har onning
To‘xtovsiz o‘zgargan tutqunlar!
Bosh ustida har ro‘yoning
Bu oydinlik o‘yin kutar.

SHE’R

Chulg‘asin bug‘doyi tushlarimizning,
Seni bag‘rimizga ekib-tikamiz.
Dardlar — qarindoshing, tasalli — qizing,
Nurli chehrang bilan to‘lar kechamiz.

Sukunat bog‘chasi tilsim va buloq,
Yulduzlar jumlasin zulmat baxsh etar.
Iqlimlar tashinda azaliy bahor,
Faollar ichinda tuganmas erta.

Ko‘nglimizda so‘ngsiz qalqigan dengiz,
Tabassumli roz-u qadaring bizga,
Yulduzlarning oltin bog‘chasidamiz,
Manguliging bilan keldik yuzma-yuz!

SALOM BO‘LSIN

Salom bo‘lsin bizdan go‘zal dunyoga,
Bog‘chalarda hali gullar ochilarmi?
So‘ngsiz salom bo‘lsin quyosh-la oyga,
Ziyolar, soyalar suvda o‘ynarmi?

Bari go‘zal edi: qorbo‘ron-quyun,
Kunlar birin-ketin yana kecharmi?
Hayratsiz bir qanot qoqishda xush un,
Moviy ko‘kda qushlar ucharmi?

Uzoq, ko‘p uzoqmiz endi ziyodan,
Gul bola shovqini to‘la dunyodan,
Qaytmas kema bo‘ldik ko‘l-u daryodan,
Otimizni so‘rab izlagan bormi?!

KAMOLIDDIN KAMU

(1901–1948)

BIR YO‘LOVCHIGA

(Xazon yo‘lchisiga)

Soching yana parishon,
Bag‘ring alam-la vayron,
Qayga yo‘l olding hayron,
Yana bir g‘urbatgami?

Men ham bir quruq yaproq
Kabi sen bilanman, boq,
Zulfingga bog‘lanaroq
Keldim ishqqa... dardgami?

Ko‘zlaring to‘la malol,
Yuzlaring inja hilol,
Hamdard et, yoningga ol,
Dema xazon... barggami?..

SOYABON OQSHOMI

Oqshom shamollari derlar Aliga:
— Ko‘zlar ilgariga, ko‘ngul orqaga...
Go‘yo qishloqliklar ko‘rsinlar deya
Tepalar pasayar, daralar to‘lar!

O‘ylar qishlog‘ini: atrof cho‘l butkul...
Na xabar yo‘llagan, na besh-o‘n so‘m pul.
Balki, qancha ona yo‘l qarar nuqul,
Balki, bir-ikki tul sochini yular!

Tortdi ko‘p g‘urbatda mashaqqat — chilla,
Jonlanur qaytadan, keladi tilga.
Aksini izlagan qancha oh ila
Ko‘ksi bo‘shar ekan, ko‘zlari to‘lar!

YOLG‘IZLIK

Yillarki qilichim berkingan — qinda,
Yolg‘izlik yonimda to‘rt devor kabi.
Muztaribim devordan tashqarida,
Mehridan umidvor kishim bor kabi.

Ko‘zlarimda g‘alati pok bir yog‘dusi,
Qulog‘im ding qo‘shnilarning oyoq sasida.
Mayli, yana bir qultum suv beruvchi bo‘lmasin:
Bosh ustimda kimdir menga
“suv yo‘q” desin-da?

G‘URBAT

Shu qadar achchiq
Ki ne bo‘lsa ichimda.
Bari menga begona,
Bari boshqa bichimda!

Eriyman bora-bora
Har umidga alvido,
G‘urbat o‘zligimni-da
Bitirgandir ichimda!

Na orzum, na amalim,
Yaralangan bir qo‘lim,
Men g‘urbatda emasman,
G‘urbat mening ichimda!

KUZ

Quridi endi o‘tlar,
Bitmayapti yangisi.
Ko‘llab qolgan suvlarda
Xazon — yaproq jasadi...

Qaytdi yaylovdagilar,
Eridi bog‘da g‘urub.
Vohalar yana kengish,
Qoyalar yana qattiq...

Boshim qo‘llarim aro,
Og‘ir bo‘laķcha huzun,
Tushmoqda ko‘zlarimga
Donalari nam kuzning...

* * *

Uning ko‘ngil xush etmog‘i
Ters oqqan suvni eslatar.
Oqsa yana tegirmonning
Yolg‘iz boshini do‘ndirar.

Qadar yozgan hovuchima,
Xastalik bergan ichima,
O‘tirib ham bosh uchima,
Na o‘ldirar, na o‘ndirar.

Na yetar yoniga so‘zim,
Na yuziga qora yozim,
Ichinda surinar ko‘zim,
O‘zini urintirar.

Marhamatdan bir yo‘l topib,
Lutf etsa yonimga kelib,

Tangri yerni ikki bo‘lib,
Oraga bo‘shliq undirar.

Bir so‘zim yo‘q undan yona,
Zulmida haqlidir yana,
Bersa-da ko‘nglini menga,
Qora baxtni kuchaytirar.

O‘RXON SHOIQ KO‘KYOY

(1902–1994)

QORISHIQ

Yerlardan ko‘klarga tortardim to‘rlar,
Shu oqqan yulduzlar manimdir, manim.
Tizzamning tubiga po‘stin yozardim,
Jilmaygan gullar-da manimdir, manim!

Yaproqlar, mevalar, gullar novdasi
Ko‘zlarning, tillarning to‘lg‘ mujdasi.
O‘radim o‘zimning dardi nihonim,
Boshim tuman-tuman, dilda fig‘onim.

Yo‘llarga tushmishman qo‘lsiz-oyoqsiz,
Turkular tuzmishman so‘zsiz, turoqsiz.
Sozimni sindirib, sasin olibman,
Tordan uchib ketgan unimdir, unim!

Salom, ey bag‘rimga urilgan sado,
Alvido “nechun”ga, “chunki”ga vido!
Bir mushkulot yurgan yo‘lda turibman,
Senga o‘grilgandir tomonim, yonim!

Otashga beribman to‘rtta faslni,
Bir yaproqqa indiribman taqvimni.
Kecha bo‘lib, seni tushda ko‘ribman,
El bilan kechmas hech kunim, oh, kunim!

Baxshim meni olib, tortib ketibdi,
Jayronlari to‘la joyga eltibdi,
Seni nishon olib, o‘zni uribman,
Tinmay oqar qonim, qonimdir manim!

Sadolar qaytar yo‘ldan; o‘tgan kunimdir,
Saslar tutar yo‘lga, so‘ngim, so‘ngidir.
Zaharmi, asalmi, nimadir qordim,
Totmoq uni mushkul, u manim, manim!

UL KUN BUL KUNDIR

Bu she’r ismlari Dada Qo‘rqutning buyuk qahramoni Konturalining nikohlisi Soljon xotunning nomi bilan hamqadam kelin bo‘lgan barcha turk qizlariga tuhfa bo‘lsin.

Sendan yuz yil avval kelib, dunyoda
Seni kutmoqdaman, ul kun bul kundir...
Goh g‘urbatda, goh sog‘inchda ziyoda
Seni kutmoqdaman, ul kun bul kundir...

Ko‘zlarim yo‘llarda, yo‘lim uzoqda,
Gulob bilan yuvinganding quchoqda,
Muz to‘shakda qotdim yolg‘iz yotoqda,
Seni kutmoqdaman, ul kun bul kundir...

Beshiklarda, yo‘rgaklarda bir jahon
Oq gullar ichinda quyosh — mitti jon,
Ko‘zlaring sim-siyoh, dudoqlar marjon,
Seni kutmoqdaman, ul kun bul kundir...

Uyda o‘ynarding o‘zing qo‘g‘irchoqmi?
Yiroqdan kuzatar edim maroqli,
Yulduzlardan inma bir gul yanoqli,
Seni kutmoqdaman, ul kun bul kundir...

Ko‘zlaring so‘zlaydi, tillarim biyron,
Sadaf lablar buni aylaydi nihon,
Qiqirlasang, go‘yo jaranglar osmon...
Seni kutmoqdaman, ul kun bul kundir...

Uyg‘ondimki, qarashingda o‘zgarish,
Yuraman o‘zgacha... hayratli bu ish!
Ko‘rgan tushim o‘ngga yoki aylanish,
Seni kutmoqdaman, ul kun bul kundir.

O‘lim xayolingga kelmaydi sevgach,
O‘ylanmas oqibat injadan inja...
Na kunduzim kunduz, na kecham kecha,
Seni kutmoqdaman, ul kun bul kundir...

Ta’bir etarmikin tushmi — ro‘yomni?
Qabul etdi, xayrga endi yo‘yarmi?
Umidim bor— tuzatadi yaramni,
Seni kutmoqdaman, ul kun bul kundir...

ZAKI UMAR DAFNA

(1903–1992)

SOHILDAGI KEMA

Mashhur rassom Brakka

Qurib, qoqsuyak bo‘ldim qumlarda,
Bir safar kuta-kuta har kunman.
Bir shamol esmasmi sarin-sarin,
Vahimali hayajon kechar ko‘nglimdan.

Tashlagim kelar o‘zimni shu qoyalardan
Moviy-moviy tovlangan suvlarga.
Bosh olib ket, deydi dalli ko‘ngul,
O‘zingni topshirib bir buyuk shamolga!

To yonboshingda turib ham shunday
Hasratini chekkaning narsalarga hasrat aytmoq.
Hamdam bo‘l,
O‘sha suvlar uchun el bo‘l, hayot bo‘l,
Hamdard bo‘l,
So‘ngra o‘sha suvlarga hasratingni ayt!

Biroz tolsam fikrga, to ko‘nguldan bir narsa
Chiqib dengizda kezganin
ko‘rmoqdaman dengizda,
Ammo shunday holdan toydirganki qum meni,
Ortingdan ketolmasman.

Ba’zan qadam tovushin tuyaman to‘rt yonimda,
Boqarman, behad moviy, lojuvard umid qushi.
Boqaman, bulduriq osilganday og‘ochga,
Bir bulut, g‘ir-g‘ir shamol.

Boshimni, bordamni[1] bolg‘alasin dolg‘alar,
Mayli, yog‘ochimni yemirsin tuzlar,
Po‘rtana, tortib ket, tortib ket, dengiz!
Voz kech mendan, sohil, qum, meni tark et!
Insonni izlayman!

QO‘NG‘IROQ

Chalinar... Siz darslarga kirgaysiz bir-bir,
Qo‘ng‘iroq chalinar, chalinar men uchun.
Eshitgayman uylardan, dala-yu dengizlardan;
To ko‘nglimdan parvoz etib borguncha...
Ammo men, men endi bormagayman.

Qo‘ng‘iroq chalingay...
Siz kemangizga kirgaysiz bir-bir,
Qo‘ng‘iroq chalinar, chalinar men uchun.
Eshitgayman, tinglayman barcha istasyo‘n[2],
Barcha bandargohdan;
To dilimdan nedir chopgay ortingizdan...
Ammo men bormagayman, ketmasman.

Keyin bir kun bir qo‘ng‘iroq chalinar yana,
Hech kim tinglamagay, eshitmas hech kim...
Na sinflar, na bandargohlar, na siz...
To ko‘nglimdan qolgay nedir ul yerlarda...
Men ketgayman, qolmasman.

[1] **Borda** — bort.

[2] **Istasyo‘n** — stansiya, shohbekat, radiostansiya, punkt.

QAYDAN KELURSAN?

Yana qo‘llar oppoq, g‘olib,
Niyozdanmi kelursan?
Go‘zal xayolga aylanib,
Bo‘g‘ozdanmi kelursan?

Moviy to‘lqin, seni hora
Qaytaribdir bu shaharga,
Kamar go‘yo “nafsi ammora”,
Birozdan so‘ng kelursanmi?

Ko‘zlaringda moviy tushlar,
Ko‘ksingda jon olar qushlar,
Havolanmish yana qoshlar,
Parvozdanmi kelursan?

Kelding rostda qaror kabi,
Savtdan avjga firor kabi,
Qo‘ling bir maqom sharor kabi,
Bir sozdanmi kelursan?

Kel, ey ko‘ksi gul nigorim,
Guli mosuvo bo‘yi borim,
Menim Istanbul nigohlim,
Ilk yozdanmi kelursan?

ORIF NIHOT OSIYO

(1904–1957)

BIR BAYROQ

Shahidlar mozori bo‘sh emas,
Biri bor...
Bir hol kutmoqda...
Va bir bor
Nafas olmoq uchun
Yel —
Shamol kutmoqda.

Yotgan tuprog‘i ma’lum,
Tutgan bayrog‘i ma’lum.
Turbati yarashgan qutlug‘ tepaga,
Nechun “Noma’lum askar” derlar?

Qasida bitilgan, dostonlar yozilgan...
Bir qo‘lki, oxiratdan cho‘zilgan.
Adab bilan kelib goh-goh
O‘psin deya foniylar.

O‘paylik, toza bo‘lsa dudoqlarimiz...
Bosmasin tuprog‘ini,
Pok bo‘lmasa oyoqlarimiz.

Shamolini to‘smasa gavdalar...
Sasidan baland chiqmasin
Nutqlar, qasidalar!

Ortga qaytsin olqishlar...
Qaytib ketsin qo‘llarning
Soxta chechaklari!

Chin o‘g‘illardan, onalardan
Chin duolar, tilaklar yetgay...
Yozdan sariq, qishdan oppoq
Chechaklar yetgay.

So‘zlaganlar so‘zladilar ko‘p oldin,
Olqishlasinlar, kel, nayzador botir,
Endi sen so‘zla, endi sen gapir!

Shahidlar qabristoni bo‘sh emas,
Diyorini — tuprog‘ini qahramonlar
Qo‘riqlar
Va bir bayroq to‘lqinlanmoq uchun
Shamol kutmoqda.

Dostoni yetim, sukuti teran
“Noma’lum askar”ning...
Yotgan tuprog‘i ma’lum,
Tutgan bayrog‘i ma’lum...
Turbati yarashgan qutlug‘ tepaga,
Kim atar “Noma’lum askar”?!

DOSTON

Ul muzaffar zotlar otlarin
Nag‘allari oltindandir.
Ketishlari oqimga,
Ketishlari oqimdandir.

Yo‘llari qo‘liga boylangan,
O‘lkalar fath etgan, aylangan,
Suvoriylar taqdir siylagan,
O‘g‘uz, Bilga, Sulaymondir.

Bizga ming yillik armug‘on
Shu porloq qilichlardan

Va shu sarin, xilvat soya
Qanotlardandir.

Biri qilich chopgan qizil bo‘lakdan,
Biri gullararo — alvon yo‘lakdan,
Biri toshlardan yo‘g‘rilgan
Shu nafarmon uyumdandir.

To‘fonida, bo‘ronida
Yaltillagan chaqmoqdandir...
Va yer-u ko‘k orasinda
Qaltiragan tog‘lardandir.

Ko‘ngil berganlar oyga.
Hukm etmish tuproqqa, soyga —
Tangrining yaqinlari —
Ilohiy chog‘lardandir.

Zambaraklar qurib, qaro
Dunyoning so‘l-sog‘idandir,
Zotlari shoh, bo‘rilararo
O‘tovlari qonidandir
Va muzaffar otlarining
Tuyoqlari oltindandir!

DEVLAR

Lopillatib ko‘priklarni
Devlar kechdi bu yo‘llardan:
Tillarida Xun turkulari.

Sovutli qo‘mondonlar,
Cho‘qqidor tog‘lar
Va shamollar...
Hilpiragan bayroqlar,
Parillagan tug‘lar...

Bir dunyo to‘ldi, bo‘shadi...
Yoziqki, nomlari dostonlardan
Masallarga qoldi!

O‘ngga, so‘lga, olg‘a...
Devlar o‘tdi bu yo‘llardan,
Qoldi ulkan oyoq izlari.

Hanuz tomir urushlari taralar
Shu archazor tog‘lar daralar
Ichra yotgan devlarning.

Qator-qator yillar u kundan buyon...
Na bir doston parchasi,
Na bir zafar kamari!

Toshqinlarga armug‘on bo‘lsin,
Ko‘ngul to‘lqinlari —
Xun turkulari!

BOLA VA NIHOL

Bola behad sevdi daraxtni...
Har qish unga in’om,
Gullari noyob edi!
Yaproqlari noyob...

Daraxt behad sevdi bolani...
O‘pardi oltin sochlaridan,
Aqiq lablari bo‘lsa edi!

Va unga o‘ptirmoq uchun
Egilardi to yerga qadar,
Yanoqlari bo‘lsa edi!

To‘kardi oldiga barchasin,
Oltindan, kumushdan, sadafdan,
O‘yinchoqlari bo‘lsa edi!

Va bola ketgach,
Shunday qolarmidi daraxt?
Nima bo‘lardi, uning ham
Oyoqlari bo‘lsa edi;
Qo‘llari bo‘lsa edi!

FATH MARSHI

Yelkanlar bichilgaydir, yelkanlar tikilgaydir,
Tog‘lardan tortilgan, kalyonlar[1] tortilgaydir...
Omburlar-la qal’aning tishlari to‘kilgaydir...

Yur, nechun sen to hanuz o‘yinda qatnashasan?
Fotih Istanbulni fath etgan bir yoshdasan!

Nahot, kecha olursan onadan, boshdan, yordan?
Sening dostoningni ham o‘qiylik yoddan...
G‘ayrife’l o‘rgandingmi g‘ayridan yoki yotdan?..

Qo‘lda sensan, dilda sen...
ko‘nguldasan, boshdasan;
Fotih Istanbulni fath etgan bir yoshdasan!!!

Zarba bermoq kerak makkor zamon yuziga,
Ko‘rsat: qanday yuvar toshib suvlar dala tuziga,
Xor ko‘rma o‘zingni, yigit, boqma imkon so‘ziga!..

Shu singan obidani yuksaltajak toshdasan,
Fotih Istanbulni fath etgan bir yoshdasan!

[1] **Kalyon** — yuk tashuvchi yoxud harbiy yelkanli kema.

Bu kitoblar Fotihdir, Salimdir, Sulaymondir,
Shu mehrob Sinoniddiyn, bu minora Sinongdir,
Qani, endi mudragan dostoningni o‘yondir!..

Bilmam, nechun kundalik tashvish-la taloshdasan?
Qizim, sen ham fotihlar tug‘adigan yoshdasan!

O‘g‘lonim, sen imorat olgan kuning otangdan
Yurgaydirsan, millat yurgay orqangdan,
Senga salom keltirdim Ulubotli Hasandan...

Senki burjlarga bayroq bo‘lajak libosdasan...
Fotih Istanbulni fath etgan bir yoshdasan!

Mayli, buzuq soatlar yolg‘on, xato ishlasin...
G‘alabalar chekinib haramlarda qishlasin!
Yurgin, arslonim, fath hozirligi boshlansin...

Yurgin, hanuz ne uchun o‘zing-la savashdasan?
Fotih Istanbulni fath etgan bir yoshdasan!

UMAR BADRIDDIN USHOQLI

(1904–1946)

DENGIZ HASRATI

Ko‘zimda bir tomchi suv dengiz bo‘lib toshmoqda,
Cho‘llarda qolgan kabi yonmoqda, yonmoqdaman.
Barcha kemachilar ruhi menda yashamoqda,
Boshimdagi ko‘klarni dengiz deb bilmoqdaman.

Qanday yashagayman endi, ey dengiz, sendan uzoq?
Yonib-so‘nar kabidir ko‘zlarimda nur-chiroq!..
Uxlaydimi bandargohda har kecha tebranaroq
Oltin mix urilgan kemalaring yo mudroq?..

Sevmayman suvingda chayinmagan shamolni;
Dolg‘alaring ko‘rinar titroq rang — moviy atlas.
Ko‘nglimni quvontirmas sensiz oy nurin holi,
Ufqingdan yuksalmagan quyosh ham quyosh emas!

Bir kun daryoday sharqirab, qo‘zg‘olib teranlikdan,
Dolg‘alardan, o‘rmonlardan sen sari oqurmanmi?
Ey dengiz, so‘yla, bir kun sen sari boqurmanmi
Olmazor bog‘laringdan,
yong‘oqzor bog‘laringdan?..

BURSADA OQSHOM

Bugun-da kech kuzda suzilib, tug‘ildi oqshom,
Tushdi yerga tog‘larning quyuq salqin ko‘lkasi,
Ulug‘ Tog‘ etaklari alvon ipakdan bu oqshom,
Tushdi yashil vodiyga qubbalarning ko‘lkasi.

Ufqlarda bu oqshom na chaqmoq, na bulut bor,
Sarvilar orasida bir olov Amirsulton...[1]
Ichdan duolar kabi kechmoqda go‘yo shamol,
Bir Ilohiy orolga o‘xshagan Yildirimdan.

Vodiyda inja yo‘llar ko‘lkalanmoqda, mana;
Qarshida ranglararo so‘lg‘in oy ko‘rinmoqda!
Quyoshning so‘nggi nuridan bir tomchi ichgan-da,
Qarshidagi shu kulba go‘yo saroy ko‘rinmoqda!

Ko‘zlarimga urilgach qubbalarning soyasi,
Go‘yo asl jannatni sayr etdi ko‘nglim bu oqshom.
Ko‘klarda na bir nafas, na-da bir qanot sasi,
Ulug‘ Tog‘ etaklari alvon ipakdan bu oqshom!

[1] **Amirsulton** — Bursadagi muborak bir zotning qabri.

SABRI ASAD SIYOVUSHGIL

(1907–1968)

* * *

Labingda so‘zing — Yapon piyolasin jarangi,
Soching — uzun bahor yomg‘irin davomli xush rangi,
Barmoqlaring — ishq kuzak nurlari.

Tovshing — xonaga kirgan bir qushcha hurkak,
Qo‘llaring ochiq qolgan darçhani ko‘rsatajak
Va soching ko‘zlaringning qa’ri kabi qorong‘u.

Yomg‘ir kabi to‘ldirsang xonani ko‘zlaring bilan,
Ichida so‘zlashajak oynalar ko‘zlaring bilan
Va kun hovuchingdan toygan bir kumush baliq.

Bir o‘rindiqqa singadigan harorating terandan;
Kirajak, yaqinlashgach boshing, kipriklaringdan
Ko‘zlaringga daraxtzor bir yo‘l kabi ayriliq...

SAFAR

Bir yoz kuni, xonamda yoparkan jomadonimni,
Tortgay barmoqlari bilan o‘rindig‘im qo‘limdan,
Odatiy ovozi bilan “o‘tir” degaydir menga.

Butun qish kechalari tinglaganim so‘zlari bilan,
O‘rangan ayol kabi uzun oq choyshab bilan
Meni uxlatmoq uchun esnagaydir to‘shagim.

Yo‘lda odimlarimni chaqirgaydir orqaga,
Orada qolgan eshigim, balki, qaytadi deya.

Terlagan derazamda bir tomchi yosh to‘najak
(bulutli ko‘zlaridan so‘ng tomchi yosh tomajak).

Yurarkan o‘ng yelkamda hafif sas-la kuylamoq uchun,
(bir uydan anglashilmas pichir-shivir-la tushib)
Oppoq qo‘l kabi bir kabutar qo‘najak.

Dudog‘imni gizlicha tortaroq dudog‘iga
Oqshom kabi tushajak vagon zinalaridan
Shohbekatga bir oq tuman — ayol.

XONALAR VA SO‘RILAR

Uylar anorzorga mengzar,
Anorlarga so‘rilar.
Oqshom yo‘l kabi kezar;
Sukunat suvday to‘lar.

Xonada nurli daricha,
So‘ridir quyoshi,
Oynada qo‘rdan parcha,
Ichga tushar otashi.

Xonada uyum-uyum
Soyaning siniqlari,
Supada yolg‘izlikning
Taralar hiq-hiqlari.

Uylar ich-ichdan tuyar
Novdan tushgan suvlarni;
So‘ri kechani o‘yar,
Tinglar zina-narvonni.

To‘plar xonam qush kabi
So‘rining so‘zlarini,

Ziynatlar goh xush ta'bi
Oyna-yu ko'zlarini.

Meni devorlar bo'ylab
Bir qush kabi maydalar,
Xonam uyquga to'yguncha
Uxlamasdan supalar.

JAVDAT QUDRAT SO‘LO‘Q

(1907–1992)

SAYOHAT

Har kun ayni manzara ezadi bizni nechun?
Oldinda yop-yolg‘iz tursang ham hozircha hatto,
Yo‘llar seni o‘raydi kalavadek bir tongda,
Iching seni tortadi bir kun sayohat uchun.

Bir sayohat fikri bilan to‘lsa gar bir kun iching,
Dersan: “Ko‘rinaversin ko‘zlarimga Venedik”,
“Oldimga chorshaf[1] kabi ochilsin Adriatik!”
Dersan hasrat ichra men kabi: “Chin! Chin! Chin!”

Barcha umidlaringdan o‘sha kun bir onda ajra,
So‘ngra o‘z-o‘zingni yuztuban tashla,
Cho‘k dengiz kabi yumshoq kursilarga.

Tuy, eshit ichingda qushlarning shovqinin,
O‘zingni sandal kabi tark etaver bir bora,
Kuzat ruhingni, yelkan kabi ochilganini!..

TUPROQQA BOG‘LIQ

Na uchmoqni bilaman, na ko‘kdan xabardorman,
Ko‘tarila olmasman bir qarich ham joyimdan;
Tuproqqa bosmoq uchun yaralgan oyoqlarim.

Bir qarich ham joyimdan ko‘tarila olmasman,
Boqaman samolarga buyuk bir hasrat bilan;
Tuproq meni doimo tortar etaklarimdan...

[1] **Chorshaf** — choyshabsimon uzun sharf.

VASFI MOHIR QO‘JATURK

(1907–1961)

IZTIROB

Sensizlikning azobini tuydim men avvaldan,
Dedim, qalbim ishqimning so‘ng mozoridir,
Qalbim ayrilib borar sendan dam-badam,
Yolg‘iz dilimda qolgan dard tinmas ozorimdir.

Sen bag‘rimiz yonar deya qolgach doimo,
Olov sochingdan oldi otash-alanga, ko‘r ko‘ngul!
Atrofi bog‘ va dengiz, usti nafarmon samo,
Sassiz qolgan bu yerlarni surgun joyi der ko‘ngul.

Ko‘klarga bunday o‘zini badarg‘ada tutdimi,
Ba’zan xotirlab seni, ba’zan unutdimi?
Qalbimda o‘ralib to‘lg‘onib yotar ilon;

Zahri bilan to‘lar tomirlarim faryodi,
Urilar ko‘ksimga, ko‘zimda qon dodi:
Eng avval iztirobni tanir sendan ayrilgan!..

YASHAR NABI NAYIR

(1908–1981)

QORACHA AHMADDA OQSHOM

Arra qilingan toshlar chirigan tushlar kabi,
Sollanar ikki yonda dalli darveshlar kabi,
Uzun-uzun sarvilar, sarvilar siyoh-siyoh.

Siyraklar o'tkinchilar kun botishi bilanoq;
Bir faytun sudrab borar ortidan ko'lkasini,
Ulg'aytar bo'sh chuqurlar ko'ppaklarning sasini.

Yo'l uzayar, ozayar, qisqarar oydin xayollar;
Kafanli mayyitlar, kafansiz qoq suyaklar
Sassiz odimlar bilan kezinar bu atrofda...

Ko'lkalar sharpalarni quvalar bosh yo'llarda,
Hurkitar xayolingda mudragan jonivorni
Kechikkan yo'lchining qisqa-tez odimlari...

Kezinma, ey darbadar, qani, ket bu yo'llardan,
Kechmayin, oh, kechmayin hech vaqt bu yo'llardan,
Tuymoqni istamassiz odamning havosini.

To'zonli asrlarni xotirlatgan to'rni
Tunda bunda tarqatar parda-parda shamolga,
Yo'lovchilarga chuv tushmang sira ham bu yo'llarga.

AHMAD MUHIYB DIRONAS

(1909–1980)

SERENADA

Yashil derazadan bir gul ot menga,
Nur-ziyoga to‘lsin qalbimning ichi.
Keldim fasl kabi eshigingga,
Ko‘zlarimda bulut, sochimda qor ko‘chki.

Ochilgan bir gulsan, sen yaproq-yaproq,
Men ishqim-la bahor keltirdim senga;
To‘zonli yo‘lingdan o‘tganim uzoq
O‘lkamdan sharqilar[1] keltirdim senga.

Shaffof tomchilar bilan titragan, og‘ir
G‘unchaning ostida bukilgan har shox.
Sen uchun gullardan taralgan atir,
Jisming — nilufar, chinnigul — munchoq...

Bir qush sasi kelar dudoqlaringdan;
Ko‘zlaring — ko‘nglimda ochilgan nargislar...
To‘kilgan bo‘salar dudoqlaringdan —
Oq akaslarda titragan sahar.

Derazangdan bir gul otganing zamon
Shu’laga to‘lgaydir qalbimning qa’ri.
O‘tmoqdaman fasl kabi darvozangdan
Ko‘zlarimda bulut, sochimda qori.

[1] **Sharqi** —xalq qo‘shig‘i, terma.

UL VIDO

Namozgar, shom payti ziqdir doimo,
Kun saltanati bilan ketdimi bir bor,
Yolg‘izligimiz bilan to‘ldirib har joyni
Bir rang fig‘oni ichra bog‘chamizdan,
Bir qo‘l chiqara boshlar bo‘g‘chamizdan.
Lavanda chechagi anqitgan kadarlarni;
Namozgar, shom payti ziqdir doimo.

Dolg‘a-dolg‘a hujum aylab nadomatlar
Qiynar unutishning ul tinch darbozasin
Va ruh otilgan o‘qlardan ilma-teshik;
Xuddi tug‘ilgan eski uyimdasan, nogahon
Tingan allalar bilan g‘ichirlar, dodlar beshik,
Jumla yo‘qolganlar, mag‘lublar, mahzunlar...

Izhor etilmagan ishq go‘zalligi...
Qog‘ozlarda qolgan chala yarim she’r;
Inson yomg‘ir hidli bir tongga qarab
Xotirlar bir kun deraza ochganini,
Turg‘un bir bulutni, qush uchganini,
Ustida non, pishloq yegan bir toshni...
Bularning barchasi ishq go‘zalligi.

Ashklar uchib ketgan bo‘lsa kerak bir yozda
Qo‘l ushlashib raqs tushgan qizlar misol.
Va sizlar, ey o‘tgan zamon oxirlari,
Keksa dov-daraxtli xilvat bog‘lardan
Oy nuri kabi sudralib ketgan;
Kechaga qoldirib horg‘in erkaklarni
Nozli shivirlab tebrangan etaklar.

Abadiy oshig‘in qaytishin kutar
Yolg‘on qasamlarga guvoh chechaklar
Endi bo‘lmaydigan bahor ichinda.

Umrning ey go‘zal turkusi xato!
Aldan, umidsiz qishga yaqin hatto;
G‘aribona har oyoq izi qor ichinda
Qaytmagan oshiq sochgan chechaklar.

Va sen! Ey sen! Gulli shoxlar orasidan
Bir porloqlik kabi ko‘rinib g‘oyib bo‘lguvchi,
Ne istarsan mendan oqshom paytida?
Bir kulishi hatto ko‘rilmagan ayol,
Qanday barhayotsan ishq oynasida?
Xotiralarning bu uyg‘onish vaqtida
Sensan, doim sen gulli shoxlar orasida.

Ey unutish! Bekit.endi panjarani,
Ko‘pdan qa’rlariga tortmish dengiz meni;
Chiqmas endi suvlar ostidan ul dunyo.
Bir tuman yuksalar kabidir kadardan,
Mojarosi ko‘pdan bitmish ul shaylardan.
Osmonsiz o‘tgan ila yoyil to‘rt yonimga,
Ey unutish! Qutqar bu g‘amlardan meni.

SHAHRIM USTIDAN O‘TGAN BULUTLAR

Boqib emranaman oqimiga
Shahrim ustidan o‘tgan bulutlarning.
Balki, ketmoqdadir yaqiniga
Tushimizni qurshagan hududlarning.

Uylar, og‘ochlar, suvlar, men va bu dam
Go‘yo bulutlar-la birga oqmoqdamiz;
Ularning havasiga muvofiqan
Janub ufqlariga boqmoqdamiz.

Goho hafif bo‘lsaydik bir shamoldan,
Joy olsaydik shu bulut karvonidan

Go‘zalga va Yangiga qarab chopgan
Bu tamomsiz borishning bir yonida.

Tog‘larga, dengizlarga, vodiylarga
Cho‘zib-cho‘zib yog‘ilsaydik ipdek nozik.
Ulug‘lari tashnayi zor dalalarga
Bahor, soya, yomg‘ir eltsak edik.

Boqib emranaman oqiniga
Shahrim ustidan uchgan bulutlarning.
Ketmoqda, ketmoqdalar yaqiniga
Tushimizni qamragan hududlarning.

ASOF HOLAT CHALABIY

(1907–1958)

IBROHIM (A.S.)

Ibrohim (a.s.),
Ichimdagi butlarni ag‘daring
Qo‘ldagi boltangiz bilan,
Sindirilgan butlar o‘rniga
Yangilarin qo‘ygan kim?

Quyosh muzdan
bo‘lgan uyimni yiqitdi,
Quladi muzlar,
Butlar bo‘yni sindi,
Bo‘ysundi,
Ibrohim (a.S.),
Quyoshni uyimga kiritgan kim?

Osma bog‘chalarda kezgan go‘zallarni
Buhtunnasr[1] but siyladi,
Menki zamonsiz bog‘chalarni
Quchoqladim.
Go‘zallar menda qoldi,
Ibrohim (a.S.),
Ko‘nglimni but sanab ham
Qirgan kim — sindirgan kim?
Sohibqiron kim?

[1] **Buxtunnasr** — Yangi Bobil qirolligi asoschisi.

NIRVANA[1]

Qorong‘uga o‘taylik,
Qorong‘uni kechaylik,
Na uyqu,
Na o‘lim,
Ham uyqu,
Ham o‘lim,
Tush,
Ko‘nglimda uxla
Va so‘ngsiz ulg‘ay,
Unut ranglar
Va shakllarni,
Bari
Va hech biri,
Meni
Va seni
Va kechani yutdi
Nirvana.

MANSUR

Ranglar quyoshdan chiqdilar,
Ranglar quyoshga kirdilar,
Ranglar quyoshsiz o‘ldilar.
Na rang kerak menga,
Na rangsizlik.

Quyoshlar bir joydan chiqdilar,
Quyoshlar bir joyga kirdilar,
Quyoshlar usiz o‘ldilar.
Na oydinlik kerak menga,
na qorong‘ulik.

[1] **Nirvana** — dunyo tashvishlaridan voz kechib, rohatga erishish.

Shakllar bir mavqedan keldilar,
Shakllar bir maqomga ketdilar,
Shakllar ko‘rinmas bo‘ldilar.
Buyuk na’ra tort,
Barcha ovozlar bir ovozda bo‘g‘ildi: mansur,
Mansuuur.

MAMLAKATIM

Usmon g‘oziyning
Daryolar,
Daralar,
O‘tzorlar,
Suruvlar,
Men ustida yashagan diyori.
Murodim, yildirimim, fotihim,
Yanicharim — yanicharim — navkarim,
Piyoda askarim,
Avliyo chalabim,
Bursam, istanbulim,
Tarixim, san’atim,
Ota-onam qo‘shnilari,
Zanji nargis xalfa,
Cherkas navras ajdodim,
Jahon ichra dengiz porlog‘i ichra uyim.
Men bu dunyoga zanbil bilan kelmadim,
Men bu yer bolasiman.
Shu diyor farzandiman,
Bu yer istanbulim.
Odamlari menim,
Bu insonlar menim,
Bu shirin bola-umar menim,
Dadalarim, dodalarim,
Bobolarim, mamlakatim
Va borim uning,

Usmon g‘oziy ko‘rgan tushda
Umar bilan men borman.

ISTANBULIMNING TILI

Onamning tili,
Otamning tili,
Istanbulimning tili,
Istanbulimning tili.

Istanbulimning janobi,
Xonim afandisi,
Hazrati oliyasi,
Ko‘chalarimning qo‘riqchisi,
Yo‘gurtchisi,
Baliqchisi.

Jon tilimni so‘zlaganim,
Jonim mening,
Allalarimni aytdi bu til,
Bu til masallarimni,
Bu tilda kuyladim turkularimni,
Tuydim,
Bu tilda o‘qidim shoirlarimni:
“Zolim, meni so‘zlatma,
Ko‘nglimda nimalar bor”.

SABOHIDDIN ALI

(1907–1948)

MA'YUSLIK

Meni eng go'zal kunimda
Sababsiz bir kadar olur.
Butun umrim qozonida
Achchiq bir quyqasi qolur.

Anglay olmam kadarimni,
Bir otash yoqar terimni,
Ichim tor ko'rar yerimni,
Ko'nglim tog'larga belanur.

Na qish, na yozni istarman,
Na bir do'st, yuzni istarman,
Hafif dard— sozni istarman,
Og'riqlar, sanchiqlar kelur.

Yonima tushar qo'llarim,
Ko'rinmas bo'lur yo'llarim,
Eng sevimli amallarim
Oldimda o'lik ko'rinur...

Na bir do'st, na bir sevgili,
Dunyodan uzoq bir dalli...
Meni chulg'ar g'am, mahzunlik,
Boshimda shod savdo o'lur!

QO‘SHMA[1]

Sevib-sevib yorni qo‘ldan uchirmoq
Qaro baxtning menga eski ishidir.
Umrimdagi yillar qadar yor sevdim,
Har biri og‘zimning tushgan tishidir.

Jonlar berdim har birining yo‘lina,
Tashlab ketdi meni g‘amning cho‘lina,
Hatto bulbul qo‘nar gulning qo‘lina,
Bizning holdan toygan ko‘ngil qushidur.

Boqqanim yo‘q g‘ussalarga, shodlikka,
Menday seving boqmay talx-u totlikka,
Dil moyilmas obodlikka, dodlikka;
Na ko‘z ko‘rur, na qulog‘im eshitur.

Qora sochim tik boshimda qor bo‘ldi,
Oq sochlini yor sevmog‘i or bo‘ldi,
Vayron etgan qo‘llar emas, yor bo‘ldi,
Bu dard mening dardlarimning boshidur.

Qay bir oshiq tilagiga yetadir,
Mahbubi-la dillarin xush etadir,
Biri menday kezib g‘arib ketadir,
Asl oshiq diydorga zor kishidir,
Hijronda xor, armonga yor kishidir.

[1] **Qo‘shma** — xalq she’ri, terma.

MUSTAFO SAYID SUTYUVEN

(1908–1969)

SUTYUVEN

Bir qoyadan tuman-tuman,
O‘n ikki gaz hatlagan
Tog‘ hidi bilan yukli suv.

Oqishi tol-tol inja soch,
Tushgan yerida uch quloch
Moviy suv, oq ko‘pikli suv.

She’rning qo‘lidasan bugun,
Eski masallaring butun
Jonlangaydir birma-bir.

Oq gilamlarda bir zamon
Shoir, iloha, qahramon
She’rini bunda totdilar.

Bari topindi rangiga,
Duch kelmadi tengiga
Hech biri oq Tasolyada.

Shunday fusunlidir bu yer,
She’riga qarzdordir Homer,
Chunki seningdir Iliada.

Eski uzun zamonlarning,
Tig‘ kabi qahramonlarning
Turkusidir yoniq sasing.

Tog‘da hayotni uyg‘otgan,
Toshlarga tuyg‘u qotgan
Yerda so‘nggi qahramonsan.

Afrodit, Afrodit paytda, oh,
Tog‘dan enardi har saboh,
Qo‘lda kumush hammom jomi.

Shu yerda chiqardi yopinchiqdan,
Ayonki kimsaga hech ko‘rinmagan,
Ko‘ksi, vujudi, boldiri.

Bunda Yunon, Mo‘g‘ul, Misr,
Mediya, Ruma, Turk asir-asir,
Topindi to‘kilgan yeriga.

Ilohlarning qo‘noqlari,
Qo‘shinlarning o‘toqlari[1]
Bunda yetdi ko‘klarga.

So‘zlaganim masal emas,
Otlarni qahramon Oshil
Bunda suvlardi bir zamon.

Bunda kezardi Kayqubod,
Bunda kezardi Mehridod,
Bunda ichardi Ontuon.

Ko‘krakka qanday botsa tish,
Shunchalar teran ishlanmish
Toshlarga hektorning izi.

Nechun bugun, so‘yla, bilay,
Bunday zeboliging bilan
Qullikka olmading bizni?

Holbuki, biz Yunon qadar,
Husningga yukungan qadar
Topmoqni biz-da anglarmiz.

[1] **O‘toq** — o‘tov, ov to‘ri.

Barchasin ot bir tomona,
Ul kunlarning menga yona
She'rini ayt, ey totli suv.

She'rini kelgan yeringning,
O'tgan kunlarning she'rini
So'yla, ko'pik qanotli suv.

SAN'AT

Qalamim — mo'yqalam, uchi ignadek inja,
Oq qalbim — siyohdon, siyohi bo'yoqdir qora.
Mo'yqalam bo'yoqdon-la bag'ir berib ko'rishgach,
Barmoqlarim yaqinlashur ertangi lavhalarga.

Go'zallik-chirkinlik topmoq, yaxshi-yomonni chizmoq,
Ko'lka uzra haftalab urinmoq zorlik ila.
Eng yuksag-u eng pastni bo'yiga ko'ra tizmoq,
So'ngra kezinmoq uzun yo'llarni yorlik ila.

So'ngra toliqur olddan nedir izlagan ko'zlar,
Toliqur qarshisida turganlar qator-qator.
Munchoqlar kabi ipga tizib ham osmoq istar
O'z aqlim-u ko'zimni odamlarga necha bor.

Asrlarcha bu hovuz ranglarim bilan to'lmas,
Chashma kabi oqsa-da qalbimdagi bo'yoqlar.
Bu yo'qsullik ichra ko'klarga urilsam-da oz,
Yaratgan lavhalarim faqat qalbimni yoqlar.

SO'NGGI GAZMOL

Ko'rmadim ilhom otini,
She'riyat, she'r san'atini,
Bir dalli qizdan o'qidim.

San'atni o'rgatdi menga,
Men ham dastgohdan unga
Turli gazmollar to'qidim.

Olti yarim yil mehnatim;
Ko'z qoram, ko'nglim, qo'lim
Eskirdi ustida butun.

Ko'zni tamom to'ldirgan kun,
Kuchli ishqni o'ldirgan kun
Nogoh turmush qurdi qiz.

Istadim — mashhur bo'lajak,
Yomon o'rnakli parda to'r
To'qimoq ruhan kelinga.

Oy nuridan bir ipak,
G'am bilan eshib o'tkazdim
Umrning ignasiga.

Ignani avval terimga,
So'ngra siyoh ko'zlarimga
Suqaroq titramasdan

Tikdim uch kunda, ko'ring,
So'lgan umid yaprog'ining
Ustiga har tuyg'umni man.

San'atim so'ngiga yetdi,
Marosim-la unga ketdi
Qo'llarimning so'ng hunari.

Ul qizdan bu gazmol — kumosh,
Har yoni qirmizi yosh
Keyingi kun kuldi qaytib!

MUNIS FOIQ O‘ZANSOY

(1911–1975)

ICHARANKO‘YDAN[1]

Ahmad Hoshimga

“Bir qush donishmand bu bog‘larda,
Oltin pati so‘ngbahorga[2] uyg‘un!”
Yaproqlarning hashamati yerda,
Shoxlar egilar zaminga horg‘in.

Sassiz yashar asolati[3] bila,
Icharanko‘yda hanuz
Yog‘och binoning zarofati ila
Istanbulni bezagan ul ko‘shklar.

Yog‘och, chiyparda, oq eshik-deraza,
Balkonlari pechak gul-la yopiq.
Bog‘lari ming xotira asrar,
Yo‘ldan bu soat o‘tgan — taq-tuq.

Har mavsumi shunday bu mavzening,
Qiziqmaydi aslo o‘tgan zamon-la;
Xuftonda uxlaydi faqir, bedavlat,
Har kim uyg‘onadi tonggi azon-la.

---

[1] **Icharanko‘y** — qishloq nomi.

[2] **So‘ngbahor** — kuz.

[3] **Asolat** — mag‘rurlik, mavqe.

SHIKOYAT

Tangrim, to ilk kundan beri
Dunyoda o‘rning izlanar;
Shoiri, payg‘ambarlar
Uni topdik deb hisoblar.

Nasimiy o‘zida ko‘rdi,
Uni Fuzuliy sajdada.
O‘zingga oshiq qul edi
Yunus Emro, G‘olib Dada.

Bu huzurni topolmagan
Qancha qullar bor orada;
Yo‘lini qochirgan inson
Senga Sendan shikoyatda!

Kechir bu tengsizlikni,
Aybi yo‘q bunda insonning;
Yecholmagan tuguni ko‘p,
Sir-la o‘ralgan to‘rt yoning!

JOHID SIDQI TARANJI

(1910–1956)

DERAZAMDAN KETMASIN QUYOSH

Na chiqqan quyoshga o'tadi hukmim,
Topilar na holni anglovchi bir zot.
Xayoldan kechadi ajalim, o'lim,
So'ngra bu qush, bu bog',
bu nur — bu hayot!

Ko'ngul Tangrisiga yolvorib derki:
— Har bir mehnatingga ayladim bardosh,
Har bergan g'amingga roziman, lekin
Faqat derazamdan ketmasin quyosh!

SAN'ATKORNING O'LIMI

Ketdi kelmas bahor yeli;
Barcha bog'chalar qulfli,
Kaliti Tangrida qoldi.

Keldi nogoh, eng so'ng o'lmak
Na shirinlik, na bir chechak;
Kuyar quyoshda mumkatak;
Barcha bolarida qoldi.

MAMLAKAT

Istarman,
Ko‘k-moviy, oq-yashil, ekinzor sariq bo‘lsin;
Qushlarning, chechaklarning diyori bo‘lsin.

Mamlakat istaram,
Na boshda dard, na ko‘ngulda hasrat bo‘lsin;
Qardosh janjaliga bir nihoyat bo‘lsin.

Mamlakat istaram,
Na boy — faqir, na sen — men farqi bo‘lsin;
Qishda har kimning uyi issiq, farahli bo‘lsin.

50

Nechun bo‘yimdan baland bu minoralar, nechun?
Go‘yo gunohlarimni samoga yozmoq uchun
Yo‘nilgan qalamlardir uzun-uzun minoralar.

Boshiga chiqqanlarga tushmoq qo‘rquvin berar,
Kirpi ustiday tikan hurpayib turgan shahar,
Tamoman o‘zga olam bu uzun minoralar.

Ramazonda, bayramda, baroat-qandil kechalarida
Go‘yo shahar ruhidir, yuksalur nur ichinda;
So‘niq bir minoraning azobin so‘ra mendan:

-Shunday bir minoradir, nurli emasdir ruhim,
Oh, u na bayram bilar, na ramazon, na qandil,
U bir so‘ngsiz gunohdir, davom etguvchi ohdir.

YOLG‘IZLIK

Keng, qora qalin soyasi hayotimni qoplagan,
Tepamda qanot kergan lochin-kartaldir yolg‘izlik.
Qalb chirpinishi bilan kunlarni hisoblagan,
Bir menim, menim bo‘lgan zo‘r masaldir yolg‘izlik.

Ko‘rdim yaproqlarimning bir-bir hazon bo‘lganin,
Bahorda yashamoqning bilmadim nedir toti.
Kema yuzin ko‘rmagan bu mahzunlik limani[1]–
Ko‘nglimchalik emasdir hech bir ko‘ngul hayoti.

Bir oyna parchasidan boshqa meni kim anglar?
Mumday erirkan so‘ngsiz bu yolg‘izlik to‘yida.
Jigarimday tasalli berar menga oynalar,
Yo‘qsa, qayga bosardim yuzni og‘ir o‘ying-la?!

TUSHDAN GO‘ZAL

Ilk bor istagimcha keldi bahor,
Ilk bor bo‘ldim sarxush hamda hushyor.
Bir rostlik ichraman tushdan go‘zal,
Sevgilim kulmoqda yonboshimda.

Ishqing toleyimning yorasin yopdi,
Sen ko‘kda izlading, men yerda topdim.
Bir senda ko‘rdim inja ruh, hayotni,
Sen-la murodga yetdim qirq yoshimda.

[1] **Liman** — port.

ABBOS

Qani, Abbos, vaqt tamom;
Oqshom derding, bo'ldi oqshom.
Hozirlagin zo'r bir ziyofat,
Qalb og'rig'i to'xtasin faqa[1] yilida tug'ilgan
Bo'lsin shu daraxt soyasida
Labihovuz chorpoyasida
Oyga aytgin, chiqsin bu kecha,
Faqat ko'nglim istagicha.
Kigiz bos sehrli joynamoz uchun,
Ko'rsat qilgan qaroring kuchin
Masofaga va zamonga.
Qo'shib chang-to'zonni tumanga,
Bor, ket,
Shunday farmon yetdi, Johid,
Shunday qaror yetdi, Johid.
Keltir ilk sevgilimni Beshiktoshdan[2],
Kechirmoq istayman yoshlikni katta boshdan,
Yashamoq istayman yoshlikni qaytaboshdan.

ISHQ

Ochilgach bahorning alvon gullari,
O'zgacha xush shamol esar bog'larda.
Tingla kuy, telbavor xush bulbullarni,
So'rma nechun tushdingiz deb dardga.

Deki ishqdir shod etgan ko'ngullarni,
Parishon, barbod etgan ko'ngullarni,
Ishq so'ylatur eng yoniq turkularni
Bulut bag'rin oy yoqqan kechalarda.

---

[1] **Faqa** — qahat, qurg'oqchilik.

[2] **Beshiktosh** — Istanbuldagi joy nomi.

ZIYO USMON SABO

(1910–1957)

O‘TGAN ZAMON

Unutmasam deyman, hech bo‘lmasa,
O‘tgan kechalarni,
sevganlarim bilan to‘la uyimni...
Qoldirmangiz meni yolg‘iz, xotiralar,
Ozgina yonimda qol, bolaligim,
Ozgina yodimda qol, ko‘ngli misli oq qor,
Ko‘ngli issiq qor, bolaligim...
Oh, umid to‘lug‘ o‘smirligim;
Ilk she’ri, ilk o‘rtog‘im, ilk sevgim...
— Tug‘ilgan uyim! Ota makonim,
Rohatijon xayoliy parvozlarim,
Bir eshitsam eshiging ovozlarin!
Xayolan o‘ylayman onam allasin...
Xayolan tinglayman, bo‘zlayman.
Uzoq ketmang, yashagan kunlarim!
Quyosh! Keltir bayram sabohin.
Mayli, ochiling takror
Bolalik tizzamda, yaralar!
Barchangiz menimsiz;
Maktabim, sinflarim, partalarim, qatorim...
Faqat xotirlamoq istayman yolg‘iz.
Qayda qolding, sevgilim, seni ilk o‘pgan kunim,
Rangiga to‘ymaganim ul samo,
Ohangiga qonmaganim gul daryo?
Tark et har neni, qayga ketmoqdaman?
Nelar kechdi xayolimdan,
Nedan yig‘lading, kulding nimadan?
Oh, qanday edi yashamoq,
Yashamoq qanday edi?!

EHSON YO‘LI VA KABUTARLAR

Uzilgan arqondan endilar birin-ketin,
Qoldir horg‘in boshlarni, bu toshlarda uxlasin.
Tutagan ruhlari-la bir tomchi ko‘z yoshi sun,
Bir yo‘lga to‘kildilar oq, oppoq kabutarlar.

So‘ngsiz sahrolar uzra birga-birga barobar,
O‘tarkan topmadilar na bir o‘t, na bir yo‘sun.
Hurkmasdan suv ichsinlar ohista, jim, suv ichsin!
Bir yo‘lga quyildilar oq, oppoq kabutarlar...

So‘nggi sharqilarini tarqataroq shamolga,
Oppoq bo‘yinlarini uzatdilar toslarga...
Bir tomchi suvga hasrat izhor etarlar...

Endi bo‘m-bo‘sh ko‘chadan sarvilar nedir so‘rar,
Xotirlatur uzaygan dam tortishlarni shamol.
Marmar zinalarda uchishar oq, oppoq patlar.

NAFAS OLMOQ

Ich-ichdan chuqur-chuqur nafas olmoq teran-teran,
Yangi-sof, iliq, sarin
Havoni tuymoq bag‘ringda.

Nafas olmoq, har sahar bedor. Uyg‘oq.
Oqargan tongga derazang ochiq.
Bir og‘och soyasinda, bir suv qirg‘og‘inda.

Boshingda ko‘k —
ufqqa egilgan, shafaqqa qarshi.
Seniki har joy: ko‘chalar, maydon, chorsu...
Nafas olyapsan-ku, birodar, birodarim-a!

Ko‘klar kabi moviylikni, shamolni o‘par kabi,
Onaning sutini emar kabi,
Qona-qona, to‘ya-to‘ya...

Nafas olmoq — qo‘ltig‘ingda sevgili,
Dalalarda butun bozor lazzati.
Bahor. Yoz. Kuz. Qish.

Nafas olmoq — ish bitgach tin olmoq,
Bola-baqrang bilan endi tun bo‘yi
Nafasing nafaslariga qorishmoq.

Yotoqda rohat — unutish, uyquli,
Yonida qoringa uzatib bir qo‘lni
Dam olmoq — tin olmoq.

To‘lib bo‘shagan ko‘ksda...
Uxlamoq, sevmoq dam-badam —
Turib odim otmoq, tutatdi tutmoq.

Syuroxida[1] pish-pish ichilajak suv,
Dengiz hidi, tuproq isi, chechak bo‘yi,
Yuzimga urilgan nur, qulog‘imga kirgan sas.

Oh, barcha sevganlarim, har ne, har kas...
Anglayman, bir-biridan muqaddas,
Olib-chiqarganim har nafas.

[1] **Syuroxi** — grafin.

BADRI RAHMIY AYYUBO‘G‘LI

(1913–1975)

TURKULAR

Gilos po‘sti ostida gilos,
Anor ichinda anor.
Mening qalbimda esa
Butun mamlakatim bor.
Jon-u jigarimga qadar
Mutlaqo
Olma shoxidan uzoqqa tushmas,
Qayon ketsam, ziyoda
Mamlakat holi ko‘zimda,
Ko‘zimga bog‘langan ming joyi bilan,
Undan u yog‘iga aqlim yetmas.

Yerliman, yerlik bo‘lganda ham
Bo‘g‘in-bo‘g‘in, halqa-halqa, tomir-tomir,
Avlod-avlod, oshiq-moshiq,
Tub yerliman.
Bir tilim Trabzon pishlog‘i,
Bir hovuch momiq, yumshoq angoriy jun,
Bir chimdim javdar,
Bir tuman ko‘ylak guli kabi
Tishimdan tirnog‘imga qadar.

Rassomman,
Yurtim toshidan, tuprog‘idan
Davom etib kelar naqshlarim.
Shoirman, shoir bo‘lganda ham
Komil va xos she’r qurboniman.
Inson hidi singgan baytga fidoman.
Pichoq kabi so‘ngakka yetsa kifoya,

Tayansa kifoya,
Yurakka yetsa kifoya,
Egri-bugri, mayli, dag‘al bo‘lsin. Roziman.
Shoirman.
Zifiriy— g‘ira-shira qorong‘uda kelsa xos she’r,
Oyoq tovushidan taniyman.
Qay vaqt qishloq turkusin[1] tinglasam,
Uyalaman shoirligimdan.
Shoirman,
Haqiqiy she’r ko‘rdim qishloq turkularida.
Yuvindi dilim, chayindi tilim
Qishloq turkularida.
Yig‘ladim, kuldim turkular bilan,
“Hay-huv” desin, yana “hay-huv”.
Tebransin turkular o‘lkalardan o‘lkalarga,
Boshdan oyoq shaharlardan shaharlarga uchsin.
Titrasin, titratsin.
Albattaki, barida borman,
Ularchalik tabiiy,
Ularchalik haqiqiy,
Insoniy, insonchasiga, erkakchasiga,
Menga bir piyola suv ber degandek,
Ketar bo‘lsam bir turku aytmasdan, yonarman,
Ketsam agar, yonarman, bir turku kuylamasdan.
Oh, bu turkular,
Turkularimi.
Ona suti kabi jondan,
Ona suti kabi qondan,
Ona suti kabi pok.
Turkularda yonar tog‘-tog‘, tutar yaylov-yaylov,
Qishlog‘imiz, qishloqligimiz, mamlakatimiz.
Oh, bu turkular, qishloq turkulari!
Tilimizning tuzi, garmdorisi.
Mamlakat ahvolin ulardan so‘ra,
Kitoblardan emas.

[1] **Turku** — qo‘shiq.

Turkulardan izla Yamanni,
O‘lganni, qolganni. Ketib-kelmaganni.
Men turkulardan oldim xabarni,
Oh, bu turkular! Qishloq turkulari!
Mushk kabi inson bo‘yi, mushk kabi tuproq,
Quvliksiz, shumliksiz, shaffof,
Ayol-ayol, erkak-erkak,
Qosh-qosh, ko‘z-ko‘z, yara-yara,
Pichoq-pichoq.
Oh, bu turkular, qishloq turkulari!
Qorong‘u quduqlarda ochilgan gullar kabi...
Qay birining bo‘yidan kechilmas,
Qay biri zahar, qay biri zambarak kabi.
Oh, bu turkular, qishloq turkulari,
Yetilgan qovunday,
tarvuzday yorilar ichim.
Qon tomar uchidan, siyoh emas,
Mana so‘z, mana ovoz, mana bichim.
Uzun terak g‘ichir-g‘ichir g‘ichirlar.
Boshdan oyog‘i qadar og‘riq,
Endi omadsizdir terak og‘ochi
Va turkuning yuragida sanchiq bor.
Oh, bu turkular, qishloq turkulari!
Na tuzgani aniq, na yozgani,
Ostlarida imzo yo‘q, ammo
Ichlarida yurak bor.
Jannatlar misoli sevishgan,
Jahannamlar kabi urishgan,
Bir bola kabi kulib,
Mog‘oralar misol ingragan,
Qanday unutar, qanday
Umrida bir bor Kozimning
Turkusini tinglagan?!.

JON QUSHI

Tanga kelib qo‘ndi jon qushi,
Gunohimga yot ko‘rmadi o‘rnini
Va butunlay ochib yubordi
Umrimning darcha-yu derazalarin.

Kelib qo‘ndi jon qushi tanga,
Hurpaydi birma-bir marjon tollari,
Ajab, qayga berkindi jon?

Na qadam tovushi chiqar ichimdan,
Na sharqi kuylar,
Ajab, qayga bekindi jon?

Jon quliki kelib tushdi tanamga,
Bir uyaki, qurildi yaxshi-yomon xas-cho‘pdan.
Qo‘shni bog‘chalardan tashib gunafsha,
Tortildi qulog‘in oh-u zori,
Porloq-porloq nur oqa boshlar ko‘zlarimizdan.

Kelib tushdi tanga jon qushi,
Bir uyaki, qurildi xasdan, cho‘pdan.
Kunlardan bir kun
To‘xtab turarkan,
Nogoh parvoz etdi jon qushi ichimdan.
Uyasi — marjon tolalari qoldi osilib,
Jon qushidir havolandi ichimdan,
Ini hanuz juda ham issiq.

OSMON TAQDIMI

Va, mana, Mahmedim, samo degan nur,
Uzala olsang uzal,
Tegina olsang tegin,
Umr bo‘yi ustingda sollanib turur.

Va bir kun
Yuz pullik yon cho‘ntak oynasi kabi
Sinar qaroqlaringda
Nam — rutubatli bulut parchasi;
Bir qancha qirmizi tom sopoli
Va tut yaproqlari qa’rida.

BIR YOZ O‘TDI

Chang-to‘zonni tumanga qoraroq
Qovun-tarvuz yukli
Bir yoz o‘tdi.
Barcha ishtaha — istaklar sergak,
Og‘ochlar qo‘lim qanotim qadar menim,
Dengiz otam, onam qadar xush edi,
Bir yoz o‘tdi yonimizdan.
Tishimizdan, tirnog‘imizdan
Hayajon-u titrog‘imizdan
Qizili qizil, oqi oq
Nafas nafasga tutash bir yoz o‘tdi.

JO‘SHQUN ERTAPINAR

(1914-yilda tug‘ilgan)

MOLOZG‘IRTDA PORLAGAN KUN

Bir o‘zgacha porlar quyosh mashriqda,
Tinglang, tuysin, kelar shafaqdagi saslari,
Uyg‘oning.
Ravishi o‘zgarar dunyoning...
Tegrangizda uchgan bo‘z otli
Dardlar, og‘riqlar, shubhalar.
Buyuk Saljuqli Alp Arslon,
O‘n yildirim qanotli
Bir boshqacha quyosh porlar mashriqda,
To‘xtagay Molozg‘irt ko‘klarida quyosh!
Vohalar, vodiylar, quloq soling:
Onado‘lida yongan bu et buyuk otam!
Kun porlar, bir boshqa kun,
Yangi davr Quyoshi.
Marmar Saroylar cho‘kajak o‘tovga qarshi...
Eng go‘zalni, behad yaxshini
Sevganga eng go‘zal yurt kerak!
Ko‘ksi maysazor tog‘lari yuksak-yuksak,
Vohalari kengish, dalalari jo‘mard,
Yaylovlari suvloq,
O‘rmonlari ko‘kni bo‘ylagan,
Uch yonini dengiz bilan yuvib chaygan
Bu o‘lka, G‘arbga kechuv o‘lka...
Zamon to‘xtab turajak,
Qilichlar chiqmish qindan!
Alp Arslon endi bayroq,
Alp Arslon endi doston!
Shafaq so‘tildi, kun bo‘ldi porloq —

Shu'lalandi. Tiz cho'kdi g'urur,
Tinglang, shitirlar uzoq-uzoq,
Bizans yiqildi Molozg'irtda,
Molozg'irtda nur!

BOG'LARINGDA GULLAR OCHILSIN

Bog'laringda gullar ochilsin,
Gulzor bo'lsin uylaring ham.
O'shal orzu so'nsa ko'nglingda,
Har ne
barcha go'zallik,
Nogoh ko'rarsanki, ketgan uchib,
G'oyib bo'lgan birin-ketin...
Yo'q bo'lgan.
Goh shirin tabassum-la porlagan,
Yarim bulutli dudoqlaringda.
Seni kunga, quyoshga bog'lagan
Yashash zavqi, umidlaring,
Tushlaring, g'ussalaring,
Sevinchlaring ham...

Bog'laring gul ochsin, bo'lmasin g'am,
Gulga to'lsin xonalaring ham.
Gullar kulsin bog'laringda,
Gulzor bo'lsin uylaring ham!

TABASSUM BILAN TONGGA OCHILMOQ

Sabohdan oqshomgacha
Bu bog'ni saqlang, kezdiring.
Xoh quchog'ingizda,
xoh bag'ringizda,

Xoh yelkangizda,
Boshingizda.
Bu yerda ham yo‘q, yo‘q onasi,
Axtarsangiz, izlasangiz, a...
Ochilsin shu eshik,
Ochilsin shu xona yana bir, yana...

Yo‘q, yo‘q. Mana...
Yig‘lar go‘dak, albatta, yig‘lagay yana...
Onasiz ko‘zyosh to‘xtamas
Ki, ko‘kdan quyilgay jola...

O‘lim ne?..Ne bilsin?
Kezing, kezdiring, izlating har yonni,
Bola ikki yosh, toparsiz, balki?
Topib bering onasini, xush onni,
Tabassumlar bilan tongga ochilsin!..

MALIH JAVDAT ANDAY

(1915-yilda tug‘ilgan)

URUG‘

To‘rt nolaga xabarchi bahordan,
Quyidan, injadan, so‘ng qordan.
Tumanni tutgan issiq-qaynoq urug‘,
Kez, qora tuproqni aylan,
Yetish yer yuziga, oq urug‘.

Hey kuchiga qurbon bo‘lganim,
Tog‘-toshni tinglamasim, hey omon,
Ko‘rsat, ul gul yuzingni ko‘rsat,
Avval yashil-yashil, boq, urug‘,
So‘ngra sariq-sariq, kulaver.

Otlansin, bezansin, donalar
Iffatli qiz chipor xinali
Ekinzorlar sabildek bedavo
Ber, go‘zalim, ber, botirim, ber
Pir ishqi uchun, faqir ishqi uchun.

Farqi neligini angladim so‘ngra,
Urug‘dan boshqa ekan nihol.
Bu kichik dalli danakda
Ne bor? Daraxtli rangin porloq
Bug‘doyiqmi, Idris o‘ti,
arpabodiyon yo boshqa?

Kim bilardi?.. Sirli quti,
Ammo bulut, yomg‘ir buluti
Kelib qorayar qaydandir.
Urug‘ yer ostida har nafas
Qulog‘i ko‘k gulduragida.

OROMI BUZILGAN DARAXT

Men tanigan bir daraxt bor,
Mevazor zich bog‘larga yaqin,
Baxtning hatto nomiga zor,
Allohning ishiga boqing.

Bilmas tongni, tunni, kunduzni,
To‘rt faslni, qorni, shamolni.
Bilar oy nurini, yulduzni,
Yomonlamas zulmatli holni.

Bermoqchiman unga bir kitob
Rohatini buzmoqlik uchun.
Ishqni uqsin, ko‘ring o‘sha chog‘
Daraxtni va ishqiy she’r kuchin!

TEZGOH[1]

Mening bir vazifam bor–
Yashamoq uchun keldim dunyoga.
Ammo nedir, bilmasman saodat
Izlasam-da izlasam?

Ba’zan o‘ylaydi-da inson
Hech narsadan xabari yo‘q diyorin.
Shu saodat tufayli ochganmiz oramizni
Bu daraxtdan, bu yulduzdan, bu qushdan.

Umrim boricha she’r yozgayman,
Salom bo‘lsin mendan ortda qolganlarga.
Bilsinlar yuradigan yo‘llarin,
O‘tirgan o‘rindiqlarin bilsinlar.

[1] **Tezgoh** — dastgoh, kemaga oid korxona, rasta.

Achinmasin ulovlarda o‘tgan vaqtlariga,
Bilaman, bir sevgim kutar bekatda.
Shuni angladimki, bu foniy hayotda
Yo‘l uzunroq ekan uzlatdan.

Biz bir gazmol to‘qiymiz
Kulib, yig‘lab,
Na mas’udmiz, na badbaxtmiz,
Boshqamiz, mutlaqo boshqa.

ALOTURKA

(turkcha)

Chiq, mening shoir tabiatim,
Chiq o‘rtaga.
Faqir go‘zalligin so‘yla,
Hasrat otashin kuyla,
Kuyla, kuyla menim savdoyimni
Dardim ovozim-la.

Behad mashhur sharqilar kabi bo‘lsin,
Qani, dili bechoradan.
Suv ichsin yor qo‘lidan,
Ya’ni sharqilardan bo‘lsin.

Yangi so‘zlar axtara ziyoda
Dardim yangi bo‘lsa, eslarman.
Kel, hoziringdan so‘yla bu oqshom,
Kelmasang, kelgay firoqing-la xarobim.

Oqibatda oh chekarmiz chuqur-chuqurdan,
Kim anglagay haq ekanin?
Sen so‘yla yolg‘iz,
Zulfingdadir baxti siyohim navosi
Dadadan.

JALOL SILOY

(1915–1974)

SINOV

Ko‘z oqil bo‘lishi lozim
Neki ko‘rsa, ko‘rganda.
Enlash kerak, bo‘ylashi lozim
Neki topsa, topganda.

Qo‘l hassos bo‘lishi lozim
Nimaga tegsa, tekkanda.
Qarichlab o‘lchashi lozim
Neki tutsa, tutganda.

Yo ko‘z qo‘ldan ixtiyor ketganda,
Bir qo‘l bo‘lishi kerak qo‘lda.
Neki sursa, davom etganda
O‘pish-hislashish lozim.

Yo qo‘l qo‘ldan ketganda
Bir ko‘z bo‘lishi kerak ko‘zda.
Neki ko‘rsa, ko‘rganda
Bir oni qolishi lozim sanda.

HOZIRON — IYUN SHE’RI

Hoziron — iyun ustimizda tol-tol,
Moda atrofimizda rango-rang.
Istanbul ming to‘qqiz yuz ellik beshida,
Chimlar maysalar ostimizda zich tig‘iz.
Bulutlar ustimizda sayron siyrak,
Etaklaring moda yelkanlarida.

Yelkamda issiq qo‘ling,
Beling qo‘limdan inja.
Ko‘zing ko‘zimda hurkak,
Nur soya bir o‘yin.
Chechak yaproq yashil-qizil.
Hoziron ustimizda tol-tol,
Sochlaring yuzingda tol-tol.

Bir qush bir qanot tanimizda,
Bir shamol bir sarinlik dilimizda.
Bir ko‘k bir dengiz moviy-moviy,
Sharqiy bog‘cha tuy sayr-u tomosho samoviy.

Istanbul ming to‘qqiz yuz ellik beshida
Etak yelkan bir junbish.
Yonoq yonoqqa surinish, surtinish,
Yelkamda issiq qo‘ling.
Yetagimda bilagimda inja beling,
Qulog‘ingda tilim titroq.

BOQIY SYUXO ADIBO‘G‘LI

(1915–1972)

YOLG‘IZ DARAXT

Qoyalarda bo‘linur,
Ikki deb qo‘rqqulik.
Dengiz bilan kecha,
O‘rtada shamollar faryodiga.
Fig‘on qo‘shgan yolg‘iz daraxt,
Yulduzsiz kechada,
Qabargan dengizga qarshi.
Bitta daraxt
Qo‘rquv ichra,
Ekinzor qushlarin kutar,
Shafaq oqarguncha.

KECHMISH YOMG‘IRI

O‘tgan kunlar yoqaday bo‘g‘ar bo‘ynimni,
Sahro o‘rtasida ranglar iqlimi.
Naqadar o‘zgardim, Rabbim, naqadar!
Yoqar aks sadosi qalbimni
Qaro savdoli kunlarimning...
Uzdim umidimni sendan, ey dengiz —
Ey ulkan daftar — xotira!
Lekin tovshing kelar qalb tubidan
Horg‘in yoki quturgan,
Faqat shahvat qo‘msagan o‘tlar ustiga
To‘kilgan bu qora musiqa, bu sahiy sharob
Meni mast etmoqda, yutum-yutum,
Kecha bir qabristondan o‘tdim tongga yaqin
Siyoh toshlar so‘zlashganda,

Oq qo‘llar ko‘rdim ko‘kka ochilgan,
Qo‘llar... abadiy inson qo‘llari!
Yozuv yozgan, rasm chizgan,
Soz chalgan, xamir qorigan
Go‘zal qo‘llar...
Jimdir ul qo‘llar endi,
Kechmish yomg‘iri so‘zlar.
Samoviy bir motam — fig‘on yoqilar
Sarvilar o‘lkasida,
Rahmayilda tug‘ilgan.. rahmat!
Anglat ul go‘zal qo‘llarga:
Sizniki bu so‘ngsiz musiqa, bu o‘rmon,
U yerda oqmaydi, to‘xtaydi zamon.
Qushlar, kapalaklar va qora toshlar...
Har ne o‘z o‘rnida o‘zidan emin-emin,
Hushdan ayiruvchi bo‘yi kecha gullarining.

ISHQ TURKUSI

Yurar sukunati namchil kechaning,
Sukut hokimi har o‘y-tushunchaning.
Ko‘rshapalak xayolimda taxt qurgan,
Ey sehrli eshigimni urgan...

Uzoq bog‘chalardan taralgan huzun,
Ichida bir iloh kabidir yuzing.
So‘ngsiz o‘lkasida kecha qadaring,
Bir musiqiy boshlar teran va uzun.

Shu on gul ochilur suv junbishlanur,
Bu sukun yoshda bir ishq yuksalur;
Har nening ustida, har nedan go‘zal,
Yulduz shamoli-la yuvingan haykal.

Qo‘lida shu’ladan qadahli tongning,
Yuzi gullar qadar oq va sariq.

Nilufar-la so‘zlashar, nargis-la kulishar,
Manglayida doim ul samarli kadar.

Abadiy raqsida telba dengizlar,
Seni bag‘rimizdan yulmoq istarlar,
Nolang-u ranging-la menimsan, ey gul,
Yonsin shu shoxlarda ovvora bulbul!

BAXCHAT NAJOTIGUL

(1916–1979)

BARBAROS MAYDONI

Bilaman, bu ayb va ma'nosiz.
Ammo izlaridan ketmoqdaman
Aylanmoqqa chiqqanlarida
Ona qiz.

Balki, uyalar
Onasining ustidagi
Idragan to'r libosdan — yeldirmadan.
Qiz bir odim oldinda borar
Sezdirmasdan.

Beshiktoshda Barbaros maydoni,
O'ngi haykal, so'li turbat.
O'rtasi to'rtburchak shaklida,
Parki yo'qsillarniki,
Ayniqsa, yoz oylari.

Nihollarning, mozorlarning oldida,
Tosh haykaldir atrofi.
U yer-bu yerda uzun o'rindiqlar.
Maydon to'la millat,
Qator-qator o'tirar,
Qatorlarga boqar, albat,
Oh, yosh qiz qalbi.

Maydon oldi dengiz qirg'og'i,
Bog'langan qayiqlar,
Yonda bandargoh kazinosi,

Suvlarga to‘kilgan shu’lalar.
Uskudor shu tomonda.

O‘sha nam tuproqlarga
Ona cho‘kar horg‘in, kuchsiz,
Ko‘zi qolar orqada,
Oyoqda turar qizi.

Eng shovqinli sharqilar
Taralganda lappaklardan
Ular u yerda o‘tirur,
Dengizga boqarlar.
Ovunmoqqa muhtoj bu yoshlik,
Ey, shul qiz onasi — keksalar
Ey dengizlardan esgan sarinlik!

UYLAR

Odamlar qancha yuz yil uylar qurdilar
Katta-kichik, bir-biridan farqli,
Taxta-yog‘och uylar, tosh uylar qurdilar,
Tug‘ilib o‘lganlar, kelib ketganlar bo‘ldi,
Uylar ichi o‘zgardi davrma-davr,
Uylar tashi, rom-panjara, devor.

Olibsotarlar tiklagan uylarda
Qalbi qora odamlar o‘tirdi,
Kundalik qo‘rquvlar cho‘ktirgan uylarda
Ul fuqaro odamlar o‘tirdi.

Uylarning ko‘pi eskirdi, ta’mir etilmadi,
Uylarning ko‘pi keragicha tasvir etilmadi,
Birov hayotga to‘ygan ko‘rindi,
Ba’zilar zamonga uyg‘un ergashdilar.

Uylar ichi xonama-xona g‘ussa, abgor,
Uylar tashi rom-panjara, devor.

Uylarda saodatlar sovunlar kabi ko‘pirdi;
Tashqaridan keldi yagona anor kabi,
Ortdi, kamaymadi.
Uylarni falokatlar vabolar kabi supurdi
Taqdirdan qadimiy po‘rtanalar kabi,
Keti uzilmadi.

Uylarning ko‘pida huzur-halovat,
Qolgan bir xotira bo‘ldi kechmishda,
Ko‘ngil olmoq, yuz-xotir, hurmat qidirma,
Avlodlar, farzandlar oilaga itoatsiz, mana,
Bir fig‘onki, yuksalur, yulinib ketur g‘ussadan.

Ro‘y berdi uylarda qancha jinoyat,
To‘ymadi insonlar ruhi hattoki,
Oila sirlari to‘rt devor ichra,
To‘rt devor ichinda dunyoning qahri.
Buncha go‘dak, buncha erkak, buncha ayol
Ko‘zyoshlariga to‘ydi, to‘ldi.

Kichiklar, katta odam o‘rniga uylarning
ba’zilari;
Bolalari ishga shoshdi g‘uj-g‘uj oilalar.
Maktab chog‘larining qodarsiz bolalari
Jajji hovuchlardan oqshomlari oqqan ter —
Tuz o‘rniga o‘tdi uylarda taomlarga.

Odamlarning omadi, ma’lumki, uyga bog‘liq:
Badavlat oilalar faqirlarga ko‘p balanddan boqdilar,
Uylar oilalar o‘zlariga ko‘ra qiz berdi, qiz oldi,
Ba’zilari qo‘msadilar yana yuksak hayotni,
Chirpindilar yana baland chiqmoqqa,
Uylar qo‘ymadilar.

Qayta-qayta yoyilganda uchoqlarning tutuni
Ayol eng katta quvvat erkagining ishida,
Erkaklari qochdi, ayollari qochdi,
Uylar — tilsiz shikoyat qolganlarning ketida.

Shu dunyoda o‘tirgulik bu qadar joy qilindi;
Kulbalar, hovlilar, saroylar, ko‘p qavatli uylar —
Bo‘lishildi xona-xona, bo‘lishildi eshik-eshik,
Ammo sizga tegmadi hech qanday ulush —
Devor tublari, yong‘in joylari,
Xalqi gulxanda, yerosti ko‘lmagida yotganlar!

SO‘LG‘IN BIR GUL

Novdalardan tushar,
Ko‘rmas kelib o‘tayotganlar.
Olaman egilib,
So‘lg‘in bir gul ekan qo‘l tegib.

Va buyuk shaharlarning birida,
Kezinar g‘uj odam bekatlarda.
Va yurtning bir yerida,
Qahvaxona otel go‘shasida.

Qayga borsa bu oqshom vaqti,
Suqar qo‘llarini kissaga.
Sigaralar qog‘ozlar,
Orasidan sirg‘alib tushar ohista.
So‘lg‘in bir gul olaman egilib,
Bildim qo‘lim tegib.

Yoki yolg‘iz bir qizning,
Sidirilgan lab bo‘yog‘ida.
Ostonasida yana horg‘in kechaning,
Boshini yostiqlarga qo‘ygach.

Kim esa tush payti yoningga tiqilur,
Ko‘pincha kuz oylari va yomg‘ir yog‘gach,
Pasayar-ku bir bulut ul huzun bulutidan.
Uzalib olaman,
So‘lg‘in bir gul ekan.

Qo‘llarda, dudoqlarda, chet yozuvlarda,
Oqshomlarga tortilgan to‘rlarga taqilmoqda.
Yarador hayvonlarday so‘lmoqda,
Bo‘g‘ilmoqda, qochib ketmoq istamoqda.

Yo‘llar yoki xotiralar bo‘ylab,
Olib kelmoqdaman, uxlamaydi butun kecha.
Qimirlaydi qorong‘uda, qay vaqt ushlasam,
So‘lg‘in bir gul bo‘lur qo‘llar teggach.

ABDOL

Yurar asfalt kengliklarda abdol,
Ko‘rgazma oynalari qulab tushgan,
Huzun chashmalari: Chiroqlar!

Suzmoqchiday avval bir tulum-tulum,
Ohista yondashur sohilimizga dijlalardan[1].
Va chopar ilk badaviy, o‘zin urar chodirimizga.

Qayda bu Laylo, asli qayerda?
Suratlar, nusxalar, yag‘mo va Laylo!
Urar Farhod tog‘lariga abdol[2] —
Qo‘lchiroq bo‘lmoqchi oldinda bir yerda.

Sayoz suvlarga qaytgan tolg‘in kemalar,
Yong‘in va tutun ichinda izlar-da,

[1] **Dijla** — daryo nomi.

[2] **Abdol** — tariqat yoyuvchisi, komil inson.

Ko‘rmas o‘tar so‘ngan eski fonusni —
Qorong‘uda bir fig‘on: Qoyalar!

Alanga yana yangi bo‘layotgan joylarda,
Yana shunday yonardi bu chiroqlar.
So‘ngra asfalt kengliklarda, behadlarda,
Oqqan sellar va abdol.

JOHID IRGOT

(1916–1971)

SHAMOLLAR BO‘YLAB

(Ayolimga)

Bilaman qaylarga ketishimni,
Esgan shamollar bo‘ylab.
Qorli tog‘lar va shaharlar ustidan,
Insonlarning quyosh kabi tug‘ganini.

Uyg‘ondim rangin-rangin saodatlar ichra,
Sevgan bo‘lsam kulgan bo‘lsam sendandir.
Kular yuzli insonlardan yap-yalang‘och ochlarga,
Shamol-shamol borgan sevgi mendandir.

Havo keskin va quroq
Es shamol es go‘sha-go‘sha,
Men bilaman qaylarga borishimni.
Bu tuproqdan biri edi.

Oti O‘rxon Vali edi,
Qo‘llari do‘st yelkasida.
Yashamoq taqdiri edi,
O‘zi ketdi ismi qoldi yodgor.

Chechak berdi kulishiga,
She’r berdi qiyosiga.
Yashashiga o‘lishiga,
O‘zi ketdi ismi qoldi yodgor.

BULUT

Bir tomchi tushdi ko‘zlarimga
O‘tgan bulutdan,
Xotirladim inonmoq ne ekanin
Yashashga, she’rga.

Suv o‘zandan uzoqlashgan,
Men suvmanmi yo o‘zanmanmi?
O‘q yoyidan uzoqlashgan,
Men o‘qmanmi yo yoymanmi?

Men bulutdan ko‘zlarimga
Tushavergan bir tomchiman.

JOHID KULABIY

(1917–1997)

HIKOYA

Dudoqlaring momiq,
Qo‘llaring oppoq,
Ol, tut qo‘llarimni, chaqaloq,
Tutib tur biroz!

Men tug‘ilgan ko‘chalarda
Yo‘q edi yunon yong‘oqlari.
Bu sabab sarinlikka tashnaman,
O‘xshat, sila, erkala biroz!

Men tug‘ilgan qishloqlarda
Yo‘q edi bug‘doy dalalari.
Tarqat sochingni, chaqaloq,
Sovur biroz!

Men tug‘ilgan mahallada
Bosardi tunlari qaroqchilar.
Yolg‘izlikni hech sevmasman shu sabab,
So‘zla biroz!

Men tug‘ilgan ko‘ylarda
Bilmasdi odamlar kulmoqni.
Shunday nochor qolganman bu sabab,
Kul biroz!

Men tug‘ilgan qishloqlarda
Esardi shimol shamollari.
Bu sababdan doim labim chatnagan,
O‘p biroz!

Sen Turkiya kabi oydin, go‘zalsan!
Go‘zal edi men tug‘ilgan ko‘ylar ham.

Sen ham eslat men tug‘ilgan joylarni,
Anglat biroz!

SIVAS YO‘LLARIDA

Sivas yo‘llarida kechalari
Arobalar borar qator-qator.
G‘ildiragi bolutdan,
Og‘iz, til bermagan mahalladoshlar
O‘tinmi, tuzmi, xastami eltarlar?
Og‘ir-og‘ir arobalar ketar
Sivas yo‘llarida kechalari.
Ne yulduzlar qaynashur ko‘k yuzida,
Ne savdolar to‘lib-toshar ko‘ngulda.
Izg‘irin izg‘iydi nayzalar kabi,
Qo‘l-oyoq shishar.
Sivas yo‘llarinda kechalari
Og‘ir-og‘ir arobalar borar.
Yuk moshinlar kelib o‘tar,
Ketar yuk moshinlar,
Chang-to‘zon arosinda,
Yorug‘ sochar, o‘t ochar yo‘llarga,
Moshinlar tarqalar,
Silkinib yo‘ldan chiqmoq bo‘lar,
Haydovchilar so‘kinar,
Sivas yo‘llarida kechalari
Arobalar borar qator-qator.

SHAMOL

Hozir bir shamol o‘tdi bu yerdan,
Chopdim, ammo yetolmadim,
Qaylarda kezib-to‘zar
Bilolmadim.

Aniqki, dengizdan chiqib,
Sohillar bo‘ylab ketgan,
Tuz hidi, qatron bo‘yi, ter isi
Yuragin ag‘dar-to‘ntar etgan.
So‘ng boshlagan tirmashmoqni tog‘larga,
Bulutlarni qo‘yday haydagan,
Giyohlarni silab-silab yaylovlarda
Ulg‘aytgan.

Qishloqlarga uchragan bo‘lsa agar,
Zax, qorong‘u xonalarda beshik tebratgandir,
Oftob ostida ishlaganlarga
Imdod etgandir.

So‘ng pasaygan vodiylarga,
Qizg‘aldoqzor dalalarda qirmizi, alvon, oq
Qisir, hosilsiz yerlarda moviy tikanlar...
Tuproq changi ko‘zlariga kirgandir.

Shaharlarga duch kelganki, o‘tdi yonimdan,
Qizg‘aldoq guliga mengzar qizlar ko‘rgandir,
Bir kulgu, bir tola soch, qo‘l upa
Yelib ketgandir.

Hozir bir shamol o‘tdi bu yerdan,
Chopdim, ammo yetolmadim.
So‘rasam edi, so‘ylardi, har holda,
So‘ramadim.

YURTIM

1917-yilda
Tug‘ildim tuprog‘ingda,
Onamdan emgan sutim
Chashmangdan, dalalaringdan.

Chegarangda amakilarim
Qurbon bo‘ldi savashib sen uchun,
Qal’alaring minorlari ustidan
Uchirdim varraklar.
Sho‘ng‘idim daryolaringda,
Bir andizday o‘sdim tuproqlaringda.

Ulkan-ulkan yuk moshinlar mindim,
Yana katta shaharlaringga
Bordim o‘qimoq uchun,
Qaroqchilar yo‘limni to‘sdi,
Topmadilar hech vaqo.

Tuproqlaring ustida
To‘p o‘ynadim, oshiq bo‘ldim, o‘yladim,
Tanishlar orttirdim, do‘st tutindim.

Qayg‘u-g‘amli kunlarim bo‘ldi,
Nochor yurdim ko‘chalaringda,
Quvonchli kunlarim bo‘ldi,
Kezdim boshim havolarda.

Bag‘rimni ochdim ohista
Esgan sarin shamollaringga,
Eng avval sohillaridan
Dengizingni tomosho ayladim,
Kimsasiz cho‘rak[1] don vohalaringda
Kunlarcha safar ayladim.
Yig‘laganim sen uchundir!
Kulganim sen uchundir!
O‘pib ko‘zimga surgan,
Boshimga qo‘ygan
Non kabisan!

[1] **Cho‘rak** — non turi.

ELXON GACHAR

(1917-yilda tug‘ilgan)

BALKI

G‘arib-g‘arib titragan bir tren[1] ovozi
Va so‘nggi kampona[2] bilan boshlangan sog‘inchni,
Unutgaysan bu shaharning g‘arib kechalarin,
Uzanmagay qo‘llaring yulduzlariga.

Yo‘llar senga, sevinch menga huzn bergay,
Bo‘ynim egik qaytgayman xonamga,
“Unut meni” deding ayrilgan chog‘da,
Osonmas unutmog‘-u yodlamoq ammo.

O‘yla bu shaharning g‘arib tunlarin,
O‘yla, yolg‘izliklar ichinda meni
Bir suratim qolgandi senda
Hatto uni qoldirma yolg‘iz — bu doru.

Bilinmas dunyo holi bu,
Zamon bilan o‘zgara olur inson,
Balki, qaytarsan bir oqshom qayta
Bulutlar ila ul uzoq diyorlardan.

MELONXOLI

(dilgirlik, diqqat bo‘lish, siqilish, melonxoliya)

O‘sha shaharda yana qo‘shiqlar kuylanmoqdadir
Javobsiz qolgan sevgilar haqda,
Shu’lalari so‘ngan xonamda
Tinglayapsanmi yarmi qolgan sharqimni?

---

[1] **Tren** — poyezd.

[2] **Kampona** — qo‘ng‘iroq yoki so‘nggi to‘xtash chinqirig‘i, tormoz ovozi.

Yana yakka-yolg‘izman, mendan so‘rasang,
Uxlay olasanmi issiq to‘shagingda bemalol?

To‘ldirdimi boshqasi bo‘sh qolgan yostig‘imni,
Qo‘llaringni silagan kim u begona?
Bunday uzoq boqma yuzimga,
Seni endi yo‘lingdan qaytarajak emasman,
Yig‘ladingmi, nega ko‘zlaring to‘lgan,
Eslaysanmi meni qirq yilda bo‘lsa ham?

Qo‘msagan hayotingni topdingmi bilmam,
Ko‘zlaringda hanuz huzun bor kabi,
Nurli yuzing kulmaydi ne uchun, anglat,
Yana ishqsizlik va bo‘m-bo‘shlik uchunmi,
Nega qo‘llaring sovuq yoki junjikarmisan,
Saodating ketidan hanuz yugurarmisan?

Qor yog‘dimi sen ishongan tog‘larga,
Seni ham bir turli o‘ngdirmadi yo qodar,
Qiynamagin o‘zingni har holga qaramasdan,
Dunyo yashamoqqa loyiq,
Bu yerlar, bu olam mahrum har nedan,
Eshityapsanmi, senga so‘zlayapman.

FASLLAR ARMUG‘ONI

Bir chumoli keltira qoldi yozuvni,
So‘ng tarvuz po‘chog‘i tushdi suvga,
Kashtan gullari telbanamo savdoli
Uzandi moviyga...

Bir qadimiy sharqi va otash kapalaklari
Xotiralar bilan to‘lg‘ongan dengiz,
Uzoq kunlarning ortida
Oydin tusli bir yorug‘ yuz.

Bir bulut qatoridan
Tabassum ayladi yuzing,
Ko‘rdim ichimga oqqanin
Bir yoshi moviy yulduzning.

Umid yukli shamollarda
Qo‘llaring sarinligi,
Fasllar bilan kelishing
Qanchalar go‘zal ishing.

Qarashingcha oydin yulduzlar,
Shod qush mas’ud zamon ichinda,
Bo‘y taratdingmu yo ey chechagim,
Saraton bog‘chalarida.

SALOH BIRSAL

(1919-yilda tug‘ilgan)

SEVGANLARGA

So‘rasang ne der devorlar,
Xaloyiqqa qarshi bir niqob.
Ma’yusginam ma’yussan jufti halolim,
Xonalarda bir dovul musiqa,
So‘rsang ne der onalar.

Bir yomg‘irli iztirobga qarshi,
Kunlar ne der soatlar.
Shisha idishlarda har xil xastaliklar,
O‘simtalar buyraklarda,
Qo‘llar ne der oyoqlar.

Do‘stlar, ne der sevgililar,
Tark etdi barcha xotiralar.
Ma’yusginam ma’yussan zaif,
Xonalarda dovul musiqa.
Bir go‘zal sevgililarga qarshi.

Oqil odil hakamlik etsin bu ishga,
Teatr ne, kino ne.
Mening milyon-milyon o‘yinchilarim bor,
Ho‘ylularim Ayvozlarim.
Sepkilli go‘zallarim bor,
Kulma, shoshirma,
Vals ne, tango ne?
Mening turfa-turfa xalqona raqslarim bor.
Mambo ne, fokstrot ne?
Mening xalqdan olgan jild-jild bayozlarim bor.
Sozlarim nog‘oralarim do‘mbiralarim,

Raf-raf odamchalarim bor,
Keling, siz ham yelkadosh,
orqadosh bo‘ling,
Qiz ne, ayol ne?
Mening milyon-milyon she’rlarim bor,
Yosh ne, yoshlik ne?

SHE’R DARSI

Mavzu deya “Insonlik sevgisi”ni ol,
Vaznga “Hurriyat”ni tanla,
O‘rni payti qatori emas dema,
Aqlingga kelgach,
“Ochlik” kalimasin qo‘y,
Qulayini top,
She’r so‘ngida
“Haq” ila “Yashamoq”ni qofiyaga tushir,
Mana senga “Buyuk shoir” bo‘lmoq yo‘li!

DUNYO QO‘SHIG‘I

Bildirur go‘zalligini,
Bildirur o‘rmonlar, bildirur ko‘llar.
Yer yuzini, ko‘k yuzini
Tog‘ bildirur, yulduz bildirur.

Ufq porloqdir,
Tosh porloq,
Daryolarning oqishi bor
Kibr ichinda.

Kelgandir tog‘larning ikki yoqasidan,
Kelgandir yuz yillarning insoni.

Shovolya[1] bo‘lganlar, Go‘ro‘g‘li bo‘lganlar
Ko‘pdan buyon.

Jamoat, jamiyat qurilgandir,
Do‘stlik tuzilgandir,
Insonlar baxtiyor bo‘lmog‘i bor
Davlat ichinda.

[1] **Shovolya** — Eski Rimda yuksak mavqe sohibi.

JAYXUN OTIF KONSU

(1919–1978)

KICHIK BEKATLARDA AKAS DARAXTLARI

Bir oqshom ziyofatda
Tuyasiz nogahon
Bekatlar hidini.

Pochtalar vagonga kirganda
Bolalaringiz tren derazalarida,
Ko‘zlarida yetti rang,
Qirq asr so‘nggi
Yomg‘ir yog‘gan dalalar hidi,

Umringiz bo‘yi kezsangiz,
U yondan bu yon askarlik, ma’murlik,
Boshqa ishlar...
Tuyqusdan
Bekat akaslarining bo‘yi,
Qatoringiz[1] qalqib ketar,
Oqg‘adik, Gulli bog‘, tajar,
Hammasi ham kichik bekatlar,
Qolarlar qirlar ortida.
Bir oqshom ziyofatida ular
Nogahon
Makaschi[2], xotini, bolalari,
Akaslar hidini tuyarlar
O‘tib ketgan otash arava[3] shamolida,
Bolalar ko‘zida nomi noma’lum daralar, daryolar,
Vodiylar bekatlarin sukunatida.

---

[1] **Qator** — poyezd etaloni.

[2] **Makaschi** — kesishuvchi temiryo‘l noziri, strelkachi.

[3] **Otash arava** — poyezd.

KELAR XALQNING TOG‘LARIDAN

O‘tar kechalari tizilgan tog‘lardan
Yigit yoniq turkusi ila.
Xalqning tushi chaqirar uni,
Sadolanar go‘zal qoyalarda
Oppoq otning soyasi ila.
Qanday go‘zal yigit, qanday go‘zal chorlov,
Bir yoniq bug‘doy dalasidir bag‘ri.
Mashaqqat chekkan Onado‘lidan
O‘tar oq otining janubiy shamoli
Qavartib tuproqdagi bahorni.
Yaralidir yuragi
Tog‘ osha, yo‘l osha, bel[1] osha...
Yurtim! Sening darding qanchalar yuksak!
Kun charaqlar tepalarda, qayta ko‘ringach
G‘ozi Mustafo Kamol Poshsha!

[1] **Bel** — dovon.

IBROHIM MINNATO‘G‘LI

(1920–1994)

YUNUS ETRAT

Jonli qonim,
Ochiq havom.
Tabiatim tal’atim,
Xush bulutim yunusim.

Sen Vatan,
El kabisan.
Yurt kabisan yunusim,
Sen bo‘lmasang, ham ochman ham suvsizman.

Sen
Kelib
O‘tiribsan,
Ko‘nglimga bog‘, bog‘cha quribsan.

Sen
Bo‘lmasang,
She’r nima ko‘tararmi hushim.
Sen bo‘lmasang,
Yashay olmas jon qushim.

Sen
Qishloqdan
Chiqqan suvim,
Yurtda kezgan oq bulutim, yunusim.

Bir
Yagona
Ersan

Haq yo‘linda yuksak yulduz.
Qodir qilgunicha, qodir bo‘lgunicha,
Yo‘lim yo‘lingga yo‘nalgan,
Umr bo‘yi, kecha-kunduz.

Dil
Sen bilan,
Din sen bilan
Yana ulug‘, yana nozik.
Oxirat foniyga jumboq,
Sen yecharsan, xush munosib.

Pir
Ne ekan,
Kursi o‘rin ne ekan.
Sirot qildan inja ekan,
Sirotda taxt qurib o‘tirgan, yunus degan er ekan.

Qo‘llaring
Yurtimda
Novda, beda, boshoq.
Ko‘nglim ko‘klarda ming rang kamalak,
Tilagim ulg‘aymoq, senga erishmoq,
Senga qovushmoq.

Tiling
Onamda, otamda,
Bepoyon barcha Vatanda,
Ko‘nglim yeri ko‘kni yaratganda.

Inson
Yunus
Balki ko‘rsin.
Yashar, yashar-u, o‘lmas,
Asrlar osha qolur bo‘lib XUSH SADO!

QONMASLIK

Yolg‘on, yashamoqdan bezganim yolg‘on,
Kim ne desa desin, ishonmang aslo,
Ko‘nglimga ko‘ra bo‘lmas, bilaman,
Na atrof, na tartib, na xas, bilaman.

Siqilsam, yig‘ilar, to‘kar dardimni
Bir parcha ko‘k osmon, bir tutam quyosh.
Kulgan bola yuzi bir yelkadosh
Unuttirar shitob azoblarimni.

Chidolmasman poshsho ko‘nglim g‘amiga,
Ko‘rgazma oynalar to‘lar ichimga.
Do‘st-yaqinni xotirlayman birma-bir,
Otin eslar yuksak sasda til xotir.

Ne desa desinlar, ishonmang aslo,
Quvvatni ulg‘aytar turkular shifo.
Agar yashamoqni sevmasam edim,
Qanday qilib sizga she’rlar aytardim?

Yashash bozoridan o‘rgandim bir sir,
Sotarda gul yuzli qariya va der
Insonman, qush menim kunim qushimdir,
U dard-u quvonchin paylashgan bir er.

Dushmanlarim bo‘lsa, deyman marhabo!
Do‘stlarimga doim quchog‘im ochiq.
Siz aslo ishonmang boshqa narsaga,
Ishqim bepoyondir, yetmas quchog‘im!

Ishonmang, yashamoq etmadi zada,
Bir tutam savdoga to‘lug‘ dil manda.
Jonim sadqa yurtga, ko‘kka, nur-gulga,
Ishim do‘stlik qilish qushga, ko‘ngilga!

RUSHTU O‘NUR

(1920–1942)

BIR QO‘SHIQ AYT, QO‘ZIM

Bir qo‘shiq ayt, qo‘zim,
Qushlar, mevalar shoxda
Va butun orzular
Allohga ketgan yo‘lda.
Bir qo‘shiq ayt, qo‘zim.

Ne qilsak, vaqt tang,
Oqshom mo‘rimiz tutamas.
Shoxda jim qushimiz, attang,
Bir qo‘shiq kuyla, qo‘zim!

DENGIZGA SERENADA

Nimam bo‘lsa
Qoldirishim kerak senga, dengiz.
Senda kechishi kerak mavsum-u fasllarim,
Senda gullashi kerak nihollarim, asllarim.

Senda yashashim kerak, dengiz,
Osiy va hur.
Senda o‘lishim kerak
Bulutlarga boqaroq.

NAJOTIY JUMALI

(1921-yilda tug‘ilgan)

YAXSHI QIZ

Bilasan, bosh qashishga holim yo‘q,
Bilasan, o‘zimni o‘ylashga holim yo‘q.
O‘zimni o‘ylayolmayman, seni kim o‘ylagay?
Nogoh qalqsam, buni senga so‘ylasam,
Yaxshisi, jimsammi,
so‘ylasam yolg‘on so‘ylayman.

Bilasan, tolg‘inman, behad horg‘inman,
Uxlamoqdan boshqa yo‘qdir istagim.
Unutmoqdaman ovozingni,
Xollaringni unutmoqdaman.

Bilasan, baxtni o‘ylaydigan holim yo‘q,
Bu ishni bilganingdek
Boshqar, idora et, ne deysan?
Bilganingdek, istaganingdek,
Toki o‘tib ketsin tez u barbod kunlar.
Tushunmayman, to‘g‘rimi, xatomi?..

Tushuna olmayman, shu tariqa ketar bo‘lsa,
Tushuna olmayman, loaqal bugun
Tushuna olmayman, erta keyingi kun.
Kim bilsin qayda, qay zamon
Sen qilgan yaxshilikni eslayman, anglayman,
Naqadar go‘zalsan, ko‘raman,
Yaxshi ko‘raman.

YOLG‘IZLIKKA ZARBA

Yolg‘izlik o‘ldirdi meni,
Avval ko‘zim nurini,
Yuragimning sevinchini,
Yolg‘izlik ishqimni, havasimni,
Kuchimni, quvvatimni.

Yuzma-yuz bo‘lganim
Barcha qorong‘u derazalarda
Yolg‘izlik ko‘zlari
Ko‘chaga boqqan, ko‘chaga chiqqan,
Uyga qaytgan,
Yillarki yolg‘izlik men bilan.

Har qish kechasi soat yettida
Yolg‘izlik edi esgan, esuvchi.
Mehmonxona oldida
Yolg‘izlik edi mayxonada o‘tirgan
Meni kutuvchi...

Kulmoq istamasam,
So‘zlashmoq istamasam,
Sevishmoq istamasam,
Yolg‘izlik sabab.

Qimirlasam,
O‘zgartirsam o‘rnimni,
Ursam qo‘lim orqasi bilan,
Ketardi va yana kelardi.

KO‘RARSAN

Yuraging qanchalar yonar, bilarman,
Holimni parishon bo‘lgan ko‘rarsan.
Ko‘zlarim yodingga kelur, bilarman,
Chashmada ko‘zasi to‘lgan ko‘rarsan.

Ishqning badandagi qo‘liman titroq,
Shundan Majnun bo‘ldim, dema telbaroq,
Yodingga tushishim kerak avvalroq,
Shoxda o‘qlar yegan bir qush ko‘rarsan.

To‘ksam-da har soat ajal terini,
Kimsalar ololmas mendan o‘rnini.
Xalil deya ko‘rsat yo‘lda birini,
Ko‘chaga yiqilib qolgan ko‘rarsan.

BU KECHA

Kechmishni hech o‘ylama bu kecha, ne bo‘lsa ham,
Ko‘nglimning mehmoni bo‘l, o‘zingdan qoch bu kecha.
Bunday go‘zal xush kecha yana qo‘lga kelarmi,
O‘ylab ko‘r, yashalarmi bir yana hech bu kecha?

Terlagan oynalarda ko‘zlaring nami kabi,
Hech berkitma, pardalar qolsin bo‘lgani kabi.
Uzoq, turg‘un ko‘llardan oqqush uchgani kabi,
Ko‘nglimning ko‘klarida zavqingcha uch bu kecha.

Bu kecha qanday go‘zal, yulduzlar qanday porloq,
Bu kecha ko‘zlarimga ilk boqqaning kabi boq.
Hech buzma zulflaringni, mayli, bo‘lsin dor, sirtmoq,
Bir qadah jolasida o‘zingdan kech bu kecha.

Istaklarning qo‘liga beraroq tizginlarni
Birga-bir o‘ylashaylik ishqdagi mahzunlarni.
Ikkimiz yolg‘iz qolgan sohildagi kunlarni,
Erta bozor demasdan, ustima soch bu kecha.

Necha yilki ichimda senga yurak tuzatdim,
Kunduzlari quyosh-la, tunlar oy-la bezatdim.
Senga qurbon deya gul tasma boylab bezatdim,
Qo‘chqor xinosi bilan senga quvonch bu kecha!

SHINOSIY O‘ZDANO‘G‘LI

(1922-yilda tug‘ilgan)

IKKIMIZ

Qo‘ling hovuchlarimda
Va boshing yelkamda
Baxtiyorlik tashir bulutlar
Yonimiz qator...

Qanday go‘zal bu turku,
Onam o‘lmagan go‘yoki...

Saodatdan ham baland,
Boshqa bir jo‘shqinlikda
Yalakat mag‘iz bo‘lganmiz...

So‘ngsizlikka so‘ngsiz uchmoqdamiz,
Ko‘klarda bir qush kabi,
Go‘yo o‘lim hech yo‘q kabi...

QAYGA QALBIM

Qalbim, qayga ketmoqdasan
Kuzak shamolidan shitob, tez?
Istasang ham, endi yashay olmassan,
Ul savdolarki yoshlikda qoldi.

Qalbim, bu poygaga yaramassan,
Qo‘y, so‘nggi she’rni yozsin boshqasi.
Qaytgin ilk sevgingga, u bilan ovun,
Uning o‘xshashini
Topa olmassan...

O‘LIMDAN-DA GO‘ZAL

O‘limdan so‘zlama menga
Bu bahor kunlarida.
Eng uzun ayriliqdir o‘lim,
Ehtimol, so‘ngsiz ayriliq...

O‘z holimga qo‘y, sevayin,
Boshlaganim yangi bir kundir.
O‘limdan so‘z ochma menga,
Eng qattiq ayriliqdir,
Ehtimol, manguni axtarmoq...

Qanday yashayman u yerda
Sevgilimdan behad uzoq?
Naqadar yaqindir o‘lim,
Naqadar uzun ayriliq...

Qo‘ygin o‘z holimga, sevayin
O‘limni unutaroq...
So‘ngsiz hurriyatdir o‘lim,
O‘limdan-da go‘zal yashamoq!..

HOL SO‘ROVCHIM

Hol so‘rovchim, aziz qo‘shnim,
Yozuv mashinkangda qog‘ozing bo‘shmi?
Yoz dardimni, so‘zma-so‘z tarqat,
Ko‘r-chi, ne holda qolmishman!

Uning dardi, buning dardi
Sabohdan oqshomga qadar.
Jumlasi qancha pul keltirdi,
Qo‘ling–hovuchingda nima bor?

Seni yozaylik eng avval
Yozuv tasma eskirmasdan,
Seniki bitgach, so‘ngra
Og‘ir-og‘ir so‘z aytarman:

Og‘zingga tikilgan ko‘zim,
Bir narsa so‘rarsan, shoyad,
Pul istamas arz-u holim
Pulga, imzoga ne hojat!

Yoziq bo‘lmasmi qog‘ozga?
Qog‘ozlarga sig‘mas dardim.
Men har ikki dunyoda ham
Arz-u holchilik istardim.

BU HAYOT BIZ UCHUN

Ne go‘zal hayot bu! Xush mayin shamol,
Bu tog‘ga boq, daryoga bir quloq sol;
Kim bo‘lgaydir mehmon bu ziyofatda?
Bu boylik, so‘ngsizlik, oydinlik yukli hol.

Bu katta, keng bog‘ning o‘rtasidaman,
Mana somon yo‘li, mana yulduzlar.
Bu kulgan kuyovim, bu shoshqin tog‘am,
Bayramda bolalar, bolig‘a qizlar.

Tingaydir og‘riqlar, sanchiqlar butkul
Bir oltin chashmadan otilgan suv-la,
Yap-yangi mujdalar keltirmoqda kun
Shu’la-shu’la sas-la, rang-la, xushbo‘y-la.

Ey inson! Boshlangan har narsa bitgay,
Qutlug‘ mashinalar o‘tgaydir yo‘ldan,
Qani, hatla, qani, tizginlarni tort,
Shohlangan ot bo‘lsin ostingda zamon!

FAYZI XOLICHI

(1924-yilda tug‘ilgan)

VODIY TERAGIDA ZAMON

Ikki yupqa orasida
Vodiy teragida zamon,
Biroz qaymoq, biroz shakar
Vodiy teragida zamon.

Opam palovin pishirar,
Ichiga shovqin tushirar,
Yashil chaman-la yasharar
Vodiy teragida zamon.

Ko‘zlaringda kabutar-qush,
Qaro ko‘zim, so‘zlash, kulish!
Oppoq ko‘ngling kabi kengish
Vodiy teragida zamon.

Jon–uyimga tushgan jondir,
Bu na sevgi, tandir-tandir,
Boshoqlarda tug‘ilgan kundir,
Vodiy teragida zamon.

Zang urar soat, qurilar;
Qarshi salomga turilar,
Poyandoz yo‘lga yozilar,
Vodiy teragida zamon.

Olib ketar meni mendan,
Bulut sog‘dirar urchuqdan,
Un tortilur tegirmondan,
Vodiy teragida zamon.

QO‘NYO DOSTONI

Bir yo‘lda turibsan o‘g‘il, yalang‘och,
Sig‘mas vaqtlarga bahor havosi,
Shavqlanur, saodat sari yo‘l olgach,
Bir biya o‘rnagi Qo‘nyo vohasi.

Necha maqomda bu chegarasiz kent,
Kufiy misralarga otar kamand.
Avvali bir saljuqcha “Nihovand”[1],
Ta’sirchan “So‘zidiloro”[2] so‘ngrasi.

Sog‘inching yuragimda olsin alanga,
Cho‘qqisan, nahotki, unut bo‘lursan.
Quloq sol, meni tuy, tingla va angla,
Ko‘zlarini sevganimning Qo‘nyosi.

Ipak yo‘li, chinnigullar, dolchinlar,
Qancha vaqtki, qulog‘imda jaranglar.
Dargohda oq qanotli kabutarlar
Ko‘ngul mehrobiga pir-pir qo‘nasi.

Unutgan bir sirni yashamog‘imiz,
Uch bora har kun niyat qilganimiz.
O‘ramizda bug‘doy, qozonlarda tuz,
Qayda achchiq qo‘llarimning “So‘na”si?

Ikkiqat kelinlar ko‘zi yoshlanar,
O‘choqda hadikni kimlar pishirar?
Bedor zamonlarga tarix tushirar,
An qipchoq, Pol, alfatin, Ikonasi.

Machitdagi saxiy favvora qayda?
Shifodir hasratga, chorasiz dardga.

---

[1] **“Nihovand”** – qadimiy maqom nomi.

[2] **“So‘zidiloro”** — qadimiy maqom nomi.

Go‘zal naqshlar jodir turkona chinnilarda,
Jonim ulug‘ Mavlononing dunyosi.

Har tilak bir tushunchaga ko‘rami?
Bu tush, qo‘ymam o‘zligimni, to‘ramni.
Qanchalar sevdirur menga yo‘rami
Onaginamning so‘ngsiz duosi.

Jo‘r bo‘l soatlarning zang-sadosiga,
Muhabbat ayla ko‘ngul bodasiga,
Bog‘lan terak ta’zimi, sajjodasiga,
Ol xinoli qo‘llaring to‘qinasi.

Kibala bezagi olovmi?
A’lan-dur, Marom ulovimi?
Sham’i jonning Qo‘nyo turku yalovimi?
Xizr kuni — yoz bayrami navosi!

Yo‘l ola ko‘rmayin uncha uzoqqa,
Ne deyin, chopishaman oltin chog‘ga,
Arslonli o‘tovdan Qalpoqli tog‘ga,
Qo‘l cho‘zsang yulduzga, ishning a’losi!

QO‘LLARIMGA QOR YOG‘MOQDA

Yalang bir tog‘ boshida
Qo‘llarimga qor yog‘moqda...
Yozing yoz, qishing qish, Tangrim,
Bu ne moyolanish, Tangrim;
Eng go‘zalga, eng qo‘rqinchga
Tasallilar bo‘lsin buncha,
Ko‘k yuzida unutganim
Qo‘llarimga qor yog‘moqda...

Bu yaproqdan inja jonlar,
Bu qubba-qubba azonlar.
Bu duolar, rahmat-rahmat,
Ishq, isitgan jon uyimni.
Bu boshlanish, bu nihoya yilda tug‘ilgan,
Bu ko‘rganim — tush meningmi?
Yo necha dillar taloshi?
Butun bir kechaga qarshi,
Olov-olov ko‘zlarimdan
Qo‘llarimga qor yog‘moqda...

Odimlar qolmoqda ortda,
Boshqacha kutib ham bo‘lmas.
Oching pardalarni butkul,
Moviy-moviy oynalar-da
Uyg‘onmoq uchun, tug‘ilgan kun;
Quli, qurboni bo‘lganim,
Baxtiyor tuproqda urug‘.
Chechak piyozlar ichinda,
Novdalar turkusi oppoq,
Shitir-shitir... tuymoqdaman
Piyoladan to‘kilganday
Otilmish taqvimlarga atay,
Tuyg‘u-tuyg‘u, qanot-qanot,
Qo‘llarimga qor yog‘moqda...

Bu dengiz bo‘yi dolg‘alar,
Bu musulmon daqiqalar.
Har nafas olib-chiqarishda
Tuyganim bu haqiqatlar,
Mujdalar ichinda sozim,
Bumi peshonam yozug‘i?
Ko‘rmaysizmi, ayo do‘stlar?
Da’vatlar ichinda, so‘ngsiz
Har zamonlar tashida,
Yalang bir tog‘ toshida
Qo‘llarimga qor yog‘moqda...

G‘URUR

Sevgilim, haqiqatimsan, yo‘g‘imsan, borimsan,
G‘alayon dengizim, hubobli dolg‘alarimsan.
Quturgan shamol esmoqda ko‘zing nuridan,
To‘rt fasl ichra ham komil ilk bahorimsan.

SENDAN QUTUL, SENGA QOCH

Tush ko‘ngulcha bir yo‘lga,
Bir ko‘ngulcha eshik och,
Sen sen bo‘lgin, tin olma,
Sendan qutul, senga qoch!

Obihayot-la tani,
Yaproqdan inja joni!
Avval zamonlar qani?
Boshingda bir necha toj.

Buncha xudbinlik ne darkor,
Ne kerak, tuyma ehtiyoj?
Zamon qisqa, yo‘l uzun,
Ishqingni tuy, u — so‘ngsizing,
Sendan qutul, senga qoch!

To‘xtaydigan zamonmi?
Tutayotgan tumanmi?
Topgin istaganingni,
Bitsin o‘rmon yong‘ini.
Bu tutashgan jonlidir?
Kun tortildi suvlardan,
Taom hozir, qolma och!
Uzoq tur o‘g‘rilardan,
Sendan qutul, senga qoch!

Bu yolg‘onchi dunyoda
Hech kim ustunmas samoga.
Olachasi uzumning,
Nuri ikki ko‘zimning.
Manmanlikka qilma mayl,
Sog‘inchni olgin yodga,
Sevgi, eng muqaddas ehtiyoj,
Haq rizosi uchun egil,
Sendan qutul, senga qoch!

Ko‘ngul istaydi dema
Ikki qoshiq bo‘tqa, osh.
Jon ozig‘i qondadir,
Qon ozig‘i jondadir,
Menim ko‘nglim andadir.
Qolma bu yo‘lda. Ko‘z och,
So‘rma bu qor bo‘ronin.
Qo‘yma Haqning arqonin,
Sendan qutul, senga qoch!

Har kim o‘tguvchi, albat,
Bo‘lmas aslo qoluvchi.
Yo‘l senda, menda navbat,
Hoji Bektosh yo‘lida,
G‘uj-g‘uj mevali og‘och
Topding necha oluvchi?
Xuddi Haqning huzuri,
Erinma, atrofga soch!
Dilni et sof billuriy,
Sendan qutul, senga qoch!

MEHMET CHINORLI

(1925-yilda tug‘ilgan)

HAQNING XAYOLI OSHDI

Haqiqat xayoli oshdi, ufqlar uzoq emas,
Eng bo‘lmas istaklarga uzanmoq yasoq emas.

Junjikar ostimdagi shamol kabi tulporim,
Naqadar tizginlasam, yuvoshmas, yumshoq emas.

Endi sababchi sensan havomga, muhitimga,
Muzlarning sovug‘i yo‘q, o‘t issiq-qaynoq emas.

Gul yaprog‘iga do‘ndi dushmanlarning zarbasi,
Sunulgan zahar emas, soplangan pichoq emas.

Shunchalar ajradingki, cho‘lga mengzar umrimga,
Bir Nuh to‘foni bo‘ldi, selmas, qaldiroq emas.

SANDALDA

Bir qo‘shiq og‘izlarda har on, nash’ali, o‘ynoq,
Sarxush kabi qayiq ham, eshkaklar og‘ir-oqsoq,
Xohla oldga, xohla o‘ngga, xohla so‘lga qayt, boq:
Boshqa xayol olami bordir har yonimizda.

Silaganday o‘tkazar shamollarni tirqishlar,
Turg‘un suvlar ustiga ajinday burishiqlar,
Nurga bo‘g‘ildik, qanday chiqar so‘ngsiz shu’lalar?
Oy uylarning ustida, go‘zallar yonimizda.

Kunduz yumshoq qumlarning ustlarida uzandik;
Ham yoqdi quyosh hamda go‘zal tanlarga yondik.

Kirdik dengiz qo‘yniga, kuchli, qattiq inondik;
Eng nash’ali vuslat bu, bu eng totli hayot-da...

Yashil tepadan boqdik, lazzat berdi g‘urubing,
Hech qaytmaylik sohilga; kun qayiqda tug‘ilsin.
Ishvaga chulg‘angan pardaga ming zavq-la tolg‘in
Eronlik malika kabidir hozir Amasra.

SO‘RMA

So‘rma, eski toti yo‘q novdaning, yaproqlarning;
Ostida ilk bahorim begona bayroqlarning,

Oppoq bir tosh ustiga o‘tirdim yakka-yolg‘iz,
Uzoq bir ro‘yo kabi qo‘llaring, dudoqlaring,

Ko‘zlarim yoshlanmasdan boqolmam bolalarga
Va go‘yo dushmaniman barcha o‘yinchoqlarning,

Xayolimdan o‘tmoqda tark etilgan ozod, hur,
Boshimda shovullashi ko‘p uzun teraklarning,

Oldingdan o‘tib ketgan inson emas mashina,
Qayda issig‘i bizning ko‘cha-yu so‘qmoqlarning?!

Ichmoq ne xush bo‘lardi hayotni ko‘zlaringdan
Shunday bir ilk bahorda, ostingda laylaklaring,

Muhaqqaq menikidir, uyqungda zamon-zamon
Uzoqdan bir qichqiriq eshitsa quloqlaring.

O‘ZDAMIR OSAF

(1923–1981)

ALTRO

Qo‘shiq kuylarmishman
Ko‘chalarda,
Ko‘rganmishlar,
Yurganda boqarmishman
Doim yerga,
Eshitganmishlar.
Keyingisini o‘zlari to‘qiganlar.

PAY

Men yaltir-yultir kema edim avvaldan,
Inonardim saodatli safarlarga.
O‘ylardimki, xonalar bor quyoshli, moviy dardsiz,
Butun shiddatim bilan chopardim dolg‘alarga,
O‘sha vaqt meni ko‘rsaydingiz.

Men piril-piril kema edim qadimdan,
Ko‘rsaydingiz meni ul zamon,
Chopardingiz siz ham ortimdan.

Ammo hozir shu oqshom paytida
So‘nggi port o‘zim, bu aylanishim,
Bilgan, topgan, eslagan.
Xotiramda bir vaqtlar kulganim,
Yo‘lingga jon poyandoz etib qochganim.

Hozir, shu oqshom mahalida
Kezmoqdaman ko‘rgan-kechirgan, anglatgan
Dengizlarning to‘ymagan sohilida.

ORIF TOMIR

(1925-yilda tug‘ilgan)

ERTADAN TEZI YO‘Q

Men ekinzordan yolg‘iz boshoqmanmi
Yoki dengizdagi baliqmanmi?
Bu esgan qay tur yel yaproqdan suvdan
Poyrazgami[1] o‘girdi havo?

Ko‘rishim kerak bo‘lmagan yomon kunlar kechdimi,
Mashaqqatga mashaqqat, og‘riqqa dard qo‘shdimmi?
Bu yo‘l u yo‘l emasmi, so‘zlayin axir,
Men tushgan bu yo‘l hurlik yo‘lidir!

YO‘L HORG‘INI

Menga bir turku o‘rgat,
Oy yorug‘ida kuylayin,
Tun qorong‘usida kuylayin,
Yog‘gach yomg‘irlar kuylayin,
Uyg‘ongach diyor, yer, qirlar kuylayin,
Menga bir turku o‘zga yilda tug‘ilgan.

Menga bir turku o‘rgat,
Birga bo‘lgach kuylayin,
Ayri qolgach kuylayin,
Seni unutgach kuylayin.

Menga bir turku o‘rgat,
Kelgan joylarimga o‘t qayta olsam,

[1] **Poyraz** — joy nomi.

Seva olsam har neni qaytadan sensiz,
Sensiz voz kecha olsam.

Kecha demasam, kunduz demasam,
Kimsalarni tinglamasam,
Ham yursam, ham kuylasam,
Ham kuylasam, ham yursam!

BAKIR SIDQIY ERDO‘G‘AN

(1926-yilda tug‘ilgan)

MARIYA

Jim edi “Anodir Layf” kazinosi,
Jim edi qo‘shiqlar...
Bo‘yoqlarimda rang, mo‘yqalamda shakl jimidi
Va bu kecha birinchi bor shimol ko‘rfazida
Jim edi“Piramos” burg‘ularidan, sozlaridan,
Shaharga darcha-darcha to‘kilgan ariya...
Endi na toifalar mavjud, na “Komandos Bar”,
Na o‘sha qo‘r tanli, qizil sochli kanarya.
Bu issiq o‘lkaning kimsasiz kechasida
Chulg‘adi bambuk qamishlarin pushaymon sukut,
To‘lg‘adi bir sirqiroq og‘riq...
Ba’zan birdan butun atrofimizni
Sarsari bir shubha o‘rar-ku,
Xuddi shunday barbod bir hol bor.
Hech narsa tushunmoq istamayman, yo‘q, hech narsa.
Ammo to‘rtinchi kuzatuv mezanasida
Bir shubhali xabar belgisi bor:
Ska-lar-ya!
Yo‘q, yo‘q! Bularning barchasi yolg‘on!
Endi na bashoratga ishonaman, na folga;
Yolg‘on aytar ul folchi ayol, u hindlik quvg‘in!
Men faqat senga ishonaman,
Yolg‘iz senga, Mariya!

Meni la’natlar shunday har kecha
Bu dag‘al yulduzlar, bu sir, bu ummon
Va ko‘kda omonat turgan shu osma chiroq...
Inonki, sevimli Mariya!
Inonki, sen ketgandan buyon

Ne bo‘lsa barchasi begona!
Ne bo‘lsa hammasi kadar
Va bari yelkamda chorasiz bir yuk
Va barchasi majburiy ishlar...

Bilaman, bu tong quyosh bilan birga
Bug‘ kema langar tashlar bu nonko‘r limanga;
Poluning abadiy motamiga qaramasdan,
Virjini bo‘lish mumkin bu kemada!
Bahorda kelaman der eding, qani?
Kel endi, kutasan yana nimani?
Mana, fasli bahor, gullar chamani!

Mo‘yqalamim nega titrar, bilasanmi?
Nechun barcha suratimda fon, ohang sap-sariq?
Anglaysanmi, yo‘qmi, qo‘zim?
Barcha qog‘ozlarga singgan fahm aylaysan...
Bu tropik zahar, bu surunkali bezgak.

Sensiz qanday bo‘m-bo‘sh bandargoh,
Sensiz qanchalar kimsasiz shahar...
Qism navbatchilarin ko‘z o‘ngida
O‘marar qishloqdan yulduz birma-bir,
Yana qancha yosh yunon matros o‘tyurak
Ammo kim o‘ylaydi yulduzlarni?
Yuzboshi Arnoldni urgan yerliklar:
Qayg‘u-motam ichra butun batareya.
Bu insonlar, bu yulduzlar, bu ko‘k, bu yer
Birma-bir g‘oyib bo‘lganmiz.
Qanday, yig‘layapsanmi, Mariya?
Ko‘zlaringni art, qani, yoshingni sidir, bolam,
Bizning yo‘qligimizdan ne foyda?
Ishqimiz bor-ku!..

NOZANIN

Bir yor sevdim, etaklari yeldirmoq,
Yeldirar sollana-sollana kofir...
Sekin dedim, kimsalarga bildirma!
Bildirar sollana-sollana kofir...

Og‘uga duch keldim endi chor-nochor,
Men undan qocholmam, u mendan qochar,
Yig‘lasam, makkora qarshimda duchor,
Kuldirar sollana-sollana kofir...

Hisobni-kitobni yo‘qotdim ko‘pdan...
Oddiy ishva emas, balodir haqdan!
Esimga tushdimi, kecha yotoqdan
Ko‘tarar sollana-sollana kofir...

U chashmaga kelur, sabrim so‘ng hadda,
Jilva kitobiga kirmas bu modda!
Bir kichik ko‘zani yarim soatda
To‘ldirar sollana-sollana kofir...

Sidqim bo‘lgan bo‘lmish bizga olamda,
Oshiqqa qutulish yo‘qdir bu damda!
Ko‘rmasam o‘larman, lekin ko‘rsam-da,
O‘ldirar sollana-sollana kofir!..

GULTEKIN SOMANO‘G‘LI

(1927-yilda tug‘ilgan)

KO‘Z OYDINLAR BILAN

Teginmoqdan, hidlamoqdan, tuymoqdan nari
Yakunlamoq ne go‘zal ko‘zlardagi haroratga
Endi ortiq bir chechaksan; nurga do‘ngan
Va qo‘llaring, quloqlaring, qalbing-la ulkan;
Ko‘zlaring-la yolg‘iz, ko‘zlaring-la go‘daksan.
Og‘rinmoqning achchiq qorong‘usida mahrum,
Tutma-tutilma, yo‘q, so‘rma ko‘rilganni.
Ko‘rki sassiz yig‘laganni, sassiz kulganni.
Uzansin kechaga, bugun bo‘lmasa, ertaga
Senga aytilganlar, sen aytganlaring...
Qarshimga o‘tgan barcha g‘am-qayg‘ular
Qirq yillik do‘st kabi yuzimga kular,
Xullas, har ne aksi, har ne yorim,
Izladim, joyida yo‘q kitoblarim,
Kechagi gazetani bugun ham olgandim;
Ortiq og‘rir qo‘lim, qo‘ltig‘im, yo‘q, bag‘rim...

EHTIROS

“Kelishga-ku kelar, ammo biroq
Ketib qolar”, — deya yonmoq behuda;
Kutganing kelmayapti qandaydir.
Oyoq ovozidir o‘rnida ko‘chgan,
Qalam tutgan qo‘l, befahm sarxush;
Qog‘oz, onadan tug‘ma uzrli.
“Kelar-o‘tar” deya ovunmoq bekor,
Kutmaganing, istamaganing
Kelib qolgach nafas-nafasga,

Barcha kuzatishlar unutuvchi
Va birdan qarshingdan chiquvchi.
Burilishlar, enishlar, o‘r-qirlar...
Ifloslangan nodir fursatlar...
Qaytara olsang, qaytar,
“Aytdim, bo‘ldi”, — deya sevinmoq bekor.
Ora-sira bo‘lsa ham to‘xtamagan
Zamonni qo‘yib berib, eng uchar
Havasni, maylni emizgan ehtirosdir.

AVVAL QO‘LLARING

Avval qo‘llaring kirdi dunyomga,
Kel degan, sila degàn qo‘llaring:
Chorasiz asir etgan insonni
O‘l degan, tiril–yasha degan qo‘llaring.

Qo‘llaringda ko‘rdim kadarimni;
Ko‘nglim g‘ijimligi shundandir,
Kaftga oldi parishon qalbimni,
Qonimning issiqligi shundandir.

Avval qo‘llaring kirdi deyman,
Avval qo‘llaring angladi biroz,
Eng jo‘mard silashlar qanday qilib,
Qanday qilib sevar, shoir sevsa?
Ul go‘zal qo‘llaringdan so‘ra biroz!..

DARAXTLAR TIK TURIB O‘LADILAR

Daraxtlar yechinar birma-bir,
Naq qalbing ustiga tushar bir yaproq.
Tutki, sen shoirsan, turmassan qarab,
Imdodga chaqirar mahbub san’ati,

Bilgan she'rlaringni, balki, yuz karra
Aytarsan, yig'larsan; so'ngra qaytarsan
Dalli chog'laringga orzu-umid-la...

Faslga yarashgan eng bo'sh bayt ila:
Vaqtga "to'xta" demoq bordir,
Ustingga yog'ilgach bedor bulutlar.
Bir yasoq jannatga mengzab har yonni,
Yana o'zing kengayt ichki dunyongni.

Mana shox, men yaproq sen birla egik,
Fig'onli g'azallarga yuraging ezgin.
Kuladi yuzingga chiqmasdan quyosh.
Totli xayollarni supurar farrosh,
Taroq solinganday sap-sariq sochlar.

Ilmasdan burjlarga taslim bayrog'in,
Aytilajak so'nggi so'zga xush o'rnak;
Daraxtlarga o'xshab tik turib o'lmak!..

AHMAD TO‘FON SHANTURK

(1927-yilda tug‘ilgan)

O‘LMAGAYMAN

Behad tiniq osmon, yam-yashil tog‘lar,
Qushlar, kapalaklar, chechaklar, bog‘lar,
Chug‘ur-chug‘ur o‘ynab-kulgan bolalar,
Go‘zallar, xunuklar, nogironlar, bemorlar.
Barchasini jondan, ko‘nguldan sevdim,
Ayrila olmayman, u mening parcham,
Menda sevib urgan yurak bordir,
Ko‘ruvchi ko‘zlarim, tinglovchi qulog‘im,
O‘ylovchi boshim, so‘ylovchi tilim bordir,
Ko‘rgayman, eshitgayman, sevgayman,
O‘ldirsalar hatto o‘lmagayman...
Bo‘lar meni sevsangiz ham, sevmasangiz ham,
Men sevaman-ku, shu menga yetar.
Och bilan och, to‘q bilan to‘q, baxtli bilan baxtliman,
Kulgan bilan kulgan, yig‘lagan bilan yig‘lagan,
Xastalar bilan xasta, o‘lganlar bilan o‘lgan menman.
Yo‘q, yo‘q, o‘lgach yashagan yashaydigan yashovchi,
Ulkan koinot qadar yuragim, ko‘nglim
Sevgi sevgan sayin yuksalur, haqiqat shudir,
Hosildor tuproq o‘rnagi,
O‘ldirsalar, hatto o‘lmagayman...

Qurol-yarog‘ ishlatmoqni bilaman,
Ammo ishlatmayman, hatto tutmayman,
Faqat sevgi–ezgu urug‘lar ekdim olamga,
Suvsiz, yomg‘irsiz qolsa ham, yashnatgayman.
Sevmoq, sevilmoq, yashamoq bor ekan,
O‘lmoq-o‘ldirmoq, urushmoq ne darkor ekan?!
Nafrat o‘rniga muhabbat,

Qo‘rquv o‘rniga ishonch, saxovat, oqibat,
Ko‘ngullardan barcha yomonlikni quvgayman!
Ko‘rgayman, tinglagayman, sevgayman!
O‘ldirsalar hatto, o‘lmagayman,
O‘lmagayman, o‘lmagayman...

OTAJONIM

“Qishloq buzog‘i ho‘kiz,
Qishloq bolasi janob bo‘lmas”, — derdingiz,
Men uzun qish kechalari
Doim shunday masal tinglardim.
“O‘g‘lim, qishloq bolasi janob bo‘lmas”, — derdingiz.

O‘roq qanday ushlanur, ekinzor qanday haydalur,
Choriq qanday tikilur bilardim-u,
Yozuv qanday yozilur bilmasdim.
Xirmon yanchib, bug‘doy sovurib, g‘alvir o‘girib,
Dona bir tomon, somon bir yon ayrilgach,
Qanday sevinardim...

Opam g‘alvirda uyurar, sovurar,
Onam donga ajratardi bir chetdan,
Siz somon bosardingiz, otajonim,
Men bug‘doy tortmoqni xush ko‘rardim.

“Ro‘molchamni yel olardi,
Bir yor sevsam, qo‘l olardi”.
Uzumni, shinnini, bug‘doyni qarzga to‘lardik,
Bizga arpa, sirka, somon qolardi.

Yog‘ tusin ko‘rmasdik qish bo‘yi,
Har kun dasturxonda bir xil taom:
Qurtoba, zog‘ora non,
Bug‘doy tortilmasdi tegirmonda,

Hatto boylar yerdilar arpa non,
Bayramdan bayramga bir oq non ko‘rardik.
Ekinzor oz, bog‘imiz kichik,
Qarzimiz ko‘p, dardimiz ko‘p,
“Otajonim, baribir, o‘qiyman”, — derdim.

“Qishloq buzog‘i ho‘kiz bo‘lmas,
Qishloq bolasi janob bo‘lmas”,
Askarlikda o‘nboshi bo‘ldim,
Izmirda ishboshi.

Yetti farzand otasiman,
Allohga ming shukur, o‘g‘lim,
Harom yemadim, hilla qilmadim,
Yomon so‘z so‘zlatmadim o‘zimga.

Mana, keldim, ketmoqdaman,
“Suyagimni sirqiratma mozorimda”, — derdingiz,
Nur ichra yot, otajonim, nur ichra yot,
“Sabr-la g‘o‘ra halvo, tut bargi atlas”, ammo
Aytganingizday emas ekan bu hayot...

MENI DO‘STLARIM O‘LDIRAR

Do‘st-dushman oldimda yurar,
Bilmadim asl do‘stni,
Do‘stlarning jonimga qasdi,
Meni do‘stlarim o‘ldirar.

Og‘amsan, qardoshimsan der,
Kularoq qalbimga kirar,
Pinhona iching-iching yer,
Meni do‘stlarim o‘ldirar.

Sevmoq emas, go‘yo topinar,
Uzatsam, qo‘limni o‘par,

Bir kun meni shoshib qiynab
Mutlaq do‘stlarim o‘ldirar.

Eski bu dardga yo‘q iloj,
Etma boshga kimsani toj,
Senga do‘stim degandan qoch,
Seni do‘stlaring o‘ldirar!

KIM

Bu dunyoga kelgan men,
“Kel” degan kim? “Ket” degan kim?
“Sotgan” menman, “olgan” men,
“Ol” degan kim? “Sot” degan kim?
Marosimimni o‘tkazding, motamimni,
O‘zim bichdim kafanimni,
Tuproqdan nozik tanimni
“Bor” etgan kim, “yo‘q” etgan kim?
Boqardim, ammo ko‘r edim men,
Do‘stni do‘stimdan so‘rdim men,
Haqni ma’noda ko‘rdim men,
Ko‘ringan kim? Ko‘rgan kim?
Yiqilganni ayab ko‘tardim,
Yig‘laganni kuldirdim,
Jumla bo‘shlarni to‘ldirdim,
To‘ldirgan kim? To‘lgan kim?
Qaramang aytilgan so‘zga,
Ilhom bo‘ldi ko‘nglimizga,
Yunus “kel” dedi bizga,
“Kel” degan kim, ketgan kim?
Na yuksakka, na tubanga,
To‘fon jo‘shib toshding yana,
Anglat o‘zingni o‘zingga,
Sen kimsan, izlaganing kim?

NURIDDIN O‘ZTEMIR

(1927-yilda tug‘ilgan)

DOSTONLAR ICHINDA AZIZIYA

Bu oqshom yashamoq qadar har narsa go‘zal,
Bu oqshom ko‘k moviy, uchar yulduzlar.
Chuqur-chuqur nafas olar tuproq,
Vatan so‘zlashadi, vatan so‘zlar.

Vatan so‘zlar yoniq rangin lavhalardan;
Qator tog‘lar tilga kelar navbati bilan.
Shoxlangan bir zafar turkusi kabi
Dostonlar ichinda Aziziya.

Dostonlar ichinda Aziziya, Kiramatli, Arzirum,
Dostonlar ichinda va uzun tushda yashayotganday,
Shavq-la yashar eng buyuk va eng go‘zal haqiqatni
Shahid ruhlar bilan yolg‘iz-yolg‘iz komillarimiz
Bir hovur tuproq ustida so‘zlashar
Bu oqshom mauzerlarimiz[1],
Bu oqshom mauzerlarimiz, tishimiz, tirnog‘imiz,
Bu oqshom “takbir” ovozlari va jumla borlig‘imiz,
Keksamiz, yoshimiz, qizimiz, o‘g‘lonimiz
Vatan yo‘lida qo‘lni ko‘ksimizga qo‘yib hozir hushyor,
Bu oqshom toshi ila tuprog‘i ila, so‘zlagan
Bir qahramonni tingladik.

[1] **Mauzer** — to‘pponcha.

VATAN

Vatan,
Antaliyada moviy suv.
Posofda don ekinzori,
Kumushxonada bir yam-yashil bog‘.
Vatan,
Sivas yaylovida,
Yulduz boqishlari ila oydinlangan.
Kimsasiz bir kechadir,
Vatan.
Kelkitda bir qardosh mozori,
Zo‘ngultakda bir ma’dan ishchisi,
Rizada choy yig‘uvchi bir kelin,
Va joynamozda namoz o‘quvchi keksa bir ona.
Vatan,
Oydin tabassumi ila Aslixon,
Va shaffof boqishlari ila Aminadir.
Vatan,
Jaylonpinarda bir inja jaylon.
Edirnada inja bir minoradir
Vatan.
Hudud bo‘ylarida dolg‘alangan,
Go‘zal bayrog‘imizda,
To‘lqin-to‘lqindir
Vatan.
Jajji qo‘llaring hovuchingda,
Oddiy bir siqim tuproq emas qo‘zichog‘im.
Tuproq bilan ulg‘aygan muqaddas o‘y-tushunchadir.

UZOQ ISTANBUL

Bu moviylikni bilaman, bo‘g‘ozdan,
Qanday go‘zal yarashgan ko‘zlaringizga.
Bu yashillik “Mirgyu” chinorlaridan
Shundoqqina qanot yozmish dengizga.

Saraton issig‘i, balki, sariqlik —
“Kichik suv”ning tutashgan yonbag‘rida,
Ehtimol, uchishgan kuz yaproqlari
Uyquning oltin shamolida.

Tug‘rosida edi bu nur Fotihning,
Endi qarashlarin oydinlatgan
Bu shamol doim esardi Chamlijada,
Bizga yoshlik kunlarimizni xotirlatgan,
Har holing bir joyning go‘zalligidir.
Bu boqish… bu ko‘ks… bu dudoq… bu yel,
Bu ichimda ulg‘aygan sog‘inchingdir,
Istanbul kabisan… uzoq va go‘zal!

TURGUT UYAR

(1927–1985)

TURKIYAM

Seni sevdim butun vujudim bilan,
Edirnadan to Karsga qadar,
Tuprog‘ingni, tog‘-u toshingni
Madh ayladim qurbim yetgunga qadar.

Sen Vatanimsan, ekinimsan,
Tuyganim-bilganim zafarimsan,
Zo‘nguldakda 63 raqamdan,
Nozli sohillarim Oq dengizda,
Laxta-laxta aylar g‘amlaring jigarimni,
Yarim qolgan tilagimsan...

Sen Ko‘chhisorda tuzim,
Sillada qizim...
Juft quloqli Syurmana pichog‘i belimda.
Borgandim yaxna go‘sht yemoqqa Adanaga,
Dodalo‘g‘lidan bir saxovat tushimda:
— Shu yolg‘on dunyoga keldim, kelgandan buyon...
Hey Vatanim, opam, xolam, kuyovjo‘ram, amakim,
Sendan bir yara har joyimda,
Dastaga kurashdim Qirqpinarda.
To‘xtab hordiq chiqardim,
Bir oqshom payti
To‘rt piyola achchiq choy bilan Arzurumda...
O‘rdaxonga bordim, yo‘llar uzaygan,
Bul berdi, yo‘l burmadi tog‘lar.
— Tangri to‘rt yonini bezagan
Qo‘nyolik qiz ekan meni yoqqan,
Seni sevdim, bepoyon Vatan,

To Adrina qadar Karsdan,
Tuprog'ingni, toshingni, botiringni,
Madh ayladim qurbim yetguncha qadringni.

KO'KKA BOQISH QARORGOHI

Ikkimiz birdan sevinamiz, ko'kka boqaylik,
Shu sirli nurlardan, shu shakarqamishlardan,
Go'dak tishlaridan, quyoshlardan, yobon o'tlaridan
To'xtovsiz sarf etganim — shu ko'zlarimni ol, qutqar,
Shu izlanib turgan qo'llarimni tut,
Bu uylardan o't, u uylardan ham, bulardan ham,
Ko'kka boqaylik.

Falon qarorgohga endi kelamiz, ko'kka boqaylik,
Enajak bor deymiz ulovda enamiz,
Bu qorong'ulik shunchalar yaxshi mehribon Tangriga,
Har kim uxlasin, xush bo'lur, xush bo'lurman— shod,
O'g'rilar, polislar, ochlar, to'qlar uxlasin,
Har kim uxlasin, bir seni uxlatmayman,
Bir o'zim uxlamayman.
Hech kim yo'q ekan, biz bo'lamiz bedor,
Qandaydir sarxushmiz, har qalay, so'zlashamiz ko'chada,
Meni qo'yaver, ko'kka boqaylik.

Sening bu qo'llaringda ne bor — bilmayman,
ko'kka boqaylik,
Tutgach kuchlanaman, g'uj bo'lamiz,
Bu sening qadim zamon ko'zlaring— yolg'iz kabi,
og'ochlar kabi,
Suvlarim isisin deya boqaman,
Seni bu noxush joyga keltirdim.
Bor edi behisob derazang, bekitdim birma-bir,
Menga qaytarsan deb bir-bir bekitdim,
Endi avtobus kelur, ketamiz minib,

Biz qaytmaydigan bir yer tanla— boshqa xili mushkul,
Bir qo'llaring, bir qo'llarim kifoya, aniqlaylik, yetsin,
Seni oldim o'zimga ajratdim, turma, o'zingni eslat,
To'xtama, o'zingni xotirlat,
Turma, to'xtama, ko'kka boqaylik.

BEVAQT UYQULARDAN

Bevaqt uyqulardan uyg'otgin meni,
Yer uzra yer, ko'k uzra ko'k,
Hozir har kim kezgan bu yerda
Bir qishloq tushligini dag'alroq yashayman.
Cho'zilib ketmoqda horg'in yuk mashinasi,
Aslo senga nima dema, aslo dema,
Osmon tuproq, dengiz bo'lgan har joyda,
Demakki, insonlarga yurt bo'lgan har joyda
Soat oti teng barobar har joyda,
Xo'roz bir xil qichqirar har joyda,
Qo'yma meni bevaqt mutlaqo,
Uyg'ot, chirigimni bir-bir tozala,
Eng dag'al ovozda baqir,
Eng mushkul tavr ol,
Qoyani chiqargandik tepaga qadar
Mayda-mayda bir narsa
Ko'targan kabi.

AHMAD ORIF

(1927–1991)

SOG‘INCHINGDAN KISHANLARNI TO‘ZDIRDIM

Seni anglata olmoq
Yaxshi bolalarga, qahramonlarga,
Seni anglata olmoq seni,
Holini bilmas nomussizga,
Sotqinga, soxtaga.
Birin-ketin qancha ayoz, qish
Qurt uxlar, qush uxlar, zindon uxlardi.
Tashqarida guvullagan bir dunyo...
Faqat men uxlamadim,
Qancha kecham bahor,
Hasratingda kishanlarni to‘zitdim,
Sog‘inchingda g‘ovlarni yengdim.
Sochlaringga qon gullari taqayin
bir u yona,
bir bu yona...
Seni chaqira olsam, seni,
Ismingni hayqira olsam
Tubsiz quduqlarga,
Oqqan yulduzga,
Bir gugurt cho‘piga borganga,
Ummonning eng kimsasiz dolg‘asiga
Tushgan bir gugurt cho‘piga
Yo‘qotgan tilsimini ilk sevgilarning,
Yo‘qotgan bo‘salarni,
Hissasi yo‘q, tuyqusdan engan oqshomdan
Bir qadah, bir jonga, tolib ketganga
Seni anglata olsam, seni...
Yo‘qlikning, jahannamning boshqa otidir,
Junjikaman, bekitma ko‘zlaringni...

OYXON XYUNALP

(1927-yilda tug‘ilgan)

NE QOLUR ORTDA

Qadimiy sharqi jaranglar quloqlaringda,
Avvalgi bir ishqni xotirlarsan nogahon.
Ochlik turar yillarning soyasida,
Uzanur bir kema murvatida.
Chag‘alaylar arg‘uvonlar sohil bo‘ylari,
Bandargohda matros balkonda o‘sha qiz.
Ovoz bersang eshitgudek,
Uzatsang sochiga tegar qo‘llaring.
Chaqmoqli kechadan so‘nggi saboqda,
G‘oyib bo‘lib ketar ovozing.
Yaratgan dunyoni sharqili yaratar,
Uni sharqisiz aylagan insonlardir.
Bir bug‘ kema tortgan na’rasini,
Olar xulyongdan — taxayyulingdan.
Ne qolur ortda parchalangan dunyongdan,
Har yangi mayyit
Eskisiga salomdir
Yashayotganlardan.

BULUTLAR

Bir qasabam bor edi qadimdan
Sariq suvlariga
Yashil soyalar tushgan
Sariq suvlarida
Oq o‘rdaklar suzgan
Bir irmoq o‘tardi ichidan
Bir qasabam bor edi qadimdan

Boshimga mevalar tushardi daraxtlaridan
Giyohlariga ko‘milardi oyoqlarim
Chinorlarida ismim
Ko‘klarida varraklarim bor edi
Qasabam
Irmoq
Va barcha aytganlarim
Turibdi o‘z o‘rnida
Faqat yo‘qotgan bir narsa bor
Ajralgan qo‘llarimdan.

METIN ELO‘G‘LI

(1927–1985)

TOG‘A

Avvalgi baraka qolmadi she’rlarda;
Hikoyasi nihoyasiz uzundir.
Ammo zarur ekan, mayli, afandim,
Hurriyat bo‘lgach, bu mamlakatda
Hukmronlik ulusningdir!

El yer haydar, quduq qazar;
Ulus inja inju elar, tig‘iz to‘qir...
Masalan?
Masalan, she’r yozar.

Totli jonimga qiyib bir yo‘l o‘yladim;
Yetmadi, yana o‘yladim:
Xomani siyohga botirib
Mana bu she’rni bitib so‘yladim:

Alifimning uyida
Pardalar ulkan,
Goh isitar, goh so‘ldirar ashyoni
Eng go‘zal quyosh.

Alifimning aqlida
Bir boyning uyi,
Ko‘pik desammi yo mehmonxona
Barcha yotoqlar yoyli.

Alifimning ko‘nglida
Savdolar turli-turli,
O‘tirmish, tirnoq kesar
Qo‘shnining o‘g‘li.

Alifimning tog‘asi esa,
Aksincha, hurriyatga oshiq,
Yozuvlar yozar, chizmalar chizar
Eh, bevafo yoshlik!

MYUZXAT ARMAN

(1928–1996)

HASHAR

Ekinzordan hosil ko‘tarmoqqa,
Yetim-yo‘qsul tolin yopmoqqa,
Qishlik o‘tin uchun tog‘ga
Va jomi devorining g‘ishtini termoqqa.

Pir Hoji Bektoshdan, Hoji Bayrami Valiydan beri
Onado‘lining keksa-yoshi, ayoli-eri
Quloq solib ko‘ngul sasiga,
Hasharni bosh vazifa va savob bilar, aslida!

Va mana hozir ham kelgan gal,
O‘tmish va kelajakning eng mushkul ishiga,
Eng qudsol hashariga;
Yetti davlatga qarshi turmoqqa!

Oziqlarni mavjud pullariga ko‘ra,
Yigirma tuxum, bir o‘ram pishloq va o‘nta non...
Uch eski avtomobil bilan qishda, qorda,
Yo‘lga tusharoq Sivasdan...
Qaysarni, Hojibektosh, Mujur, Qirshahar, Kamon[1],
Toldiruvchi bir safardan so‘ngra, besh kun davom etgan,
(Poshoning so‘zi ila):
— Chin dildan, otashin yurtsevarlik ko‘rsatishlari
Ichida buyuk ulusimizning
Ohi Anqaraga kirgan
Hay’ati Tamsiliya Raisi Mustafo Kamolning
Yo‘l bo‘ylab qishloqlik, shaharlik, xalqda ko‘rgani

[1] **Sivas, Qaysar, Hojibektosh, Mujur, Qirshahar, Kamon** — shahar va qasaba nomlari.

va so‘ngra
Nutqida ham quvonch-la bildirgan
Uzun-uzun,
Bir ovoz, bir yurak...
Birlik va hamdamlik edi, zotan,
Hasharga moyil Onado‘lida qal’a-qal’a,
mahalla-mahalla
Dostoniy kuch-qudrat va quvvatga
aylanaroq
Hurriyatni saqlovchi, o‘nglovchi turkka
Va qaydsiz, shartsiz hukmronlik keltirgan!

ADIB JONSEVAR

(1928–1986)

PORTLASH

Men ketgach huzunlar qoldiraman,
Bu sening yashashingdir.
Bir uy sog‘inar ayollar ichra,
Bir odam sog‘inar ayollar ichra,
Seni sevmoq bu qadarmi?
Bu mening yashashimdir.
Ba’zida bir joyda qushlar bor,
Na uchmoq na ko‘rinmoq uchun.
Bir chinnigul derazani teshgudek,
Bir eshik o‘z-o‘zidan yopilur.
Istasak sevishardik, ammo bo‘lmadi,
Biz emas yashovchan og‘riqlar, dardlar,
Biroz bordir har joyga borsam,
Xotirada zamonsiz shikoyat, sog‘inch.
Bir otel eshigi necha bekat,
Bordir o‘sha sen bilan birga bo‘lmoqqa.
Topishar ko‘p uzoqdan qo‘llarimiz,
Va qanday yuzma-yuzmiz nogoh bir portlash!

MEDUZA

Nojiyga

Teran, sassiz, bunchalar yaxshi,
Kuz, jasadlarin qoldirgan qushlar,
Joy qolmadi og‘riqqa o‘lkamizda,
Teran, sassiz, shunchalar yaxshi,
Kun o‘rtasi g‘ira-shira boqishlar.

Bir topishuv joyidir endi huzunlarimiz,
Biz ul rangsiz, ul yolg‘iz,
ul o‘suvchan surgun meduzalar.
Oshar so‘zlarimizni torta ketamiz,
O‘lkamiz, tuprog‘imiz, har narsamiz,
Jomlardan toshgan quyuq bo‘zalar.

O‘tamiz yer yuzini qayg‘usiz oyoqlar bilan,
Qobog‘imiz bir yomg‘ir vazniga solinar.
So‘ngra hech anglamasdan ichkilik qanday tez tugar,
Qancha so‘zlashsak, shuncha sassizlik bo‘lur,
Ismimizni so‘raymiz biridan, u bizga ismin aytar,
Otimizni aytarmiz biriga, u bizga otin aytar.

ARJUMAND UCHARIY

(1928-yilda tug‘ilgan)

UD

Men yashasam udlar kabi yashayman,
Qadim zamonlarda gul bog‘chalarida
Bir o‘rmon oydinligini keltirar mevalar
Ishqin yegan nafarmon og‘zingdan.

Men ko‘zlarini sevaman jayronlarning,
Qalbimni tuyaman, baliqlar bo‘g‘ilib og‘ir,
Og‘ir nafas olgach qirg‘oqlarda
Xonim qo‘llarin — chirmovuqlarni,
qo‘ziqorin, qo‘zi gullarni,
Unutilgan ishqlarni, dalalarni.

Men qo‘llarimni sevaman tong-la uyg‘ongach,
Sehrli ertaklar orolida
Eng erta qalqqan kema mening
Yellarimda dengiz qizlari.

SEHR-JODU

Avval sochlaringni kesish kerak edi dengiz yuzli bolalar,
Sartaroshlar oldidan qochib kechalari.
Ko‘k yuziga xo‘rozlar tekkan joydan,
Yonoqlardan bo‘sa olgan shamol kabi bo‘zalar.
Kim kimni o‘polsa ul go‘zal bo‘lur,
Moviy dalalarni eslaymiz bozor kunlari.
Hujralarimizda bu oqshom keksa zinalarda yashaymiz,
Qo‘llarimda eng go‘zal xonalari og‘zingning.
Mog‘oralardan bir gul otashli va muattar,
Avval qo‘llaring suvlariga fil tishli taroq taqaman.

SAKKIZINCHI MEN

Saboh tusin beraman yuzimga,
Shisha guldoni ko‘p bo‘lganidan uyda.
Qaysiga qay gulni,
Qo‘ymoqqa hayronman.
Moviy shisha guldonga yasminlarni qo‘ymoq zarur,
Qirmiz shisha idishga gravyuralarni.
Zangori guldonga moychechaklarni,
Sarig‘iga atirgullarni,
Qahvarang gul idishga binafshalarni,
Yashil guldonga chinnigullarni,
Qirmiz guldonga nilufar lola.
Ip kabi hatlasam,
Joyimdan turib chechaklarga.
Tillaqo‘ng‘iz savdosi kabidir shisha holim,
Savdosi tillaqo‘ng‘iz foydali,
Rayhon qadar yashil ovozi bilan.

ALBATROS OTI BIR KUN KELGAY

Albatros oti bir kun kelgay,
Haydalgan dalalarning o‘rtasiga.
Qadimiy bir zamon ko‘chasi dengiz,
Pastga nuqul pastga qadar ko‘z qaroqlari.

Qo‘rquvning chechaklari,
Ichishning eng yomon vaqti sabuhiy.
Quyosh rasmi boshoq sarig‘i,
Eskirar ekan qadamlar ko‘paya-ko‘paya go‘zal.

Bir qadim zamon ko‘chasi,
Sutchilar ovozi, soat yetti-yu to‘rt.
Tarvuz ustiga chizilgan bir qayiq,
Savdoning yangi boqishi.

Eski bir zamon ko‘chasi,
Ko‘chmanchi qushlarning hayajonli uchishlarida.
Rangin bir ovoz,
Mazasi ketgan park o‘rindiqlarida.

Yolg‘izlikka to‘rt nola qo‘shib kelgan,
Atir savdosi sultoni attor.
Nay navosida sho‘rbaliqlar hidi,
Albatros oti kelgay bir kun.

NIYOZIY YILDIRIM GENCH USMONO‘G‘LI

(1929-yilda tug‘ilgan)

RUM G‘OZIYLARI

I

Ularki ot uzra umrlar bo‘yi
Turkning Rumga ketgan yo‘li bo‘ldilar.

O‘shal Onado‘lini Vatan aylagan
G‘oziylar, shahidlar qo‘li bo‘ldilar.

O‘g‘uz chinorining kun botishiga
Uzangan eng ko‘rkli toli bo‘ldilar...

Kufr diyorini yuvib-poklagan
Movarounnahrning seli bo‘ldilar.

Qay bir kun po‘rtana, qasirg‘a, bo‘ron...
Qay bir kun esa tong yeli bo‘ldilar.

Botil iqlimida diyori Rumning
Haq qilichin tutgan qo‘li bo‘ldilar.

Vatan ayladilar jon berib, yurtni,
Qon berib bayrog‘in oli bo‘ldilar.

Parishon etdilar fasodchilarni,
Ko‘ngul diyorining doli bo‘ldilar.

Tinchlik kunlarida esli, kamtarin,
Jang maydonlarida dalli bo‘ldilar.

Azonli, Qur'onli na'ralar aylab,
Islomning mardona tili bo'ldilar.

Ko'kslari har on va har nafasda
Rahmat nuri ila to'lug' bo'ldilar.

Har on xush ko'rdilar yaratilganni,
Yolg'iz Yaratganning quli bo'ldilar.

Ularki ham g'oziy, ham shahidlardir,
Aslo deyilmaslar o'lik bo'ldilar.

Payg'ambar qatinda Rum g'oziylari
Jannat ichra dag'i ulug' bo'ldilar.

Kecha arslonday tortgandi na'ra,
Bugun dostonlari qutlug' bo'ldilar.

II

Millatning shahidlar, g'oziylar qo'li,
Shan yulduzlari so'na bilmaslar.

Qutlug' onalardan tug'ilar, lokin
Vatandan o'zgani ona bilmaslar.

Va muborak Vatan bag'ridan o'zga
Bosh qo'yib yotajak siyna bilmaslar.

Qut olmish o'g'lining ot minganlari,
Izniqqa bormasdan ena bilmaslar.

Donishmand, Manguchak, Chabuk g'oziylar...
To'fonlar erurki, tina bilmaslar.

Izmir dengiz yo'lin tutar Chaqa Bey...
Manzilga yetmasdan do'na bilmaslar.

Ota o‘g‘il shonli Qilich Arslonlar,
Vaqt-u soat, kun-u oy, sana bilmaslar.

Sindirar belini ahli salibning,
Zerikmoq, og‘rinmoq, gina bilmaslar.

Tug‘arlar ufqiga qizil olmaning,
Kichkina shoxlarga qo‘na bilmaslar.

Tunadan tahorat olmaguncha to
Xotirjam chayina-yuva bilmaslar.

Hamda sanarlarki, Nil suvlaridan
Icha bilmaguncha qona bilmaslar.

Bularning barchasi avvalgilardir,
Jannatmakondirlar, yona bilmaslar.

III

Bo‘sh qolmas O‘g‘uzda arslon yotog‘i,
Qolar bo‘lsa, qilich yalina bilmas.

Soz kabi emasdir qilich degani,
Yalang‘och bo‘lmasdan chalina bilmas.

Dedilar: qaro yer asl qon ila
Sug‘orilmay Vatan olina bilmas.

Er qarindoshlarim, O‘rxon Bek o‘g‘lim,
So‘z-la xalqqa beklik qilina bilmas.

Oyoq bosganingiz yer baxti uchun
Fido bo‘lmay ildiz otila bilmas.

Yo shahid, yo g‘oziy bo‘linmaguncha
Hilol baxtingizga to‘lina bilmas.

Ey qo‘zichoqlarim, yosh g‘oziylarim,
Shul qal’alar lof-la olina bilmas.

Bostira olmasdan qo‘ng‘iroq sasin
Azonlar besh vaqt nafas olina bilmas.

G‘oziylar o‘limsiz xotiralardir,
Ko‘ngullardan aslo silina bilmas.

Oyqut Alp, Turg‘ut Alp, Oqchaqo‘ja Bey
Bilinmasdan Vatan bilina bilmas.

U ona yuragi, yor siynasidir...
O‘linur, ikkiga bo‘lina bilmas.

Iymon chaqmoqlari qilichlaringiz,
Mustahkam tutilgach, chalina bilmas.

O‘TMISHDAN KELAJAKKA

(Xalq qo‘shig‘i)

Bayrog‘im, qilichim, otim,
Dinim, tarixim, san’atim,
Mening ulug‘ koinotim
Qog‘oz-qalamga sig‘mas.

Har guldan bir shox-tol yetar,
Har davrdan bir hol yetar,
Har ufqdan bir ol yetar,
Jumlasini desam bo‘lmas.

G‘oya, yuraklar yong‘ini,
Lochin qushidir o‘ng‘uni,
Yuksakda izlar tengini,
Past-mayda shoxlarga qo‘nmas.

Ko‘ngullarimizda safo,
Yuraklarimizda vafo...
Ka’ba tominda ilk daf’a
Aytilgan azondagi haz...

Timsoli buyuk otimning,
Shox tomiri murodimning...
Suvlariga ajdodimning
Joynamoz solgan ul bo‘g‘oz.

Bir kun nasib etsa Xudo,
Besh vaqt bo‘linsa ado,
Fotihning Ayo Sofiyada
O‘qigani ilk bor namoz!

Nuh Nabiydan qolgan dunyo...
Sohibini bilgan dunyo...
Sezarga ko‘p kelgan dunyo...
Yovuz Sulton Salimga oz...

Chopuvchilar yo‘llar ochar,
Oltino‘rda ellar ochar,
Qizonlikda gullar ochar,
Balqonlarga chiqqanim yoz...

Kelsa gar “qo‘shni”ga jinnat[1],
Behuda aylama minnat,
Ey Saqaryodagi sunnat,
Ey Dumlipinardagi farz!

Gar bilmasang, yaxshilab bil,
Mening vasfimdir, ey g‘ofil,
Qiyomat kuni Isrofil
“Va... iza zulzilat-il arz!..”

[1] **Jinnat** — jinnilik, bexudlik.

MUSTAFO NAJOTIY QAROYER

(1929–1995)

ESHIKLAR

Men ko‘cha darvozasiman,
Fasllar ustimdan o‘tar,
Oldimdan siz.
Bir yasoq (taqiqlar) yechinur,
Bir yonimda qushlar, qushlar uchar.
Bir bilsangiz.

Men qorovul hushtaklaridan so‘ngra, bir eshik,
Qadam tovushlari keltirar sevinchimni,
Qadam tovushlari eltar.
Faqat kalitlar tuyar o‘ch-u kinimni;
Na bolalarim bo‘lur, na ayolim,
Yuragimda mixli fig‘onlar cho‘kkan.

Men mehmonxona eshigiman,
Do‘st-u yorlar bilan jon-jigar,
Soxta kulgulardan parishon;
Sizni bilmasam, dalli sanardim o‘zimni,
Bir-bir devorlardan so‘rang,
Men emas, yolg‘izligim so‘zlashgan.

Men, keng karyo‘la[1] yonida
Kechalari arqon bilan tortgan eshikman,
Kunduzlari shunchalar bezovta;
Og‘och bo‘lmoq qanday achchiq og‘riq, bilolmassiz,
Sevgan qozonar insonlar, seving!

[1] **Karyola** — kat, divan, karavot.

RANGLAR UYQUSI

Osmon, qushlar, shaftoli gullari,
Har kim o‘z turkusin chaqirar.
Gilam deb ham o‘tmang, odamlar,
Bizning ham uyqumiz kelar tunlari,
Bizning ham insoniy jihatimiz bor.
Telba aylovchi bir xush ko‘k bor ustimizda
Alvon o‘lkalari ayollarning
Va yuksak darvozalar.
G‘ira-shiralikning bir joyida
Uchburchaklar, elenslar,
o‘tkir burchakli uchburchaklar.
So‘ngra yirik shu’lalarni qo‘porar bir yel,
Bolalar esa nechun yashil yaproqlarni?..
To‘xtar aqlning bir go‘shasida,
Rasmlar qanchalar go‘zal,
To‘rt tarafi oyoq izlari.
Zang urar bir xonada uzun-uzun
Lo‘li alvonining ish soati,
Devorlar bir zavqlanur, bir jilmayur,
Bo‘shashi yaqin bir hovuzning,
Kalimalar, yarim hijolar, ovozlar...

Quyuq lojuvard bekatlardan so‘ngra
Qora suvlar va ko‘llar chetidan
Ohista ena olursan kechaga.
Ortiq og‘ochlarning shamolidan
Qo‘rqma va e’tibor et derazaga.

Chuqur, qorong‘u bir quduqda
Nam, ho‘l va yulduzli o‘pichlar
Ichinda balqqandur qayiqlar kabi
Savashar haqiqatlar bilan tushlar
Tuproqqa tushgan qor kabi.

Tunlar kelib langar tashlagan
O‘sha suvlar, o‘sha bandargoh,
O‘zgargan eshkaklar izi.
Xayolga kelgani, shubhasiz, qochmoq, ammo
To‘rt na’alga qoqilgan otdir saboh
Ki qolmas ortimizdan.

ISTANBUL DARVOZALARIDA

Dengiz sohilida to‘xtagan davr askarlari,
Oppoq otli odam cho‘mgan uzoqlarga,
Ko‘lmak suvlar ila ulg‘ayar o‘ylari.
Ishqning, sabohning, qalbning bulutlarida
ko‘k guldurasi:
— Mehmed, ilk ishing Istanbulni olmoq bo‘lar!
Oppoq otliq odam cho‘mgan uzoqlarga.

Kemalar bilan aylangan tog‘-u bog‘larni,
Uzun bir sukunat cho‘kmish teraklarga;
Ko‘k moviyligidan qo‘rqadigan bo‘lgan
Shox yashilligidan.
Aql va mantiq eshigidan nari
Shunday bir tong boshlaganki yelkanlardan,
Oqligin sig‘dirmas shafaqlari.
Bir may tongidan buyon erta va parvosiz,
Suv yuribdi shoxlarga va diyorlarga,
Bahor va zamon oqar tomirlardan.
Tuklari tikan-tikan sipohiylarning.
Moviy oydinlik ichra suzmoqda
Tepalar va inson farzandlari,
Mag‘ribga va baxtsiz ufqlarga.
Salom berur, alik olur
Edirnadan yo‘lga chiqqan arobalarga,
Bismillohga yo‘lmi tayanur?
Kechaning sassiz, qalin devorlarida

Porloq haqiqat, mo‘jiza kemalari
Yelkalar va dori tanalari ustida,
Bo‘yin egmasdan dengizga, kadarga, shamolga.

Ko‘rfazda kemalar tura tursin, nima bor?
Bir sas ketib-kelardi quloqlarga.
Qop-qora bir o‘y bizga qarshi, oshkor;
Jun va paxta toylari bilan to‘lgan
Nasoraning to‘rt bo‘lim kemasi,
Suvlarni chayqatmasdan kelar biri
Kecha oxirida.

Bir to‘p o‘q ochdi Qosimposho ustlaridan,
Panoh izladik shafaq va sukutni yirtgan tog‘larga.
Bizdan nari uyqusi qochgan hasharotlar,
Kadar va suvlar kichrayar oldimizda:
Ikkinchi snaryad qornidan o‘ydi ko‘p eshkakli kemani,
Ko‘rfazning qora suviga ko‘mildi, topolmadik,
Darg‘asi, matrosi, ekipaji necha pul?
Vaqt
Erishmoq uchun kechani to‘xtatmoq kerak,
— Nayzalarda mash’alalar ko‘tarilsin!
— Onalar, bugun uchun tug‘ildi mujohidlarim!
Namda temir cho‘g‘ kabi yancharlar, erkak;
Bir qo‘li havoda qoldi Is’hoq Beyning,
Orqasidan Ulubatli Hasan
Intildi suvlarda, yolvordi Ollohga.

Yetti tepa ustida kuchlar qasirg‘asi,
Uch sardor yo‘l olgan daryolarga;
Yetti minoradan, To‘pqopidan,
Edirna darbozasidan
Turdi davrlarning so‘ng halqasi,
Keldi, yiqildi o‘rta zamon;
Baxti ochiq,
Yuzi qora (quruq)lik.

Tong otmoqdami? Yulduzlar, bormisiz?
Nedir bu engan nur yaproqlarga?
Bir marta bo‘libman Fotihning o‘rdasida,
Yuribman yelkama-yelka sipohlar ila.
Devordagi fath lavhasida
Sollangan davrlar emas, tog‘lar emas faqat,
Shahid burjlar soyasi urgan bayroqlarga.

KARIM OYDIN ERDAM

(1930-yilda tug‘ilgan)

OSHIQLAR SHUNDAY SO‘ZLAR

Gul yaprog‘idan nishon oldilar,
Yor, soch tolang torlaridan urildim.
Sen ayvon gullari yonida turding,
Onalar oydin boqdi ortimizdan,
Yirik nilufariy tabassumda ulg‘ayding, sarin
Hovuchlarimizga chizildi butkul
Chirpanishlari kabutarlarning,
Sevgi tarqatdi og‘ochlar turkularda,
Eng qizg‘ish bulutlar yo‘llarni tutdi,
Sen ayvon gullari yonida turding,
Gul chambaraklaringga tushdi ko‘zlarim,
anglarding.
Gul yaprog‘iga nishon oldilar,
Yor, soching torlaridan urildim.

SEVMOQ QOCHMOQ EMAS

Maktablar tarqamasmi shom atrofida,
Qizlar o‘tmasmi ko‘zlarimdan?
Har oq yoqa seni chizar ko‘chalarga,
Har qora etaklikda qo‘llaringni ko‘raman.
Sen sarin sabolarda turarsan, ammo
Men yomg‘ir tomchilariga yukinaman.

Yomg‘ir tomchilarida bo‘lmoq ne hol, o‘yla,
O‘ylab ko‘raylik: seni har kun topmoq ne holdir?

Tortib ketmoq deyolmasman doim sen tufayli,
Bilim ko‘chasiga borolmasman birin-ketin
o‘lmaslik uchun,
Yo‘qliging yonar bu tumanli kechalarda,
Kech bo‘lgach, biroz yana toyaman holdan
Ochilmagan sevgilarda.

Angladim: xabarsizday kirmagaysan xonamga,
Pinhona ham men kimman demagaysan.
Oq yoqali qizlarni ko‘rgach, devorlarim qulagay,
Palaponni yo‘qotgan qushlar misol chirqirayman.
Har kim uy-uyiga ketar, men ko‘chalarda qolgayman,
Zulmat to‘xtarmi, cho‘kkaymi sog‘inchimga vazmin?
Soyangni telefon tiraklarida ko‘rgayman.

Maktab sharqilari boshlanmaganmi
Ko‘priklarda yo‘laklardan?
Qizlar o‘tmayaptimi ko‘zlarimdan?
Yomg‘ir tomchilariga yukinmoqdaman.

BOLALIGIMDAN LAVHALAR

Mening qurolli askarlarim yo‘q edi,
yo‘q edi shapkam,
Quyoshga tutardim boshimni,
So‘nggi hosil terishda bog‘da bildim
onamdan,
Unutmayman to‘qqizga kirganimni,
Go‘yo chumchuq edim jiyda shoxida,
Sig‘masdim kun ovozsizligimga,
Kunning sukutiga, jimligiga,
Bilolmasdim nechun arobalar yurardi og‘ir,
Dostonlar ulg‘ayardi ichimda,
aytolmasdim.

Bir yonda bo‘ztikanlar,
Sariq gulli xachirtirnoqlar,
Maymunjonlar,
Bir yonda qo‘l san’ati jonlantirgan
shakllar,
Loydan uylar, qo‘g‘irchoqlar yasardim, siqilsam,
Mening qurolli askarlarim yo‘q edi,
Aroba g‘ichirida sibizg‘a sasida
Ulg‘ayardi hayot yashamoq.

BAHOTDIN QORAKO‘CH

(1930-yilda tug‘ilgan)

UZOQLAR TURKUSI

Uyqusi vaqti kelgan barcha yulduzlar
Yumadilar birma-bir ko‘zlarini,
Ufqlar uyg‘onur, ular uxlarlar,
Men esa har tarafda qo‘ltiqlayman seni.
Tutunsiz mo‘rilar bo‘lmasin to‘siq,
Qaysi cho‘qqidasan endi, en-da kel,
Qaysi quduqdasan, qo‘lingni uzat.
Qulog‘im ding, tepkida qo‘lim,
Shabnam tushmasdan yoki quyosh chiqmasdan
Mingash, yurtma-yurt o‘taylik.

Samavan tog‘ini tuman chulg‘agan
Bulut bilan o‘ynar shamol qanotlari.
Mening tinim bilmas ko‘nglim oziq jamg‘argan,
Ikkimizga hozirlagan otlarni,
Bu jon ovunmaydi ortiq masal ila,
Qay rahnayi chohdasan qo‘l ro‘mol ila,
Qaysi soy-u daradasan, bir bor ovoz ber,
Qulog‘im ding, eshikda qo‘lim,
Yomon nazar tushmasdan, hech kim eshitmasdan
Mingash, yurtma-yurt kezaylik.

Bir sadr shoxiga osdim zamonni,
Odob-la jimidi barcha nastarin,
Zamon pishiq arqonli bir tush, xayol,
Tongda ketib shomda qaytgan tren.
Shamol tepalardan qumlar sovurur,
Qaysi to‘yda bo‘lsang, bir nog‘ora ur,
Qay azada jang bir tanbeh ayla,

Qulog‘im ding, jilovda qo‘lim,
Mingash, yurtlardan yurtlarga o‘taylik.

Shu qizil cho‘g‘ ko‘zli dalli lochinlar
Oy tug‘ganda ko‘kka qarab ucharlar,
Nur, sharpalar bilan so‘zlashar sovuq qoyalar,
Ko‘k qizlari ko‘kda dasturxon yozarlar,
Ko‘prikni topishi mashaqqat bo‘lur ko‘rning,
Qay vaqtdasan, ul vaqtni tasvirla,
Quloqlarim dingdir, bo‘shliqda qo‘lim,
Ustimizga chaqmoqlar tushmasdan
Mingash, yurtma-yurt kezaylik.

Xarita deyapsan, qalbim xarita,
Pusula[1] deyapsan, ko‘zlarimga boq.
So‘ngsizlikka nisbatan nedir besh qit’a,
Bu taqvimlar o‘lik, bu tuproq cho‘rak[2],
Oshiqlar o‘lmaski, ochilsa aza,
Agar devonda esang, devonni tarqat,
Agar yolg‘iz esang, men nega borman?
Qulog‘im ding, sendadir qo‘lim,
Mingash, ketaylik diyorma-diyor.

Shamolga ochdirma yuzing pardasin,
Quyoshni qizg‘ontir, oyni qizg‘ontir,
Saqla ko‘nglingdagi gulni bahorga,
Har bir zamon bir jon, jon bir zamondir,
Ko‘plardan suzilur, bir bo‘lur yuzing,
Magar uzoqdasan, porlagin o‘zing,
Magar yaqindasan, bir gul ot menga,
Qulog‘im ding, izlanar qo‘lim,
Ajal ustimizga tuproq tortmasdan
Mingash, yurtma-yurt ketaylik.

---

[1] **Pusula** — kompas.

[2] **Cho‘rak** — non turi.

Haqning huzurida egri turilmas,
Ko‘lkangga boq, sarvqomatim, ko‘lkangga.
Ishqqa chulg‘anganlar yo‘llarda tolmas,
Jilvangga boq, nur yuzlim, jilvangga,
Suvlar ko‘karmoqda, ufqlar qochoq,
Nimaga qarasang qalbing bilan boq,
Qaydan kelmoqchisan, bir ishorat ber,
Qulog‘im ding, chechakda qo‘lim,
Haqdan g‘ayrisiga bo‘yin egmasdan
Mingash, ketaylik diyorma-diyor.

TAL'AT SAID XOLMON

(1931-yilda tug'ilgan)

ERTANGI SEVGI

Ertaga sevishgaymiz,
Qizg'aldoqlar sarob-sarob ulg'aygaydir
Va bitgay tungi yolg'izligi kabutarlarning.

Ertaga sevishgaymiz,
Shu'lalar rashk etgulik erishgan oydinligimiz,
Quyoshga qarab yog'ajak yomg'ir.

Ertaga sevishgaymiz,
Yirik gullar suvsiz qolmagay endi,
Dengiz bilan shamol bilan Tangriga borgay yelkan,
Sevishgaymiz ertaga.

USKIDOR

Ming fotiha yuksalgan shamollari g'uvullar
O'lgach yuz minglar uzoqlashguvchi joyda.
Qumrilar yig'lashar:
"Ketaylik Uskidorga[1]!"
"Ketaylik Uskidorga!"
Qumrilarning surguni bitmasa hech bitmagay,
Sevgi o'lim qo'riqchisi sarvi qabr.
Qonar Xochlilar yag'mosi uylar to'lishi —
Qancha chirpansa-da Leondar behuda,
Ilon afsonasi to'ygan, jim bo'lar Qiz qal'asi.
Bir jahannam tush ko'rib ham uyg'onmas, uxlamas

[1] **Uskidor** — joy nomi.

Qoracha Ahmad,
"Na toj, na taxt-u na mulk-u na mol".

Har juma za'faronli palov Volida Sultonda[1], ammo
Uskidor borgan sari och, borgan sayin g'amli,
Raqqosalar kulmas va kuldirmas,
Qo'shin qaytdi mag'lub va yarim.

Xos bog'i tolg'in saroyida
Toraygan ufqini imzolar ekan
Tinmay yig'lar Uchinchi Salim.

Uskidor chashmasi jondan suv berur azadorlarga,
Ammo marhumlarning joni uchun sir bermas.
Yuk moshinlar og'uli dalli
Ollohga omonat yilda tug'ilgan.

Xotira shamlarin so'ndirgan kim?
Chiqmagan tilaklar uchun
Ustma-ust qabrlardan bog'langan bo'zlarni kim yechar?

Bu duosiz chirigan o'lkaga surdilar
Nadimiy[2] shaydoni hatto;
Sarvilarning har biri g'arib yolg'iz, faqat uning sarvisi shan.

Yuz yillar bahorni qo'msadi Uskidor,
Uchmasa ustida ajal qushlari.
To'q ko'k kecha nihoya topurmi bir kun?

Yosh o'lganlar dalli o'tlar ila ulg'ayar,
Taqdirdan xafa mozor toshlari asrlar bo'yi
Istanbulni tinglar va kechirar qayta boshdan.

Va o'lim
Liq to'la sharpalar ko'lkalar gunohlar ila
Tor kelar Uskidorga.

---

[1] **Volida Sulton** — joy nomi.

[2] **Nadimiy** — mumtoz shoir.

ACHA OYXON

(1931-yilda tug‘ilgan)

ARABLAR POYGASI

Ochil, Kunchiqar, ochil! Ochil, tilsimim.
Ochil, arablarning ot choptirishi, ochil!
Yarashig‘ini yo‘qotmagan
Nog‘oraning eski yelkadoshi bilan boshlayapmiz.
Va qora tunda tuynukdan tushgan bir odamning
Va o‘ldirganini yoki o‘ldirganini ham bilaroq
Bismilloh Hofiz Po‘st,
Bani Odam otasizdir,
“Yanagi kelishda dunyoga daryo
yo‘li bilan qaytgaymiz”.

DENGIZ SOHILIDAGI SHE’R

Dengizga otilgan she’r, menimcha,
Yurt sevgan yurti noma’lum bir yulduz.
She’rning dengiz sohilidagi
sasiga qoldirgan o‘limdir,
Yonajak saroylar uzgani — yarim oy.

FAYTON

Erol Gularjonga

Ul sohibin sasi grammofonlarda kuylanayotgan narsa
Inja dilgirligi emish yolg‘izligining,
Intixor qorasi bir faytonga mingan o‘tarkan opam
Ko‘chalaringdan o‘limlar ishqi raqibning.

Hayajonli har hol bog‘-bog‘ chechaklari bo‘lgan opam
Gulsiz bir gulchi do‘koni oldida turgan,
Pardalarga chulg‘angan nafarmon qoratog‘ to‘pponchasi ila
Zaqqum fotograflari bo‘lgan Jazoir bo‘rigullari jo makonda.

Men so‘nggi uch kechaki intixor etmadim, hech bilolmam,
Intixor qorasi bir faytonning og‘ishi ko‘kka otlar bilan birga
Jazoir binafshalarini tanlab sotib osishidanmikan opamning?

TURON UFLOZ O‘G‘LI

(1932-yilda tug‘ilgan)

HUSN VA ISHQ

Modom go‘zaldin yoqmoq sana tushdi,
Ya’ni bir so‘nmagan cho‘g‘ jona tushdi.

Qaysi tug‘gandan mashq etdi boqishing,
Qayg‘u, umid qanotlaring tushdi.

Sevging-la uzaldim uch shoxlarga to,
Mevalar ul zamon bu yona tushdi.

Nazardan shikoyatlar-la qo‘rindim,
Shunda bir xorli junbush qora tushdi.

Kechaga otash chechaklar ochtirmoq
Avval G‘oliba, so‘ngra mana tushdi.

SEVGANDA GO‘ZAL

Bo‘y-bast deganing, qosh-ko‘z deganing sevganda go‘zal,
Sening eng go‘zal boqishlaring faqat menda go‘zal.

To tush borinmas tepalarinda umidsizliging,
Bir manzara yaratdim, balki, sendan-da go‘zal.

Dardlardan shunday tot qo‘shdiki, yo‘qligiga
Kecham sen ko‘k burjlaring-la ko‘rinmasang-da go‘zal.

Behuda oyna axtarma go‘zalligingga aslo,
Qo‘ling, yuzing, sochlaring, bari endi banda go‘zal.

Sendan yona qo‘par otash sharorasi ko‘nguldan,
To‘g‘risi buki, mening sevmog‘im dag‘i sanda go‘zal.

O‘ZKAR YASHIN

(1932-yilda tug‘ilgan)

* * *

Bir bo‘ron uchirdi sochlaringni,
Ayol so‘ng bor dedi alvido,
Yuzida umidsiz kunlarning huzni,
Ko‘zlari tumanli juft samo.

Bug‘ kema sekin-asta uzoqlasharkan,
Yomon bosdi, g‘ariblik yomon.
Chorasizlik chulg‘adi to‘rt tomonni
Ufqda yolg‘iz qor bir tuman...

Tumanda edi har ne bu tumanda,
Bu tuman edi ma’shuqni olib ketgan,
Bug‘ kema tumanlar ichida ketdi,
Tumanlar ichida ketgaydir tren.

Odam xotirladi bir-bir
Bo‘salar bilan to‘lug‘ kechalarni,
Otashdan, namdan qayta-qayta chiqardi,
Tumanga taqildi o‘y-tushunchalar...

Quti kabi uylari bo‘lgay edi bir kun,
Mo‘risidan to‘rt fasl tutun o‘rlagay edi,
Bog‘laridan nur shu’lasi kabi
Shodon bolalar ulg‘aygan edi.

Kel, ko‘rki, ketdi ayol bosh olib,
Barcha xotiralarni qoldirib orqasida.
O‘lgunicha bu qadar yolg‘iz odam
Qoldimi tutunlar o‘rtasida?

SAZOYI QORAKO‘CH

(1933-yilda tug‘ilgan)

MONA ROZA

ISHQ VA IZTIROB

Mona Roza, siyoh gullar, oq gullar;
Geyvaning[1] gullari va oppoq to‘shak...
Qanoti siniq qush marhamat istar;
Oh, sen sababli u qonga botar,
Mona Roza, siyoh gullar, oq gullar.

Ulir oyga qarab.nopok shoqollar,
Hurka-hurka boqar quyonlar tog‘ga.
Mona Roza, bugun menda bir hol bor,
Yomg‘ir qiya-qiya tushar tuproqqa,
Ulir oyga qarab nopok shoqollar.

Ochma derazani, pardalarni tort:
Mona Roza, seni ko‘rmasligim kerak.
Bir boqishing o‘lmasligim uchun yetajak,
Angla, Mona Roza, men bir dalliman.
Ochma derazani, pardalari tor yilda tug‘ilgan

Zaytun og‘ochlari, majnuntol ko‘lkasi
Mendan chiqar quyosh oydinligiga,
Bir nikoh uzugi, bir eshik sasi,
Seni esga solar doimo
Zaytun og‘ochlari, majnuntol ko‘lkasi...

Akaslar eng xilvat joyda ochilar.
Va bordir har vahshiy chechakda g‘urur:
Bir shamning ortida kutuvchi shamol

[1] **Geyva** — shahar nomi.

Shu'lasiz ruhimni tebratib turur.
Akaslar eng xilvat joyda ochilar.

Qo'llaring, qo'llaring va barmoqlaring
Anor gulin ezayotgan kabidir.
Qo'llaring ma'lum aylar, demak, sen ayol...
Dengizlar tubida kezayotgandek
Qo'llaring, qo'llaring va barmoqlaring.

Zamon shitob, shiddatli kechar, Mona:
Soat o'n ikkidir, so'ndi chiroqlar,
Uxlagin, turnalar kirsin tushingga,
Boqma hayron-hayron ko'kka bu qadar;
Zamon shitob, shiddatli kechar, Mona!

Oqshomlari kelar anjir qushlari,
Qo'narlar bog'imning anjirlariga;
Qay birin rangi oq, qay biri sariq.
Oh, meni ursalar bir qush o'rniga!..
Oqshomlar keladi anjir qushlari!..

Menki, Mona Roza, ko'raman seni
Anjir qushlarining boqishlarida,
Hayot-la to'ldirar bu bo'sh yelkanni
Ul ma'lum qarashlar... Suv kanorida
Ki men, Mona Roza, ko'raman seni.

Siniq-siniq boqma yuzimga, Roza,
Hanuz tinglamading mendan turkular,
Ishqim uyg'un emas shunchaki sozga,
Eng go'zal sharqini bitta o'q so'zlar...
Qirg'in-qirg'in boqma yuzimga, Roza!

Ortiq inon menga, muhojir qizi.
Tingla va qabul et e'tirofimni.
Bir sovuq, bir g'arib, bir moviy sirqirash

Chulg‘ar olov bo‘lib har tarafimni,
Endi inon menga, muhojir qizi.

Yomg‘irlardan so‘ngra ulg‘ayar boshoq,
Mevalar sabr-la yetilar emish.
Bir kun ko‘zlarimning tublariga boq,
Anglarsan marhumlar nechun yasharlar ekan,
Yomg‘irlardan so‘ngra ulg‘ayar boshoq...

Zar bilaguzuklar, ul qo‘rqqulik tan
Javob bersin bu qonli qush patiga;
Bir qushki, jon berar bir tabassumingga,
Bir qushki, qamalgan kechaga, kunga,
Oltin uzuklar, o‘, qo‘rqinchli tan!

Mona Roza, siyoh gullar, oq gullar,
Geyvening gullari va oppoq to‘shak...
Qanoti siniq qush marhamat istar,
Oh, sen sababli u qonga botar!
Mona Roza, siyoh gullar, oq gullar!

KO‘PQAVAT UY AYVONI

(balkon)

Bola yiqilib tushsa, nobud bo‘lar, chunki ayvon
O‘limning jasur ko‘rfazidir ko‘pqavat uylarda,
Yuzida so‘ng tabassumi g‘oyib bo‘larkan
go‘daklarning,
Onalar, onalar qo‘llari ayvonlar temirida.

Ichimda va ko‘pqavat uylarda ayvon
Bir tobutchalik olar joy,
Osilgan libosingiz hozir kafan,
Kursingizga o‘lib uzaning.

Kelajak zamonlarda ne kashf etgaylar,
Mayitlarni ayvonlarga dafn etgaylar,
Inson rohat toparmikan vafot topib ham,
O‘zi ketib qabri ayvonda qolib ham?

So‘rmang mendan nega buncha chopmoqdasiz,
Yordam bering, me’morlarni topmoqdasiz.
Ayvonsiz uy qurgan bo‘lsa koshonasida,
O‘par edim qo‘llaridan, peshonasidan.

GULTAN OQIN

(1933-yilda tug‘ilgan)

QAYTADAN

Qorong‘u tushdimi, kelursan,
Derazam tagida turursan.
O‘yinchoqlar o‘yma harflar kabi
Qo‘l bilan tutilar kabi g‘aribligin,
Qog‘ozlardan qo‘lbola gullar qurursan.

Yangi shakllar yasarsan,
ko‘rilmagan ranglar, shu’lalar...
Dunyo go‘zal esa, yana go‘zal bo‘lur,
Bir sharqi iliq-iliq nogahon,
Uzalar qo‘llaring, ko‘zlarimni yopar,
Barcha tartibim buzilur.

Qorong‘u tushdimi, sen bilan kelur,
Qanday qaytar, turar o‘rtalarda
Tuyqus shovqindan hurkkan bir gala
Bezovta qushlar kabi so‘zlar.

Qo‘lingda oynalarning ming bir yonlisi,
Qay yondan qarasang, ko‘rinar o‘lim.
Qutul deysan o‘zing o‘zingdan,
Unut yo‘qolganni, yo‘qotganlaringni,
Seni kim hukm etgay, kim?

Qorong‘u tushdimi, kelursan,
Derazam tagida turursan.
O‘yinchoqlar yonida bo‘rtma harflar kabi
Qo‘l bilan tutilar kabi g‘aribsan.

UZUQ-YULUQ

Yashamoqning uzuq-yuluq bir joyida
Sevgilar yuzlarni o‘ygan aylardi,
Bora-bora noziklashgan, g‘oyib bo‘lgan
Bug‘lanib uchuvchi anglamlar qolardi vaznsiz
Sinib, uvalanib to‘kilgan nimalardandir.

Hozir hech narsa emasmiz, to‘g‘rimi?
Biz uchun kishi kishiga narsasi emas.
Aloqalar, qiziqishlar kundalik kiyimlar kabi
Eski-tuski zarofatsiz dag‘al-dag‘allik
Isodan buyon har kimning libosi.

Yashamoqning uzuq bir joyida uzun-uzun
Dalli bir odam, parishon bir qiz.
Bir holatga bog‘lardilar o‘zlarini
Ma’lum bo‘lgan, surib ketadigan.

Kuz kelsa, ustma-ust uch qiz kelardi
Har kun boshqa bo‘limdan yuzlarcha, berardi ro‘y,
Har qush yuzlarcha bo‘lardi, anglatib bo‘lmas go‘zal,
Kichrayar qo‘llarimiz tutila-tutila.

Biz hozir ko‘zlari ayri-ayri
Qushlarni go‘zalsiz yuzlarchasiz,
Bir jihatdan bo‘ldik anig‘i shu,
Bir boshqa jihatdan “nechun”siz “shunday”siz,
Yashayapmiz kunlarni unutmoq uchun to‘g‘rimi?

KAMOL O‘ZGAR

(1935-yilda tug‘ilgan)

KO‘P ESHKAKLI KEMA

Qorong‘uni tark etdim, menikimas bu shamol.
Endi yo‘l olmayapman suvlarning shafag‘ida.
Sohili sohilimmas, zamondan tashqariman,
Yechdi yelkanlarimning arqonidan yulduzlar.

Endi bir samodir ul Vizantiya bozorlari,
Saroylar ovlar va qullar bilan yonma-yon.
Qullarki, uzanibdi har biri bir shafaqqa,
Har biri bir motamga voz kechilmas bir makon.

Ul qirollar ul kulgan me’rosiy keng chehralar
Muqaddas deya topingan ul hurmat-u odoblar.
Chirigan gavdam hatto ularni eslab titrar,
Ko‘payar, menga bergan meni oshgan bu oni,
Ko‘paytirar, meni senga bir dengiz olamidan
O‘limga bosh egmagan o‘liklar shamoli!

G‘ARIB VAQT

Sening vaqting uzun, keng ko‘klar vaqtidir,
Ul cho‘kkan shaharlardagi uzum yig‘imlarining
Oqqush boshli urush mashinasi, kim bilsin,
Yo‘lga chiqqan qay g‘azabi ila ilohlarining.

Qilichlarimni ham tutmasdan asl qonlar,
Hali toshga tegmasdan kalta boltam qisqa qo‘limni
Keltirib sening vaqtingga osmish jangchilar,
Keltirib rum otashlaridan motamlarimni.

Bir uzoq bir boshqa tan joyidir sening vaqting,
Yasoqlasam mumkinmi ko‘lkani sabohlarga,
Qaytgan dengizlarimni ko‘tarsam kechuvini?

Yozig‘iga ochiq tutajak qirolligimni,
Ochiq tutajak tog‘ yo‘llariga soylarga
Sening bir oqshom chiqib ketgan eshiging.

HILMI YAVUZ

(1936-yilda tug‘ilgan)

O‘LIM VA ZAMON

She’r ne? So‘ngbahor — kuz ichra kuz
Ulkan uzuq-yuluq yurardi
Bir sur, bir surat, bir gala
Chalabiy bo‘lsa ucha-ucha yurgan edi
Osmon uzun darvesh ko‘ylagi...
Sevishdik; bir vujud, bir muqobil vujud
Sevishmoq o‘zini arg‘uvon
Deya bilsa-da bo‘lur, bilmasa-da...
Ishqlar bilinib-bilinmay yuksalmoqda,
Yo‘llar bilinib-bilinmay yuksalmoqda,
Yo‘llar yoqut uzoqliklardir
Va ularga yetmoq, kim bilar,
Naqadar mashaqqat, naqadar...
Yunus yona-yona yurur edi,
Mavlon do‘na-do‘na qayta-qayta,
Aylana-aylana, o‘rgila-o‘rgila,
Men esa qona-qona yurardim,
Bir shoir, nedir oti, shunday deydi:
Bir gul-u biroz daha gul,
Bir guling biroz yana gul,
Bir huzning biroz yana huzun
Bo‘lishi kabi edik
Ayriliqda, birgalikda ham...
Yashadik; bir yo‘qolishning yo‘qolishi...
She’r bilinib-bilinmay yuksalmoqda,
Ishqlarni o‘zim-la bezadim,
Men oldim she’r yilqisini,
Men to‘ratdim...
Va “bir bahorning o‘z ichida tug‘ishi...”

Deya olmoq...
Yurindim; telga kelib
Olmaslik aro bilgan joyimda
O‘lim! So‘zning kichraygan qishi,
O‘lim! To‘planganning tarqalishi;
Kitob, huzn va vujud...
O‘lim bilinib-bilinmay yuksalmoqda.

TAN

Men tanimdan yurinaman; tanim mening keraksiz,
Et parchasi otilgan, turibdi bir kanorda...
Oh, oshiqlar bordir hozir, vositasiz, maqsadsiz,
Birgalikda kezarlar; yovvoyi va beparda...
Hofizam. Bir bo‘ridir u! Doim arqonga, sopga
Kelmovchi narsalarni parchalar va kemirar!
Ishq uzoqda uliydi, yolg‘izlik pag‘a-pag‘a
Yog‘ilar eshigimga... oh, o‘zini ko‘rarkan
Yo‘qolgan qorli kunlar!.. qo‘lim-la yediraman
Tanimni yer ostiga... urushlarda qoraytma
Bo‘lganingda yoparlar-ku... og‘ir pardalarim
Shunday yopilgan, mana... mahkam... qoplama
Bo‘ri qanday o‘ransa, shunday qorli kunlarini;
Oynalar o‘rab-qoplar oynadagi taningni...

YAVUZ BO‘LAND BOQILAR

(1936-yilda tug‘ilgan)

LOLALI OQSAROY

Yana oqshom, yana g‘urbat,
yana boshimda afkor
Va ichimda sharqili sasing,
Ko‘zlarimda chizgi-chizgi turoqlar[1],
Turoqlarda xayot-mamot senmisan?

Senmisan yonma-yon kezolmaganim,
Inja sitamingni sezolmaganim,
Sirringni qandaydir yecholmaganim,
Ko‘nglimdagi chetin savol senmisan?

Qanday yurakdan kuylangan maqom?!
Tinglaganim barcha turkularda g‘am.
Lolali Oqsaroy orasida bir oqshom
Tinglaganim totli masal senmisan?

Ne desa, ko‘nmagin, hozir ortiq qo‘l,
Kel bir oqshom, yana turkularga kel!
Sen bilan yanada go‘zal Istanbul!
Istanbuldan go‘zal xayol senmisan?

Bilaman-ku seni, turkular yoqdi.
Turkuli ko‘zlaring namli chiroqdir.
Meni ko‘chalarda har oqshom vaqti
Kezintirgan “Diyshi Qartol”[2] senmisan?

---

[1] **Turoq** — tanaffus, tiniqish, turoq, pauza, bekat.

[2] **Diyshi Qartol** — makiyon lochin.

Yana oqshom, yana g‘urbat, yana boshimda afkor
Va yana ko‘nglimda sharqili sasing.
Ko‘zlarimda chizgi-chizgi duroqlar,
Duroqlarda xayol-malol senmisan?

SIVASDA YO‘QSIL BOLALAR

Sivasda Ulug‘ Jome hovlisida go‘daklar
Yolvorgan ko‘zlar-la atrofga boqa-boqa
Ochar tuproqrang, bug‘doyrang jajji kaftlarin:
— Og‘ajonlar, sadaqa! Tog‘ajonlar, sadaqa!

Hukumat qo‘nog‘ining yonida biri
Suyakka yopishgan teri...
“Bo‘yoq, suvoq qilaman”, — deya yig‘lar,
Cho‘tkani ham ko‘tarolmas qo‘llari.

G‘ariblar bozoridan barra bolalar
Horg‘inlikdan ma’sum yuzlari pushti, ol...
O‘ldirar lablarida fig‘on, nolalar;
— Kerakmi yukchi? Kerakmi yukchi? Tayyor hammol!

Yalpiz sotgan, suv sotgan yetim go‘daklar
Sharqi kuylay olmadilar quyosh haqda, oy haqda...
Na matal tinglamoqqa to‘ydilar,
Na o‘yin o‘ynamoqqa...

Benzinchida, Yuja yurtda, Olintoboqda
Jajji bolalar bor yuzlari nurdan, oyday,
Ammo qo‘llari chang, oyoqlari chang-tuproqda,
O‘yinchoqlari loydan.

Va gunohkor go‘daklar, aybdor go‘daklar —
Mahkama salonida qator-qator
Bu ayb bizning aybimiz, bu gunoh bizning,
Afv eting bizni.

Ko‘kdagi yulduzlar qadar hisobsiz,
Oh, yurtimning kimsasiz va yo‘qsil bolalari!
Farqingiz yo‘q ajratilgan boshoqdan,
Oling bu ko‘zlarni mendan, oling bu yurakni endi,
Uyalaman yashamoqdan.

SHOSHIB QOLDIM

So‘zda, sendan jon boricha qochaman otlar bilan,
Ba’zan sassiz, sadosiz ipakdan qanotlar bilan,
Ammo sen ham ming yillik qayralgan qaysarlik bilan
Qarshimdan chiqmoqdasan eng sarin imdodlar bilan,
Otingni yozmoqdasan tqpganing fursatlar bilan,
Yuragimning qa’riga nuqtalar, xatlar bilan,
Men yolg‘iz qolmoqdaman oqibat hayhotlar bilan,
So‘zda, sendan qochmoqdaman jon boricha otlar bilan.

Ne bo‘lur, bir kun meni eshikda bo‘lsin tingla,
O‘ldir mendagi meni, so‘ng tiriltir o‘zing-la,
Ursang qora savdoni loaqal yuz ming-la,
Qanday bog‘langanimni anglarsan kamanding-la,
Necha bor chiqib ketdim bu yerlardan yamin-la,
Ammo har gal ortga qaytdim ishqi-la, u sening-la,
Qaysi tugun yechilar noz-u sitam-la, kin-la?
Ne bo‘lur, bir kun meni eshikda bo‘lsin tingla.

Shoshib qoldim, mana, bilmam kimimsan,
Ba’zida o‘z onamsan, opamsan, singlimsan,
Sultonimsan, jim bo‘lgach, suhbatlashgach, qulimsan,
Kamaymagan mashaqqatim, mushkulimsan,
U yon ufq chizig‘im, bu yon atrof-yonimsan,
Meni mangu chulg‘agan doiram — jonimsan,
Chorasizim, chorayi nochorimsan,
Shoshib qoldim shunday,
mana, bilmam mening kimimsan.

QOQ YARIM TUNDA YOLG‘IZ BIR KISHI

Bir g‘arib kimsa edi bu shaharda,
Sevmasding qor oqshom bunda ichganlarni.
Va hech kim bilmasdi o‘sha zamonlar
Tugun-tugun ichingdan kechganlarni,

Bir qumrol qiz sevarding she’rlar kabi,
Miniatura kabi inja.
Iching ichingga sig‘masdi, so‘zlashmasding
Chiqib yoningga kelguncha.

G‘amlaringni tarqatmaydi endi har kecha,
Birin-ketin tamaki tortib
Va behuda oqqan irmoqlar kabi
Ketmoqdasan yo‘llarga tolib-tolib.

Barcha yaqinlaring tark etib ketdi,
Yakka-yolg‘iz qolding o‘zing-la,
Teginsalar, yig‘laysan go‘daklar kabi,
Ulg‘aydi yolg‘izlik ko‘zingda.

Bunday emasding avvallar,
Turkular aytarding xush dilbar.
Bir bekor uying bor — qorong‘ulik —
Yig‘laydigan bir xonang bor.

O‘ZDEMIR INJA

(1936-yilda tug‘ilgan)

UNING NOMI BILAN BOSHLAYMAN

Inja uzun bir chiziq edi
Yumshoq bir qo‘l oyasida
Yuraklar muvozanati
Qon tutishi
Jon qulog‘i edi
Novda kabi cho‘zildi
Yaproq kabi yashardi
Oz-oz ammo hech to‘xtamasdan
Kam-kam ammo ko‘paya-ko‘paya.

Ko‘z haqi edi ko‘zda
Charx urchuq kalavasin ulashtirarkan
Temirchi po‘latga suv berarkan
Bir g‘avg‘o chiqarkan
Bir hukm jarayon bitarkan
Ko‘z haqi edi davr nafasida
Oz-ozdan ammo hech to‘xtamasdan
Kam-kamdan ammo ko‘paya-ko‘paya.

Uzoqdan bir ismning da’vati edi
Tori edi sozning va og‘ichi edi
Ko‘ngli tirik qoni issiq
Sabohdan oqshomga umid
Oqshomdan sabohga umid
Ha deganda o‘tovlar ustida
Ha deyilguncha yelkanlar ochilsin
Uzoqdan bir ovozning da’vati edi

Sekin-asta ammo hech to‘xtamasdan
Ohista-ohista ammo balandlab-balandlab.

So‘ngsiz bir ko‘prik bo‘lsin deya
Temirbosh dalli tuman do‘st va jon
So‘rilsin deya qon aqcham
Yuraklar chaqmoqlansin deya
Sog‘inchlar qovushsin deya
Tog‘larning cho‘qqisi edi
Yelning yoqishi edi.

Qoracha go‘dakning sarinligi edi bachadonining
Kun qovushar ekan bir boychechakning
Sekin-asta ammo hech to‘xtamasdan
Ohista-ohista, ammo o‘sa-o‘sa.

Qush uchmas, karvon kechmas ranj,
Ey sen tog‘larning jon qulog‘i!
Suvning oti bordir nahrlardan baland
Qonning oti bordir qamchidan oti zanjir band oti dard
So‘zning oti bordir ovchining ovida
Yigirma to‘rt soatning sochog‘inda
Urilar tegar tog‘lardan tog‘larga
Sadolanar tog‘lardan tog‘larga
Ohista-ohista, ammo ko‘payib-ko‘payib
Sekin-asta, ammo hech to‘xtamasdan.

Bumi? Xos bog‘lardir
Bumi? Xos kumushdir
Bumi? Xos non mehnatidir
Bular ko‘z buloqlari
Bular ko‘z yaylovi, qon chanog‘i,
Quyosh yonig‘i, gul urmog‘i,
Qog‘oz va qalam
Aql va yurak.

Bumi? Bu boshlamoq Uning ismi-la
Yashnasin deya olma
Bumi? Bu boshlamoq Uning ismi-la
Olov yolqinli bir so‘z bo‘lsin deya
So‘ngsiz bahor yoz bo‘lsin deya
Boshlamoq Uning ismi-la
Ohista-ohista ammo hech to‘xtamasdan
Sekin-asta ammo ulg‘aya-ulg‘aya.

ULKU TAMER

(1937-yilda tug‘ilgan)

QARI KABUTAR

Ul qari kabutar edi, borgan sari tushar yodga,
Ul qari kabutar edi, menimcha, go‘zal edi parvozi,
Ul qari kabutar edi, chunki abgor edi shaharlar,
Mening sochlarimda saqlanardi,
sochlarim tikanli butalarga o‘xshardi;
Uni ko‘rardim ko‘llarga enganida,
oqshom bedana ovlaganimda,
Atashimga kelib suqilardi, ul qari kabutar edi,
Boshqa hech kim yo‘q edi.
Bir boshima odammidim, kim edim?
Qurollarimni sevardim, kabutarni ham,
Insonlarni sevardim, ko‘rmaganlarni ham,
Ammo men inson edim-ku, u qari bir kabutar,
U kabutar qari edi har neni anglamoqqa.
Qanday bo‘lsa bo‘ldi — qurshadilar meni birdan
Ayollar va erkaklar, so‘ngaklar o‘rtada,
Qandaydir tushunmadim, tinmay yurindilar,
To‘xtamay tuproq qazdilar, shapka kiydilar;
Hurlik bor edi, uni berdilar boshqatdan so‘ramoq uchun,
Balki, oldilar qaytib, ammo meni bog‘ladilar;
U bir qari kabutar, hayron qoldi voqeadan.
U bir qari kabutar, qoldirdi meni ularga,
Eltmadi qanotlaringdan bir boshqa yolg‘iz suvga,
O‘tdi go‘dak soyalaringdan, qaytmadi boshqa,
Qilar ishlari bor edi uyalmoqdan boshqa.

YOZNING BITGANI

Yoz tugagani har joyda so‘zlanar,
Bunday qirmizi qalqon ko‘rilmagandir
O‘liklarni yopgan xazonlardan boshqa,
Chunki saxiy yoz bitgandir,
Ko‘lga boqmoqdan bezadir inson,
Alangada qolmoqdan, yo‘l qaramoqdan;
O‘tovlar, chodirlar yig‘ilar, yaralar o‘ralar;
Turg‘un yo‘lovchilik, uzun bir shapka,
Yaproqlarni juda kutmoqdadir,
Ishqmidir qushi kelgach boshlangan,
Oppoq bir qilichda yuringan ishqqa...
Voz kechmaydi qushlaridan o‘lkalar,
Har joyda yoz tugagani so‘ylanar;
Tolg‘inliklar kuchayar qurollardan so‘ng,
Qordan mozorlari ko‘rilur kimsasizlikning
Jonsiz o‘pichlarning quyuqligi-la...
Ishq qolgandir o‘tlarda yilni eltgan
Jasur jangchilarga ega qishga.
Har joyda yoz bitgani so‘zlanar,
Chirir chechaklarga yopishgan qonlar;
Balki, uzoqdan ikki otliq yaqinlashar,
Balki, yaqindan ikki yaproq qalqar;
Oqshom yopinchig‘i daryolarda yuvinar,
Ko‘k yuzini ko‘rgach kechaning devi
Chiqarib shapkasidan yulduzlar sochar,
Mitti qushlar, nihollar, qayinlar buni bilar,
Har joyda so‘ylanar ishq bedorligi.

TURKON ILDENIZ

(1938-yilda tug‘ilgan)

MA’LUM HAQIQAT

Eng kuchli misralar qayrilgan joyda
Umidim yitajak, bilaman,
Qarashing go‘zallikka, tuproq tirikka chanqagan
Bir pallada, bilaman.

Birin-ketin davom etar dardlarim,
Inson sevgisi, o‘limdan qo‘rquv yuzma-yuz,
Hayotga ehtiros tog‘ga bo‘lsa ham,
Bu yurak bir kun sovigay,
Bilaman.

Kutmoq bilan o‘tdi umrimiz,
Kunlar kunlarni quvlamoqda,
Yillar etilgan duo oqibatin kutamiz hanuz,
Yashilligiga yukinganimiz shoxlar novdalar
Yaproqsiz qoldi bir onda.

Qorong‘usi bo‘g‘iq-bo‘g‘iq kechalarning
Bokira sabohlari yo‘q, bilaman,
So‘ngsiz ziyo so‘ngsiz nur
Koinotdan narida.

Oson emas silmoq-sidirmoq peshona yozuvini,
Yaratilganmiz, yashaymiz chumoli kabi,
Hayotga qattiq yopishsak ham,
Istasak-da, istamasak-da,
Soatlar tuyqusdan to‘xtagay,
Bilaman.

XISRAV HOTAMIY

(1939-yilda tug‘ilgan)

UMID VA NOGIRONLIK

Qay zamonki o‘lim-la jon to‘qnashar,
Bitishar hayot chambarida uchlar.
Ular, qaydan kelurlar o‘sha qushlar?
Sayrar yuzlarchasi menlikda.
O‘zgarmas sening borliging faqat,
To‘xtovsiz o‘zgarar o‘zgarishlar ham.
Yillab davom etar hali bu g‘avg‘o,
Chiqishar garchi o‘lim-la bizda.
Chorasizlik umid nuriga bir kun
Aylanur, ehtimol, ichimizda,
Sherik ziyoniki, umid ko‘zlarimizda
Porlar nogoh eng uzoq yulduzda.

ISHQQA RADDIYA

Berilmoqqa ko‘k moviyligicha
Faqat bitta quyosh bilan butun kun baxtiyorligi
Unutarli yillar kechgan oradan.
Inonsaydim senga avvalgiday,
Eslat derdim, balki, yana:
Sen yo‘qsan, ey ishq,
Insonlar orasida yongan joylar
Qisqa yaqinlikning vayronasi bor,
Ish yomoni sevgi boshida,
Qo‘llaringda yana hisob jadvallari,
Foyda va zararni hisoblaydi odamlar.
Kishilar achingay, kin tuygay
Va sevgay ham bir zamon.

Faqat davomli sevgilar selini sidirdim aqlimdan,
Bir zamon kissamda rasming bo‘lgan, ey sevgili!
Hozir to‘rt qatlangan,
Ilk xolesterin tahlili.
Va asli yo‘q bir narsaga
Meni buncha yil inontirdi deya
Xafa bo‘laman Fuzuliydan.
Ishq, yo‘qsan, seni biz to‘qidik, o‘ylab chiqardik.

ERDAM BAYOZID

(1939-yilda tug‘ilgan)

QOR OSTIDAGI HUZN SINOVI

Dunyoning eng uzun huzni yog‘moqda
Horg‘in va bandayi ojizligimiz ustiga,
Qor yog‘moqda va sen ketmoqdasan,
Yig‘lar kabi yurib bormoqdasan,
Balki, bilmoqqa ketmoqdasan yo‘qotganimizni
O‘sha inson va tabiat chog‘in.
Qayt menga va tingla,
Qushlar ucharlar ko‘nglimda.

Ma’yus kamon navosi kabi
Qushlar uchgani ko‘nglumda,
Qayt menga va tingla.
Qorong‘ulik dengizlarin tubida
Bir qancha injular bo‘lganini,
Bir qator injularga va xotiralarga
Nechun bog‘liq ekanimizni unutma,
Eshit meni va tingla.
Dengizlar bo‘g‘ishar ichimda,
Unutma deyman, ammo sen angla,
Anglat bizning yashamoq istagimizni ularga.

YO‘QDAY YASHAMOQ

Bo‘g‘iq bir qarashing bo‘lmoqda sening,
Bir girdob teranligida g‘oyib bo‘layotgan kabiman,
Yo‘qday yashamoq bu turib qutulmoqday xaloyiqdan,
To‘xtama, menga turku kuyla Onado‘li haqida,

Suvsiz labday yorilgan bo‘lsin,
Karanfil kabi bo‘lsin qora chechak kabi so‘lg‘un yuzing,
To‘xtovsiz toshar qalbim oyoqlaringga,
menga qorong‘u boqma,
Og‘aman bir qorong‘u qora yel sochlaringga.

Tortma o‘lkamdan anor yong‘ini ko‘zlaringni,
Meni bu kentdan qutqar, yolg‘iz qo‘y meni, bor, ket,
Izlayman o‘sha ilk chog‘ daryolarida sadaf qo‘lingni.

Jimligim hurkitmasin, dilimda chog‘lar bor,
Qattiq bir yolg‘izlik bu, bilishing darkor,
Qochaman o‘zni topmoqqa sendan
mahrumam bilmog‘ing darkor
Shu yolg‘izlik yo‘lida oldimda nechun sen borsan
Nega har ne bir onda kechar nega sen toymoqdasan
Qalbim nechun bu qadar begona, sen nega mahrumsan?
Yukli og‘ir samum tunlarni dildan itqitolmam,
Nega bularni bir onda unutolmam?

Qani, qo‘limdan tut ko‘k kabi,
Mahrum qadar marhum qadar yolg‘izman.

JOHID ZARIFO‘G‘LI

(1940–1987)

OYNA

Va ko‘zim ashyomda emas
Horidim moddamdan
Toki dunyo bitdi
Ko‘shk qurdim tinchlandim
Dahlizsiz va qabatsiz
Ko‘r bir hayvon kabi
Rizqiga eti bilan yondashgan
Qorong‘u bir uydir gavdam
Quyoshda qorong‘ulik yo‘q dedilar
Va ular yo‘liga yo‘l oldim, Vatan tutdim
Buyuk bir yangi hayot deb bildim
Yangi-yangi bildim yo‘qsa o‘lardi bir narsa
Bir inson binosi yiqilardi to‘xtovsiz.

YUKSAL BOZORQOYA

(1940-yilda tug‘ilgan)

SO‘Z

Tushmoqda eng sevimli sasi turkchaning
Tushmoqda egik-bukik bir sayrash
Zahar so‘ng nuqtasi sevinchning
Bir qiyin so‘z so‘zning qiynog‘i
Ilk yomg‘ir ilk qor qo‘rquvim
Ustiga-ustak havoning kiri.
Nechun sevaman nechun qo‘rqaman
Yangi bir turku bu taranglik tazyiq
Tortgan nedir hurkitgan ne avvalo
Qaytar va bosma so‘z zanjiri
Bir mushkul so‘z so‘z mashaqqati.

TANGRIGA

Bir kun to‘riq qush uvlar o‘rniga
Tafakkur
To‘xtab-to‘xtab ortga boqmoq
yoshi qaytmoqda
inson
yaqinlashmoqda
Tangriga.
Bir kun otilgan tasavvur o‘rniga
tasavvuf
Cho‘mib-cho‘mib sirlarga
Tuzalmoqda bo‘lmoqda komil
inson
uyg‘unlanib kelmoqda
Tangriga.

OSHIQ, SHOIR, O‘ZAN

O‘zansan, shoirsan, istaysan gizli
Qishloqlarda
Go‘zal she’rlar yozmoqni
Go‘zal bir dard kabi ulg‘aytib
She’rni bir mag‘lub kabi yashamoq
Va keltira olmaslik dunyoga
Yaralaydi ilma-teshik qilib seni ham
Oshiqsan shoirsan o‘zansan
Muhiti yaralari bilan so‘ligan
Ulug‘ bir yaratiq
Insonni insoniy dard sanchiq to‘plarni
Va kunchiqarni va hayvonot dunyosini jahonni
Borliqdagi har neki
Yolg‘iz bor bo‘lgan
Ko‘rmoqdasan
Teshmoq bo‘lasan dunyoni
Voqeaga o‘zingni qo‘shibroq.

OTAOL BAHROMO‘G‘LI

(1942-yilda tug‘ilgan)

HAR NARSADA SHE’R BOR

Har ne she’rdir, shamol g‘uvullashi
Bir irmoqqa ohista yog‘ayotgan qor
Bolalikda har kecha o‘qilgan duo
Osmonlarda serqol chilam turnalar.

Har ne she’rdir, sevinch va kadar
Dunyoda bo‘lmoq tuyg‘usi...
Qirg‘oqda, izsiz qoyalarda
O‘z boshicha porlagan suv.

Har ne she’rdir, endi, shu onda
Oq qog‘oz ustida kezinar qo‘lim
Qarshi hovlida tebrangan tol ham
Yondagi xonada uxlagan bolam.

Har ne she’rdir. Va xayollarki
Sanchiqlar va ziddiyatlardir
Bir qo‘ldan boshqasiga o‘tgan sozim
Ikki daryo kabi birlashgan lablar.

Har ne she’rdir, ishq da’vati
Bahor tuprog‘idan yuksalgan hovur
Xushbo‘y tutun, umid, dard, ibtido, intiho
Yomg‘ir va hayotning toshgan turkusi.

Har ne she’rdir, bir kun balki
Ilk ishqim, ilk dardim she’rdir.
Bag‘rida unga yozgan maktublarim
Bir joylardan chiqib kelajakdir...

UNUTDIM

Unutdim qanday edi onamning yuzi,
Unutdim qanday edi onam ovozi.
Kecha yopinchiq bo‘lsin xotiralardan,
Qora yuragimga bekinayin.

Unutdim qanday edi onamning kulishi,
Unutdim qanday edi yig‘larkan onam,
Hayot allalasin qo‘llarida meni
Jajji o‘g‘liman men uning.

Unutdim qanday edi qo‘llari onamning,
Unutdim ko‘zlari qanday edi boqqanda,
Quruq o‘tkir o‘t bo‘yin keltirsin shamol
Yomg‘ir ohista yog‘ganda.

DILOVAR JEBACHI

(1944-yilda tug‘ilgan)

ISSIQ JOYLAR

(tropik)

Eslaysanmi biya yelinli ufqlarni sog‘ardik
Bedor to‘lin oylar o‘pardi qisiq ko‘zlarimizdan
Ko‘kdan firuza yog‘ilardi firuza nur yo‘liga tushardik
Behad toza edi moviylar
Dengizlar tinch nafassiz...
Yig‘ chodirlarni oppog‘oyim bu yerlardan ketaylik.

Bir o‘ringa tikka o‘rardik so‘ngsiz masofalarni
Alp eran tog‘larga tayanardik qo‘rquvdan ozod
Uchmohdan daryolar kelar... shimardik zilolidan
Avval qubbalar quladi ustimizga
Ko‘klar cho‘kkay birozdan...
Egarla otlarni oppog‘oyim bu yerlardan ketaylik.

Hilpirab turardi quyosh bir tug‘ popuklarida
Ko‘ch o‘rmonlarda ko‘karardi savdomiz
O‘tirib mangu toshlarga otimizni o‘yardik
Bunday qattiq emas edi qoyalar
Girdoblar bunday tubsiz...
Kiyintir bolalarni oppog‘oyim bu yerlardan ketaylik.

Bir yoz kechasi chiqaylik Somon yo‘liga
Ato etilgan yulduzlarga qo‘naylik
Inja inju yomg‘irlar yog‘sin, uyg‘onsin karvonsaroylar
Bunday hurkak emasdi boqishlaring
Kipriklaring bunday nam...
Qani sidir yoshlaringni oppog‘oyim bu yerlardan ketaylik.

BASHIR OYVAZO‘G‘LI

(1946-yilda tug‘ilgan)

UYLAR VA DEVLAR

Bosh aylanar jiyda hididan ko‘chani kezar-kezmas
Va kichik yog‘och uy eshigi qo‘sh qanotli
Momom yolg‘izlikni bobom to‘qir
Bir juft hojilaylak mo‘rida taqir-tuqir
Derazada rayhon odam ehtiyot rayhon.

Javonlarda momomning devlari va jinlari
Kecha-kunduz demay uxlarlar xurillab
Yog‘ochlari to‘kilgan barcha eski uylarning
Jovonlari chuqur qorong‘u quduqlardir
odam odam quduqlar.

Xizr Ilyos Iskandar qorong‘u quduqlarda
Iztirob-la izlarlar eliksir obi hayotni
O‘limni o‘ylamaslar oh hozirgi bolalar
O‘lim lug‘atlardan sidrilgan bir kalima
O‘limsizlik o‘limni o‘ylay olmaslik.

Va bir kun uyg‘ondilar devlar, jinlar, yovuz ruhlar
Bo‘y bermas bo‘ldi jiyda, laylaklar ko‘chib ketdi
Momomning jon qushi pir etib uchib ketdi.
Yotqizdilar momomni yuvish taxtasiga
Va devlar, jinlar, yovuz ruhlar, shkaflar
Yig‘ladilar momomlab
Momom-o‘v, momom-o‘v, momojonim-o‘.

Xudo saqlasin momomning inja jasadiga
Bir lahza ko‘zim tushib yuvgich taxtaga
O‘zi saqlasin yuvgich taxta
O‘limni o‘ylatar
O‘ylayman o‘limni.

BEHCHAT OYSAN

(1949–1993)

YOLG‘IZ ANOR NIHOLI

Yog‘och pardali tosh uying
Derazasi anor niholiga qarardi
Qadimiy terskay nishabida
Shoxlari osilgan yolg‘iz anor niholi.

O‘n besh yil avval
O‘sha yolg‘iz nihol tubida
O‘tirib kelajakni so‘zlaganimiz
Bolalar hozir yo‘q.
ko‘pi boshqa
kKo‘chalarda.

O‘n besh yil so‘ng
O‘sha yolg‘iz anor tubida
O‘tirib o‘yladim shularni
Sochlarimga oqlar tushirgan
og‘ir kunlarni.

Chet mahallalarni
Chaqaloq o‘lim shiddatini
Bola ishchilarni
bir boshqa
bolalar
Turkiyani so‘zlagaylar.

ABU BAKR ERO‘G‘LI

(1950-yilda tug‘ilgan)

OLDI SAMURG‘ ELCHISI: QO‘SHIQ

Sayyid Nabi bizga qoldirdilar bir gul
Qanotlarin qoqib suziluvchi kun
Qancha yuraklarga kuch beruvchi xushbo‘y
Sayyid Nabi bizga qoldirdilar bir gul.

Biz-chi doim eshik oldidamiz
Bekilsa-da olti qora parchasi
yettinchidan bir yo‘l bir iz topamiz
Sayyid Nabi bizga qoldirdilar bir gul.

OTA UY

Suvsizlikka hatto chidamli chashmalar marmarida
Qancha yil bo‘lsa necha yil
Bizning qo‘ltig‘imiz qo‘limiz bog‘lansa
Yurak derki
Men unga boqaman to‘ppa-to‘g‘ri
Bir ishim bor
Boqayotganim
Boqib ochilganim
Ochilib qanotlanganim.
Shu qadim dunyoning Istanbulida
Birini kutar kabi turdi og‘ochlar
Men chiqqan sabohda tikilguncha qarshimga
Na tushdi meni na irg‘itdi uylar
Talon etilgan bog‘larga qo‘ngandi go‘yo
Va eshiklarida talosh

Va yelib-yugurishlar
Hech bir xabar kutmayotgan kabi insonlar
berilgan
eskirgan
berilgan eskirgan har xabar
Ko‘pdan yo‘qotgan barakotini
Ko‘plarimiz qarab qoldilar
Bir ko‘rinib g‘oyib bo‘ldi yarqiroqlik bilan
Janub mevalarin xush bo‘yi
Faqat ul tortib o‘girar bizni deya
Ozoda bir o‘rmon tilasam
Junjikkan kishiga shu’la
Chanqagan odamga suv.

MUNDARIJA

XX asr turk shoirlari ovozi *(Adhambek Alimbekov)*.....3
Rizo Tavfiq *(Tohir Qahhor tarjimalari)* 8
Uching, qushlar 11
Onadoli 11
Tavfiq Fikrat ruhiga 13
Qalandariy 13
G'arib holat 14
Tanish go'zal 15
Shomi g'aribon 15
Kel, darvesh 17
Tavfiq Nayzan *(Tohir Qahhor tarjimalari)* 19
Falak 20
Bayt 20
Qarilik va yoshlik 20
Pul 21
Keldim 21
Sen 21
Seni kim deb so'rasam 22
Rajab Hifziy *(Tohir Qahhor tarjimalari)*
Bechora boyqush 23
Marhumaning javobi 25
Chechaklar 27
Bumidir 30
Yor, aylan-aylan 31
Oshiq Vaysal *(Karim Bahriyev tarjimalari)*.....32
Qora tuproq 33
Ishda hiyla, so'zda yolg'on bo'lmasa 34
Dunyoda tuganmas murod bor emish 35
Do'stlar meni xotirlasin 36
Alloh birdir, payg'ambar haq 37
Aslimga qorishib tuproq bo'lguncha 38
Meni xor bilma, qardoshim 39
Qirq yoshimdan keyin qalbimda ilhom 39
Majnun kabi ovvoraman bu cho'llarda 40
Mamlakatda doston bo'ldim 41
Subhidam bir go'zal ko'rdim 42
Sollanib ketarsan, bo'yingni ko'rdim 43

Sen bir jayron bo'lsang 43
Sening yo'lingda, yo'lingda 44
Siz sog' bo'ling, biz salomat ketaylik 45
Eng so'nggi she'r 46
Turkmiz, turkni chaqiramiz 46
Turli-turli sado berar og'ochlar 47
Arjumand Behzod Lov *(Rauf Parfi tarjimalari)*
O'liklar bir-birining ustida 49
Ehromning tubi 50
Tamg'a 50
Meni oppoq xonimning yoniga ko'mgil 50
Shapaloq 51
Behchat Kamol Chog'lar
Istayurmen *(Rauf Parfi tarjimasi)* 53
Dumli she'r *(Rauf Parfi tarjimasi)* 54
Ko'rishdi ketdi *(Tohir Qahhor tarjimasi)* 54
"Otingni qo'shdim peshonam yozuviga"
(Yo'ldosh Eshbek tarjimasi) 55
O'qtoy Rifat Xo'rozchi *(Miraziz A'zam tarjimalari)*
Minnatdorlik 57
Qoracha Ahmadning qabri 58
Ramazon 58
Gina 58
Qaldirg'och 59
Non va yulduzlar 59
Ozodlikning qo'llari bor 59
Mening xanjarim 60
Tut daraxti 60
Qaldirg'och bo'lib 60
U o'ldi 60
(Fayzi Shohismoil tarjimalari)
Qaldirg'och 61
Qizgina 61
Istanbul qo'shig'i 61
So'ngso'z 62
Qushdayin 63
Turkanga marsiya 63
Fozil Husnu Dog'larja
Saqla *(Xurshid Davron tarjimasi)* 64
Yomg'ir qochog'i *(Xurshid Davron tarjimasi)* 64
Men senga qarzdorman *(Xurshid Davron tarjimasi)* 65

Shunday bir sevgi *(Abdulatif Abdullayev tarjimasi)* 66
Oyoq usti o'zini o'ldirish *(Abdulatif Abdullayev tarjimasi)*.....67
Turkchada yashamoq *(Yo'ldosh Eshbek tarjimasi)* 68
Hurriyat *(Tohir Qahhor tarjimasi)* 69
O'rxon Vali Qoniq *(Karim Bahriyev tarjimalari)*
Shahar tashqarisida 71
Oxirgi qo'shiq 72
Kulimsirayman 72
Mahzunlik 72
O'limga yaqin.....73
Tongga qadar 73
Chap qo'lim 74
Vatan uchun 74
Yolg'izlikning she'ri 74
Zavol 74
Teshik she'r 75
(Yo'ldosh Eshbek tarjimalari)
Istanbul turkusi.....75
Yo'q.....76
Oh, qayda mening yoshligim?.....76
Dengizni sog'inganlar uchun.....77
Berkbozor.....78
O'limga yaqin.....78
Anglata olmayman.....79
Ilxon Berk *(Shermurod Subhon tarjimalari)*
"Qachonki seni o'ylasam" 80
Yo'ldan o'tgan biri 81
Gul 2 81
Logos 81
Kulba 81
Go'zalliging Istanbul kabi *(Yo'ldosh Eshbek tarjimasi)* 82
Rondo *(Yo'ldosh Eshbek tarjimasi)* 82
Attila Ilxon
Saqla *(Xurshid Davron tarjimasi)* 84
Uchinchi shaxsning she'ri *(Xurshid Davron tarjimasi)* 84
Mushtipar chechak *(Xurshid Davron tarjimasi)* 85
Men senga burchliman *(Yo'ldosh Eshbek tarjimasi)* 85
Qo'lda bor huzn *(Yo'ldosh Eshbek tarjimasi)* 86
Nasimiy Chaman *(Tohir Qahhor tarjimalari)*
Dardliman 88
Nozli yorim 89

Haq uzoq emas 89
Jamol Surayyo *(Shermurod Subhon tarjimalari)*
8.10 kemasi 91
Ishq 92
Bilaman senga borar 93
Uverjinka *(Yo'ldosh Eshbek tarjimasi)* 94
Peshin *(Yo'ldosh Eshbek tarjimasi)* 94
Abdurahim Qoraqo'ch *(Tohir Qahhor tarjimalari)*
Tun oqshom 95
Oynaning ikki yuzi 96
Tanish 96
Ilon yaxshidir 97
Uch oyda tug'il, kel 97
Najot Birdo'g'an *(Karim Bahriyev tarjimalari)*
Mendan haqni so'rgan o'g'lon 99
Tajalli kunida 100
Hoy, eranlar 101
Ey yoronlar, bozorim bor 102
Johid Zarifo'g'li *(Shermurod Subhon tarjimalari)*
"Yosin o'qilgan" 103
"Xotiralar daftarida" 105
"Ha, esladim" 105
"Shoir" 105
"Naqadar" 105
Noyil Tong *(Tohir Qahhor tarjimalari)*
Ko'klam 106
Ko'zlaringga bahor kelganda 107
Suyukli oilam 108
Rafiq Durbosh *(Shermurod Subhon tarjimalari)*
To'g'ri bir ishq she'ri 109
"Unutdim" 110
"Qalbimda qon izlari" 111
"Avval ham" 111
Savol 112
"Qir gullari" 112
Qora yoz 113
Manzil 113
Jim bo'lgani 113
Ming kecha bir kunduz 113
"Olib boshin" 113
"Har kecha" 114

"Butun yillarni" 114
"Buncha kadardan so'ngra" 114
"Tog' kechaning qo'ynida" 114
"Bir meni" 115
"Har kecha" 115
"Tog'ning" 115
"Sokinlikni kutardim" 115
"Kunlarim" 115
Satrlar 116
Moviy qush *(Yo'ldosh Eshbek tarjimasi)* 117
Ismat O'zal
"Yashay bilsaydim" *(Shermurod Subhon tarjimasi)* 118
Jallodimga tabassum qilarkan chektirganim so'nggi suvrat
ortidagi satrlar *(Shermurod Subhon tarjimasi)* 119
Ko'nglimdan shu zolim shubhani ko'tar yo sen kel,
yo meni u yoqqa olgin *(Yo'ldosh Eshbek tarjimasi)* 123
Finjondagi sho'r suv *(Yo'ldosh Eshbek tarjimasi)* 124
Yahyo Oqengin *(Tohir Qahhor tarjimalari)*
Onam 126
Umidsiz salom 127
Ketadir 127
Sariqamish 127
Yusuf Xayolo'g'li *(Karim Bahriyev tarjimalari)*
Ketaman 129
Shu tog'larda qor bo'lsaydim 130
Endi ketmoqdaman 131
Shukri Qoracha *(Tohir Qahhor tarjimalari)*
Qonimga qorishdi shamolning suti 134
Yosh o'lib ketganlarga 135
Abdulqodir Inoltekin *(Tohir Qahhor tarjimalari)*
Bayramlar 137
G'urbatdan onamga xat 138
Arslon Bayir *(Omon Matjon tarjimalari)*
Siz tog'larim 140
Kun va tun 141
Bog'ing boshqacha 142
Seni o'ylab 143
Xotiralar 144
Yangidan yangi 144
Fayyoz Sog'lom *(Tohir Qahhor tarjimalari)*

Ruboiylar
"Majnunning she'rda qolgan izi o'zim bo'lsaydim" 147
"Uzoqdan yorga boqmoq yaqinmi-uzoqmidir" 147
"Bir telba dengizki, bizim Qora dengiz bo'lsa kerak" 147
"Nega ters oqdi nahr" 147
"Yonar ko'nglim, sevinar — bog'larda mo'l nor bo'lur" 148
"Nizomiy bir botmagan quyosh, eng oliy devon" 148
"Ko'zlaring ufqimdagi nurmi, tovush, havasmi" 148
"Bu shahar muncha go'zal, bilmam — quyoshmi, oymi" 148
Usmon Bosh *(Tohir Qahhor tarjimalari)*
She'riyat bayrami 149
Xori bulbul 150
Sunay Oqin *(Shermurod Subhon tarjimalari)*
Bulut 152
Butoq va qush 152
Chumchuq 153
Chumchuq va mushuk 153
Birlik 153
Cho'pon 154
Ayriliq 154
Qilich va qalam 154
Taksi 154
Yolg'izlik 155
Kaska 155
Nuqtali vergul 155
Bir joyga 156
"Qanday qizg'onmay" 156
"Hidi" 157
"Yarmini" 157
Bejon Vaysal Yulduz *(Tohir Qahhor tarjimalari)*
Onam 158
Sariq gul 159
Qalamim qon yig'laydi 159
Metin Turon *(Tohir Qahhor tarjimalari)*
Tilak 160
Zahar 161
Mushuk 161
Bayram Turbilmas *(Tohir Qahhor tarjimalari)*
Men meni izladim 162
Yo'lchilik 163
Tilaklarimiz 164

Tug'rul Tanyo'l *(Shermurod Subhon tarjimalari)*
Suvdagi anqo 165
Dengiz kechasi 167
"Bir kun" 168
Zamonsozlik holi *(Yo'ldosh Eshbek tarjimasi)* 169
Zamon to'zonlari *(Yo'ldosh Eshbek tarjimasi)* 169
Mehmet Nuriy Barmoqsiz *(Tohir Qahhor tarjimalari)*
Adolat 171
Qush 172
Anqara 172
Parda 172
Suzgichdan o'tgan qayg'u 173
Yig'layotgan Mansur 174

"TURK SHE'RIYATI ANTOLOGIYASI" dan
(Yo'ldosh Eshbek tarjimalari)
Ahmad Hoshim
Kun so'ngidagi orzu 175
Hovuz 175
Shukufa Nihol Bashar
Buzma xonani 176
Onado'li ayollariga 176
Ali Mumtoz Oro'lot
Bir kema 178
Bu oqshom 179
Ismoil Homit Donishmand
Qit'alar 180
Foruq Nozif Chomlibel
G'urbat 181
Qizil sochlar 183
Cho'pon chashmasi 184
Xolid Faxri O'zansoy
Bir soat jiringlar 186
Tush 186
O'rxon Sayfiy O'rxon
Uch dunyo 188
Vido 188
Yusuf Ziyo O'rtosh
Bir shamol 189
Uyim 189

Boshqa ellarda.....190
Qo'shma.....191
Anis Baxich Qo'ryurak
Xotira.....192
Bir janoza voqeasi.....192
Ikkinchi borliq.....193
Jamol Yashil
Ey Vatan!.....194
Xolida Nusrat Zo'rlituna
Yo'l bo'ylab misralar baxsh etmoq.....195
Ket, bahor.....196
Ahmad Qudsiy Tajar
Tabiat xonam.....198
Qaydasan?.....199
Shamol.....199
Xoloy.....200
Ahmad Hamdi Tanpinar
Moviy.....202
Ichidaman.....203
Sekin-sekin.....203
She'r.....204
Salom bo'lsin.....205
Kamoliddin Kamu
Bir yo'lovchiga.....206
Soyabon oqshomi.....206
Yolg'izlik.....207
G'urbat.....207
Kuz.....208
"Uning ko'ngil xush etmog'i..."".....208
O'rxon Shoiq Ko'kyoy
Qorishiq.....210
Ul kun bul kundir.....211
Zaki Umar Dafna
Sohildagi kema.....213
Qo'ng'iroq.....214
Qaydan kelursan?.....215
Orif Nihot Osiyo
Bir bayroq.....216
Doston.....217
Devlar.....218

Bola va nihol....219
Fath marshi....220
Umar Badriddin Ushoqli
Dengiz hasrati....222
Bursada oqshom....222
Sabri Asad Siyovushgil
"Labingda so'zing — yapon piyolasin jarangi..."....224
Safar....224
Xonalar va so'rilar....225
Javdat Qudrat So'lo'q
Sayohat....227
Tuproqqa bog'liq....227
Vasfi Mohir Qo'jaturk
Iztirob....228
Yashar Nabi Nayir
Qoracha Ahmadda oqshom....229
Ahmad Muhiyb Dironas
Serenada....230
Ul vido....231
Shahrim ustidan o'tgan bulutlar....232
Asof Holat Chalabiy
Ibrohim (a.s.)....234
Nirvana....235
Mansur....235
Mamlakatim....236
Istanbulimning tili....237
Sabohiddin Ali
Ma'yuslik....238
Qo'shma....239
Mustafo Sayid Sutyuven
Sutyuven....240
San'at....242
So'nggi gazmol....242
Munis Foiq O'zansoy
Icharanko'ydan....244
Shikoyat....245
Johid Sidqi Taranji
Derazamdan ketmasin quyosh....246
San'atkorning o'limi....246
Mamlakat....247
Minoralar....247

Yolg‘izlik....248
Tushdan go‘zal....248
Abbos....249
Ishq....249
Ziyo Usmon Sabo
O‘tgan zamon....250
Ehson yo‘li va kabutarlar....251
Nafas olmoq....251
Badri Rahmiy Ayyubo‘g‘li
Turkular....253
Jon qushi....256
Osmon taqdimi....256
Bir yoz o‘tdi....257
Jo‘shqun Ertapinar
Molozg‘irtda porlagan kun....258
Bog‘laringda gullar ochilsin....259
Tabassum bilan tongga ochilmoq....259
Malih Javdat Anday
Urug‘....261
Oromi buzilgan daraxt....262
Tezgoh....262
Aloturka....263
Jalol Siloy
Sinov....264
Hoziron — iyun she’ri....264
Boqiy Syuxo Adibo‘g‘li
Yolg‘iz daraxt....266
Kechmish yomg‘iri....266
Ishq turkusi....267
Baxchat Najotigul
Barbaros maydoni....269
Uylar....270
So‘lg‘in bir gul....272
Abdol....273
Johid Irgot
Shamollar bo‘ylab....275
Bulut....276
Johid Kulabiy
Hikoya....277
Sivas yo‘llarida....278

Shamol 278
Yurtim 279
Elxon Gachar
Balki 281
Melonxoli 281
Fasllar armug‘oni 282
Saloh Birsal
Sevganlarga 284
She’r darsi 285
Dunyo qo‘shig‘i 285
Jayxun Otif Konsu
Kichik bekatlarda akas daraxtlari 287
Kelar xalqning tog‘laridan 288
Ibrohim Minnato‘g‘li
Yunus Etrat 289
Qonmaslik 291
Rushtu O‘nur
Bir qo‘shiq ayt, qo‘zim 292
Dengizga serenada 292
Najotiy Jumali
Yaxshi qiz 293
Yolg‘izlikka zarba 294
Ko‘rarsan 294
Bu kecha 295
Shinosiy O‘zdano‘g‘li
Ikkimiz 296
Qayga qalbim 296
O‘limdan-da go‘zal 297
Hol so‘rovchim 297
Bu hayot biz uchun 298
Fayzi Xolichi
Vodiy teragida zamon 299
Qo‘nyo dostoni 300
Qo‘llarimga qor yog‘moqda 301
G‘urur 303
Sendan qutul, senga qoch 303
Mehmet Chinorli
Haqiqat xayoli oshdi 305
Sandalda 305
So‘rma 306

O‘zdamir Osaf
Altro 307
Pay 307
Orif Tomir
Ertadan tezi yo‘q 308
Yo‘l horg‘ini 308
Bakir Sidqiy Erdo‘g‘an
Mariya 310
Nozanin 312
Gultekin Somano‘g‘li
Ko‘z oydinlar bilan 313
Ehtiros 313
Avval qo‘llaring 314
Daraxtlar tik turib o‘ladilar 314
Ahmad To‘fon Shanturk
O‘lmagayman 316
Otajonim 317
Meni do‘stlarim o‘ldirar 318
Kim 319
Nuriddin O‘ztemir
Dostonlar ichinda Aziziya 320
Vatan 321
Uzoq Istanbul 321
Turgut Uyar
Turkiyam 323
Ko‘kka boqish qarorgohi 324
Bevaqt uyqulardan 325
Ahmad Orif
Sog‘inchingdan kishanlarni to‘zdirdim 326
Oyxon Xyunalp
Ne qolur ortda 327
Bulutlar 327
Metin Elo‘g‘li
Tog‘a 329
Myuzxat Arman
Hashar 331
Adib Jonsevar
Portlash 333
Meduza 333
Arjumand Uchariy
Ud 335

Sehr-jodu 335
Sakkizinchi men 336
Albatros oti bir kun kelgay 336
Niyoziy Yildirim Gench Usmono'g'li
Rum g'oziylari 338
O'tmishdan kelajakka 341
Mustafo Najotiy Qaroyer
Eshiklar 343
Ranglar uyqusi 344
Istanbul darvozalarida 345
Karim Oydin Erdam
Oshiqlar shunday so'zlar 348
Sevmoq qochmoq emas 348
Bolaligimdan lavhalar 349
Bahotdin Qorako'ch
Uzoqlar turkusi 351
Tal'at Said Xolmon
Ertangi sevgi 354
Uskidor 354
Acha Oyxon
Arablar poygasi 356
Dengiz sohilidagi she'r 356
Fayton 356
Turon Oflazo'g'li
Husn va ishq 358
Sevganda go'zal 358
O'zkar Yashin
"Bir bo'ron uchirdi" 359
Sazoyi Qorako'ch
Mona Roza. Ishq va iztirob 360
Ko'pqavat uy ayvoni 362
Gultan Oqin
Qaytadan 364
Uzuq-yuluq 365
Kamol O'zgar
Ko'p eshkakli kema 366
G'arib vaqt 366
Hilmi Yavuz
O'lim va zamon 368
Tan 369

Yavuz Bo'land Boqilar
Lolali Oqsaroy 370
Sivasda yo'qsil bolalar 371
Shoshib qoldim 372
Qoq yarim tunda yolg'iz bir kishi 373
O'zdemir Inja
Uning nomi bilan boshlayman 374
Ulku Tamer
Qari kabutar 377
Yozning bitgani 378
Turkon Ildeniz
Ma'lum haqiqat 379
Xisrav Hotamiy
Umid va nogironlik 380
Ishqqa raddiya 380
Erdam Bayozid
Qor ostidagi huzn sinovi 382
Yo'qday yashamoq 382
Johid Zarifo'g'li
Oyna 384
Yuksal Bozorqoya
So'z 385
Tangriga 385
Oshiq, shoir, o'zan 386
Otaol Bahromo'g'li
Har narsada she'r bor 387
Unutdim 388
Dilovar Jebachi
Issiq joylar 389
Bashir Oyvazo'g'li
Uylar va devlar 390
Behchat Oysan
Yolg'iz anor niholi 391
Abu Bakr Ero'g'li
Oldi samurg' elchisi: qo'shiq 392
Ota uy 392

T 89 Turk zamonaviy she'riyati antologiyasi [Matn]: nazm/to'plovchi va nashrga tayyorlovchi Tohir Qahhor. – Toshkent: "O'zbekiston nashriyoti", 2022. – 408 b.
ISBN 978-9943-8725-1-6

UO'K 821.512.161-1
KBK 84(5Turk)-5

TURKIY ADABIYOT DURDONALARI

TURK ZAMONAVIY SHE'RIYATI ANTOLOGIYASI

54-jild

Adabiy-badiiy nashr

Muharrir *Sunnat Xo'jaahmedov*
Badiiy muharrir *Shuhrat Mirfayozov*
Dizayner *Bobur Tuxtarov*
Texnik muharrir *Yelena Tolochko*
Kichik muharrir *Zilola Mahkamova*
Musahhih *Zulfiya G'ulomova*
Sahifalovchilar: *Shahlo Buriyeva, Islom Azamatov*

Tasdiqnoma raqami № 4642. 22.07.2020-y.
Bosishga 18-oktabr 2022-yilda ruxsat etildi. Bichimi 60x90 $^{1}/_{16}$.
Ofset qog'ozi. "PT Astra Serif" garniturasida ofset usulida bosildi.
Shartli bosma tabog'i 25,5. Nashriyot-hisob tabog'i 18,21.
Adadi 1 185 nusxa. Shartnoma № 121-1/22 Buyurtma raqami № 22-337

Original maket O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining "O'zbekiston" nashriyotida tayyorlandi.
100011, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.
Telefon: (71) 244-34-38, (71) 244-24-91.

"O'zbekiston" NMIU MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: 100011, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.

TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI

TURK ZAMONAVIY SHE'RIYATI ANTOLOGIYASI